



Taqiqot.uz



АНДУМАН | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
ДЕКАБР
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 47-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 205 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР**

1. Karimova Nargiza Abdugafurovna	
O'QUVCHILARDA KASB TANLASH VA KASBGA YO'NALTIRISHNING	
PEDAGOGIK ASOSLARI	12
2. Avezmetova Manzura, Shermetova Dilafro'z	
KITOBXONLIK - MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR	14
3. Babadjanova Dilnoza, Egamberganova Mehribon	
ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	16
4. Ibadullayeva Muyassar, Do'schanova Orzigul	
KITOBXONLIK - MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR	18
5. Jumaboyeva Xolida, Xakimova Farida	
TASVIRIY SAN'AT FANINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI	20
6. Qurbanova Nilufar	
TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH	21
7. Sobirova Yulduzzon Quronboyevna, Avazova Zulfiya Kanjayevna	
TABIYI FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR	22
8. Sultonova Dilfuza Yusupovna	
BUGUNGI TA'LIM, ERTANGI KELAJAK SARI.....	24
9. Xusainova Sharofat, Sultonova Dilfuza	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHNING	
MAQSAD VA VAZIFALARI	26
10. Urazbaeva Nag'ima Rimbay qizi	
BIOLOGIYA DARSLARIDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	28
11. Janiyeva Zuhra Eshnazarovna, Axmetova Karligash Adbullaevna,	
Muqumova Ilvira Saidovna	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA ERTAKLARNI O'RGATISH BO'YICHA INTERFAOL	
USULLAR	30
12. Axmedov Alisher Muminovich	
DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI DARSLARIDA PEDADGOGIK	
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	32
13. Axmedova Mehribon Erkinboyevna	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MIQDORIY O'LCHOVLAR BILAN	
TANISHTIRISH	33
14. Azimova Mastura Abduraimovna	
BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA FANLARARO INTEGRATSİYALASHUV.....	35
15. Bobojonova Umida, Bobojonova Moxira, Ataniyozova Umida	
KITOBXONLIK - MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR	37
16. Dushanova Dilafruz Nomozboyevna	
COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING IN TEACHING ENGLISH.....	39
17. Eraliyeva Gulchehra Bosimbekovna	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASH ASOSIDA	
BILIMLARINI OSHIRISH USULLARI.....	41
18. Esirgapova Xulkar Sayfiddinovna	
DARSLARDA INTERFAOL TA'LIM METODLARI.....	43
19. Fazilova Nursipat Seilxan qizi, Jubangaliyeva Fariza Yergaliyevna	
TA'LIMDA O'QUVCHI SHAXSINI FIKRLASHGA QARATILGAN USULLAR	45
20. Jahongirov Izzatillo Hamza o'g'li, Safarov Oybek Fayzullayevich	
"USTOZ-SHOGIRD" TIZIMINI AMALGA OSHIRISH OMILLARI	47



21. Jalilova Zebiniso Esanovna, Farmonova Nilufar Qutbiddinovna	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA BERISH XUSUSIDA.....	48
22. Jo'rayeva Nozimaxon Halimjonovna	
UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORI.....	50
23. Jumaniyozova Mavjuda	
BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA ADABIY TAHLIL.....	51
24. Madeshev Talg'at Sanaqulovich, Qayipova Gulzira Baqtibayevna	
O'QITISHDA INTERFAOL USLUBLAR VA YANGILIK YARATISH BO'YICHA TAVSIYALAR	53
25. Matchanova Orzигул, Qurbonova Dildor	
MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYA ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	56
26. Matkarimov Sardorbek	
HUQUQIY DAVLAT VA FUKAROLIK JAMIYATINI QURISHDA BARKAMOL AVLOD TARBIYASI	57
27. No'manova Maxfuzaxon Murodillayevna	
MAKTABDA BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITISHDA ELEKTRON TAQDIMOTLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	59
28. Ismailova Muyassar Saparboyevna	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH MEODIKASI	61
29. Jumaniyazova Nilufar Sobirovna	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH	63
30. Nurjanova Perdegul Yermaxanovna	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI XALQ OG'ZAKI IJODIDAN TOPISHMOQ VA ERTAKLARNI O'RGATISH BO'YICHA TAVSIYALAR	66
31. Qirg'izova Sayyora Abdullayevna, Nurmatova Zirofat Ergashboyevna	
PEDAGOGIKADA MUOMALA VA MAHORATNING AHAMIYATI	68
32. Reimbayeva Muxayyo, Qodirova Dinora	
BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI	70
33. Кодирова Насиба, Адамбаева Гулбахор	
ДАРС ЖАРАЁНЛАРИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ	72
34. Ro'zimurodov G'anisher, Raxmonov Feruz	
YOSHLAR – BUGUNGI VA ERTANGI KUNNING HAL QILUVCHI KUCHIDIR	74
35. Qobulova Nasiba Ro'zmat qizi. Saparova Aziza Yusupboyevna	
BOSHLANGICH SINF TARBIYA DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODI NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO'LLARI	78
36. Дадабоева Шахноза, Дадабоева Кумуш	
ДАРС ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИНГ КЎЛЛАНИЛИШИ	80
37. Отажанова Ширин, Рахимова Замира	
БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ КАСБИЙ МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНИШИДА НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ	82
38. Sharipova Madina Ismailovna, Raximova Hilola Olimboyevna	
INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING BILIM VA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USLUBIYOTI	84
39. Одилова Малоҳат Расулжон қизи	
ПЕДАГИК АТАМАЛАРНИНГ АМАЛИЁТДА ҚЎЛЛАНИЛИШИНИНГ НАЗАРИЙ МЕТОДОЛОГИК ТАҲЛИЛИ	85



40. Одилова Малоҳат Расулжон қизи	
ТАРИХИЙ ЁНДАШУВЛАР АСОСИДА ПЕДАГОГИК АТАМАЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТАРИХИ	87
41. Tosheva Dilchiroy Bo‘ronovna	
KIMYO FANINI O’QITISHNING INNOVATSION USULLARI.....	89
42. Tursunova Gulhayo Ro‘ziqul qizi	
YOSH AVLODNING AXLOQIY TARBIYASIDA BUYUK MUTAFAKKIRLARNING МА”НАВИЙ МЕРОСИНинг АҲАМӢЯТИ	91
43. Turumbetova Zamira Yusupbayevna	
HUMANISTIC PARADIGM OF EDUCATION AND UPBRINGING: POLISH EXPERIENCE OF IMPLEMENTATION	93
44. Xudoyqulova Nilufar Ummatovna	
“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI OBRAZLAR VA HIKOYATLARNING BADIY XUSUSIYATLARI	96
45. Yerbeketova Madina Maralovna	
QOZOQ TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	98
46. Ибрагимова Шахноза Баходировна, Ибрагимова Нилюфар Адхамовна	
КЎП ОВОЗЛИ ҚЎШИҚ МАЛАКАЛАРИНИ ЎСТИРИШ АСОСЛАРИ	100
47. Қучқарова Нигора Фарҳод қизи. Яхшимуротова Адиба Илҳомовна	
ДАРС БЕРИШ ТУРЛАРИ ВА ЖАРАЁНИНИ ФАОЛ ТАШКИЛ ЭТИШ.....	101
48. Азамат Назаров	
РАҲБАР ФАОЛИЯТИ ҶАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШНИНГ ЭТНОСПИХОЛОГИК ВА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК ТАҲЛИЛИ	103
49. Расулов Одил Абдиахадович, Насимова Нигира Тойировна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	105
50. Abdiraukova Aru Maratovna, Keulimjayeva Aytotı Talgatovna, Burikulova Gulmira Amirxanovna	
BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O’QUVCHILARNI AMALIY VA NAZARIY BILIMLARINI OSHIRUVCHI USULLAR	107
51. Abdirimova Oqiljon Ozodboyevna, Jumaboyeva Shahsanam Narimanovna	
TIL MILLATNING RAMZI	109
52. Abdiyev Aslam Sharopboyevich	
KIMYO VA BIOLOGIYA DARSLARIDA INTEGRATSIYA	111
53. Abdurasulova Nargiza Uskanovna	
BOSHLANG‘ICH TA’LIM O’QUVCHILARIGA BILIM BERISHDA PISA XALQARO BAHOLASH DASTURIDAN FOYDALANISH USULLARI	113
54. Ачилова Нигора Сайдуллаевна	
ПРИМЕНЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ НРАВ- СТВЕННЫХ КАЧЕСТВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА	115
55. Agzamova Nafisa Ibroximovna, Bobomurodova Dinara Vladimirovna	
FANLARARO INTEGRATSIYA VA UNING TA’LIM TIZIMIDAGI ROLI	116
56. Aliyeva Mukhlisakhan Talibovna, Mirkasimova M.B	
ADVANTAGES OF BEING BILINGUAL AND LANGUAGE LEARNING PLANNING	118
57. Allamova Zulfiya Masharipovna, Madaminova Iroda Sadullayevna	
O’QITISHDA “BUMERANG” TEXNALOGIYASINING AXAMӢЯТИ	120
58. Amrulloyeva Marjona Farxod qizi	
ONA TILI FANINI O’QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.....	121



59. Ashilova Altinay Duysinovna, Jabbarov Sundet Berkinbayevich	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHILARNING HAMKORLIKDALIGI FAOLIYATI DAVOMIDA QO'LLANADIGAN METOD VA O'YINLAR	123
60. Atadjanova Gulnora Egamberganovna	
BIOLOGIYA DARS MASHG'ULOTLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	126
61. Atajonov Mansurbek Matchanovich, Annamurotova Zeboxon Kuziboyevna	
TA'LIM JARAYONIDA MEDIASAVODXONLIK	127
62. Babadjanova Dildora Shanazarovna, Sharifova Nafosat G'ayrat qizi	
BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA O'QISH TURLARI VA BUNDA QO'LLANILADIGAN METODLAR.....	129
63. Badirdinova Maftuna Qurbon qizi, Axtamova Anora Baxtiyorovna	
BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ULUSHGA OID MAVZULARNI O'TISHDA "TUSHUNCHALAR T AHLILI" METODIDAN FOYDALANISH	131
64. Beknazarova Muattarxon Nosirovna	
ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	133
65. Berdiyeva Gulnora Toshmurotovna	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA BOSHQOTIRMALARDAN FOYDALANISH.....	135
66. Bobojonova Havogul Azamatovna	
ONA TILI DARSLARIDA "QÒSHMA GAPLARNING TUZILISHIGA KÒRA TURLARI" MAVZUSINI O'ITISHDA "QIZIL VA YASHIL RANGLI KARTOCHKALAR BILAN ISHLASH" METODI	137
67. Bobojonova Oltin Otoxonovna, Otajonova Muqaddas Satimovna	
KIMYO DARSIDA SUV VA UNING XUSUSIYATLARINI O'RGATISH METODLARI.....	138
68. Djalg'asova Zibagul Fazilovna, Dosanova Janayim Aymaxanovna, Qurbanbayev Turexan Saribayevich	
BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ELEKTRON DARSLIK, AKT VA MULTIMEDIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	140
69. Boymatova Muqaddasxon Muhamadaliyevna	
BOSHLANG'ICH SINFLARDA MOSLIK TUSHUNCHASI, MOSLIK USTIDA AMALLARNI O'RGATISH	142
70. Davlatova Sohiba Xotamovna, Berdiyeva Durdona Saydullayevna	
ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYALARНИ SHAKLLANTIRISH. DARSLARNI CHET TILI BILAN BOG'LAB TASHKIL ETISH USULLARI.....	143
71. Karimova Nargiza Abdugafurovna	
O'QUVCHILARDA KASB TANLASH VA KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI	145
72. Egamyarova Zumrad Matqurbonovna	
BOSHLANG'ICH SINFDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI O'QUVCHILAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH	148
73. Elmurodova Adolat Asadovna	
BOLA PSIXOLOGIYASINI O'RGANISH-PEDAGOGIK MAHORAT!	149
74. Ergasheva Irodaxon Abdumalikovna	
KIMYO DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	151
75. Ergashova Zilola	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING OG'ZAKI VA YOZMA NUTQINI O'SТИRISH USULLARI	153



76. Yerekeyeva Jenisxan Kaskirbayevna, Yeskabulova Elvira Abdisalimovna	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	155
77. Eskabulova Guljajna Xamitovna, Kostanbayeva Mariya Aldabergenovna	BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV USULLARI.....	157
78. Fayziyeva Xadicha Mardonovna, Berdanova Sojida Sunnatilloyevna	TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI.....	159
79. G'ayipova Nafisa Baxtiyorovna, Xudayberganova Durdona Bekchanbayevna	KIMYO VA ONA TILI FANLARIDA - “KONSEPTUAL JADVAL” METODI	161
80. Gulnoza G'iyoysheva Nuraliyevna	BIRINCHI SINFDA UNLI TOVUSHLARNI O'RGATISH	162
81. Haitova Rayhon Shokir qizi, Abdullayeva Mahliyo Botirboy qizi	INGILIZ TILI FANINI O'QITISHDA “BILIMLAR UYI” ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH.....	164
82. Ishpulatova Matluba Xoshimovna, Ochilova Dilafruz	TABIYY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH	166
83. Ismaylova Kenjegul Ashirbekovna, Miraliyeva Aqyerke Aristanbekovna	QOZOQ TILI DARSLARIDA GRAMMATIK MAVZULARNI O'QITISH USLUBIYATI	168
84. Ismoilova Mohinur Madiyarovna, Jumaniyazova Baro Aminboyevna	O'QUVCHINING PSIXOLOGIK XOLATINI YAXSHILASH VA DARSGA NISBATAN MUNOSABATINI MUVOFIQLASHTIRISH.....	170
85. Ismoilova Oysuluv Hamid qizi, Inoyatova Qunduz Jo'raboy qizi	O'QUVCHILARNI MASALALAR YECHISHGA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TAYYORLASH	171
86. Ismoilova Shakarjon Xudoybergnovna, Otaboyeva Go'zal Yunusjonovna	BIOLOGIYA VA FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH	173
87. Jubayeva Asem Kidirbayevna, Aliyeva Zarifa	BOSHLANG'ICH SINFLARDA BILIM VA KO'NIKMALARNI BAHOLASH STRATEGIYALARI	174
88. Jumabayeva Shohista Raxmatullayevna, Polvonova Zubayda Ko'palboyevna	ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH	176
89. Jumamuratova Farog'at Baxramovna, Yo'ldasheva Zaynab Erkinboyevna, Masayidova Zulfiya Shamuradovna	BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH	178
90. Jumanazarova Feruza Baxromovna, Samigullayeva Zarnigor Farid qizi	KIMYO DARSLARIDA O'QUVCHI SHAXSIGA YO'NALTIRILGAN PEDAGOGIK-INNOVATION TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING SAMARASI.....	179
91. Жуманиязова Мукаддас Тахировна	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА	181
92. Jumaniyozova Zumrad Arslonbekovna, Turayeva Adolat Masharipovna	BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALARNI TENGLAMA ASOSIDA ISHLASHNING OSON ULLARI.....	182
93. Junisova Aygul Aydarbekovna, Kushekova Aqmaral Shamshetovna	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TA'LIM SIFATINI BELGILOVCHI OMILLAR	184



94. Jusipova Gulzat Yedilovna, Xaydarova Gulhayo Nurmon qizi TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH VA ULARGA BUGUNGI KUN TALABI	186
95. Kalandarova Mohira Amanbayevna ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI	188
96. Kamiljanova Shamsiqamar Davronbek qizi, Matniyazova Marxobo Amanboyevna KIMYO DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI.....	189
97. Kamalova Gulnora Jumabayevna O'ZBEKİSTONDA BIOTEXNOLOGIYALAR VA GEN MUHANDISLIGI	191
98. Karimova Maqsuda Bahodirovna, Ro'zmetova Guliston Baxtiyorovna BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA "BILIMLAR XOVUZCHASI" INTERFAOL METODIDAN FOYDALANISH.....	193
99. Karimova Mavludaxon To'xtasinovna INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY DARSLARDAN FOYDALANISH	195
100. Karimova Nilufar Abdurashid qizi, Muxtorova Gulzoda Izzatilla qizi DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI DARSLARNI TASHKILLASHTIRISH	197
101. Karimova Sevara Matkarim qizi, Saidova Dilnozaxon Baxtiyarovna, Kuljanova Farida Kamilovna UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA FANI MAZMUNI VA O'QITISH	199
102. Madaminova Saida Rajabovna RUS TILI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLARNI QO'LLASH	201
103. Madaminova Mashhura Abdullayevna NEMIS TILI FANINI O'QITISHDA OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ BOYLIGIGA ERISHISH.....	202
104. Maxmudova Dilnoza Jumanaliyevna, Ermatova Nigora Murotaliyevna, Maxmudova Dilshoda Shuhratovna ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL USULLARNI QO'LLASH ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH	204



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

О`QUVCHILARDA KASB TANLASH VA KASBGA YO`NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Karimova Nargiza Abdugafurovna
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti p.f.f.d.,
(PhD) dotsenti v.b

O`quvchilarda “Odam va uning salomatligi” fanining kasb tanlashga yo`naltirilgan metodikasi muhim hisoblanadi, ammo bu haqida gapirishdan oldin kasb tanlash, kasb tanlash mezonlari haqida ham ma`lumotga ega bo`lishimiz kerak. Ta'lim – tarbiyada axborot tizimlarining asosiy vazifalari – bu o`rganilayotgan ob`ektga tegishli barcha axborot resurslarini eng maqbul boshqarish usullari yordamida iste'molchiga kerakli bo`lgan axborotlarni ishlab chiqish va ulardan ta'lim ob'ektni boshqarishda foydalanish uchun axborotli va texnikaviy ta'minot muhitini yaratishdir. Kasbga yo`naltirish – mohiyat va samaradorlikni baholash ko`rsatkichlariga ko`ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo`naltirishni hal etish vazifalari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatta ega muammomdir.

Kasb tanlash - hayotdagi qiyin va mas'uliyatli qadamdir. Kelajakdagagi kasbingizni tanlashni tasodifga qoldirmang. Kasb-hunarni o`z qobiliyatini, ichki e'tiqodini, real imkoniyatlarini inobatga olgan holda, barcha ijobjiy va salbiy tomonlarini o`rgangan holda, ataylab tanlash kerak. Ko`ngilsizliklarga olib kelmaslik uchun kasb uchta asosiy mezonga javob berishi kerak:

- kasb qiziqarli bo'lishi, sizning xohishingizga, maylingizga mos kelishi kerak;
- o'z imkoniyatlaringizga mos kelish (sog'lik darajasi, malaka va qobiliyatlar);
- mutaxassislik bo'yicha ishga joylashish istiqbolini ochish.

Shu maqsad bilan o'zingizni chuqurroq o`rganing: qiziqishlaringizni (sizni sevimli mashg'ulot sifatida nima qiziqtiradi va nima kasbga aylanishi mumkin), moyilliklaringizni, xarakteringizning xususiyatlarini va jismoniy imkoniyatlarini tushuning.

- O'zingizning kuchli va zaif tomonlaringiz, asosiy va ikkinchi darajali fazilatlaringiz haqida o'ylang.

- Sizning qiziqishlaringiz va qobiliyatlariningizga mos keladigan kasblarni o`rganing. Ko'proq kitoblar, maqolalar, jurnallarni o'qing. Oldindan tanlangan kasbni yoki tegishli kasblar guruhini belgilang.

- Tanlangan kasblar vakillari bilan suhbatlashing, ushbu mutaxassislarning ish joyiga tashrif buyurishga harakat qiling, tabiat va mehnat sharoitlari bilan tanishing. Qanday qilib, qayerda va qachon ushbu biznesda o'z kuchingizni sinab ko'rishingiz mumkinligini o'ylab ko'ring va harakat qiling!

- Siz tanlangan kasbingizni olishingiz mumkin bo'lган ta'lim muassasalari bilan tanishing
- Shaxsiy sifat va imkoniyatlaringizni tanlangan kasbingizning tabiat bilan solishtiring.
- Qaror qabul qilgанингдан so'ng, qiyinchiliklar oldida orqaga qaytmang. Maqsadlaringizga erishishda qat'iyatli bo'ling va onglik printsipi asosida tanlangan kasbingiz haqida chuqur o'ylab ko'ring. Quyidagilarni aniq tushungan kishi to'g'ri kasb tanlashi mumkin:u nimani xohlaydi (maqsadlarini, hayotiy rejalarini, ideallarini, intilishlarini, qadriyat yo'nalishlarini amalga oshirish); u nima (uning shaxsiy va jismoniy xususiyatlarini bilish); nima qila oladi (mayli, qobiliyat, iste'dodni biladigan); mehnat va mehnat jamoasi undan nimani talab qiladi.

Muvofiqlik printsipi: tanlangan kasb insonning qiziqishlari, moyilligi, qobiliyati, sog'lig'i holati va shu bilan birga jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlariga javob berishi (mos kelishi) kerak.

Faoliyat printsipi: siz o'zingiz faol ravishda kasbni izlashingiz kerak. Bunda quyidagilar muhim rol o'ynashga chaqiriladi: to'garaklar, bolimlar va tanlovlarda kuchni amaliy tekshirish; adabiyotlarni o'qish, ekskursiyalar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar, “Ochiq eshiklar kuni”da



ta’lim muassasalariga tashrif buyurish, o‘z-o‘zidan psixolog yoki professional maslahatchiga murojaat qilish

Rivojlanish printsipi: har qanday kasb uchun zarur bo’lgan fazilatlarni o’zida rivojlantirish zarurligi haqidagi g’oyani aks ettiradi. Bular psixik jarayonlar (fikrlash, xotira, diqqat) va quyidagi xarakter xususiyatlari: mehnatsevarlik, vijdonlilik, mehnatsevarlik, tashkilotchilik, mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, muvaffaqiyatsizliklarga chidash qobiliyati, chidamlilik, matonat haqida ham ma’lumotlarga ega bo’ling.

Kasb tanlashda xatolar va qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

- kasb tanlash qoidalarini bilmaslik;
- korxona uchun kasb tanlash;
- shaxsga bo’lgan munosabatni kasbning o’ziga o’tkazish;
- sub’ektni kasbga moslashtirish;
- yuqori malakali kasblarga bevosita yo’naltirish;
- kasb-hunar egallash yo‘lini aniqlay olmaslik;
- ularning jismoniy xususiyatlarini bilmaslik yoki kam baho berish;
- ularning psixologik xususiyatlarini bilmaslik yoki yetarlicha baho bermaslik;
- o‘z qobiliyatini kasb talablari bilan bog’lay olmaslik; Kasblar olamidan bexabarlik
- kasbning faqat tashqi tomoniga ishtiyoq;
- kasb obro’siga putur yetkazish;
- kasbning shaxsga qo‘yadigan talablarini bilmaslik;
- muayyan kasbning tabiatи va mehnat sharoitlari haqidagi eskirgan fikrlar.

Kasb-shaxsning bir xil mehnat faoliyati bilan shug’ullanuvchi ma’lum bir toifaga mansubligini ko’rsatuvchi ijtimoiy xususiyatdir.

Bundan tashqari uzluksiz ta’lim tizimini joriy etilishiga yangi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning ishga tushirilishi natijasida umumiyo o’rtta ta’lim maktablarining 11-yillik ta’limga o’tishga bitiruvchilarini ta’limning keyingi turi va bosqichiga to’liq qamrab olish samaradorligini ta’minlash mazkur jarayonlarni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror topdirish ta’lim islohatlari doirasida dolzarb masala sifatida qo’yilmoqda. O’quvchi-yoshlar o’ratasida kasb-hunarga to’g’ri yo’naltirishni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv o’z mohiyatiga ko’ra tehnalogik bo’lishi lozim. Chunki muayyan faoliyatga nisbatan texnologik yondashuv ushbu faoliyatning yaxlit jarayoni to’g’risida oldindan to’laqonli ma’lumotga ega bo’lish imloniyatini beradi. Minglab kasblar olamidan o’quvchi tanlagan kasbiy qarori bo’yicha turli vaziyatlarni oqilona baholash asosida faoliyat mazmuniga ma’lum o’zgarishlar, yangiliklar kiritib, tarbiyalanuvchilarga mavjud bo’lgan kasbiy sifatlari hisobga olish va ularni boyitish xususida qat’iy fikrga ega bo’lishi, kasb-hunarga yo’nalgaligini samaradorligini muhim omillari bo’la oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning faqarolarining aqliy jihatdan yetukligi va axloqiy salohiytining yuksak darajada rivojlanganligiga bog’liq. Asrlar davomida saqlanib kelinayotgan xalqning boy intelektual merosi hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida madaniyat, ma’rifat, fan-texnologiya va iqtisodiyotning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o’tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O’zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Shu jumladan ta’lim, ilm-fan sohasida ham bir qator o’zgarishirishlar kiritilmoqda. Bu o’zgartirishlar bevosita kelajak avlodning barkamol shaxs bo’lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПҚ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”

2. Sharipov Sh.Sh, Davlatov K, Nasriddinova G.S.Kasbga yo’naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari o’quv qo’llanma Toshkent-2007 120-b

3. Ergasheva G.S., Karimova N.A. Biologiya darslarida o’quvchilarni kasbga yo’naltirib o’qitish metodikasi / o’quv qo’llanma/. – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021, 124 b.

4. Пряжникова Е.Ю. Профориентация / Е.Ю.Пряжникова, Н.С. Пряжников - М.: 2005. – 494с.



KITOBXONLIK - MA'NAVİYAT SARCHASHMASIDIR

Avezmetova Manzura,
Xorazm viloyati Xonqa tumani
8-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Shermetova Dilafro'z,
Xorazm viloyati Xonqa tumani
8-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Inson ma'naviyatining sarchashmasi bo'lismish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantiirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”, intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi ta‘bir joiz bo‘lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma’naviyatimizda g‘oyat ulkan voqeа bo‘ldi. Ushbu sa‘y-harakat milliy adabiyotimiz va ma’naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo‘lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o‘rinda xorij tajribasini o‘rganish, yoshlар o‘rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o‘rganish kabi masalalarning ko‘tarilgani g‘oyatda tahsinga loyiqidir. Buyuk shoир va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o‘qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o‘rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko‘p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog‘i”, “Go‘zallik – ilmu ma’rifatda”. Bunday hikmatli naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasbhunarli va albatta baxtli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘sit bo‘lish, va kitob o‘qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o‘rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezzulikka undaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo‘lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

Ibosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha tashkiliyhuquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o‘sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

“Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o‘zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do‘sit bo‘lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e’tibor qaratish lozim bo‘ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to‘g‘risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash’ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini



ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o‘z oilasi a’zolari ko’magi va ta’sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a’zolarning kitobga, o’qishga munosabati katta ta’sir ko’rsatadi. Ota-onha har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o’qishda ham bolalariga o‘rnak bo’lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o’qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so’rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o’rganish (aniqrog’i o’rganish) muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish

2. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>



ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Babadjanova Dilnoza,

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

6-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Egamberganova Mehribon,

Xorazm viloyati Xiva tumani

35-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko'pgina fazilatlarni ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik g'oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyoti xazinasiga o'zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarları va badiiy tarjimaları bilan munosib hissa qo'shgan siymolardan biridir. Adibning mustaqillik g'oyalalariga hamohang bo'lган asarları bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaq qilinmoqda.

A.Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroficha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko'pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqlol yaratib bergen erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o'rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalgalashmoqda.

Shu ma'noda, A.Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o'rinnlidir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o'tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta'sirida yuz bergen voqealar favqulorra bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo'lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziysi bilan yaratilgan obrazlar bo'lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko'proq umumlashdirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo'lib, davr voqeligi tasviriga bag'ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo'lib o'tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko'raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxo'ja domla, shahar maorif bo'limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o'ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo'ja domla xarakteri jonli va to'laqonli qilib gavdalaniadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo'lgan dramaturgiya sohasida ham iste'dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko'targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo'lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og'riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo'ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta'sirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. Komediyada Dehqonboy, Hafiza va Qo'ziyev kabi sofdir, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o'jar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o'xshagan samimiyy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og'riq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo'liga to'siq bo'layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo'lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog'liq. Komediyada zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan Zargarov singari noplak illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni, adolatni targ'ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo'lishini ko'rsatishda



satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko‘rsatishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qo‘msagan,adolat mavzusini o‘ziga bayroq deb bilgan betimsol so‘z san’atkori Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka ko‘tarila olganligidan dalolat beradi.

Foydalanimgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”,-“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-sон.



KITOBXONLIK - MA'NAVİYAT SARCHASHMASIDIR

Ibadullayeva Muyassar,
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
24-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Do'schanova Orzigel,
Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
24-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Inson ma'naviyatining sarchashmasi bo'lismish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantiirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”, intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqeа bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o'rinda xorij tajribasini o'rganish, yoshlар o'rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o'rganish kabi masalalarning ko'tarilgani g'oyatda tahsinga loyiqidir. Buyuk shoир va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog'i”, “Go'zallik – ilmu ma'rifatda”. Bunday hikmatli naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyali, kasbhunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezzulikka undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo'lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

Ibosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliyhuquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

“Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini



ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o‘z oilasi a’zolari ko’magi va ta’sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a’zolarning kitobga, o’qishga munosabati katta ta’sir ko‘rsatadi. Ota-onha har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o’qishda ham bolalariga o‘rnak bo’lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o’qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so’rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o’rganish (aniqrog’i o’rganish) muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish

2. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>



TASVIRIY SAN'AT FANINING TA'LIMIY-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Jumaboyeva Xolida

Xorazm viloyati Yangibozor tumani
20-maktab tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Xakimova Farida

Xorazm viloyati Urganch tumani
1-maktab tasviriy san'at fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktab o'quvchilariga tasviriy san'at fanini o'qitishda uchraydigan muammolar va uni bartaraf etish yo'llari, fanni o'qitishning ta'limi – tarbiyaviy ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, rasm, asar, bilim, maktab, dars, o'quvchi, rassom.

Tasviriy san'at o'quv predmeti har bir inson uchun zarur bo'lgan badiiy estetik madaniyatga doir elementlar, bilim va malakalar beruvchi omildir, chunki har bir o'quvchi kelajakda qaysi sohada ishlashidan qatiy nazar u go'zallikdan bahramand bo'lishi, undan zavqlanib dam olishi, hordiq chiqarishi, ish vaqtida sarflangan quvvatini tiklashi lozim. Bunga u yuksak badiiy saviyada ishlangan sanat asarlari bilan muzey, ko'rgazmalar va boshqa joylarda tanishish, ularni idrok etish, ulardan zavqlanish orqali erishadi. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilar o'zlarining kelajak hayotlarida ma'lum miqdorda rasm bilan ishlashlariga to'g'ri keladi.

Tasviriy san'at fanini o'qitishdan maqsad bolalarda kuzatuvchanlikni o'stirish, borliqni ko'ra bilish, qolaversa shu orqali xotirani rivojlantirish hisoblanadi. Ma'lumki, tevarak-atrofdan olayotgan axborotlarning deyarli 90 foizidan ortig'ini ko'z orqali oladi, qolgan 10 foizini qulqoq, burun, og'iz va boshqa a'zolari orqali o'zlashtiradi. Bu sifatlar borliqni idrok etish mashg'ulotlarida shuningdek, naturadan tasvirlash, san'atshunoslik asoslari mashg'ulotlarida alohida ahamiyatlidir.

Ma'lumki ta'lim –tarbiya jarayonida boshlang'ich sinflar ta'limi alohida bosqich bo'lib, bu davr bola shaxsining eng jadal rivojlanish davri hisoblanadi. Chunki 5-6 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan davrda bola shaxsi yetuklik va o'smirlilik davrida bola shaxsi ko'rish, kuzatish, idrok etish, tasavvur va tafakkur qilishga o'rganish jarayonidagi eng shiddatli bosqich bo'ladi.

Mamlakatimizning ko'plab maktablarida quyidagi muammolarga duch kelamiz. Tasviriy san'at fanini boshlang'ich sinflarda o'z mutaxassisini o'tkazmaganligi sababli o'quvchilar tasviriy san'at fani nimani o'rgatadi, ranglar haqida, rasm chizishda nimalarga e'tibor beriladi, palitra nima, o'quv qurollarini yaxshi bilishmaydi, chiziqlar, shakllar, bo'yoqlar, asosiy ranglar, rasm chizishda ketma-ketlikda ya'ni bosqichma-bosqich chizish kerakligi haqida ma'lumotga ega emaslar. O'quvchilarga tasviriy san'at fanini boshlang'ich sinfdan o'z mutaxassisini o'tgani ma'qul.

Xulosa o'mnida shuni aytib o'tish kerak tasviriy san'at fanida borliqni idrok etish, o'quvchilarning estetik idroki, didi, mazkur sohaga doir tushunchalari, tasavvur va xotiralarni o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Borliqni idrok etish mashg'ulotlari odatda mavzuli kompozitsiyalarni bajarishdan oldin o'tkazilib, unda tabiatdagi va tevarak atrofdagi nafislik va go'zallikni ko'ra bilish, idrok etish natijasida olingen ta'assurotlardan amaliy, badiiy-ijodiy faoliyatlarda foydalanish nazardautiladi. San'atshunoslik bo'limi o'quvchi shaxsining estetik rivojiga ko'maklashib, uni jahon madaniyatining buyuk durdonalari va san'at asarlari orqali tevarak-atrofdagi hayot go'zalliklari bilan tanishtiradi. Badiiy didni shakllantiradi, san'atni sevishga o'rgatadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. «Mana buyuklar «kanali
2. Internet malumotlari



TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Qurbanova Nilufar,

Xorazm viloyati Xonqa tumani

8-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada texnologiya darslarining ahamiyati va texnologiya darslarida interfaol usullardan foydalanish haqida so'z boradi

Kalitso'zlar: texnologiya, texnologiya darslari, innovatsion texnologiya, pedagogik texnologiya, ta'lif, metod, interfaol ta'lif metodlari

“Texnologiya” darsligi insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda muhim ahamiyatga ega. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo‘lmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko‘nikmalaringiz sizga hayotda, doimo ko‘makchi bo’ladi.

Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo’ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo’lda mustahkam degan edi fransuz yozuvchisi Anri Barbyus. Haqiqatdan ham, kelajagimiz davomchilari bo‘lmish yosh avlodni har tomonlama mukammal etib tarbiyalash, ularga bilim berish, xaqiqiy fidoyilik va mustahkam iroda talab etadi. Ta’lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo’llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog’liqdir. O’qituvchining yangi mavzuga tayyorgarlik ko‘rishida metodlar va metodik usullarni tanlashi –bu ularning o’zaro almashinuvini vaqt va didaktik maqsad bo‘yicha muvozanatlashtirish demakdir. Pirovard natijasida o’quvchilar aqliy va amaliy faolligining yuqori darajasini ta’minalashga sharoit yaratiladi. To’g’ri qo’llanilgan metodlar ob’ektiv voqelikka oid bilimlarmi chuqurlashtiradi va yaxlit hamda mashg’ulotning ilmiy-nazariy darajasini oshiradi. Ketma-ket saralangan o’qitish metodlari ma’lum darajada bilish va kasbiy qiziqishini rivojlantirishga, mustaqil amaliy faolyatni faollashtirishga olib keladi. Innovatsion metodlar o’qituvchi bilan o’quvchilarning o’qish vazifalarini bajarishga qaratilgan nazariy va amaliy bilish faoliyati yo’lidir. O’qituvchi insoniyat tajribasida to’plangan bilimlar bilan hali bu bilimlarga ega bo‘lmagan bolaning ongi o’rtasida vositachilik rolini o’naydi. Bola ijtimoiy-tarixiy tajribadagi barcha bilim boyliklarini ta’lim olmasdan, o’qituvchisiz, mustaqil holda o’zi tizimli tarzda o’zlashtira olmaydi albatta. O’qituvchining eng katta xizmati o’quv materialini o’zlashtirishning muayyan yo’l, usullarini belgilashda namoyon bo’ladi. Dars jarayonining metodi o’quv materialini bayon qilishga va uni bolalar yaxshi bilib olishga qaratilgan faoliyatning yo’li, usulidir. Ta’lim jarayoni va natijalari o’qituvchining o’quvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usulariga bog’liqdir. Shu sababli doimo pedagogikada ta’lim metodlariga o’qituvchining ish usullari va o’quvchilarning bilish faoliyati usullari deb qaraladiki, bu usullarning har ikkalasi ham o’quv vazifalarini bajarishga qaratilgandir.

“O’ZBEKISTON OLIMLARI VA YOSHLARINING INNOVATSION ILMUY AMALIY TADQIQOTLARI” ochiq ifodalashni shakllantiradi. Mazkur texnologiya o’quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o’rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkoniyatini beradi. Xulosa qilib aytganda: Haqiqiy ustoz o’quvchiga faqat bilim emas, balki fikrlashni ham o’rgatadi.O’quvchilar dars davomida bo’sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo’lib, zerikib qolmaydi.

Foydanilgan adabiyotlar

1. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o’qitish metodikasi». Darslik. T.: TDPU. 2015-yil.

2. Mavlonova R. A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o’qitish metodikasi. O’quv qo’llanma. T.; TDPU. 2007-yil.



TABIY FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR

Sobirova Yulduzxon Quronboyevna,

Avazova Zulfiya Kanjayevna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

8-sonli maktabning boshlang'ich

ta'lif o'qituvchilari:

Tel: 995011353

Tel: 990946860

Annotatsiya: ushbu maqolada tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol metodlar haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, uchta to'g'ri bitta noto'g'ri metodi.

Hozirgi vaqtida ta'lif jarayonida ayniqsa boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lif metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lif oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lif oluvchilarining o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lif beruvchi tomonidan ta'lif oluvchilarining qiziqishini orttirib, ularning ta'lif jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lif oluvchilarini amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi. Interfaol metodlar deganda ta'lif oluvchilarini faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lif jarayonining markazida ta'lif oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lif beruvchi ta'lif oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lif oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi.

Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri

Ta'rifi:

Har bir ishtirokchi bir varaq qog'ozda o'rganilayotgan yoki o'rganilgan mavzu bo'yicha uchta to'g'ri fikr va bitta noto'g'ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to'planadilar, varalar bilan almashadilar va qaysi fikr noto'g'ri bo'lgan ekanligini aniqlaydilar. Bunda ma'lumotlar sodda holda tuzilgan bo'lishi kerak. bunda 1-2 daqiqa vaqt ajratiladi.

Foydalanish doiralari

Uy ishini tekshirish vaqtida, tabiiy va aniq fanlarda mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Afzalliklari

Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko'nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o'rgatadi, o'qituvchiga o'quvchilarining bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

Oyinchiliklari

Materialni o'zlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari xavfi bor. O'qituvchiga fikrlar aniqligi va to'g'riligini kuzatish, mashqni o'tkazish uchun vaqtini mo'ljallab olish qiyin, chunki o'quvchilarda ko'pincha fikrlarni aniq ifodalash ko'nikmasi mavjud bo'lmaydi.

Yelpig'ich» texnologiyasi

Bu texnologiya murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha biryo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foya va zararlari belgilanadi.

Bu interaktiv texnologiya tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

«Yelpig'ich» texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muxokama qiluvchi kichik



guruhlarning, har bir qantashuvchining, guruhning faolishlashiga qaratilgan.

«Yelpig'ich» texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:
-boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
-mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmash va anglab yetish;
-yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidahmedov N. «Yangi pedagogik texnologiyalar». T. «Moliya» 2003 yil.
2. Farberman V. «Ilg'or pedagogik texnologiyalar». T. «Fan» 2000 yil
3. Ishmatov Q. «Pedagogik texnologiya». Namangan 2004 yil.
4. KadanerL.I. Spravochnik pogalvanostechii. Kiyev. Texnika. 1976 g.



BUGUNGI TA'LIM, ERTANGI KELAJAK SARI

Sultonova Dilfuza Yusupovna

Urganch shaxar 18-maktabining tarbiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ta'lism shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topish jarayonidir. Ta'lism butun jamiyat va shaxslar hayotining ajralmas jihatni sifatida namoyon bo'ladi. Hozir maktablarimizda ta'lism-tarbiya olayotgan yosh avlod kelgusida ajdodla- rining xayrli ishlarini davom ettiradigan, o'zidan keyingi yosh avlodga ozod va obod Vatanni meros qilib qoldiradigan O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchi kishilardir. Shu sababli prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'lism sohasiga juda katta e'tibor qaratmoqda. Chunki ta'lism- tarbiya sifati va tarkibi har qanday mamlakat ijtimoiyiqtsidiy rivojlanish darajasini belgilaydigan eng asosiy omillardan biridir. Prezidentimiz tashabbusiga binoan, yurtimizdag'i barcha ta'lism tizimlarida ulkan islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lism-tarbiya tizimi yangidan shakllantirilmoqda. Har bir viloyatda zamонавиј, har jihatdan shinam, namunalı jihozlangan bog'chalar qurilmoqda.

Kalit so'zlar: "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlash" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin".

Uzluksiz ta'limga eng muhim xalqasi bo'lgan maktabgacha ta'lism muassasalarini mazmunan va tashkiliy jihatdan mutlaqo yangi shaklda tashkil etilmoqda. Ushbu tizim nafaqat bog'cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta'lism bilan qamrab olish ko'lamini oshirish, shuningdek, 3-6 yoshidayoq ularning qiziqishi, erkin muloqot qila olish qobiliyatiga qarab alohida-alohida guruhlarga bo'lib ta'lism-tarbiya berish mexanizmlarini joriy etish imkoniyatini beradi.

Bog'chalar va umumta'lism maktablari xususiy shakllarining hayotimizga kirib kelishi ta'limga sog'lom raqobat muhitini yaratmoqda. Buning natijasida ta'lism muassasalarini erkin tanlash, shu bilan birga innovatsion ta'lism beruvchi o'qituvchi va murabbiylarga bo'lgan yangicha talab va shunga munosib haq to'lash tizimi ham amaliyatga kirib kelmoqda. 11 yillik maktab ta'limga qaytilishi farzandlarimizning ta'lism olish sifati va tarbiyasini yanada ko'tarish imkonini berdi. Bu ta'limga eng muhim islohot bo'ldi.

Umumiy o'rta ta'limga o'zgarishlar ham jadallik bilan ketmoqda: fanlarga yangi dasturlar, darsliklar kirib kelyapti, o'qituvchilarining maoshi oshirilyapti va bu jarayon uzluksiz davom etmoqda. Kasb-hunar ta'limi ham qayta ko'rib chiqilmoqda.

Bugungi kunda ta'lism sifati davlatimizning bosh siyosatiga aylandi. Bu o'ta muhim siyosatning muvaffaqiyati mamlakatning har bir fuqarosi ta'lism islohotlarida faol ishtirok etishini taqozo qiladi. Yoshlar tarbiyasidagi eng muhim qadamlardan biri bu davlatimiz rahbarining 2019 -yil 20- fevraldag'i "Prezident maktablarini tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi qarorini keltirish mumkin. "Prezident maktablar" umumta'lism maktablaridan tubdan farq qiladi. Ushbu maktablarning asosiy vazifalaridan biri- tabiiy va aniq fanlarni chuqur 'qitish, o'quvchilarining innovatsion bilimlarni o'zlashtirishi, ularning intelektual, ilmiy-ijodiy salohiyatlarini ochib berish va rivojlantirishdan iborat.

Bugungi kun o'qituvchi dan ilg'or ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalaridan o'quv jara yonlarida samarali foydalanishni talab etmoqda.

Mahoratlari pedagoglar dars jarayonlarida "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlash" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", "FSMU", "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag" kabi zamонавиј texnologiyalar qo'llanilmoqda. Shuningdek zamон talablaridan kelib chiqqan holda, pedagog kadrlarning malakalarini muntazam ravishda oshirib borishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ta'lism sifati va samaradorligini yo'lida xorijiy ilg'or tajribalarni o'rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada yurtimizda qo'yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta'limi tizimida ta'lism sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to'g'risida hukumat qarorining qabul qilinishi. Ta'lism sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiyasi (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilishini keltirishimiz mumkin. Ushbu tadqiqotlar yuqori texnik va ilmiy talablar asosida o'tkaziladi. Shuningdek o'rganilayotgan holatlarning xususiyatidan kelib chiqib, amaliy tadqiqotlar bilan birga kuzatuv kabi samarali usullardan ham foydalaniлади. PIRLS- boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni



xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan , o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir. Ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamona viy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Yurtimizda ushbu xalqaro tadqiqot 2021-yilda o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, o‘quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirot etish nazarda tutilgan .

Xulosa qilib aytganda, bugun ta’lim sohasida olib borilayotgan ulkan islohotlar yaqin 5-10 yilda O‘zbekistonda ta’lim, fan va texnologiyalarning yangi pog‘onaga chiqishiga mustahkam zamin yaratilmoqda. Ana shu poydevor asosida ta’lim sifati va samaradorligi ijobjiy tomonga keskin o‘zgaradi, innovatsion bilim va fanni shakllantiradigan ilmiy texnologik infratuzilmalar shakllantiriladi, xorijiy oliy ta’lim muassasalarini bilan hamkorlikda minglab intelektual darajasi yuqori yosh kadrlar tayyorlanadi, ular yurtimizning jahon intelektual mulk bozoridagi mavqeini yuksaltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar, elektron resurslar:

- [1] J. Hasanboyev, X. To‘raqulov. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. Toshkent-Fan va texnologiya- 2009. 463-bet.
- [2] Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar amalga oshirish milliy markazi veb. sayt :www.tdi.uz.
- [3] www.ziyonet.uz.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINF DAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL
ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Xusainova Sharofat,
Xorazm viloyati Xonqa tumani
8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Sultonova Dilfuza
Xorazm viloyati Xonqa tumani
8-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma’lumotlarini oshirish, darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishda sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil qilish va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilar dunyoqarashini to‘g‘ri shakllantirishi hamda ahloqiy kamol topishiga ko‘maklashishi hamda sinftashqari mashg‘ulotlarning afzalliklarida xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zları: sinfdan tashqarimashg‘ulotlar, o‘quvchilar jamoalari, o‘z-o‘zini boshqarish, g‘amxo‘r munosabat, individual jamoa.

Yosh avlodni hozirgi zamon fani asoslari bilan qurollatirish orqali ularning aqliy jihatdan maksimal darajada rivojlanishlariga erishish umumta‘lim maktablari oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarning ma’lumotini oshirish va darslarni o‘zlashtirish darajasini ko‘tarishga ko‘maklashishi uchun, boshlang‘ich maktabda sinf mashg‘ulotlari bilan bir qatorda sinfdan tashqari ishlarni ham o‘tkazish zarur. Sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlar bolalar bilan olib boriladigan ta‘lim-tarbiya ishlarning ajralmas qismi bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarni bilimga va mehnatga bo‘lgan havaslarini ortiradi, shuningdek, o‘zlashtirish sifatini oshirishga va xulqini yaxshilashga ta‘sir etadi. Sinfdan tashqari ishning asosiy maqsadi o‘quvchilardagi fanga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish, ularni darsda olgan bilimlarini to‘ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Umuman boshlang‘ich maktabda sinfdan tashqari ishlar sinf ishlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘lib, sinf ishlarning davomi bo‘ladi, ayrim vaqlarda esa uni chuqurlashtiradi. Sinfdan tashqari ishlarning ikki turini bir-biridan farqlash lozim. Uning birinchisi dastur materialini o‘zlashtirishda orqada qoladigan o‘quvchilar bilan ishlash, bunga qo‘srimcha dars va konsultatsiyalar kiradi. Ikkinchisi, matematikani o‘rganishga qiziquvchi o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar. Ma’lumki birinchi tur mashg‘ulotlar hozirgi vaqtida barcha maktablarda mavjud. Bunda mashg‘ulotlarni 3-4 o‘quvchidan iborat kichkina guruqlar bilan haftada bir marta o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish va o‘tkazish assosida quyidagi qoidalar yotadi:

1. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarning darsda oladigan bilimlarini, malaka va ko‘nikmalarni hisobga olgan holda o‘tkaziladi;

2. Sinfdan tashqari ish ixtiyorilik, tashabbuskorlik prinsiplari va o‘quvchilarning harakatlari asosida tuziladi, hamda o‘quvchilarning individual talablarini qanoatlashtirish maqsadida o‘tkaziladi.

Mashg‘ulotlar murakkablashib ketsa, uni o‘tkazish uchun taxminan bir soat vaqt ajratish mumkin. Materiallar hamma vaqt o‘quvchilarning hisoblash malakalarini egallashiga muvofiq qilib tanlanadi, masalalarga kelganda esa, ular shu sinf uchun programmada ko‘rsatilgan masalalarning ko‘rinishi va tipiga qaraganda boshqacharoq bo‘lishi ham mumkin. Ziyaraklik masalalari esa bu chegaradan chetga chiqishi va shuning bilan birga masala yechishni o‘rganishga muvaffaqiyatli yordam berishi mumkin.

Sinfdan tashqari ishlar orqali quyidagilar amalga oshiriladi:

- bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish hamda kengaytirish;
- o‘quvchilarning mantiqiy tafakkurlarini, topqirliklarini, matematik ziyarakliklarini rivojlantirish;

Sinfdan tashqari ishlarning shakllari:

-Sinfdan tashqari ishlar ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ularga nutqini o‘stirish, olingen bilim va malakalarni mustahkamlash uchun yordam beradi. Yangi qo‘srimcha ma’lumotlar manbai hisoblanadi.

-Sinfdan tashqari ishlarning ta‘limiy ahamiyati – o‘quvchilarga qo‘srimcha bilim, malaka va



ко‘ніkmalar berish.

-Tarbiyaviy ahamiyati – o‘quvchilarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash.

Xulosa qilib aytganda sinfdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarni erkin fikrlashga, ularni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkillashga, dars jarayonidagi muammoli va qiyin toshiriqlarni bajarishga ko‘mak beradi. Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar boshlang‘ich sinf ona tili va matematika darslarida va o‘qish darslarida, sinfdan tashqari o‘qish tartibida tashkillanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karima Qosimova va boshqalar . Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: 2009.
2. Nurmatova M. Ifodali o‘qish to‘garagi. Til va adabiyot talimi. 1992 yil. 1son.
3. Jalilova M. Nematova G. Takrorlash mashg‘ulotlarini . Topqirlar bellashuvi tarzida otkazish. Til va adabiyot talimi 1994 yil 2-3 sonlari.



BIOLOGIYA DARSLARIDA O'YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Urazbaeva Nag’ima Rimbay qizi.

Qoraqalpog’iston Respublikasi
Taxtako’pir tumani 13-sonli maktab
biologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: maqolada biologiya darslarida o’yin texnologiyalaridan foydalanish yo’llari, o’yin texnologiyalarning mazmun va mohiyati ochib berilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, biologik o’yinlar, munozara, orol dengizi, biogeografik viloyatlar, madaniy markazlar.

Fan-texnika jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan hozirgi globallashuv davrida umumiy o’rta ta’limmactablari biologiya fani o’qituvchilarining zimmasiga ham nihoyatda mas’uliyatli vazifalarni yuklab qo’ymoqda.

O’quvchilarga biologiya fanini o’qitishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish, innovatsiyalardan foydalanishchun zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalarni shakkantirish; darslarida zamonaviy ta’lim vositalaridan foydalanish ko’nikmalarini rivojlantirish, ya’ni texnik vositalardan, ekspress-so’rovlar, test so’rovları, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhrular bilan ishlash va boshqa interfaol ta’lim usullaridan foydalanish hozirgi kun talablaridan biri hisoblanadi.

Biologiya darslarida biologik o’yinlardan foydalanish bugungi kun biologiyasining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu buyuk vazifalarni amalga oshirish yo'lida barcha fanlar qatori biologiyaning ham o'rni kattadir. Chunki, biologiya hayot haqidagi fandir. Bugungi kunga kelib, biologiyani takomillashtirishga yanada katta e’tibor bilan qaralmoqda.

Biologik o’yinlar nihoyatda xilma-xil bo’lib, ushbu o’yinlar dars va darsdan tashqari mashg’ulotlarning qiziqarli bo’lishida, o’quvchilarning biologiya faniga bo’lgan qiziqishini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

“Munozara” o’yini. Munozara o’tkazish mavzusi aniq bo’lishi kerak. Biologiyadan “Orol dengizini saqlab qolish” ekologik muammosi tarixidan tanlangan muammo qismlarga ajratilib 15-20 ta qisqa savollar o’quvchilarga berilib, sind o’quvchilar 3-4 kishidan guruhanadi. Guruhlarning savollarga javobi muhokama etiladi va munozara boshlanadi. Munozarada har bir guruh a’zosi qo’yligan muammolar haqida o’z fikrini bayon etish huquqiga ega. Boshlovchi va 3 kishidan iborat ekspert guruhi barcha javoblarni tahlil qilib, eng maqbul javob variantlarini aniqlaydi va muammoni hal qilishning optimal varianti aniqlanib, munozaraga yakun yasaladi.

“Kim ko’p biladi” o’yini. Bu o’yinni biologiyaning xohlagan mavzusini o’rganishda qo’llash mumkin. Har bir ishtirokchi biror-bir mavzu yuzasidan bittadan muammoli savol tuza olishi kerak. Savollar yozilgan qog’ozlarni o’qituvchiga topshiradilar, sind o’quvchilar ikki guruha bo’linadi. Boshqaruvchi qo’llarni sanab, har biriga 1 balldan qo’yadi. Har bir savolga bir o’quvchidan javob so’raladi. Agar javob noto’g’ri bo’lsa o’sha guruhdan bir ball olib tashlanadi, qaysi guruh ko’p ball to’plasa, o’sha guruh g’olib bo’ladi.



“Xayoliy sayohat” o’yini. Ta’limning bu o’yini biologiya, geografiya, til adabiyot va boshqa fanlarda qo’llanishi mumkin. O’simlik yoki hayvonlar tarqalgan biogeografik viloyatlarga xayolan sayohat qilib, uni yozma tarzda yozish talab etiladi. Ishtirokchi o’zi mustaqil o’sha joyni



yozma tasvirlashi kerak. Kimning yozma tasvirlashi mazmunan yuqori saviyada yozilgan bo'lsa, u g'olib hisoblanadi.

"Pochta" o'yini. Bu biologik o'yinni barcha o'quv mavzularini o'rganish jarayonida qo'llash mumkin. O'qituvchi bir necha mavzuga mos konvert olib, uning ustiga eng zarur bo'lgan asosiy yozuvlar yozibqo'yadi va ular stol atrofiga ko'zga ko'rinarli qilib joylashtiriladi. Masalan, deylik 9-sinf Umumiy biologiya kursining "O'simliklarning kelib chiqish markazlari" mavzusida 7 ta konvert olinib, ostiga markazlar nomlari yoziladi. Endi shu markazlardagi o'simliklar nomlari yozilgan qog'ozchalar o'quvchilarga tarqatiladi va qaysi nom qaysi markazga mos kelsa, o'quvchi uni o'sha konvertga solishi kerak. Kim savollarga ko'p va aniq javob topsa, o'sha yuqori ball oladi. Bunday usulni boshqa fanlarda ham keng qo'llash mumkin.

Biologiya - darslarini hayotga bog'lash, ularni qiziqarli va ijodiy tashkil etish bosh maqsaddir. Bunda asosiy rolni biologik o'yinlar egallaydi. Biologik o'yinlar nihoyatda xilma xil bo'lib, darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni qiziqarli bo'lishida o'quvchilarning fanga bo'lган qiziqishlarini oshirishda qulay va samarali vositalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tolipova J.O "Biologiyani o'qitishda pedagogik texnalogiyalari" Toshkent 2011-yil.
2. Zikiryayev A, To'xtayev A va boshqalar "Umumiy biologiya" darslik. Toshkent 2011- yil.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ERTAKLARNI O‘RGATISH BO‘YICHA INTERFAOL USULLAR

Janiyeva Zuhra Eshnazarovna
Axmetova Karligash Adbullaevna
Muqumova Ilvira Saidovna
Zarafshon shahar 6-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘rgatish bo‘yicha interfaol usullar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Teskari ertak, salat, Qizil Qalpoqcha, Zolushka, Buratino, yaxshi..

Barchamizga ma’lumki, ertaklar hamisha yaxshilik tomon yetaklaydi. Shu bois, barkamol avlod tarbiyasida ertaklarning o‘rni katta. Boshlang‘ich sinflarda ertaklarni o‘rgatishda quyidagi interfaol usullar muhim ahamiyat kasb etadi.

“Teskari ertaklar”usuli. Yangi syujet yaratishning variantlaridan biri ertakni bila turib, noto‘g‘ri aytishdan iborat. Masalan qiyshi ko‘zgu qirolligidagi o‘ng tarafdag‘i narsa, chap tarafda, katta narsa kichik, qora narsa oq bo‘lib qoladi va hokazo.

Misol: 1.Qizil Qalpoqcha yomon, bo‘ri esa yaxshi...



2.Mittivoy akalari bilan uydan qochib, bechora ota-onalarini tashlab ketishi haqida kelishib oldi, lekin ota-onalarini uzoqni o‘ylab ish tutadiganlardan ekan va bolalarining cho‘ntaklarini teshib qo‘yishdi va cho‘ntagiga guruch solib qo‘yishdi, qaysiki bolasi qochib ketayotgan bo‘lsa, yo‘l bo‘ylab ozginadan to‘kilib ketadi...

1.Zolushka, yaramas qiz, yumshoq tabiatli o‘gay onasini qattiq jahlini chiqardi va beozor o‘gay opasining shahzodasini betsizlarcha tortib olmoqchi bo‘ldi.

2.Oppog‘oyim qalin o‘rmonda ettita gnomlarni emas, ettita devlarni uchratib qoldi. Ettita devlar esa Oppog‘oyimning qabih rejasini amalga oshirishga yordam berishdi...

“Teskari” ertaklardan darslarda qanday foydalanishi mumkin?

1-bosqich. O‘qituvchi doskaga dars mavzuga bog‘liq bo‘lgan asosiy so‘zlar va tushunchalarning ro‘yxatini yozadi.

2-bosqich.O‘qituvchi o‘quvchilarga hamma biladigan ertakni tanlashni taklif qiladi. Tanlangan ertak asosida o‘qituvchi o‘quvchilar yordamida qanday qilib bosh qahramonlarning paydo bo‘lishining, ularning harakatlari va asosiy syujetda bo‘lgan sarguzashtlarning ketma-ketligini aks ettiruvchi chizmasini tuzish mumkinligini namoyish qiladi.

3-bosqich. O‘qituvchi qanday usullar yordamida ertakning “avra-astarini” ag‘darish, ya’ni bosh qahramonlarning joylarini almashtirish, ularning harakatlarini o‘zgartirish va hokazolarning mumkinligini o‘quvchilarga ko‘rsatadi.

4-bosqich. O‘qituvchi o‘quvchilarga birgalikda “yangi ertakning” sxemasini tuzishni taklif qiladi, u erda dars mavzusiga bog‘liq tushunchalar muhim rol o‘ynaydi.

5-bosqich. O‘qituvchi birgalikda, juft-juft bo‘lib yoki kichkina guruh bo‘lib og‘zaki yoki yozma hikoya – o‘qish ertagini tuzishni taklif qiladi.

Xulosa.1.Xato metodi yangi fikrni yuzaga keltiradi, yangi hikoyaning konturini mo‘ljallaydi.

2.“Teskari ertaklar” metodini biror ertakning bir elementiga yoki hamma elementlariga qo‘llash mumkin, qisman yangi yoki butunlay yangi hikoya bo‘lib chiqishi aynan shunga bog‘liq.

3.Birinchi va ikkinchi sinflarda o‘quv ertaklarni yaratish ikkinchi bosqich asosida bo‘ladi, ya’ni tanlangan ertak “kadrlarga ajratiladi” va asosiy syujetning sxemasi tuziladi va u syujetga dars mavzusiga bog‘liq bo‘lgan asosiy so‘zlar va tushunchalar kiritiladi hamda shuning asosida o‘quv ertagining o‘zgartirilgan shakli yuzaga keladi.

4.Uchinchi va to‘rtinchi sinflarda o‘quvchilar hikoyalar tuzishning har xil usullarini



o‘zlashtirganlaridan keyin bosqichma-bosqich ko‘rsatmada tasvirlangan hamma jarayonlardan foydalanish mumkin.

Variantlardan biri quyidagi bo‘lishi mumkin: o‘quvchilar mustaqil o‘quv materialini o‘qishadi va asosiy tushunchalar, yangi va notanish so‘zlarni ajratib, bilgan ertakni qismlarga bo‘ladi va “teskari” ertakning sxemasini tuzadi va unga yangi ma’lumotlarni kiritadi, yozishadi va aytib berishadi.

Ushbu metod ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi: ob’ektlarni yangi tarzda ko‘rib chiqish, ijodiy ravishda sharoitlarni o‘zgartirish, yangi xususiyatlarni topish, yangi funksiyalarni yaratish qobiliyati shakllanadi, obrazli fikrlash rivojlanadi, o‘qishga oid ma’lumotlar esa emotsiyal tus oladi va bola dunvoqarashining bir qismi bo‘lib qoladi.



“Ertaklardan qilingan salat” metodi. Ertaklardan qilingan salat har xil ertaklarning syujetlarini va bosh qahramonlarni birga qo‘shishini ko‘zda tutadi va shu asosda yangi hikoya paydo bo‘ladi.

Misol: Qizil Qalpoqcha o‘rmonda Mittivoyni uchratadi (shu joydan boshlab ularning sarguzashtlari o‘ralashib ketadi va yangi oqimga intiladi – syujetlarni qo‘shish).

1. Buratini Ettita gnomlar uyiga tushib qoladi, u Oppog‘oyimni sakkizinch shogirdi bo‘ladi (keyinchalik ertak istasa ham istamasa ham ikki xarakterni, Buratino va Oppog‘oyim, umumlashtirilgan o‘rtacha arifmetikani beradi – bosh qahramonlarni qo‘shib yuborish).

2. Etik kiygan mushuk Jodugar kampirga xizmatkor bo‘lib qoladi (syujetlar va bosh qahramonlarni qo‘shib yuborish).

Xullas, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida ertaklarning ahamiyatini singdirish har bir o‘qituvchining vazifasidir.

Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:

1. X.Ibragimov, U.Yo‘ldoshev, X. Bobomirzaev. Pedagogik psixologiya. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. 2007y.
2. Internet saytlari. www.ziyo.net, www.edu.uz, www.bilim.uz...



DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI DARSLARIDA PEDADGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Axmedov Alisher Muminovich
Marg‘ilon shahar 1-IDUM o‘qituvchisi
Tel: 91-675-46-02

Annotatsiya: Maqolada davlat va huquq asoslari darslarda pedagogik texnologiyalardan qanday foydalanish misollar yordamida keltirilgan. Yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash qanchalik foydali ekanligi tushuntirib berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, yangi pedagogik texnologiya, didiktik o‘yin, Xatolarni top didaktik o‘yini, G‘alvir metodi.

Yosh avlodaga ta’lim berishning asosiy vazifalaridan biri o‘quv mashg‘ulotlarini Davlat ta’lim standartlari hamda o‘quv dasturlari asosida tashkil etishdir. DTS va o‘quv dasturlarida belgilangan mana shunday vazifalar asosida so‘nggi yillarda ta’lim muassasalarimizda Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalar qo‘llanilib kelinmoqda. Darslarda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning o‘rni va muhimligi yuqori. Chunki o‘quv jarayoni ilg‘or pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilsa, o‘quvchilarning erkin fikr yuritish qobiliyati shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qiladi.

“Davlat va huquq asoslari” fanini o‘qitish metodikasi ilmiy pedagogik fan bo‘lib, yosh avlodning huquqiy bilimlari samaradorligini oshirish, huquqiy madaniyatini shakllantirish maqsadida “O‘zbekiston davlati va huquqi”, “Konstitutsiyaviy huquq” fanlarini o‘qitish jarayonini tadbiq etadi. Davlat va huquq asoslari fanini o‘qitish metodikasi asosiy maqsadlari o‘quvchilarga huquq fanlarini o‘qitish uchun zaruriy bilimlar berish, olingen bilimini hayotga tadbiq etish mahoratini egallash, ko‘nikma va malakalarini qo‘llay olishlari uchun zarurdir. Mazkur fanni o‘rganish o‘qitishning an‘anaviy va ilg‘or uslublarini, jumladan, interaktiv usullar, test so‘rovlar, muammoli o‘qitish, texnik vositalarni qo‘llash, solishtirish va boshqa usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi, ko‘rgazmali sxemalar, slaydlar video dasturlarini ishlatish maqsadga muvofiqdir.

Agar o‘qituvchi o‘z ustida ish olib borsa, darslarda yangi pedagogik metod va usullardan foydalanish ko‘nikmasi shakllanadi. Innovatsiya o‘quvchilarni o‘quv jarayonining harakatlantiruvchi kuchiga aylantiradi.

Bunday darslarda foydalilanildigan metodlardam bir nechta keltiramiz. “Xatolarni top” didaktik o‘yini. Bu o‘yin mavzularni mustahkamlash va takrorlash vaqtida, yangi mavzuni o‘rganishda qo‘llash mumkin. Buning uchun avval o‘quvchilar to‘g‘ri matn bilan tanishgan bo‘lishlari kerak. O‘quvchilarga mavzudagi matnni o‘rganishga vaqt beriladi. So‘ngra buzilgan matn beriladi. O‘quvchilar yakka tartibda, juft bo‘lib, yoki guruh bo‘lgan holda ham ishlashlari mumkin. Kim yoki qaysi guruh belgilangan vaqtida ko‘proq xatoni aniqlay olsa, o‘sha o‘quvchi yoki guruh g‘olib hisoblanadi. Bu o‘yinni O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi moddalarini o‘rganishda ham foydalanilsa bo‘ladi.

“G‘alvir” didaktik o‘yini. Bu o‘yin ham darsning mavzularni mustahkamlash qismida yoki takrorlash darslarida foydalansila bo‘ladi. Masalan, 8-sinf “O‘zbekiston Respublikasi qonun manbalari” mavzusining mustahkamlash qismida qonunlar, qarorlar, farmonlar va buyruqlar tartibsiz holda joylashtiriladi, guruh a’zolari qonunlar va qonunosti hujjatlarini to‘g‘ri joylashtirishlari kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "Umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirish: mazmun, metodologiya, baholash va ta’lim muhiti" xalqaro onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent. 2020.
2. Safarova R., Yusupova F., Toshova N., va boshqalar.O‘quvchilarning bilish faoliyatini kengaytirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarini loyihalashning nazariyamaliy asoslari.T. Fan va texnologiya nashriyoti.2012 yil
3. <http://feruza-idum.zn.uz/2017/04/12/davlat-va-huquq-asoslari-darslarida-ozlashtirilishi-qiyin-bolgan-mavzular-bilan-ishlashda-kompetensiyaviy-yondashuv/>



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MIQDORIY O'LCHOVLAR BILAN
TANISHTIRISH

Axmedova Mehribon Erkinboyevna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

7-son umumiy o'rta ta'lif maktabi

boshlang'ch sinf o'qituvchisi

Annatotsiya: Boshlangich sinfda asosiy miqdorlar qaraladi: uzunlik, yuz, massa, hajm, vaqt va boshqalarni o'rganish, arifmetik materialni o'rganish bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirish kerakligi yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar: O'lchov birligi, uzunlik, yuza, massa, hajm, vaqt, paletka, perimeter, litr.

Dastlab 1-2 sinflarda uzunlik o'lchov birliklari bilan tanishtirish o'rganiladi. Masalan: qadam, qarich, yasash va hakozo. Bular bilan uzunlik, buyum o'lchamlari masofalar o'lchangan. Bu birliklardan hozirgi davrda ham foydalanib kelinmoqda. Zamonaviy matematika bu birliklardan foydalanib eski va hozirgi miqdor o'lchov birliklari o'rtasidagi farq dars mobaynida tushuntirib borilsa maqsadga muofig bo'lardi. Chunki bu bilan ishlatilmay yo'qolib kelayotgan birliklarni saqlab qolishimiz lozim.

Uzunlik o'lchov birliklari 1-sinf o'quvchilariga 2-chorak oxiriga disemetr haqidagi ma'lumot bilan boshlanadi. Desimetrik moduli yordamida ba'zi mashqlarni bajarish mumkin. Bu mashqlarning hammasi bolalarni sonlarni yaxshi o'zlashtirishda yordam beradi. Oldin ulardan gugurt qutisini cho'plarini, qalamning uzunligini o'rganiladi. Buning uchun oldin aniq santimetrdan foydalanish aytiladi. Santimetr uchun bir qancha modellarni tayyorlashlari mumkin buning uchun kataklı qog'oz varag'idan eng bir katakka teng bo'lgan uzun palaska va so'ngra undan 1 sm-li polaska qirqishlari kerak. Polaskalarni ustma-ust qilib bolalar o'zaro teng ekanligiga ishora hosil qiladilar. Bunday paloskaning har biri satimetrning moduli ekanligini o'qituvchi aytadi. Santimetrning modeli yordamida:

1. Berilgan kesmani o'lhash
2. Berilgan uzunlikdagi kesmani yasash.

Chizish masalalarni o'rganib oladilar. Santimetrdan oid IV-sinf matematikasida turli masalalar berilgan.

Eng muhim shuki o'quvchilar sanash vaqtida chizg'ichda ko'rmog'i to'g'i joylashtirish malakalarini o'zlashtirib olishlari zarur.

10 ichida nomerlash o'rganilayotganda, 3-chorak boshida yangi chiziqli birlik metr- o'rganiladi. Bu mavzuni o'qishdan oldin o'qituvchi oldindan tayyorlab quyilgan birnecha predmetni oladi. Bolalar bilan birga o'lchab birliklarini ular orasidagi munosabatlarini esga oladi.

Amaliy masalani yechayotib: Masalan: sinfonani bo'yini santimetr va detsimetr bilan o'lhash mumkinmi? Deb savol quyadi "Yo'q" mumkin emas degan javobni beradilar. Shundan so'ng metr o'lchovi haqida tushuntiriladi. Metr haqida gapirganda yog'och chizg'ichni ko'rsatib, u bilan uzun narsalarni, gazlamalarni, daraxtlarni bo'yini o'lhash mumkinligini aytildi va unga doir masalalar mumkinligi ko'rsatiladi va bajariladi.

Jismning massasi og'irlik kuchi bilan chambarchas bog'liq. Bu kuch bilan jism yerga tortiladi. Shuning uchun jism massasi jismning o'ziga bog'liq emas. Jism og'irligini taqqoslaganda bu xossa massa deb ataladi.

Matematik nuqtai nazardan massa quydagi xossalarga ega bo'lgan musbat kattalik.

1. Tarozida bir-birini muvozanatlashiruvchi jismlarning massasi bir xil.

2. Bir necha jismning massalari ularning yig'indisiga teng. Jismning massasi qancha katta bo'lsa uning og'irlik kuchi ham shuncha katta bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda bolalar kilogramm bilan tanishadilar.

Bugungi kunda yangi jamiyat bunyodkori bo'lmish komil insonni tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanamiz. Matematikada o'rganiladigan asosiy tushunchalardan biri miqdor tushunchasidir. Shuning uchun "Matematika miqdorlar haqidagi fan, u miqdor tushunchasidan kelib chiqadi" deb bejiz aytilmagan. Boshlangich sinflarda quydagi miqdorlar qaraladi: uzunlik, yuz, massa, hajm, vaqt va boshqalar. Boshlangich sinflarda asosiy miqdorlarni o'rganish arifmetik materialni o'rganish bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshiriladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. A’zamov A. ”Yosh matematika qomusiy lug‘at”- Toshkent.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991, 478 bet.
2. Bikbayeva N.U va boshqalar ”Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi ”- Toshkent.: O‘qituvchi, 2007, 208 bet.
3. Bikbayeva N.U va boshqalar Matematika 2 – Toshkent.: O‘qituvchi, 2010, 208 bet.
4. Bikbayeva N.U va boshqalar Matematika 3 – Toshkent.: O‘qituvchi, 2010, 206 bet
5. Bikbayeva N.U, Yangabayeva E, K.Girfanova ”Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarini boshlang‘ich matematik ta’limning Davlat ta’lim standartlari asosida o‘qitish” Toshkent.: – 2008, ”Turon - Iqbol”, 8 bet.
6. Jumayev M.E., „Matematika o‘qitish metodikasidan praktikum“- Toshkent.: O‘qituvchi, 2004, 328 bet.



BOSHLANG'ICH TA'LIM DARSLARIDA FANLARARO INTEGRATSIYALASHUV

Azimova Mastura Abduraimovna,
Navoiy viloyati, Karmana tumani
2-IATIDUMning boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon:+998 90 500 53 03

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda fanlarni o'qitish jarayonida ta integratsion yondashuv va fanlarning mavzulararo o'zaro aloqasining ahamiyati haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Matematika, element, savod o'rgatish, geometrik shakllar, nutq o'stirish, tabiatshunoslik, O'zbekiston, geografik o'rni, yasash, tarix, texnologiya.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lilda o'qitiladigan o'quv predmetlari integratsiyasi o'tiladigan mavzularga singdirilgan. Bu intgratsiyalashuv o'quvchilarning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy bilimlarini oshirishda, jamiyat va hayot haqidagi tushunchalarini rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Maqolamizda fanlararo integratsiyalashuvi, ya'ni fanlarning bir-biri bilan o'zaro aloqadorligining ijobji jihatlari haqida so'z yuritamiz.

Boshlang'ich sinflarda matematika fani elementlaridan har bir o'quv predmetini o'qitishda foydalanish mumkin. Darsida matematika elementidan foydalanishdan maqsad – ta'lil jarayonida o'quvchilarning faolligini oshirish va darslarni qiziqarli o'tkazish. Birinchi sinfda savod o'rgatish va alifbedan keyingi davrda so'z-tovushlar sonini tushuntirishi hamda bo'g'lnarning tartibi matematik ifoda-sonlardan foydalanish integratsiya usuli hisoblanadi. Shuningdek, kitobning betlari va mashqlarining raqamlarini tushuntirishda ham matematik ifodalar qo'llaniladi.

Matematikadan mavzularini o'tishda har doim uning hayot bilan bog'liqligiga doir misollardan foydalanish zarur. 1-sinfda og'zaki hisoblash orqali bolalarning nutq rivojlanadi. Masalan, turli geometrik shakllar rasmi tushirilgan pannoga bolalar diqqati tortiladi. O'qituvchi bolalarga shunday deydi:

- Bolalar, pannoga qarang, yuqori qismida qanday shakllar joylashgan?
- Marhamat qilib, to'rtburchakni ta'riflab bering (4 ta burchagi, 4 ta tomoni bor).
- Uchburchakni ta'riflab bering (3 ta burchagi, 3 ta tomoni bor).
- Aylana to'g'risida nima deyish mumkin? (Burchak va tomoni yo'q).
- Oxirgisi qanday shakl, nomini ayting (ko'pburchak).
- Uchburchak va to'rtburchakning nima farqi bor?

4-sinf matematika darslarida matematik atamalar va o'lchov birliklari nomlarini aytishda, amallarnini og'zaki bajarishda nutq o'stirish jarayoni ro'y beradi.

4-sinfning tabiatshunoslik darsligida O'zbekistonning geografik o'rni, o'rmonlari, hayvonot olami, yerosti qazilma boyliklari haqida matnlar berilgan bo'lib, bolalar bu matnlarni o'qib, gapirib berish jarayoida ularning og'zaki nutqini o'stirishga imkoniyat yaratiladi.

1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsida "Yashil sayyora" mavzusidan o'quvchilar tabiat olami, o'simliklar haqida tushunchaga ega bo'ladi. O'qituvchi bolalardan atrof-olam, tabiatdagi o'simliklar nomini to'g'ri aytishni va tabiatni kuzatichilar haqida gapirib berishni so'raydi. Bunday ish natijasida bolalar o'rgangan yangi so'zlar ulaming anglashida tabiat hodisalarini bilan tushunib borishadi va aniq tushunchaga ega bo'lishadi. Shularning hammasi bolalarni tabiat haqida hikoyalar, she'rlarni mustaqil o'qishga tayyorlaydi. Shuningdek, 1-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida "Yerning yo'ldoshi", "Oy yerdan kattami?", "Oyning vazifalari", "Siz buni bilasizmi?" mavzulari "Atrofimizdag'i olam" va matematika fanlari bilan bevosita aloqador, "Ko'zoynakka qadar", "Qalamga qadar", "Gugurtga qadar", "Dunyon o'zgartirgan ixtiolar" mavzulari tarix va texnologiya fani bilan aloqador. Bunday aloqadorlik o'quvchilarning atrof-olam haqidagi tasavvurini boyitadi, ilmiy tafakkurini, ma'naviy dunyoqarashini rivojlantiradi. Misol uchun "Siz bunim bilasizmi?" matnnini olib qaraylik:

"Osmondag'i yulduzlar soni yerdagi qum zarralaridan ham ko'p.

Yupiter sayyorasida olmos yomgi'ri yog'adi.

Ko'k kitning tili avtomobildan ham kattaroq.

Yer yuzasining uchdan ikki qismi suvdan iborat.

Yerga tashlangan plastik chiqindilar 500 yilda qilib chiqrib yo'q bo'lib ketadi.



Oddiy hojat qog'ozni uchun kuniga 20 mingdan ortiq daraxt kesiladi.

Dunyodagi ilk kompyuterning og'irligi 27 tonna bo'lган.”

Ushbu matn o'quvchilarni tabiat olamiga, jamiyat hayotidagi yangiliklarga qiziqishini oshiradi, atrof olamni asrab avaylashga undaydi, tabiatdagi hodisalar, jonivorlar haqidagi tassavurini kengaytiradi.

Ona tili va o'qish savodxonligi bilan texnologiya fanining integrallashuvi ham juda qiziqarli hisoblanadi. Masalan, 2-sinfda ona tili va o'qish savodxonligi darslarida “Ko'za yasash jarayoni haqida matn yozish “Yondaftarcha yasash”, “Soat maketini yasash”, “Birgalikda yasaymiz” mavzularini o'tishda o'quvchilar texnologiya fanidan oлgan bilim va malakalarini amalda tatbiq etadi.

O'quv predmetlaridagi mavzularni o'rganish jarayonida o'qituvchi mavzuni fanlararo integratsiyasini maqsadga yo'naltirilishiga ko'ra, samarali natijalarga olib keladi. Bilim tizimli ko'renish oladi. O'zlashtirish qobiliyati majmuaviy tarzda umumlashadi. O'quvchilaming fanga bo'lgan qiziqishlari ongli ravishda o'sib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiyl o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari. 2017-yil.
2. Ona tili va o'qish savodxonligi. [Matn]: 1-sinf uchun darslik. 2021-y.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi. [Matn]: 2-sinf uchun darslik. 2021-y.
4. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent. “Fan va texnologiyai” , 2005-y.
5. www. Zyonet. Uz va boshqa internet materiallari.



KITOBOXONLIK - MA’NAVIYAT SARCHASHMASIDIR

Bobojonova Umida,
Xorazm viloyati Bog'ot tumani
45-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Bobojonova Moxira,
Xorazm viloyati Bog'ot tumani
45-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Ataniyozova Umida,
Xorazm viloyati Bog'ot tumani
45-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Inson ma'naviyatining sarchashmasi bo'lmish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantiirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida", intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqeа bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o'rinda xorij tajribasini o'rganish, yoshlар o'rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o'rganish kabi masalalarning ko'tarilgани g'oyatda tahsinga loyiqidir. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, "kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai". Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, "Kitobsiz aql – qanotsiz qush", "Bilim – aql chirog'i", "Go'zallik – ilmu ma'rifatda". Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lни ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyalı, kasbhunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezzulikka undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo'lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

Ibosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

"Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi". Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy



xotirasi, barchamizni o‘z ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash’ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko‘rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o‘z oilasi a’zolari ko’magi va ta’sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a’zolarning kitobga, o’qishga munosabati katta ta’sir ko’rsatadi. Ota-onar har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o’qishda ham bolalariga o’rnak bo’lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o’qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so’rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o’rganish (aniqrog’i o’rganish) muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida” (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish
2. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>



COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING IN TEACHING ENGLISH

Dushanova Dilafruz Nomozboyevna
teacher of English language at school 15,
Sardoba district, Syrdarya region

Annotasiya: The aim of this work is to explain the method of CLT. The paper can be used as a manual for English language teachers to teach English in communicative way.

Key words: CLT, teaching English, skills, accuracy, fluency

Millions of people today want to improve their command of English or to ensure that their children achieve a good command of English. And opportunities to learn English are provided in many different ways such as through formal instruction, travel, study abroad, as well as through the media and the Internet. The worldwide demand for English has created an enormous demand for quality language teaching and language teaching materials and resources. Learners set themselves demanding goals. They want to be able to master English to a high level of accuracy and fluency. Employers, too, insist that their employees have good English language skills, and fluency in English is a prerequisite for success and advancement in many fields of employment in today's world. The demand for an appropriate teaching methodology is therefore as strong as ever. Perhaps the majority of language teachers today, when asked to identify the methodology they employ in their classrooms, mention "communicative" as the methodology of choice. However, when pressed to give a detailed account of what they mean by "communicative," explanations vary widely. Does communicative language teaching, or CLT, mean teaching conversation, an absence of grammar in a course, or an emphasis on open-ended discussion activities as the main features of a course? What do you understand by communicative language teaching? Communicative language teaching can be understood as a set of principles about the goals of language teaching, how learners learn a language, the kinds of classroom activities that best facilitate learning, and the roles of teachers and learners in the classroom. Let us examine each of these issues in turn. Communicative language teaching sets as its goal the teaching of communicative competence. What does this term mean? Perhaps we can clarify this term by first comparing it with the concept of grammatical competence. Grammatical Communicative Language Teaching Today 3 competence refers to the knowledge we have of a language that accounts for our ability to produce sentences in a language. It refers to knowledge of the building blocks of sentences (e.g., parts of speech, tenses, phrases, clauses, sentence patterns) and how sentences are formed. Grammatical competence is the focus of many grammar practice books, which typically present a rule of grammar on one page, and provide exercises to practice using the rule on the other page. The unit of analysis and practice is typically the sentence. While grammatical competence is an important dimension of language learning, it is clearly not all that is involved in learning a language since one can master the rules of sentence formation in a language and still not be very successful at being able to use the language for meaningful communication. It is the latter capacity which is understood by the term communicative competence. Communicative competence includes the following aspects of language knowledge:

- Knowing how to use language for a range of different purposes and functions
- Knowing how to vary our use of language according to the setting and the participants (e.g., knowing when to use formal and informal speech or when to use language appropriately for written as opposed to spoken communication)
- Knowing how to produce and understand different types of texts (e.g., narratives, reports, interviews, conversations)
- Knowing how to maintain communication despite having limitations in one's language knowledge (e.g., through using different kinds of communication strategies) Our understanding of the processes of second language learning has changed considerably in the last 30 years and CLT is partly a response to these changes in understanding. Earlier views of language learning focused primarily on the mastery of grammatical competence. Language learning was viewed as a process of mechanical habit formation. Good habits are formed by having students produce correct sentences and not through making mistakes. Errors were to be avoided through controlled opportunities for production (either written or spoken). By memorizing dialogs and



performing drills, the chances of making mistakes were minimized. Learning was very much seen as under the control of the teacher. In recent years, language learning has been viewed from a very different perspective. It is seen as resulting from processes such as:

- Interaction between the learner and users of the language
- Collaborative creation of meaning
- Creating meaningful and purposeful interaction through language
- Negotiation of meaning as the learner and his or her interlocutor arrive at understanding
- Learning through attending to the feedback learners get when they use the language Paying attention to the language one hears (the input) and trying to incorporate new forms into one's developing communicative competence

- Trying out and experimenting with different ways of saying things. With CLT began a movement away from traditional lesson formats where the focus was on mastery of different items of grammar and practice through controlled activities such as memorization of dialogs and drills, and toward the use of pair work activities, role plays, group work activities and project work. The type of classroom activities proposed in CLT also implied new roles in the classroom for teachers and learners. Learners now had to participate in classroom activities that were based on a cooperative rather than individualistic approach to learning. Students had to become comfortable with listening to their peers in group work or pair work tasks, rather than relying on the teacher for a model.

They were expected to take on a greater degree of responsibility for their own learning. And teachers now had to assume the role of facilitator and monitor. Rather than being a model for correct speech and writing and one with the primary responsibility of making students produce plenty of error-free sentences, the teacher had to develop a different view of learners' errors and of her/his own role in facilitating language learning. Since the advent of CLT, teachers and materials writers have sought to find ways of developing classroom activities that reflect the principles of a communicative methodology. The principles on which the first generation of CLT materials are still relevant to language teaching today. To sum up, CLT can be seen as describing a set of core principles about language learning and teaching, as summarized above, assumptions which can be applied in different ways and which address different aspects of the processes of teaching and learning. Today CLT continues in its classic form as seen in the huge range of course books and other teaching resources that cite CLT as the source of their methodology. In addition, it has influenced many other language teaching approaches that subscribe to a similar philosophy of language teaching.

References:

1. Brumfit, Christopher (1984). Communicative Methodology in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Littlewood, W. (1981). Communicative Language Teaching. New York: Cambridge University Press.
3. Richards, Jack C., and Theodore Rodgers (2001). Approaches and Methods in Language Teaching. Second Edition. New York: Cambridge University Press.
4. Richards, Jack C (2006). Communicative Language Teaching Today. New York: Cambridge University Press.



**BOSHLANG`ICH TA`LIMDA O`QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASH ASOSIDA
BILIMLARINI OSHIRISH USULLARI**

Eraliyeva Gulchehra Bosimbekovna

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani
4-maktab boshlang`ich sinf o`qituvchisi

ANNOTASIYA: Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ta`lim tarbiya berishda kreativ fikrlashga o`rgatish usullari haqida fikrlar bildirilgan

KALIT SO`ZLAR: Ta`lim-tarbiya, fikrlash, kreativlik, “Orzular kemasi” didaktik o`yini, “Muammo” usuli, “Sirli sandiq”.

Bugungi kunda boshlang`ich ta`limning asosiy maqsadi bolani o`qishga bo`lgan ijodiy munosabati, o`qish savodxonligi, turli ma`lumotlar bilan ishlashi, matematik amallarni bilishi, ularni kundalik hayotda qo`llay olishi, mantiqiy va erkin fikrlashi, o`zo`zini boshqarishi, jamoada o`zini tuta bilishi, yozma, og`zaki muloqat madaniyat qoidalarini egallashi, chet tillarini puxta o`rganishi ta`lim poydevorini mustahkamlashdagi omildir. Ta`limiy faoliyatni tashkil etishda o`quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish usullarini qo`llash, ulardan unumli foydalanish ta`lim oluvchining bilim, malaka, ko`nikma o`zlashtirish jarayonini qulaylashtiradi. Atrofga boqsak, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli, aql, idroki, fikrlashi, tasavvur qilishi orqali yaratilgan namunalarga duch kelamiz. Har bir sohada ijodiy fikrlovchi, yangilik yaratuvchanlik qobiliyati bor insonlarga talab katta. Bu jarayonlarga beg`ubor qalb egalarida qiziqish, ularga intilish hissi tez uyg`onadi. Shunday ekan, o`z-o`zidan savol tug`ilishi tabiiy. “Xo`sh, ta`lim oluvchini qanday qilib kreativ fikrlashga o`rgatish mumkin?” Bu savolga javob berish uchun o`quvchida esa yangi fikr, yangi g`oya paydo bo`lishi shart. Yuqoridagi savolga quyidagicha javob oldishimiz mumkin. Matematika darsligining “Takrorlash”, “Mustahkamlash” qismida quyidagi noodatiy savollarni beramiz. 1. “Sizga 10 000 so`m berilsa, uni nimalarga sarflardingiz?” 2. “Sizga 2 soat vaqt berilsa, nimalar bilan mashg`ul bo`lardingiz?” Ulardan bu savollarga kichik guruhlarda ishlash orqali yozma, og`zaki javoblar olamiz. Birinchi savolga o`quvchilar ijobjiy va salbiy fikrda yondashgan. Ba`zi o`quvchi pulni faqat o`z ehtiyoji uchun ishlatishini, maqsadsiz foydalanishini bayon qilgan. Bu salbiy fikr. Yana bir o`quvchi o`z ehtiyojidan orttirib kitob, yangilik yaratish uchun turli buyum narsalar sotib olishini yozgan. Bu ijobjiy fikr. Bu savol orqali o`quvchida topqirlik, bilag`onlik, ijodkorlik masalaga turli nuqtayi nazaridan qaray olish, yashirin jihatlarni ochish, savdo muomalasidagi madaniyat kabi xislatlar rivojlandi. Ikkinci savolga ham yuqoridagidek tartibda javob olamiz. Agar o`quvchi savolni to`la anglab yetmasa, undagi javob past natija bilan yakunlanib, salbiy munosabatlighicha qolar ekan. Ikkinci savolga javob olish orqali o`quvchiga bir kundagi soniyalar qimmati anglatildi, uni behuda sarflamaslik uqtirildi. Bu natjalarga o`quvchilar bilan individual ishslash, sinfda do`stona, hamkorlik muhitini yaratish orqali erishishimiz mumkin. Texnologiya, tasviriy san`at darslarining “Amaliy mashg`ulot” soatida erkin mavzuni tanlaymiz. Texnologiya darsida “Orzular kemasi” didaktik o`yinini qo`llashimiz mumkin. O`quvchilar bu darsda xayoliga kelgan fikrlarni e`tiborsiz qoldirmay, turli xil shakldagi narsa buyum, qurilish ishini yangi g`oyalar orqali yaratadi va kemaga yasaganlarini soladilar.

“Nima uchun shu g`oyani yaratdingiz?” savoliga o`quvchilar ijobjiy, salbiy javob beradi. Bunda o`quvchining o`qish, o`rganishga qiziqishi, mustaqil, erkin fikrashi ortadi, ma`naviy, ilmiy dunyoqarashi kengaydi. Tasviriy san`at darsining yuqoridagi mavzusida “Sirli sandiq” usulini qo`llaymiz. Sinfni 4 guruha bo`lamiz va “Siz qaysi ertak qahramonining salbiy va ijobjiy fazilatlarini yoqtirasiz?” savolini beramiz. “Sirli sandiq” ichiga o`quvchi erkin fikrlab, ko`rgan, bilgan ertak qahramonlarining harakatini salbiy tamonini chizib soladi. Ijobiy fikr bildirgan ertak qahramonlarining suratini o`zlarida olib qolib, guruhlar o`rtasida bahs – munozara bildiradilar. Bunda o`quvchi tushuncha va bilimini, o`z fikrini to`la bayon qilishni, o`rtoqlari tomonidan bildirilgan noto`g`ri fikrlarga erkin qarshi chiga olishni o`rganadi.

2-sinf Atrofimizdagi olam darsligidagi “Suv – hayot manbayi” mavzusini o`tishda “Muammo” usulini qo`llaymiz. Ularning erkin fikrlashi uchun quyidagi muammolarni o`rtaga tashlaymiz.

1. Toza ichimlik suvining kamayib borayotganligi.



2. Suvni toza saqlashga e'tiborsizlik.
3. Ona tabiat in'om etgan suvni ifloslantirish.
4. Sog'lom turmush tarzini yaratishda suvning o'rni.
5. Elektr energiyani tejamaslik nimalarga olib keladi?

Yuqoridagi savollarga barcha o'quvchilar o'z fikrini og'zaki, yozma bayon qilishadi. O'quvhilarning bir-birlariga aytgan fikri ijobiy, salbiy bo'lishi mumin. Ularning fikrini umumlashtirib, jamlab to'ldirib boramiz. Bu usulni qo'llashda hech bir o'quvchining fikri tanqid qilinmaydi. Shunda o'quvchi qo'rqlashtirishga imkon beradi. O'quvchilarda targ'ibot, tashviqot qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Mavzu hayotga bog'lanadi. Muammolar har bir o'quvchida mustaqil tahlil qilinadi. O'quvchilarda erkin fikrini bayon qilish, ijodkorlik, izlanuvchanlik layoqatlari rivojlanadi. Ularda ekologik muhitni toza saqlashga e'tibor kuchayadi. Bu usul mavzuning asosiy tushunchalarini chuqur o'zlashtirishga imkon beradi. O'quvchining yangi g'oyalarga intilishi, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqara olishida namoyon bo'ladi. Ona tili fanining “Takrorlash” mavzusida “So'zlar o'ynadi” o'yinini tashkil etishimiz mumkin. NOK o'ngdan chapga o'qilganda o'quvchini fikrlashga undaymiz KON FAN yana shu takrorlanadi. NAF, BOBUR-RUBOB, NODON-NODON AYIQQIYA, AZIZA-AZIZA, OMMA-AMMO Bu kabi o'yinlarni tashkil etish o'quvchilarda qiziquvchanlikni oshiribgina qolmay, tez fikrlash, epchillik, so'zamollik san'atini kuchaytiradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish jarayonida yuqoridagi kreativ fikrlash usullarini qo'llash kutilgan natijani beradi. O'quvchi o'zini doimo ishonchli his qilishi uchun kattalar tomonidan ularni rag'batlantirib borish darkor. Shundagina farzandlarimiz o'zi qilayotgan ishga, gapirayotgan so'ziga ishonch bilan munosabatda bo'lib qaraydigan, qo'rqlashtirishga imkon beradi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxatি:

1. “O'qituvchi” jurnali. 2020 y
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ish sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash. Toshkent, 2019-yil. “Sharq” nashryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.
3. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2019-yil.
4. www.uzedu.uz internet ma'lumotlari.



DARSLARDA INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Esirgapova Xulkar Sayfiddinovna
Sirdaryo viloyati Bayovut tumani
39-maktabning biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Darslarda interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro bahs-munozarada fikrlash asosida, hamjixatlik bilan hal etishdir.

Kalit so'zlar: So'zli tasavvurlar, zamonaviy metodlar, uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri, Interfaol.

Hozirgi vaqtida ta'limgarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'limgarayonining oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'limgarayonining o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'limgarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoxda. Interfaol ta'limgarayonining metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagicha ta'limgarayonining muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'limgarayonining turlari ko'p bo'lib, ta'limgarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlishga qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'limgarayonining metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'limgarayonining qiziqishini orttirib, ularning ta'limgarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda metodlarni qo'llash va ta'limgarayonining amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. **Darsni interfaol metodlarda tashkil etishning qanday afzalliklari mavjud:** O'qitish mazmuni yaxshi o'zlashtirishga olib keladi; O'z vaqtida o'quvchi-o'qituvchi-o'quvchilar orasida ta'limgarayonining metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagicha ta'limgarayonining muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'limgarayonining turlari ko'p bo'lib, ta'limgarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlishga qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'limgarayonining metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

- O'qitish usullari ta'limgarayonida turli xil ko'rinishlarda kechadi. (yakka, juft, guruh,, katta guruhlar).
- O'quv jarayoni o'quv ehtiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo'ladi. O'zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi. O'quvchida o'zaro muloqotga kirishish, fikr bildirish, fikr almashinish ko'nikmalarishakllanadi. O'quv jarayonida – o'quvchining o'z-o'ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O'quvchi uchun dars qiziqarli o'qitilayotgan ‘redmet mazmuniga aylanadi, o'qish jarayonigaijodiy yondashuv, ijobjiy fikr namoyon bo'ladi.

- Har bir o'quvchini o'zi mustaqil fikr yurita olishga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi.

- Interfaol usulda o'tilgan darslarda o'quvchi faqat ta'limgarayonining mazmunini o'zlashtiribginaqolmay, balki o'zining tanqidiy va mantiqiy fikrlashini ham rivojlantiradi.

Xulosa shuki, bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha mushohada yuritishga, muammolarni o'z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak.

1. Uchta to'g'ri va bitta noto'g'ri

Ta'rifi: Har bir ishtirokchi bir varaq qog'ozda o'rganilayotgan yoki o'rganilgan mavzu bo'yicha uchta to'g'ri fikr va bitta noto'g'ri fikrni yozadi. Ishtirokchilar juftliklarga to'planadilar, varaqlar bilan almashadilar va qaysi fikr noto'g'ri bo'lgan ekanligini aniqlaydilar.

Foydalanish doiralari: Uy ishini tekshirish vaqtida, tabiiy va aniq fanlarda mavzuni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Afzalliklari : Kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, axborotni tanlab olish ko'nikmasini ishlab chiqadi, bolalarni xato topish va fikrlarni ifodalashga o'rgatadi, o'qituvchiga o'quvchilarning bilimlarini tekshirishga imkon beradi.

Qiyinchiliklari: Materialni o'zlashtirib ololmagan bolalar topshiriqni uddalay olmasliklari



xavfi bor. O‘qituvchiga fikrlar aniqligi va to‘g‘riligini kuzatish, mashqni o‘tkazish uchun vaqtini mo‘ljallab olish qiyin, chunki o‘quvchilarda ko‘pincha fikrlarni aniq ifodalash ko‘nikmasi mavjud bo‘lmaydi.

2. *So‘zli tasavvurlar*

Ta’rifi: O‘rganilayotgan masala bilan bog‘liq bo‘lgan eng asosiy so‘zni oling.

O‘quvchilardan ular bu so‘zni eshitganlarida xayollariga keladigan boshqa so‘zlarni tez yozishini iltimos qiling. Bu atigi 2-3 daqiqa sarflanadigan juda qisqa mashq. Bironta so‘zni ham yozmaslik mumkinligi yuzasidan izoh bering. Natijada o‘quvchilar dastlabki so‘z bilan tasavvur qiladigan turli so‘zlardan iborat “bir lahzalik surat” hosil bo‘ladi. Mavzu o‘rganib bo‘lingandan so‘ng har bir o‘quvchidan ular ushbu mavzu bo‘yicha nima deb o‘ylashi yoki his qilishini bir so‘z bilan ifodalashni iltimos qiling. Ushbu mavzuga tegishli bo‘lgan so‘zni misol keltirishni so‘rang. Sinf aylanib, bunday so‘zlarni yig‘ib chiqing. Bir yoki ikki nafar o‘quvchilardan ushbu so‘zlarning ro‘yxatini tuzishni iltimos qiling.

Foydalanish doiralari: Ushbu usul mavzuni o‘rganish jarayonining boshida o‘quvchilar mavzu bo‘yicha nimalarni bilishlarini, hamda bu jarayon oxirida – o‘quvchilar qanday yangiliklarni bilib olganlarini aniqlash maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

Afzalliklari : Bunday usul o‘quvchilarga o‘zlarining shaxsiy rivojini ko‘rishga, sizga esa – siz berayotgan ta’lim sifatini baholashga yordam beradi.

Qiyinchiliklari: Mashq uchun ajratilgan vaqtga qat’yan amal qilish lozim. Jarayonning cho‘zilishi mashq mohiyatini o‘zgartirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzbekistan Respublikasi "Ta’lim tugrisidagi" Konuni T., 1992
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" T., 1997
3. I.A.Karimov "Barkamol avlod orzusi" T., 1996



TA'LIMDA O'QUVCHI SHAXSINI FIKRLASHGA QARATILGAN USULLAR

Fazilova Nursipat Seilxan qizi

Navoiy viloyati Tomdi tumani

16-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Jubangaliyeva Fariza Yergaliyevna

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

8-maktab qozoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada boshlang‘ich sinflarda va qozoq tili darslarida ta’limga qaratilgan e’tiborli usullar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: ilg‘or pedagogik, shaxs, fikrlash, nuqtai nazar, muammo, savod...


Ta’limda o‘quvchi shaxsini fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglash va shu fikrni og‘zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o‘rgatish masalasiga e’tibor qaratilgan bo‘lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o‘rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o‘rganiladi.

Bugungi kun o‘qituvchidan ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o‘quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg‘ulotlarida interfaol metodlarni qo‘llash orqali ta’lim-tarbiya berish yo‘llariga doir fikrlerimizni bayon etamiz. O‘ylaymizki, u o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi. Shuningdek, o‘quvchilarni o‘z yo‘nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko‘nikmalarini shakllantirishdek mas’uliyatlari vazifani bajarishda ularning yaqin ko‘makchilardan biriga aylanadi. Bunda quyidagi usullar yordam beradi.

“MUAMMOLI VAZIYAT” USULI. O‘quvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo‘yicha ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan usuldir. "Muammoli vaziyat" usuli uchun tanlangan muammoning murakkabligi o‘quvchilarning bilim darajalariga mos kelishi zarur. Ular qo‘yilgan muammoning echimini topishga qodir bo‘lishlari kerak, aks holda echimni topa olmaslik, o‘quvchilarning qiziqishlari so‘nishiga, o‘zlariga bo‘lgan ishonchlarining yo‘qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» usuli qo‘llanilganda o‘quvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning echimini topishni o‘rganadilar.

“Muammoli vaziyat” usulining bosqichlari:

- 1.O‘qituvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi.
- 2.Topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
- 3.Kichik guruhlarga ajratiladi.
- 4.Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda muammoning oqibatlari to‘g‘risidagi fikr-mulohazalarni taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni echishning turli imkoniyatlarini muhokama va tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni echish yo‘llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning echimi bo‘yicha taqdimot qiladilar va o‘z variantlarini taklif etadilar.



8 . B a r c h a



taqdimotdan so‘ng bir xil echimlar jamlanadi. Birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo‘llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“NUQTAI NAZARING BO‘LSIN” USULI. *Maqsadi:* o‘quvchilar muayyan muammoga o‘z nuqtai nazarini asosli dalillab, ximoya qilishga o‘rganadilar; o‘quvchiga muammo muhokamasi jarayonida o‘z fikrini o‘zgartirish imkonini berish; o‘qituvchi barcha o‘quvchilarni munozaraga jaib etish va sinfdagi hamma o‘quvchilar o‘rtasida munozara jonlanishini yuzaga keltirishi mumkin.“Nuqtai nazaring bo‘lsin” usuli o‘quvchilar o‘rtasida munozara yuzaga kelishi va ular munozara jarayonida o‘z fikrlarini o‘z sinfdoshlaridan ularning nuqtai nazarini o‘zgartirishga ishontiradigan g‘oyalarni eshitib o‘zgartirish yoki avvalgisini mustahkamlash imkonni berish maqsadida qo‘llanadi. O‘quvchilar shuningdek, maktab, mintaqqa, respublika va jumla insoniyat uchun xarakterli bo‘lgan eng dolzarb muammolar o‘z nuqtai nazarlarini asosli dalillash va himoya qilishga o‘rganadilar.O‘quvchi ochiqdan-ochiq savollar usuli bilan odatda dars jarayonida faol bo‘lmagan o‘quvchilarni munozarada ishtirok etishga majbur qiladi.Mashqni o‘tkazish uslubiyati.

1.Tayyorgarlik:o‘qituvchi sinfning to‘rt burchagiga yoki sinfning ma’lum ochiq makoniga to‘rtta tablichka osib qo‘yadi.

2.Sinf o‘lcham yoki o‘quvchilar soniga bog‘liq holda olti yoki sakkiz ko‘ngillini chaqiradi. Bordi-yu, o‘yinda sinf o‘quvchilarning bir qismi ishtirok etsa, unda qolganlari o‘z joylarida o‘tiraveradilar.



v a

ta’lim-tarbiya jihatlarini tanlaydi,o‘quv jarayonida yuqori sifatga erishadi.Bu esa o‘z navbatida ta’limda samaradorlikni ta’minlaydi, yoshlarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi,yoshlarni jamiyatga munosib qilib tarbiyalaydi.

3.O‘yin paytida band bo‘lishi uchun ishtirok etmayotgan o‘quvchilarga ham topshiriq berish zarur.

“Rasmlar tilga kirganda..” usuli. Bunda o‘quvchilarga aynan bir rasm turli ko‘rinishlarda taqdim etiladi. Ular shu rasmlardan o‘z fikrlarini bayon qiladilar.

Xullas, o‘qituvchi o‘quvchini faollashtiradigan, o‘zi va o‘quvchi uchun qulay bo‘lgan dars shakllarini, yo‘llarni, usul va uslublarni, o‘qitish shakllari, metod vaziyatlarni izlaydi.Texnika asriga mos keladigan

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.“Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”
- 2.“O‘qituvchi nimalarni bilishi kerak?”.O‘quv-metodik qo‘llanma Toshkent.



“USTOZ-SHOGIRD” TIZIMINI AMALGA OSHIRISH OMILLARI

Jahongirov Izzatillo Hamza o‘g‘li,

Navoiy viloyat Xatirchi tumani 4-umumta’lim məktəb

matematika fani o‘qituvchisi

Safarov Oybek Fayzullayevich,

Navoiy viloyat Xatirchi tumani 4-umumta’lim məktəb

boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Xalqimiz azaldan ustozi-shogird an'analarini yuksak qarlab keladi. Ota-onalar ulg‘ayayotgan farzandini komil inson qilib yetishi uchun va muhimi, kelgusida biror kasb-hunar egasi bo‘lib, farovon turmush kechirishini istaydi. Shu maqsad yo‘lida farzandlarini ustozi topshirib turib “Eti-sizniki, suyagi-bizniki” iborasini bot-bot takrorlashdan charchashmaydi. Zero ustozi ko‘rgan shogirdning kelajagi porloq bo‘lishi shubhasiz.

Ustozi! Bu tabarruk kalomni eshitgan har bir qalbda iliq bir mehr, kuchli hayajon va cheksiz hurmat uyg‘onishi tabiiy. Zero allomalar inson kamolotida ustozning o‘rni va maqomini ota bilan bir qatorda, ba’zan esa undan ham yuqori qo‘yishgani bejiz emas. Insoniyat paydo bo‘libdiki, ustozshogirdlik hamisha mavjud va bardavom. Ilm-fan, hayot tajribalari va sir-asrorlarini o‘rgatish orqali ustozi shogirdini kamolga yetkizadi, unga ta’lim-tarbiya va bor ilmini beradi. Bunda yana bir shunday intilish ham borki, u ham bo‘lsa, shogird timsolidha o‘z umrini davom ettirish va qayta yashashga bo‘lgan ishtiyoyqdir. Agar mana shunday buyuk va olivjanob tuyg‘u bo‘lmaganida, balki insoniyat tamaddunning hozirgi darajasiga erisha olmagan bo‘lardi. Insonni ko‘kka ko‘taradigan, uning el aro obro‘sini yuksaltiradigan mezon ilmu-hunar, kasbi-kor, axloq va odobdir. Bularning barchasi shu ulug‘ ustozi ko‘magida egallanadi.

Ustozi va murabbiylarning mashaqqatlari mehnati mustaqillik yillarda tom ma’noda o‘z qadrini, qimmatini topdi. Bugun yurtimizda yosh avlodga ta’lim-tarbiya berayotgan, kasb-hunar sirlarini o‘rgatayotgan ustozlarning zimmasidagi mas’uliyat juda ulkan. Chunki ertangi kun egalari bo‘lmish yosh avlod ongi shuuriga yuksak vatanparvarlik va milliy g‘urur tuyg‘ularini singdiradigan, hayotning past-baland so‘qmoqlaridan dadil odimlashlariga yordam beradigan ham ustozi-u murabbiylardir.

Bugungi kunda mustaqil fikrlovchi, ishonch-e’tiqotli shogirdlarni tarbiyalashda va zamon talabiga mos shogirdlarni yetkazib berishda “Ustozi-shogird” tizimi alohida ahamiyatga ega. Biz oldimizga qanday vazifa qo‘ymaylik, oxir-oqibat baribir kadrlarga borib taqalaveradi. Aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi o‘rnimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda qanday kadrlar tayyorlashga bog‘liq. Darhaqiqat, har bir mashg‘ulot mazmunining kengligi va chuqurligi, uning davlat talablariga muvofiqligi, shogirdlarning ta’lim texnologiyalari va metodikaning to‘g‘ri usulini tanlashi hamda undan unumli foydalanishni talab etadi. Fikrimizdan kelib chiqqan holda, ustozi-shogird tizimi samaradorligining ortib borishini jadallashtirish zarur. Bu samaradorlikni esa, ustozi-shogird tizimida raqobat usullari orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq. Chunki, shogird ustozdan o‘zadi, degan xalq iborasi ham bejiz emas albatta. Ustozi dastlab shogirdiga sinf xonasini ko‘rishi, his qilishi, u bilan birga ishlashi kerakligini o‘qtiradi, hamda darsning zerikarli bo‘imasligiga harakat qilishi, o‘z darsiga shogirdi ko‘zi bilan qarashi lozim bo‘lgan barcha ko‘rsatmalarni berishi mumkin. Ustozi shogirdining darsini kuzatar ekan, uning o‘quvchilar bilan munosabatini kurishi, hamda xato-kamchiliklarini bekami-kust aytishi lozim. Ustozi shogirdlariga strategik rejalar tuzishi va maqsad sari intilishi uchun har qanday metodik yordam ko‘rsata olishi lozim. Demak, ustozi shogirdlariga istiqbol yo‘lida albatta raqobat bo‘lishini ham tushuntirishi kerak.

Ustozi shogirdi hayotda va faoliyatda raqobatga kirishishi hamda o‘zini ro‘yobga chiqarishi uchun eng muhim narsa bu- boshqa odamlar bilan samarali o‘zaro ta’sirga kira olish qobiliyati ekanligini amaliyotda ko‘rsata olishi lozim. Shogird har qanday raqobat holatida to‘g‘ri yo‘l topa olish ko‘nikmalarini va natijalarni to‘g‘ri aniqlay olishi, har bir kishidan rang-barang shaxisy xususiyatlar va qobiliyatlarini talab qilishni bilib boradi. Shogird natijada o‘zining mustaqil harakat qilishi uchun katta imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Demak, raqobat usuli shogirdni har tomonlama tayyor kadr bo‘lib yetishishiga sababdir. Ustozi-shogird munosabatlarida mustahkam pedagogik-psixologik ko‘rsatmalar ham shakllanib borishi mumkin.



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA
BERISH XUSUSIDA

Jalilova Zebiniso Esanovna,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon:+998 91 335 78 72
Farmonova Nilufar Qutbiddinovna,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon:++998 94484 88 85

Annotatsiya: Maqolada fanlarni o'qitishda o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirish, xususan ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida ekologik ta'lism-tarbiyaga oid materiallarning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Pedagogik, tizim, unsurlar, inson, tabiat olami, suv, havo, o'simlik, hayvonot olami, she'r, matn, audiomatn, hikoya, rasm, suhbat, qushlar.

Ekologik muammolarning ilmiy, iqtisodiy, texnik, gigiyenik, yuridik, estetik, pedagogik kabi yo'nalishlari mavjud. Bu yo'nalishlar ichidan pedagogik yo'nalish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik yo'nalishda ekologik ta'lism va tarbiya berish ko'zda tutiladi. Ekologik ta'lism deganda o'quvchilarga berilishi lozim bo'lgan tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni ifodalovchi bilimlar tizimi tushuniladi. Ekologik tarbiya esa insonning atrof-muhitga nisbatan munosabatini tarbiyalashdir. Ekologik ta'lism-tarbiyadan bosh maqsad ham turli yoshdag'i kishilarda atrof-muhit va uning muammolariga ongli munosabatni shakllantirishdan iborat. Atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazadi. Bugungi kunda inson bilan tabiat o'rtasidagi muammolarni yechish zaruriyati tug'ildi.

Qadimdan ota-bobolarimiz yer, havo, suv va olov (quyosh) singari unsurlarni e'zozlab kelishgan va ularga nisbatan yuqori darajada munosabat bildirishgan. Suvni isrof qilish katta gunoh hisoblangan. Daryolar musaffoligini saqlash, tuproq unumdorligini oshirish, suvdan behuda foydalanmaslik, tabiat olamini asrab-avaylash, o'rtasida uyg'unlikni ta'minlash eng muhim vazi-falardir. Yoshlar ongida ana shunday tasavvurlarni hosil qilishda ekologik ta'lism-tarbiyaning asosiy elementlari hisoblanadi. Bugungi kunda o'quvchilarga ekologik ta'lism-tarbiya berish umumta'lism mакtablarida asosiy e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lism-tarbiya berish maqsadida ona tili va o'qish savodxonligi, tabiatshunoslik, tarbiya, texnologiya va boshqa fanlari tarkibiga atrof-muhit, tabiat olamini asrab-avaylash haqida alohida mavzular kiritilgan. Quyida boshlang'ich sinflarning "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklaridagi ekologik ta'lism-tarbiyaga yo'naltirilgan o'quv materiallaridan namunalar keltiramiz. 1-sinfda Shukur Sa'dullaning "Bahor keldi", Tursunboy Adashboyevning "Dilmurodning vaqt yo'q", Dilshod Rajabning "Bahor" va Anvar Obidjonning "Kim tuzatadi?" she'rlari; "Suvning vatani", "Asalari qanday boqiladi?", "Izzatning jo'jalari" va "Abrorning hikoyasi" matnlari; 2-sinfda "Qishda uxlaydigan hayvonlar" va "Sayohatchi qushlar" mavzulari bo'yicha rasm asosida suhbat, "Qo'ng'ir ayiq" va "Ko'chmanchi qushlar" audiomatni; "Qish ro'moli" matni va "Qish ro'moli" matni asosida berilgan topshiriqlar ustida ishslash, "Qizil kitob"dagi hayvonlar haqida hikoya yozish; "Dunyo tomonlari", "Qurbaqa va o'rdak suhbat" va "Qanoqli do'stlar" she'rlari, "Qaldirg'ochlar hayoti haqida matn yozish" kabilalar; 3-sinfda "O'zbekistonning o'ziga xos tabiat", "Dunyo okeanlari" xarita asosida suhbat; "Yurtim guli -xongul", "Dunyo okeanlari haqida", "Baraka daryosi", "Ko'chat ekish sirlari" mavzularida audiomatnlar, "Tabiatni asraymiz" ("Ozon" qatlami audiomat), "Tomorqa" mavzusida rasm asosida suhbat, "Yaylov rohati", "Bog'im" va "Yer chopil-javob topil" she'rlari; "O'zbekistonning tabiat haqida" matn yaratish; "Qo'rroq bug'u", "Ikki to'lqin", "Inson nima uchun hammadan kuchli" va "Ikki irmoq" ertaklari; "Okeanlarda yashovchi hayvonlar haqida" tasviriy matn, "Baraka daryosi" suv havzalari va gerb haqida suhbat "Tabiatni qanday asrash mumkin" matn yaratish, "Pomidor yetishtiramiz" loyihasi kabilarning berilganligi shular jumlasidandir.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslaridagi yuqorida keltirilgan mavzularda suv va havo, o'simlik va hayvonot olamiga taalluqli fikrlar ifodalangan bo'lib, she'riy va nasriy matnlarni tahlil



qilish, rasmlar chizish, suhbat o‘tkazish, audiomatn tinglash orqali bolalar tabiat olami haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalar hosil bo‘ladi. Masalan, 2-sinfda Quddus Muhammadiyning “Qanotli do‘stlar” she’rida shoир zarg’aldoq, qarqunoq, laylak, mayna, qaldirg’ och, chittak, bulbul, musicha, qizilishton, turna, g’oz, popishak bahorda yurtimizga uchib kelishini bu qushlarnu sog‘inib kutgan o‘quvchining quvonchi, qushlar kelguncha makte- bida bog‘ barpo etilishi, bog‘dagi daraxt shoxlariga qushlar uchun in yasaganligi, endi bog‘da qushlar hidlasin deb rang-barang gullarni ekilganligi tasvirlanar ekan, she’r “Biz o‘qiyimiz, siz sayrang, qo’shiqchi qushlar” degan misralar bilan yakunlanadi. Darsklardagi bunday materiallar butun tabiat olamini, qushlar, jonivorlarni muhofaza qilish, ularni asrab-avaylash nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Umuman olganda, pedagogik yo‘nalishdagi ekologik ta’lim va tarbiyada o‘quvchilarda tabiat go‘zalliklarini his eta olish, tabiatni muhofaza qilishda qat’iyatli bo‘lish, tabiatga zarar yetkazmaslik, tabiat boyliklaridan bugungi va kelajak avlodlar ehtiyojlarini qondirishni hisobga olgan holda foydalanish, atrof - muhitni obod qilishga intilish, uni ozoda va xushmanzara holda saqlash kabi bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘. M. Asqarova, M. Xayitboyev, M. S. Nishonov. Pedagogika. Toshkent. “Talqin” 2008-y.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi. [Matn]: darslik 1-sinf uchun . – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021-y.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi. [Matn]: darslik 2-sinf uchun . – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022-y.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. [Matn]: darslik 3-sinf uchun . – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022-y.
5. www.ziyonet.uz



UCHINCHI RENESSANS BUNYODKORI

Jo‘rayeva Nozimaxon Halimjonovna

O‘zbekiston tumani 57-maktabi

tarbiya fani o‘qituvchisi

e-mail:jurayevanozima@mail.ru

Annotatsiya: uchinchi Renessans g‘oyasini yangi O‘zbekiston poydevorlarini tashkil etadi. Bunday uyg‘unlik jamiyat ravnaqiga xizmat qilib, insonlarni ma’rifat sari yetaklaydi. Har bir sohada bu g‘oyani anglab yetish, ayniqsa, tarix fani o‘qituvchisi oldida turgan asosiy maqsad o‘quvchiga tushuntirish bo‘lishi lozim.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, uchinchi Renessans, jamiyat ravnaqi, ma’rifatli xalq

Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans davri va bu davr bunyodkorlari qanday bo‘lishi kerak? Uchinchi Renessans bunyodkorlarini tarbiyalashda qaysi buyuk allomalarimizning ma’naviy me’rosidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi? Tarixga nazar tashlasak, xalqimiz IX-XII va XIV-XVI asrlarda Sharq Uyg‘onish davrini yaratgan. Bu rivojlanish Yevropa Renassansiga kata ta’sir ko‘rsatgan. Fikrimcha, Uchinchi Renessans yuzaga kelishi yangi tarix boshlanishi uchun ma’rifat va ma’naviyat birligi zarur. Shuningdek, kuchli iqtisodiy va kuchli ma’naviy mujassamligi Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessansning poydevorlarini tashkil etadi. Bunday uyg‘unlik jamiyat ravnaqiga xizmat qilib, insonlarni ma’rifat sari yetaklaydi. Ma’rifatli xalq ma’rifatli jamiyatni tashkil etadi. Bunday jamiyat a’zolarini hech qanday kuch yenga olmaydi. Zero, bugun dunyoni ma’rifatli yoshlar egallaydi. Insonning chuqur bilimga ega bo‘lishi, is’tedodini kashf qilish vositasi – ta’lim ekanligini yoddan chiqarmasligimiz zarur.

Bugungi kunda ta’lim sohasida qabul qilinayotgan yangi qonunlar mamlakatimizni yanada rivojlantirishga xizmat qilayotgani hech kimga sir emas. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyoti maktab ostonasidan boshlanishi ayni haqiqatdir. “... Yangi O‘zbekistonni barpo etishning ikkinchi asosiy ustuni – ajdodlarimiz boy me’rosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”, - deya ta’kidlagan edi yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev.

Mening fikrimcha, kuchli ma’naviyatli, ma’rifatli jamiyat bunyodkorlarini tarbiyalashda Navoiy hazratlarining boy ma’naviy me’rosi katta ahamiyatga ega.

Dostonlar, rivoyatlar, afsonalar Navoiy va Guli muhabbatи haqida besh asrdan buyon eshitib kelamiz, o‘qiyimiz. Bu haqida XX asr adabiyotida ko‘plab asarlar yaratildi. Afsonalar ortida tarixiy haqiqat bormi? Navoiyning muhabbatи kim? Navoiyni anglashda uning dunyoga bo‘lgan munosabati, muhabbatи va muhabbatga bo‘lgan qarashlari biz uchun qiziq.

“Inson qancha buyuk bo‘lsa, uning hayotga munosabati ham shuncha teran, zalvorli bo‘ladi” – deb ta’kidlaydi Navoiy. Bu shuni ko‘rsatadiki, Navoiy inson deya atalmish xilqatga buyuk hurmat bilan qaraydi. Axloqiy va insoniy fazilatlarni o‘zining asarlarida madh etadi.

Alisher Navoiy asarlarida yor timsoli mavjud. Uning muhabbatи Ollohga, Rasulullohga, kamolotga, insonga qaratilgan. Men Navoiy haqida shuni atmoqchimanki, u din-u diyonatni mahkam ushlagan, bu yo‘ldan aslo adashmagan ulug‘ siymo edi. Navoiy yaxshilarga qo‘silish, yaxshilar suhabatida bo‘lib, har vaqt xushmuomalalik, olivjanoblik, insoniylik bilan xalqning hurmatini qozonish mumkinligini kuylaydi. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy iymon, insof, diyonat, saxovat, muruvvat kabi insoniy qadriyatlarga hamisha amal qilib yashadi. Boshqalarni ham shunga da’vat etdi. Butun hayot va faoliyatini inson baxt-saodati, xalqning farovonligiga bag‘ishladi.

Vatanga muhabbatli, yuragida shiddat-u shahd bo‘lgan, bardoshli, intiluvchan, sadoqatli, jonkuyar, ma’rifatli yoshlarni tarbiyalashda Alisher Navoiyning boy ma’naviy me’rosidan foydalanish Uchinchi Renessans bunyodkorlari uchun eng yaxshi natija berishiga ishonaman.

Har qanday buyuk rejalar, buyuk g‘oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma’naviy kamoloti bilan bevosita bog‘lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Aks holda u havoyi orzu havasligicha qolib ketadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.ziyyonet.uz.

2.pedagog.uz

3. Abdurahim Erkayev. Uchinchi Renessans — milliy g‘oya sifatida. Xalq so‘zi, 2022.



BOSHLANG`ICH SINF O`QISH DARSLARIDA ADABIY TAHLIL

Jumaniyozova Mavjudा,

Xojamuratova Nigora Xorazm viloyati

Qo`shko`pir tumani 5- son

IDUMning boshlang`ich ta`lim fani o`qituvchilari

Tel + 99-897-859-80-89, 99-500-10-27

nigoraxo`jamurotova@gmail.com

Annotatsiya: Boshlang`ich sinf darslarida badiiy asar matnini tahlil qilish usullari, badiiy asar ustida ishlashda tanlab o`qish matnni tasvirlash , har bir janrdagi asar matnlarini o`qitish usullari , asar mazmunini tahlil qilish .

Kalit so`zlar: Ifodali o`qish, ongli o`qish, to`g`ri va ravon o`qish , tanlab o`qish , sintez-analiz- sintez jarayoni.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so`ng boshlang`ich sinflar uchun yangi dastur va darsliklar yaratildi. O`qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko`proq ahamiyat berilib , matn ustida ishlash yuzasidan xilma xil topshiriq turlaridan , texnika vositalaridan foydalanishga ko`proq e`tibor berildi.

Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to`g`ri , tez, ongli, ifodali o`qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi.

2. O`quvchilarning hayot tajribasiga tayanish badiiy asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

3. Boshlang`ich sinf o`qish darslario`quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtiradi va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi.

Boshlang`ich „O`qish kitobi“dagi turli janrdagi badiiy va ilmiy va ommabop maqolalar berilgan. Asarni tahlil qilishda uning hissiy ta`sirini ham hisobga olish zarur. O`quvchi matnni o`qibgina qolmasdan , muallif hayajonlangan voqealardan hayajonlansin. Bizga ma`lumki, badiiy asarda hayot obrazlar orqali aks ettiriladi. Uning markazida inson, uning tabiat va jamiyatga munosabati turadi.

Boshlang`ich sinflarning o`qish darslarida garchi ilmiy jihatdan bo`lmaseda , amaliy jihatdan turli janrga mansub asarlar o`qib o`rganiladi. O`qish darslariga asosan, hikoya, she`r, ertak, masal, maqol, doston, rivoyat, va topishmoq kabi janrdagi asarlar kiritilgan. Bulardan tashqari, ilmiy – ommabop asarlar ham o`qitiladi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o`ziga xos hususiyatlarga ega bo`lib , ularning o`quvchilarga ta`siri ham har xil bo`ladi. Shunga ko`ra turli janrdagi badiiy asarlarni o`qishda o`qituvchidan unga mos usullar tanlash va kreativ ijodkorligi talab etiladi.

O`qish darslarining tarbiyaviy imkoniyatlari o`quv imkoniyatlari o`quv materialining mazmunigagina emas , shu bilan birga o`qitish metodlariga ham bog`liq. O`qituvchi foydalanadigan o`qitish metodlari va usullari tarbiyaviy vazifalar bilan uzbek ravishda qo`shilib ketadi. Bu metod va usullar o`quv materialining mazmuni bilan birgalikda o`quvchilarda dunyoqarashni shakllantirishda ishtirot etadi , ahloqiy ko`nikmalar paydo qilishda yordam beradi , shaxsnинг xilma- xil iradaviy tomonlarini belgilaydi va bu bilan ularning atrof- muhitga bo`lgan munosabatini shakllantirishga ta`sir etadi.

O`qituvchi matn ustida ishlashni to`g`ri tashkil etib , o`quvchilarni asarning g`oyasini to`g`ri tushunishga moxirlik bilan yo`llay olgandagina o`quv darslarining tarbiyaviy imkoniyatlari amalgalashirishi mumkin. Asar g`oyasi hamma vaqt ham qandaydir umumiylar holatlarda shakllanavermaydi. U asar qahramonlarining hulq – atvorini baholashdan, ularga beriladigan tavsiflardan kelib chiqadi, o`quvchilarning qahramonlar hulqiga va ish- harakatiga bo`lgan munosabati bilan belgilanadi.

O`qituvchi shuni nazarda tutmog`i kerakki , badiiy asarni ahloqiy tarbiya nuqtai nazaridan tahlil qilish yuzasidan olib boriladigan ishni adabiy qahramonning ahloqiy sifatlarini aniqlash bilan cheklab bo`lmaydi.

Asarni o`qish va tahlil qilish jarayonida ko`p jihatdan o`quvchining o`qiladigan asarnidrok qilishga qanchalik tayyor ekanligiga bog`liq. Tayyorgarlik ishlarida maqsad dastlabki idrokning to`laligi va yorqinligini ta`minlashdir .



Ahloqiy tarbiya matnning mazmunidan, aar qahramonlarining hatti-harakatlari va xulq – atvori motivlarini baholashdan kelib chiqib, amalga oshirilishi lozim. Vatanga muhabbat, do`stlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, samimiylilik kabi ahloqiy tushunchalarni emotsional xis qilgandagina anglab oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.-T.: O’zbekiston, 1998.
2. I.A. Karimov. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch- T.:Ma`naviyat 2008.
3. “Xalq ta’limi” 2018. Xalq ta’lim 2014. “ilmiy metodik jurnal”.



O‘QITISHDA INTERFAOL USLUBLAR VA YANGILIK YARATISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

Madeshov Talg‘at Sanaqulovich

Qayipova Gulzira Baqtibayevna

Navoiy viloyati Tomdi tumani

17-maktab qozoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘qitishda interfaol uslublar va yangilik yaratish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Interfaol metod, Panelli munozara, texnologiyalar, usullar, guruh...

Interfaol ta’lim metodlarining turlari ko’p bo’lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlisha qo’llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to’g’ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o’zaro muloqotda, o’zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o’rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Quyida ushbu masala yuzasidan umumiyl mulohazalarini keltiramiz.

Bu metodlarni tasniflashda ularni interfaol metodlar, interfaol ta’lim strategiyalari, interfaol grafik organayzerlarga ajratish mumkin.

“3x4” texnologiyasi.

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg’ulot o‘quvchilarni aniq bir muammoni yakka holda (yoki kichik jamoa bo’lib fikrlab hal etish, yechimini topish, ko’p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni ummlashtirish va ular asosida qo’yilgan muammo(yoki mavzu) yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, fikrlarni ma’qullay olishga o’rgatadi. Bu texnologiya o‘quvchilar bilan avval yakka holda, so’ngra ularni kichik guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o’tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi: o‘quvchilarning erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoat bo’lib ishlashga, intilishga; fikrlashni jamlab, ularni nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o’z fikrini o’tkazishga, uni ma’qullahga; qo’yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiyl tushuncha berishda o’tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo’llay olish o’rganish.

Texnologiyaning qo’llanishi: seminar, amaliy va labaratoriya mashg’ulotlarida yakka tartibda (yoki kichik guruhlarga ajratilgan holda) o’tkazish hamda guruh a’zolarini bir necha marotaba joylarini o’zgartirib berilgan vazifalarni bajarishga mo’ljallangan.

Panelli munozara” usuli.

Ta’rif: Katta guruhda o’tkaziladi (40 kishi va undan ortiqroq):

1. Munozara muammosi o‘qituvchi tomonidan ifodalanadi;
2. O‘quvchilar 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga bo’linib, auditoriyada doira shaklida joylashadilar;
3. Har bir guruh a’zolari munozara davomida ularning nuqtai nazarini himoya qiladigan vakilni yoki raisni tanlab oladilar;
4. Muammo kichik guruhda 15-20 daqiqa davomida muhokama etilib, umumiyl nuqtai nazar ishlab chiqiladi;
5. Guruhlar vakillari doira o’rtasiga to’planib, guruhning nuqtai nazarini himoya qilish uchun guruh fikrini bayon etish imkoniga ega bo’ladilar. Qolgan ishtiroychilar muhokama jarayoni va kichik guruhlar vakillari umumiyl nuqtai nazarini qanchalik aniq ifodalayotganlari kuzatadilar. Ular o’z fikrlarini bayon etishlari mumkin emas, lekin muhokama davomida o’z mulohazalarini yozib qo’yan kichik maktublarni uzatish imkoniga ega bo’ladilar;
6. Guruhlar vakillari boshqa a’zolar bilan maslahatlashib olish uchun tanaffus olishlari mumkin;
7. Panelli muhokama ajratilgan vaqt tugaganidan so’ng yoki qaror qabul qilinganidan keyin yakunlanadi;
8. Munozara tugaganidan so’ng guruhlar vakillari muhokama qanday kechganligi yuzasidan



tanqidiy mulohaza yuritadilar, qarorlar esa barcha ishtirokchilar tomonidan qabul qilinadi.

Afzalliklari: Ishtirokchilarga berilgan muammo bo'yicha fikr almashish va uni hal qilish uchun o'z nuqtai nazarini bayon etish imkonini beradi. Tahliliy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Qiyinchiliklari: “Panelli munozaraning” barcha ishtirokchilari muhokama qilinayotgan muammoni yechishdan manfaatdor bo'lishlari muhim ahamiyatga ega, chunki faqat shundagina auditoriya e'tibori begona narsalarga chalg'ib ketmaydi.

O'qitishning interfaol uslublari.

ARXIV.UZ

1. KOGNITIV (cognito – lotincha so'z bo'lib, “bilim”, “bilish” ma'nosini anglatadi) – eng avvalo, o'quvchilarning tafakkurini shakllantirishga yo'naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan uslubdir.

2. EKSPERIMENTAL o'quvchilarning “jonli”, shaxsiy tajriba orttirishlariga yo'naltirilgan.

3. ROLLI O'YINLAR, MODELLASHTIRISH hayotiy vaziyatlarni modellashtirish hamda ma'lum rollarni ijro etish orqali ulami sinab ko'rishga yo'naltirilgan (uslub jamoa tafakkuri, muhokama bilan bog'liq, ammo muhokama rolli o'yin tahlili asosida olib boriladi).

4. FASILITATSIYA (inglizcha facilitate – osonlashtirish) – guruh ishini tashkil etish, ko'pincha aniq, haqiqiy, amaliy topshiriqlar bilan bog'liq, aniq qaror qabul qilish bo'yicha muhokama, faoliyatning haqiqiy rejasini ishlab chiqish, haqiqiy, mojaroli manfaatlarni muvofiqlashtirishga mo'ljallangan.

ARXIV.UZ

Xullas, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega. Ta'lim amaliyotida foydalanilayotgan har bir interfaol metodni sinchiklab o'rganish va amalda qo'llash o'quvchi-talabalarning fikrlashini kengaytiradi hamda muammoning to'g'ri echimini topishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchi-talabalarning ijodkorligini va faolligini oshiradi. Turli xil nazariy va amaliy muammolar interfaol metodlar orqali tahlil etilganda o'quvchi-talabalarning bilim, ko'nikma, malakalari kengayishi va chuqurlashishiga erishiladi.

Adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev.J.G.Yangi pedagogik texnologiya yo'nalishlari, muammolar, yechimlari. “Xalq ta'limi”, 1999, №4. B.4-11.

2. Farberman. B.L. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. T.,2001-yil



MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATION TECHNOLOGY ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

Matchanova Orzигул,

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
24-maktab matematika fani o'qituvchi

Qurbanova Dildor,

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
45-maktab matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada innovation texnologiya maqsadi, iterfaol usullarnin o'qitish vazifasidagi o'rni va o'tkazish yo'llari haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: innovation, interfaol, og'zaki va yozma hisoblash, masalalar, topshiriqlar, usullar, o'quvchilar faoliyati.

Talim-tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo`nalishlari shu faoliyatdan ko`zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga yani texnologiyalarga aylanib bormokda. Huddi shu kabi talim-tarbiya sohasida ham so'ngi yillarda innovation texnologiyalarni qo'llab o'qitish orqali ham yuqori samaralarga erishilmoqda.

Maktablarda ham innovation texnologiyani qo'llab bundan ham yuqori natijaga erishilsa bo`ladi. Biz barcha mavzularni innovation texnologiyalar asosida o'tish kerak degan fikrdan yiroqmiz. Dars mavzusiga qarab innovation texnologiyalar asosida yoki ananaviy tarzda o'tkazilsa maqsadga muvoffiq bo'ladi. Bazi maruza darslari akademik litsey o'quvchilarini zeriktirishi mumkin, sababi bolalar o'smirlik davrida betoqat, qiziqqon bo'lishadi va darslardan tezda zerikishi mumkin. Shuning uchun innovation texnologiyalarni darsda qo'llab 'quvchilarning darsga aktivligini, qiziqishini oshirsa va ularga kerakli bilimni bera olsa o'qituvchi darsda o'z oldiga qo'yan ijobiy maqsadiga erishadi. Innovation texnologiyani darsda qo'llashda darsning mavzusiga karab, darsning maruza yoki amaliy mashg'ulot ekanligiga qarab tanlanadi. Hozir sizlarga innovation texnologiyani qo'llab dars o'tish jarayoni bilan qisqacha tanishtirib o'tamiz. Mavzu: «Haqiqiy sonlar».

Bu mavzuga matematika fanidan maktablar uchun o'quv dasturidan 14-dars soati ajratilgan bu vaqtadan unumli foydalanish uchun innovation o'quvchining eshitish qobiliyati susayadi va charchaydi. Bu holat o'quvchini loqayd eshituvchiga aylantiradi. Maruza qancha uzoq davom etsa, samaradorlik shuncha kamaya boradi. Shuning uchun maruzani kichik innovacion texnologiya darajasida quyidagicha tashkil etish o'quvchilar uchun qulaylik tug'daradi. Maruzachi o'z maruzasini bir necha bloklarga bo'ladi. Ammo uni tanqid ostiga olmay, boshqalarning fikrlarini ham tinglaydi. Bu holat maruzaga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga o'zgartiradi, maruzaga befarq qaramaslikka sabab bo'ladi. O'quvchilarni yakka tartibda suhbatga tortish 5 daqiqagacha davom etadi. Maruzagchi o'quvchilarning qiziqish, intilish, masuliyati oshib borishini kuzatib boradi. Maruza davomida muntozam faol ishtirot etuvchilar, teran fikr bildiruvchilar maruzachining tayanchiga aylanadi. Maruza davomida mavzuni sekin-asta o'quvchining kundalik faoliyatiga doir misollar bilan bog'lab boriladi va qisqa munozaralar orqali tegishli echimlar topiladi. Shu holatda kechgan maruzalarda o'quvchilar vaqt qanday o'tganini bilmay qoladilar.

Maruzaning yana davom etishini hohlab, befarqlik o'rnnini hushyorlik, ichki intilish, echim qidirish egallaydi, o'zлari ham echimni topishda shaxsan ishtirot etishga hissa qo'shishga intiladilar. Bunday maruzalar har ikki tomonning o'zaro faolligini oshiradi, navbatdagi munozaraga chorlaydi. Biz hozir «Haqiqiy sonlar» mavzusini mavzularga ajratib olamiz va ikki qismga ajratamiz bu qismlar yuqorida aytib o'tganimizdek to'rt dars soati, yani ikki juftlik darsga ajratib olamiz va shu ikki juftlik darsni maruzaga ajratamiz, qolgan 10 soat dars amaliy mashg'ulotga qoladi. Avvalo biz innovation texnologiyaning shu mavzuga mosini tanlab olishimi zarur.

Pedagogik texnologiyalarni amalga oshirish uchun o'ziga xos vositalari zarur bo'ladi.

Verbal vositalarining asosini axborot tashkil qiladi. Ular so'zlar bilan ifodalananadigan axborotlar bo'lib, ularni so'z orqali ifodalab berish uchun o'qituvchi uni o'zlashtirgan bo'lishi, yani shu axborot



haqidagi bilimga ega bo`lishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik texnologiyalarning verbal vositalarini o`qituvchining bilimlari darajasidagi axborotlar tashkil qiladi. Verbal muloqot shakllari har hil bo`lib, ularning asosiylari nutq so`zlash, maruza, suhbatlashish, savol so`rash, savolga javob berish, bahs, munozara, muzokara, xabar berish, kengash, maslahat, nasihat, tanbeh, salomlashish, xayrlashish kabilarni o`z ichiga oladi. Ushbu verbal muloqot shakllarida qo`llaniladigan nutq intenatsiyalari so`zlovchilarning fikrlaridagi uning maqsadiga muvofiq bo`lgan mano mazmunlarni chuqurlashtirish, yaqqollashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. “Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori” Toshkent. “Sharq” 1997y. [1]
2. J.G’. Yo`ldoshev,S.A.Usmonov. “Pedagogik texnologiya asoslari” Toshkent. “O`qituvchi” 2004 y. [2]
3. N.N. Azizzo`jaeva “Pedagogik tehnologiya va Pedagogik mahorat” Toshkent. “AvtoNashr” 2006y. [3]



**HUQUQIY DAVLAT VA FUKAROLIK JAMIYATINI QURISHDA BARKAMOL
AVLOD TARBIYASI**

Matkarimov Sardorbek

Xorazm viloyati Hazorasp tumani,

5 – son mактаб о’qитувчisi.

Telefon +99893 759 93 00

Annotatsiya: Huquqiy madaniyatni shakllantirish aynan yosh avlodning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan. Bu borada farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, ta’lim-tarbiya, madaniyat, san’at va sport maskanlarini barpo etish, ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o’zimizning asosiy vazifalarimizdan biri deb bilamiz.

Kalit so’zlar: Huquqiy, madaniyat, shakllantirish , yosh, avlod, savodxonlik, ta’lim, tarbiya, madaniyat, san’at, sport, takomillashtirish.

Mamlakatimizda istiklol yillarda ijtimoiy xayotning barcha jabhalarida aholi turmush tarzining farovonligini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli islohotlar olib borilmokda.Ta’kidlash lozimki,yoshlarni har tomonlama ko’llab-kuvvatlash va barkamol avlodni tarbiyalash ishlarni olib borish isloxtlari tizimida asosiy o’rinni egallab kelmoqda. Xozirgi kunda O’zbekistonda bola huquqlari bo’yicha bir kancha qonunlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Maxkamasi karorlari va boshka me’yoriy-huquqiy xujjatlar qabul kilingan. Eng muhimi, mamlakatimizda bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish bo’yicha kompleks huquqiy asoslar yaratildi.

Ayniksa, 2008 yil 8 yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to’g’risidagi qonun O’zbekistonda bola huquqlariga oid birinchi tarixiy xujjat bo’ldi.Mazkur qonunning qabul qilinishi, birinchidan, bola huquqlariga oid qonun xujjatlarining kodifikatsiya kilinishiga zamin yaratishga, ikkinchidan, BMTning Bola huquqlari to’g’risidagi konventsiyasida belgilangan bola huquqlarini himoya qilishga oid xalkaro standartlarga milliy qonunchilikning mosligini ta’minlashga xizmat kiladi. Uchinchidan, bola huquqlarini himoya qilish mexanizmining oshkora va samarali bo’lishi uchun bola huquqlari himoya qilinishining anik kafolatlarni belgilab olishga imkoniyat berdi.

Shuningdek, 2010 yil 30 sentyabrda “Voyaga yetmaganlar o’rtasida nazoratsizlik va huquqbazarliklarning profilaktikasi to’g’risida”gi qonunning amalga kiritilishi bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada mustaxkamladi. Ya’ni ushbu qonun voyaga yetmaganlarning nazoratsizligini va ular o’rtasida huquqbazarliklar kelib chikishining oldini olishga karatilgan kompleks huquqiy chora-tadbirlar tizimini belgilab berdi. Mustakillik yillarda mamlakatimizda bolalarni ijtimoiy-iktisodiy va madaniy jixatdan ko’llab-kuvvatlash hamda ularga keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan o’ta muhim umummilliyl davlat dasturlari qabul kilindi. Endilikda ular bosqichma-bosqich amalga oshirilmokda. Bunday muhim xujjatlar yurtimizda inson huquqlari, shu jumladan, bola huquqlari va manfaatlarini har tomonlama himoya qilish borasida uziga xos huquqiy tarakkiyotga erishilganligining yorkin amaliy ifodasıdir.

Umuman aytganda, bugungi kunda O’zbekistonda bola huquqlari va manfaatlarini himoya qilish buyicha uziga xos milliy-huquqiy tizim shakllangan bulib, ayni paytda mamlakatimiz bu yulda dadil kadam tashlayotgan davlatlardan biridir. Mamlakatimizda bolalar huquqini himoya qilishning zarur huquqiy bazasi yaratilgan bo’lib, mustakillikka erishilgandan so’ng O’zbekiston qo’shilgan ilk xalkaro shartnomalardan biri bu BMTning bola huquqlari to’g’risidagi konventsiyasidir.

Inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asosi avvalo O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan me’yorlar va qonunlarga tayanadi. Milliy qonunchilikdagi ustuvor yunalishlardan biri - bu bolalikni muhofaza qilish buyicha BMT xalkaro konvensiyalari qoidalarini implementatsiya qilishdan iborat bo’lib, mazkur yunalishda YuNISEF bilan faol xamkorlik ishlari olib borilmokda.

O’zbekiston Respublikasi 1992 yil 9 dekabrda BMTning bola huquqlari to’g’risidagi konventsiyasini ratifikatsiya qilishi bola huquqlariga oid davlat siyosatining shakllanishi uchun zamin yaratdi va ushbu siyosat bola huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish bilan bog’liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish uchun samarali mexanizmni yaratishga qaratilgan davlat organlari va maxalliy davlat xokimiyati organlarining izchil olib borilayotgan faoliyatida namoyon bo’lmokda. Shu bois, bola huquqlarini ta’minlash va himoya qilish uchun zarur bo’lgan huquqiy va



ashkiliy sharoitlar va kafolatlar yaratish O’zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yunalishlaridan biri xisoblanadi. Huquqiy davlat va fukarolik jamiyatini qurishda barkamol avlodni huquqiy jihatdan yetuk va barkamol inson kilib tarbiyalash xozirgi kunda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, huquqiy jixatdan barkamol qilib tarbiyalangan avlodgina qonuniylikni ta’minalash va shu tariqa mamlakat ravnraqi uchun katta hissa ko’shishga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir bo’ladi. Jamiyat siyosiy xayotida huquqiy savodxonlikni urni bekiyos. O’zbekistonda bu muammo ta’lim tizimi va jamiyatda yuzaga kelgan imkoniyatlar orkali izchil amalga oshirib kelinmokda. Bu mamlakatimizda 2016 yil 14 sentyabrda kabul kilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi qonunda ham o’z ifodasini topgan. Unda qo’yilgan vazifalarga erishish, yoshlarning jamiyatdagi maqomini yanada to’laqonli qilish, ijtimoiy himoyalash, ma’naviy, akliy, mexnat, innovatsion salohiyatini faollashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat. Huquqiy madaniyatni shakllantirish aynan yosh avlodning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan. Bu borada farzandlarimiz uchun zarur sharoitlar yaratish, ta’lim-tarbiya, madaniyat, san’at va sport maskanlarini barpo etish, ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo’g’inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o’zimizning asosiy vazifalarimizdan biri deb bilamiz.

Hakikatan ham, hozirgi vaqtida yoshlar tarbiyasi biz uchun o’z dolzarbliyi va ahamiyatini hech kachon yo’qotmaydigan masala bo’lib qolmokda. Bugungi tez o’zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida buyuk imkoniyatlar eshigini ochmokda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko’rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga xam duchor qilmokda. g’arazli kuchlar sodda, g’ur bolalarni o’z ota-onasiga, o’z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotigaxavf solmoqda. Bunday keskin va taxlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla bu masalada xushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo’liga berib qo’ymasdan, ularni o’zimiz tarbiyalashimiz lozim.

Demak xulosa o’rnida shuni aytishimiz kerakki, buning uchun yoshlarimiz bilan ko’prok gaplashish, ularning qalblariga qulok solishimiz, dardlarini bilishimiz, muammolarini yechish uchun amaliy ko’mak berishimiz kerak. Bu borada uyushmagan yoshlar bilan ishlashga aloxida e’tibor karatishimiz zarur. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analaramizga, ajoddolarimizning boy merosiga tayanishimiz zarur. Farzandlarimiz, zamonaviy bilim va kasb-xunarlarini, xorijiy tillarni egallashlari, har tomonlama sog’lom va barkamol bo’lib, xayotdan munosib o’rin topishlari uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash - yurt tarakkiyoti va xalk farovonligining garovi. Toshkent: O’zbekiston, 2016 y.
2. “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi qonun. -Toshkent: 2016 y.
3. Quvondikov I. Huquqiy ma’daniyat va milliy g’oya -Toshkent: O’zbekiston, 2011



**МАКТАБДА BOSHLANG‘ICH TA’LIM FANLARINI O‘QITISHDA ELEKTRON
TAQDIMOTLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI**

No‘manova Maxfuzaxon Murodillayevna

Toshkent viloyat Ohangaron shahar
XTB tasarrufidagi 8 – umumiyo o’rta ta’lim maktabi
boshlang’ich sinf o’qituvchisi
E-mail. maxfuzanomonova71@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang’ich ta’lim fanlarini o‘qitishda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarni va elektron taqdimotlardan foydalishning afzalliklari va uning ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Tayanch so‘zlar: elektron taqdimot, kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv, mutaxassis, elektron qo‘llanmalar.

Har bir xalq, millatning ertangi kuni o’sib kelayotgan yosh avlodning bugun qanday ta’limtarbiya olayotgani, ularning har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo’lib yetishishiga bog’liq. O’quvchilarни har tomonlama yetuk va barkamol bo’lib yetishishi maktabdagи ta’lim va tarbiyani birga uzviy olib borishga bog’liq bo’lib, unda o’quvchilarning tafakkur qilish faoliyati, erkin fikrlay olishi, o’zgalar fikrini anglash, o’z fikrini og’zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo’la olish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topish, barcha fanlarni chuqur va izchil ravishda o’rganish vazifalari amalgalashiriladi.

Шу ўринда Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганидек, «Агар болалар эркин фикрлашга ўрганмаса, берилган таълим самараси паст бўлиши мукаррар. Ўқитувчининг бош вазифаси ўкувчиларда мустақил фикр юритиш кўнималарини хосил қилишдан иборат». Ўқитувчи ўкувчиларни фаоллаштириш, ўзи ва ўрганувчилар учун кулагай бўлган йўлларни, усул ва услубларни, ўқитиши шакллари, метод ва вазиятларни излайди, замонавий педагогик технологияларга суюнган ҳолда ўқув жараёни самарадорлиги ни интегратциялаштирилган таълим орқали ривожлантиради.

Bugungi kunda Respublikamizning ta’lim muassasalalari eng zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanmoqda. Bu pedagoglarning o’z mehnat faoliyatiga yangicha yondashuvini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi o’quv jarayonida ta’lim vositalari asosida pedagog faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o’zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi. Pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalish ko’nikmasiga ega bo’lish bilan birga quyidagilarni amaliyotda qo’llay olishi lozim:

- yangi o’quv materiallarni tushuntirishda kompyutering namoyish imkoniyatlardan foydalish;
- internet, o’rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni tashkil etishi;
- darsga metodik tayyorlanish, qo’shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;
- kompyuter texnologiyalari asosida o’quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalish malakalari.

O’quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o’tilayotgan materialning berilishi mavzuning o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilishini yengillashtiradi va ko’rgazmalilikni oshiradi. Namoyish taqdimotlarini o’quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Taqdimotlarga o’quvchilar o’z munosabatini bildirishi, uni tahlil qilishi mumkin. Bu orqali o’quvchilar quyidagi malakalarga ega bo’ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki aksincha;
- muhokama etilayotgan mavzu bo’yicha xulosa va savollarni shakllantirish;
- o’zining o’quv biluv faoliyatini rejalashtirish.

Boshlang’ich sinf o’qituvchilari axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash uchun quyidagi ko’nikmalarga ega bo’lishi lozim:

- ishchi dastur va texnologik xaritalar tuzish;
- ma’ruza matnlari va amaliy mashg’ulotlar bilan bog’liq topshiriqlarni tayyorlash;



- metodik ko‘rsatmalar va nazorat savollarini tuzish;
- o’zlashtirish natijalarini tahlil qilish;
- ma’ruza matnlarini tahrirlash;
- har bir mavzu bo'yicha dinamik ko'rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur qilish.

Ta’lim yangi bosqichga ko’tarilmoqda, o’quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish va uzatish osonlashmoqda, shunday o’sish jarayonida o’qitishda kompyuter texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi. Kompetensiyaviy ta’lim zamон talab qilayotgan ta’limdir. Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda har bir pedagog dars jarayonida bola ongini rivojlantiruvchi, dunyoqarashi va fikrlash qobiliyatini oshirib, kengaytirib boruvchi ko’rgazmalar, tarqatma materiallar, badiiy adabiyotlar hamda AKTdan foydalanib borishi talab etiladi.

Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Bolalarimizni birovlarning qo’liga berib qo’ymasdan, ularni o’zimiz tarbiyalashimiz lozim”. Bir necha yillar boshlang’ich sinflarda ishlab, faoliyat olib borib men bu fikrlarga amin bo’ldim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб ҳалқимиз билан бирга қурамиз.
- Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – 488 б. 2. Н.Абдураҳмонова ва б.қ.
2. Masharipova U. va boshq. “Ona tili-2”, O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. Toshkent-2015.
3. Abdullayeva B. va boshq. “Matematika-4”, O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma, Toshkent-2017.
4. “Boshlang’ich ta’lim” jurnali sonlari. 4. Internet saytlari.



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI MASALALAR YECHISHGA O‘RGATISH MEODIKASI

Ismailova Muyassar Saparboyevna

7-son umumta’lim maktabi

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Tel: +998995527728

Elektron pochta:misdrr.91@gmail.com

Annotatsiya: Matematika darslarida masalalar yechishning dolzarbli,masalalar o‘quvchilarning aqliy salohiyatini o‘sirish, masalarning turlari.

Kalit so‘zlar: Masalalar, sonlar, matematik tushuncha, qo‘sish va ayirish, matnli masalalar, sodda masala, mantiqiy masala, murakkab masalalar, noma'lum sonlar.

“Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma’naviy salohiyotga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”

Masalalalar yechish avvalo, mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish, ularning dasturda belgilab berilgan nazariy bilimlarni o‘zlashtirishlarida favqulodda muhim ahamiyatga ega. Masalan, agar biz o‘quvchilarga qo‘sish haqida to‘g‘ri tushuncha shakllantirishni xohlasak, buning uchun bolalar yigindini topishga doir yetarli miqdorda sodda masalalarni deyarli har gal to‘plamlarni birlashtirish amalini bajarib yechish lozim. Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan sodda va murakkab masalalar o‘quvchilar bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tabiatning so‘folgi, beg‘uborligi, ekologiyaning tozaligi, ichimlik suvlarining tiniqligini asrash, o‘simlik va hayvonlarning yer yuzidan yo‘qolib ketishidan saqlash, qazilma boyliklarni behuda sarflamaslik, madaniy va manzarali, qurilishbop daraxtlarni ko‘paytirish uchun qilinayotgan harakatlarning barchasi matematik masalalar bilan bog‘liq. O‘quvchilarda masalalar yechish malakasini tarkib toptirishda ijodiy harakterdagi mashqlarning ham muhim ahamiyati bor. Bunga quyidagilar kiradi:

1. Masalalarni har xil usullar bilan yechish.
2. Muammoli xarakterdagi masalalarni yechish.
3. Masalalar tuzish va ularni almashtirishga doir topshiriqlar.

Shuni unutmaslik kerakki, har bir masala bolalar uchun haqiqiy bilim manbai bo‘lib qolsin. Buning uchun o‘quvchining diqqatini masala shartidan tafakkurini va bilish qobiliyatlarini rivojlantiradigan darajada ko‘proq ma’lumotlarni olishga yo‘naltirish kerak. Boshlangich sinflar uchun matematikadan dasturda bolalarni masalalarni yechishga o‘rgatishga katta ahamiyat bergen. Bu dasturda bolalarga masalalarni yechishda ular oldindan o‘rgangan arifmetik amallarning xossalardan foydalaniishi va o‘zlariga ma’lum bo‘lgan usullardan eng ratsionalini tanlay olishga o‘rgatish zarurligi ta’kidlangan. Turmushda sonlar bilan bog‘liq bo‘lgan cheksiz ko‘p hayotiy vaziyatlar vujudga keladiki, bu sonlar ustida turli arifmetik amallar bajarish talab qilinadi. Bular masalalardir. Masalan:

1. Yosh tabiatshunoslarga 15 tup olmako‘chati va 10 tup olxo‘ri ko‘chati ajratildi. Yosh tabiatshunoslarga qancha ko‘chat ajratilgan?

2. Yengil mashina yo‘lda 4 soat bo‘ldi va soatiga 56 km tezlik bilan yurdi. Mashina qancha masofani bosib o‘tdi?

Avvalo har bir masala berilgan va noma'lum sonlarni o‘z ichiga oladi. Masala ustida ishlash uning mazmunini o‘zlashtirishdan boshlanadi. Masaladagi son to‘plamlar sonini yoki miqdorlarning qiymatini xarakterlaydi, munosabatlarini ifodalaydi yoki berilgan mavhum sonlar bo‘ladi. Masalan masalada 15 soni olma ko‘chatlari to‘plamini sonini xaraterlaydi. 2-masalada 56 soni miqdor uzunlikning qiymatidir. Har bir masalada shart va savol bo‘ladi. Masala shartida berilgan sonlar orasidagi va berilgan sonlar bilan izlanayotgan sonlar orasidagi bog‘lanish ko‘rsatiladi, bu bog‘lanishlar tegishli arifmetik amallarni tanlashni belgilab beradi. Savol esa qaysi son izlanayotgan son ekanligini bildiradi. Ko‘rib turibmizki, hayotiy vaziyatdan arifmetik amallarga o‘tish turli masalalarda berilgan sonlarva izlanayotgan son orasidagi turli bog‘lanishlar bilan belgilanar ekan.

1.Simyog‘ochga 4 ta qaldirg‘och qo‘ngan edi. Yana 3 ta qaldirg‘och kelib qo‘ndi, so‘ngra 2 ta



qaldirg‘och uchib ketdi. Simyog‘ochda nechta qaldirg‘och qoldi?

O‘qituvchi kartochkani ko‘rsatib suhbat o‘tkaziladi. Simyog‘ochga qo‘nib turgan qaldirg‘ochlar 4 ta

Bor edi-4 ta q; Qo‘ndi- 3 ta q; Uchdi -2 ta q; Qoldi – 2 ta q.

- Bolalar simyog‘ochda avval nechta qaldirg‘och bor edi?

- 4 ta qaldirg‘och bor edi. Yana nechta qaldirg‘och kelib qo‘ndi?

- 3 ta qaldirg‘och kelib qo‘ndi. - Simyog‘ochda hammasi bo‘lib nechta qaldirg‘och bo‘ldi? - 7 ta qaldirg‘och bo‘ldi. - Shundan nechtasi uchib ketdi. - 2 ta qaldirg‘och uchib ketdi. - Simyog‘ochda nechta qaldirg‘och qoldi. Kartochkadagi qaldirg‘ochning usti qog‘oz bilan berkitiladi. Bunday tushuntirish orqali o‘quvchilar faqat masala mazmuniga tushunibgina qolmasdan balki, o‘gzaki yechishga ham yetib boradilar. Shundan so‘ng masala sharti yana bir marta o‘quvchilar bilan birgalikda takrorlanadi va shartiga ko‘ra quyidagi tartibda ifoda tuzib yechiladi. Simyog‘ochda 4 ta qaldirg‘och bor edi. Yana 3 ta qaldirg‘och kelib qo‘ndi: 3+4. Shundan 2 tasi uchib ketdi: 4+3-2. Endi bu ifoda osonlikcha yechiladi. Ya’ni avval 4 va 3 sonlari qo‘shiladi. Yig‘indi(7) hosil bo‘ladi. Yig‘indidan 2 soni ayrıladı. Natijada izlangan son (5) hosil bo‘ladi.

Javob: 5 ta qaldirg‘och qoldi.

Shundan so‘ng o‘quvchilar yuqoridaqilarni daftarlariiga yozib oladilar. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, shunday rasmli qog‘oz lavhachalar orqali masalalar ifodasini tuzish va yechish oson bo‘ladi. Oz vaqt ichida ko‘p masala yechiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jumayev M.E. va boshqalar 1-sinf daftari- Toshkent.: Sharq, 2006, 64 bet.
2. Jumayev M. „Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasidan labaratoriya mashg‘ulotlari “ Toshkent.: Yangi asr avlod, 2006, 256- bet.
3. Matematika 3-sinf S.Burxonov, O‘.Xudoyorov, Q.Norqulova.-Toshkent "Sharq"2016-yil 3.Internet ma'lumotlari.



BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA CHIROYLI YOZUV MALAKALARINI
SHAKLLANTIRISH

Jumaniyazova Nilufar Sobirovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

7-son umumta’lim maktabi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisi

Tel: +998938658889

Elektron pochta:maksadrahmanov1988@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish, o‘quvchilar yozuviga qo‘yiladigan talablar, chiroyli yozishga o‘rgatishning usullari keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xattotlik san’ati, chiroyli yozuv, yozuv qurollari, husnixat qoidalari, harflar qiyaligi, harf unsurlari, qo‘l harakati.

O‘zbek xalqi uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan madaniy merosida chiroyli yozuvga o‘rgatish, ya’ni xattotlik san’ati alohida o‘rin egallaydi. O‘rta asrlarda har qanday asar qo‘lda ko‘chirilib kitob qilingan. Qo‘lyozmalarни kitob holiga keltirish katta hunar va san’at hisoblangan. Qo‘lda ko‘chirilgan har bir asar san’at mo‘jizasi kabi nodir sanalgan. Bir qancha olim va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san’atini egallab keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar.

1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida qonun qabul qilindi. O‘zbek maktablari uchun barcha darslik va qo‘llanmalar lotin alifbosida chop etila boshladi. Pedagogika fanlari doktori Mirhabib G‘ulomov yaratgan metodik qo‘llanmalar o‘quvchilarning chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishda yaqindan yordam bera oladi.

O‘quvchilarning chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun birinchi navbatda diqqat, sezgi, idrok etish va xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtiroy etganligini ko‘ramiz. Bilimni o‘zlashtirish uchun o‘quv materialini idrok etish talab qilinadi. Yozish jarayonida ko‘rish va eshitish sezgilari idrok qilinadi.

Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari(ruchka, qalam, bo‘r)orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv qurolidan foydalanishiga qarab qo‘l harakatlari shunga moslashtiriladi.

Chiroyli yozuvga o‘rgatishda, birinchi navbatda, quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1. Yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish
2. Parta ustida daftarni to‘g‘ri qo‘yish
3. Yozayotganda gavdani to‘g‘ri tutish va tirsaklarni to‘g‘ri harakat qildirish
4. O‘z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o‘rgatish.
5. Tovushni bosma harfga, bosma harflarni esa yozma shaklga aylantirishga o‘rgatish.
6. Harflar shaklini idrok etishga (yozuvni qayerdan boshlash, qayerda tugatish, o‘ngga, chapga, burilish, bog‘lash va h. k)o‘rgatish.
7. Harflarni bir-biriga bog‘lab yozishga o‘rgatish.
8. Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o‘rgatish.
9. Daftar chizig‘idagi qatorlarni to‘g‘ri to‘ldirish sarlavha, oy va kunlarni to‘g‘ri yozish.
10. Harflarning 75 daraja qiyaligini to‘g‘ri saqlash.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozuvga o‘rgatishdan oldin quyidagi malakalarni berish lozim.

1. Yozuv texnikasi, ya’ni yozuvning turli to‘g‘ri yozish usullaridan foydalanish.
2. Harflarning shaklini to‘g‘ri ifodalash, ya’ni grafik malakalarini egallah.
3. Yozuv vaqtida harflarning shakli bilan bir qatorda uning qanday tovush bildirishini ham bilish, ya’ni imloga oid malakalarini ham egallah.

Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish usullari

1. Namunaga qarab yozish.

Chiroyli yozuvga o‘rgatishning eng asosiy usullaridan biri-harflarning shaklini namuna qilib ko‘rsatish va yozdirishdan iborat. Har bir harf namunasini doskada barcha o‘quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o‘quvchilarga daftarda alohida-alohida ko‘rsatib berish zarur. O‘quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarni o‘z daftariga to‘g‘ri aks ettirishdir.

Doskada yozib ko‘rsatilayotgan har bir harf barcha o‘quvchilarga aniq ko‘rinib turishi shart, agar



ayrim o‘quvchilar uni ko‘ra olmayotgan bo‘lsalar, qaytadan takrorlab ko‘rsatish lozim. Ayniqsa, yangi harf yoki ularning bog‘lanishini ko‘rsatish vaqtida qayta-qayta takrorlash muhimdir.

2. Namunaga qarab ko‘chirib yozish.

Bu juda qadimiy usul bo‘lib, hozirgi kunda ham u o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q. O‘quvchilar, asosan, harflarning shaklini “Husnixat”dagi yoki “Yozuv daftari”dagi namunaga qarab ko‘chirib yozadilar. Namunaga qarab ko‘chirib yozish, tayyor harfning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo‘lib, o‘qituvchi ularning har biri ikkalasini qaysi vaqtida qo‘llashni yaxshi bilishi kerak.

O‘quvchilarning daftarlarda o‘qituvchi tomonidan yozib ko‘rsatilgan har bir namuna chiroyli va aniq yozilishi lozim.

3. Nusxa ko‘chirish.

Bu usulni harf shaklini to‘g‘ri tasavvur eta olmaydigan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o‘quvchilar uchun qo‘llaniladi. Masalan, o‘quvchi B harfini yozishda xatoga yo‘l qo‘yayotgan bo‘lsa, o‘qituvchi uni nuqtalar bilan ifodalab, daftarga qalamda yozib ko‘rsatadi, o‘quvchi esa uning ustidan siyoh yurgizib chiqadi. Bu usul o‘quvchining shu harf tasavvurini kengroq shakllantiradi.

4. Tasavvur orqali yozish.

Tasavvur orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O‘qituvchi doskada yozib ko‘rsatgan harf yoki bog‘lanishlarni o‘quvchilar qanday qilib yozishni, ruchkaning havoda harakatini kuzatib, tasavvur hosil qilganlaridan so‘ng daftarga yozish ruhsat etiladi. Bunday mashqlar o‘quvchilarning qiziqishlarini oshiradi va jismoniy mashqlarni bajarishlariga imkoniyat ortadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. M. Gulomov, K. Tursunova, D. Po‘latova “Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish” Uslubiy qo‘llanma Toshkent “Turon Iqbol 2013.
2. G‘ulomov M. ”Husnixat” 1-sinflar uchun-T. :O‘zbekiston 2002.
3. G‘ulomov M. ”Husnixat”2-sinflar uchun-T. :Cho‘lpon 2003.



**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN
TOPISHMOQ VA ERTAKLARNI O‘RGATISH BO‘YICHA TAVSIYALAR**


Nurjanova Perdegul Yermaxanovna
Navoiy viloyati Tomdi tumanı 5-maktab
bosholang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada bosholang‘ich sinf o‘quvchilarini xalq og‘zaki ijodidan topishmoq va ertaklarni o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, topishmoq, ertak, rasmlar, topqirlik, so‘z boyligi.


Barchamizga ayonki, xalq og‘zaki ijodi - badiiy adabiyotning eng qadimiy shakli. U yozma adabiyotdan ancha ilgari paydo bo‘lgan. Insoniyatga tengdosh og‘zaki san’at. Xalqning fe’latvori, urf-odati va an’analari, orzu-intilishlari, tabiatini aks ettiruvchi ko‘zgu. Biz ana shu ko‘zgu vositasida ezgu niyatlar va insoniy fazilatlarni, yovuzlik,adolatsizlikka qarshi nafrat tuyg‘ularini ko‘ramiz.

Xalq og‘zaki ijodida yosh avlodni vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, rostgo’ytik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e’tibor beriladi.



Topishmoqlar xalq og‘zaki ijodining bolalrni o‘ylashga, topqirlikka o‘rgatuvchi qadimiy janrlardan biridir. Har bir topishmoq zamirida «Kim?», «Nima?» so‘roqlariga yashirin javob yotadi. Xar bir topishmoq uni yaratgan xalqning hayoti, urf-odati, o‘ziga xos rasm rusumlari bilan bog‘liq holda bo‘lib, bolalar o‘rtasida keng tarqalgan.

Qadimda topishmoqlar *cho‘pchak, topmachoq, matal, bayt, jumboq, topar* kabi nomlar bilan yuritilgan.





“Hazil so‘roqlar va so‘z” o‘yini

1. Nima hamma tilda ham gapiradi? (Aks-sado)


2. Nimaning besh barmog‘i boru

Lekin birorta ham tirnog‘i yo‘q? (Qo‘lqop)

3. Bir oilada cholu kampir yashaydi. Ularning ikki o‘g‘li bor. Har bir o‘g‘lining bittadan singlisi bor, Shu oilada nechta jon bor?

(Beshta: cholu kampir, ikki o‘g‘il, bir qiz)

4. Uyning har burchagida bittadan mushuk o‘ltiribdi. Har bir mushukning ro‘parasida bittadan mushuk o‘ltiribdi. Hammasi qancha mushuk? (To‘rt mushuk)



“Rasmlar tilga kirganda” usuli. Bunda rasmlardan so‘zlar hosil qilinadi. Xalq og‘zaki poetik ijodidagi eng boy va rang barang janrlardan biri ertakdir. Ertak-xalq og‘zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to‘qima va uydirmaga asoslangan sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratiladi. Bolaligimizdan barchamiz ertak o‘qishni, tinglashni yaxshi ko‘ramiz. Ertak tinglamay katta bo‘lgan bola bo‘lmasa kerak. Ertaklar xalq og‘zaki ijodining eng boy janrlaridan biridir. Ertaklar insonlarda eng go‘zal fazilatlarni tarbiyalaydi. Har bir xalqning o‘z ertaklari bor. Masalan, o‘zbek xalq ertaklari, rus xalq ertaklari, qozoq xalq ertaklari. Qaysi xalqning ertagi bo‘lmasin, ularda doimo yaxshilik yomonlik ustidan g‘alaba qozonadi, shuning uchun ham „Ertaklar yaxshilikka yetaklar”, deymiz. Ertaklar xalqning ijodkor vakillari tomonidan hayotiy, maishiy, sarguzasht, ba’zan ijtimoiy voqealarni to‘qib qiziqarli tarzda bayon etishi natijasida vujudga kelgan.

Folklorshunos olimlar xalq ertaklarini quyidagicha tasnif qiladilar:

1. Hayvonlar haqidagi ertaklar (“Susambil”).
2. Sehrli - afsonaviy ertaklar («Oltin tarvuz»).
3. Ijtimoiy – maishiy (hayotiy) ertaklar (“Zumrad va Qimmat”).

“Ertakchi bolajonlar” usuli.



Bu topshiriqda har bir guruhdan o‘quvchilar o‘zları mustaqil o‘qigan va sahnalashtirgan ertaklaridan ko‘rsatib beradilar topshiriqni to‘liq bajargan o‘quvchilar guruhi g‘olib chiqadi va rag’batlantilirdi.



Xullas, qo‘llanilgan barcha innovatsion usullar tarbiyalanuvchilarda o‘ziga va ertangi kunga ishonch, jamoa bilan ishslash, o‘zgalar fikrini, mehnatini qadrlash, hayotga optimistik munosabatni



shakllantirishini namoyon qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.I.Zokirov,I.Mannopova “Metodikani tashkil etish asoslari”.
- 2.M.Quronov”Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...”



PEDAGOGIKADA MUOMALA VA MAHORATNING AHAMIYATI

Qirg'izova Sayyora Abdullayevna

Fargona viloyati Farg'ona tumani

62 – maktab biologiya fani o'qituvchisi

Nurmatova Zirofat Ergashboevna

Fargona viloyati Farg'ona tumani

62 – maktab kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogic mahorat va pedagogik muomala metodining fanlar tizimidagi ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik mahorat, pedagogik muomala, pedagogik faoliyat.

Muallim ta'lim-tarbiya ishlari jarayonida o'quvchilar, kasbdoshlari, ota-onalar bilan muomalada bo'ladi. Barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan o'quvchilar, kasb-doshlari, ota-onalar muallimning har bir harakati, barcha ishlarini inson sifatida kuzatib boradi, his etadi, axloqiy jihatdan baholaydi, qabul qiladi yoki rad etadi. Xullas, ta'lim-tarbiya ishlari-ning natijasi, o'qituvchi faoliyatining ta'sirchanligi pedagogik jarayonda sodir bo'ladigan muo-mala odobiga, pedagogik jarayon ishtirokchilarining axloqiy-ruhiy holati, kayfiyatiga bog'liqdir.

Pedagog bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala. Pedagogik jarayondagi aloqlar tizimida o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muomala munosabatlari katta o'rinn egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat asrlar davomida to'plagan bilimlarni, axloqiy tajribani egallab oladi. Muallim pedagogik jarayonda yetakchi kishidir. Unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham o'qituvchiga, uning axloqiy sifatlari, xulqiga, o'quvchilar bilan muomalasiga nisbatan alohida, yuksak talablar qo'yiladi. Muallim hayotga endigina kirib kelayotgan, barkamol shaxs sifatida shakllanayotgan insonlar-yosh bolalar bilan muloqotda bo'ladi. Bolalar ta'lim-tarbiya jarayonida umuminsoniy va milliy axloq normalarini (mezonlarini) o'zlashtiradi. O'quvchi muomala metodini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladi. Sevimli muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qolishi ham mumkin.

Respublikamiz o'qituvchilari orasida o'z ishining ustasi, Xalq o'qituvchisi, Xizmat ko'rsatgan o'qituvchi deb tan olingan, ota – onalar, yoshlar e'zozlab Ustoz deb ataydigan mo'tabar insonlar ko'plab topiladi. Ular pedagogik ishda fidoyilik ko'rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib o'lar qalbiga halolik, guzallik, metod axloq nurini singdira loganliklari, xushmomila bo'lganlari uchun ham bunday obro' va hurmatga erishganlar.

O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida nizolar kupincha bolaga nisbatan adolatsizlik qilish, unga qo'yilayotgan talablar mavhumligidan kelib chiqadi. Bunday o'qituvchi bolani asosiz ayblayotganini, talabchanlik, pedagogik jamoa rahbarlarining unga qo'ygan to'g'ri talabni esa adolatsizlik deb qaraydi. Bolaning mustaqil harakatlarini – uning obro'sini to'kishga intilish, itoatkorligini esa eng yaxshi xislat deb biladi. Muallim bilan o'quvchi o'rtasidagi nizomlar haqida gap borganda shuni esda tutish lozimki, ta'lim – tarbiya juda murakkab, qarama- qarshiliklarga to'la jarayondir. Ularni bartaraf etish muqarrar ravishda nizolar chiqishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Bu nizollarni oqillona hal etish uchun muallim ularning mohiyati va sabablarini aniqlashi, bilishi kerak.

Ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, axloqiy har bir bolaning tarbiyasi uchun yuksak mas'uliyatni bolaga nisbatan bir xil talablar qo'yib, birgalikda tarbiyaviy ta'sir o'tkazishni taqazo etadi. O'qituvchi metodida muallimlar o'zaro muomala munosabatlarida amal qilishlari zarur bo'lgan axloqiy talablar ishlab chiqarilgan.

O'zbekiston Respublikasi maktablarida yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash

Har bir bolaning tarbiyasi uchun mas'uliyatning birligi pedagoglar jamoasining o'quvchiga nisbatan talablari ham bir xil bo'lismeni taqazo etadi. Bu o'qituvchi metodining qonuniyatlaridan biridir. Maktab pedagoglar jamoasining maqsadi, intilishlari, talablari yagona bo'lmasa, tarbiyaviy ishlarning ta'siri samarasi bo'lmaydi. Buning uchun pedagogik talablarning xarakteri, mazmuni, shakli va usullari hamma muallimlarning fikr-mulohazalariga mos kelishi lozim. Ma'lumki, pedagogik talabning mazmuni maktab jamoasining maqsadi, vazifalaridan kelib chiqadi. Lekin bu talablarning xarakteri, shakl va usullari har bir muallimning muomala metodiga, shaxsiy fazilatlari, o'quvi, pedagogik mahoratiga bog'liq.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Qarshi.: Nasaf, 2000.
1. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalaming tadbiqiy asoslari. -T.: 2005.
2. Avliyakulov N. X., Musayeva N. N. Pedagogik texnologiya. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik.
3. Azizzodjayeva N.N. Pedagogicheskiye texnologii i pedagogicheskoye masterstvo. -Tashkent: Moliya, 2002.



BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIDAKTIK
O'YINLARNING AHAMIYATI

Reimbayeva Muxayyo,
Xorazm viloyati Bog'ot tumani
45-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Qodirova Dinora.
Xorazm viloyati Bog'ot tumani

45-son maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lif samaradorligini oshirishda didaktik o'yinlarning ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich, o'yin, ahamiyati, didaktik, faoliyat, aqliy, bolalar

Boshlang'ich sinflarda o'tiladigan ona tili, matematika, o'qish, odobnama, tabiatshunoslik darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lif tizimida alohida o'rinn tutadi. Negaki ularning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lif darslariga o'quvchilar qiziqishini oshirishga alohida e'tibor berish lozim. Chunki bolalar boshlang'ich sinflardanoq dars degan muqaddas so'zdan bezib qolmasliklari kerak. Boshlang'ich sinf darslarini samaradorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri – darslarda an'anaviy va noan'anaviy metodlardan samarali foydalangan holda darslarni to'g'ri tashkillashtirish va o'quvchilarini kreativ fikrlash sifatlarni shakllantirishdir. O'quvchilarning darslarga bo'lган qiziqishlarini orttirish, dars samaradorligini ta'minlashda darslarda foydalaniladigan qiziqarli mashqlar, didaktik o'yinlar ahmiyati kattadir. Didaktik o'yinlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahmiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirdorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarini rivojlanishiga yordam beradi. Didaktik o'yinlar intellektual metodlarning tarkibiy qismlaridan biri sifatida o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushirishga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Didaktik o'yinlar, butun sinf ishtiroy etganda bolalar o'rtasida o'zaro hamkor bo'lib ishslash, o'z-o'zini boshqara bilish, diqqatni bir joyga yig'ish, saranjomsarishta bo'lismish, tez tushunish va savollarga tez javob berish va boshqa tarbiyaviy xislatlarni shakllantirishda katta ahmiyatga ega bo'ladi. Bunday didaktik o'yinlar, o'quvchining o'qituvchiga nisbatan yotsirash xislatlarini kamaytiradi. Natijada o'qituvchi bolaga do'stga, u yoki bu masalani hal qilishda hamkorga aylanadi. Didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan bog'chada o'ynaladigan ijodiy o'yinlardan ham, o'qituvchi o'zi hikoya qilib berish yo'li bilan tushuntiradigan va o'quvchilarni birma-bir so'rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o'yinlardan ham har tamonlama farq qiladi. Didaktik o'yinlar o'qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g'olib chiqish maqsadida jonu dili bilan mashq qiladilar. Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmalilagini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko'rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug'iladi. Bu esa o'qituvchining aytganlarini bolalarning o'ylab olishiga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlarini bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning boy tarzda tuzilish xususiyatlari o'quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha bolalar o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar. Didaktik o'yinlar bolaning his-tuyg'usiga ta'sir etib, unda o'qishga ijobjiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. Bolalar o'yinni zo'r mammuniyat bilan ijro etadi.

O'yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o'quv kunining quvonchli manzarasi gavdalananadi. Har bir didaktik o'yinda ko'pchilik bolalar yoki butun bir sinf o'quvchilari ishtiroy qiladi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o'yin g'alaba qozonishga intilish bilan bog'liq bo'lib, o'yin shartlari va qoidalariga qat'iy va izchil rioya qilishni talab etadi. «Kim aniqroq va tezroq», «Bo'sh kelma», «Eng yaxshi hisobchi», «Kim turgan saf yaxshiroq», «Doiraviy misollar», «Zanjircha», «Narvoncha», «Qaysi surat bekitildi?», «Jadvalni qidirib top», «Nimani



taqillatdim?», «Jim», «Bilmasvoyning xatolari», «Bu qaysi shakl?», «Zukkolar», «Zinadan tushing», «Topishmoqlar», «Zigzag», «Moychechak», «Fikrni davom ettir», «Bo’g’inlar», «Teatr», «Sonli jadvallar», «Qiziqarli kvadratlar», «Bolalar bog’chasida» «Mehmondorchilikda», «Kim epchil?», «Bilgan kishi sanashni davom ettiraversin», «Ko’rganni eslab qolish diktanti» singari o’yinlarni o’tkazish paytida o’quvchilar sinf xonasida jimjitlik bo’lishiga o’quvchilarning o’zlarini tuta bilishlariga, partadan tovush chiqarmay turib, oyoq uchida doskaga chiqa olishlariga, joylariga osoyishtalik bilan qaytib kelib o’tirishlariga, tovushlarni diqqat bilan tinglashlariga, raqamlarga zehn bilan qarashlariga erishadilar.

Har qanday interfaol usul o’quvchilarni to’g’ri va maqsadli ishlatganda mustaqil fikrlashga o’rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya — bu o’qituvchi asosiy javobgar shaxs bo’lgan ta’lim tizimining ratsional usullarini ishlab chiqaradigan jarayon. Chunki uning asosiy vazifasi o’quvchilarga tezkor, aniq va tushunarli tarzda ma’lumot berishdir. Har bir o’qitish tizmining shakllari, uslublari davr talablariga mos ravishda o’zgarishi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.G‘afforova T. Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi: Nasaf, 2009.
- 2.G‘ulomov A., Ne’matov X. Ona tili ta’limi mazmuni. –T. 1995 y



ДАРС ЖАРАЁНЛАРИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИ ҚЎЛЛАШ

Кодирова Насиба, Адамбаева Гулбахор

Хоразм вилояти Кўшкўпир тумани 5-сон ИДУМ
нинг математика ва тарих фани ўқитувчилари

Тел +99-899-083-81-08, 99-944-30-82

qodirovanasiba230@gmail.com, koreaseul717@gmail.com

Аннотация: Ушбу мақолада давра сухбати методи орқали таълим олувчилар берилган мавзу бўйича ўзларининг билимларини қисқа ва аниқ ифода эта олишлари хақида сўз боради.

Калит сўзлар: Ўқитиш, фаоллаштириш, таълим олувчи, анъанавий.

Ўқитишининг замонавий методларини қўллаш ўқитиш жараёнида юқори самарадорликка еришишга олиб келади. Таълим методларини танлашда ҳар бир дарснинг дидактик вазифасидан келиб чиқиб танлаш мақсадга мувофиқ саналади.

Анъанавий дарс шаклини сақлаб қолган ҳолда, унга турли-туман таълим олувчилар фаолиятини фаоллаштирадиган методлар билан бойитиш таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражасининг кўтарилишига олиб келади.

“Давра сухбати” методи – айлана стол атрофида берилган муаммо ёки саволлар юзасидан таълим олувчилар томонидан ўз фикр-мулоҳазаларини билдириш орқали олиб бориладиган ўқитиш методидир.

“Давра сухбати” методи қўлланилганда стол-стулларни доира шаклида жойлаштириш керак. Бу ҳар бир таълим олувчининг бир-бири билан “кўз алоқаси”ни ўрнатиб туришига ёрдам беради. Давра сухбатининг оғзаки ва ёзма шакллари мавжуддир. Оғзаки давра сухбатида таълим берувчи мавзуни бошлаб беради ва таълим олувчилардан ушбу савол бўйича ўз фикр-мулоҳазаларини билдиришларини сўрайди ва айлана бўйлаб ҳар бир таълим олувчи ўз фикр-мулоҳазаларини оғзаки баён этадилар. Сўзлаётган таълим олувчини барча диққат билан тинглайди, агар муҳокама қилиш лозим бўлса, барча фикр-мулоҳазалар тингланиб бўлингандан сўнг муҳокама қилинади. Бу эса таълим олувчиларнинг мустақил фикрлашига ва нутқ маданиятининг ривожланишига ёрдам беради.

Давра столининг тузилмаси

Ёзма давра сухбатида ҳам стол-стуллар айлана шаклида жойлаштирилиб, ҳар бир таълим олувчига конверт қоғози берилади. Ҳар бир таълим олувчи конверт устига маълум бир мавзу бўйича ўз саволини беради ва “Жавоб варакаси”нинг бирига ўз жавобини ёзиб, конверт ичига солиб қўяди. Шундан сўнг конвертни соат йўналиши бўйича ёнидаги таълим олувчига узатади. Конвертни олган таълим олувчи ўз жавобини “Жавоблар варакаси”нинг бирига ёзиб, конверт ичига солиб қўяди ва ёнидаги таълим олувчига узатади. Барча конвертлар айлана бўйлаб ҳаракатланади. Якуний қисмда барча конвертлар йиғиб олиниб, таҳлил қилинади. Қуйида “Давра сухбати” методининг тузилмаси келтирилган.

“Давра сухбати” методининг босқичлари куйидагилардан иборат:

1. Машғулот мавзуси ёълон қилинади.
2. Таълим берувчи таълим олувчиларни машғулотни ўtkазиш тартиби билан танишитиради.
3. Ҳар бир таълим олувчига биттадан конверт ва жавоблар ёзиш учун гурухда неча таълим олувчи бўлса, шунчадан “Жавоблар варакалари”ни тарқатилиб, ҳар бир жавобни ёзиш учун ажратилган вакт белгилаб қўйилади. Таълим олувчи конвертга ва “Жавоблар варакалари”га ўз исми-шарифини ёзади.
4. Таълим олувчи конверт устига мавзу бўйича ўз саволини ёзади ва “Жавоблар варакаси”га ўз жавобини ёзиб, конверт ичига солиб қўяди.
5. Конвертга савол ёзган таълим олувчи конвертни соат йўналиши бўйича ёнидаги таълим олувчига узатади.
6. Конвертни олган таълим олувчи конверт устидаги саволга “Жавоблар варакалари”дан бирига жавоб ёзади ва конверт ичига солиб қўяди ҳамда ёнидаги таълим олувчига узатади.
7. Конверт давра столи бўйлаб айланиб, яна савол ёзган таълим олувчининг ўзига қайтиб келади. Савол ёзган таълим олувчи конвертдаги “Жавоблар варакалари”ни баҳолайди.



8. Барча конвертлар йиғиб олинади ва таҳлил қилинади.

Ушбу метод орқали таълим олувчилар берилган мавзу бўйича ўзларининг билимларини қисқа ва аниқ ифода эта оладилар. Бундан ташқари ушбу метод орқали таълим олувчиларни муайян мавзу бўйича баҳолаш имконияти яратилади. Бунда таълим олувчилар ўзлари берган саволларига гуруҳдаги бошқа таълим олувчилар берган жавобларини баҳолашлари ва таълим берувчи ҳам таълим олувчиларни объектив баҳолаши мумкин.

“Давра сухбати” методининг афзалликлари:

- ўтилган материалининг яхши эсда қолишига ёрдам беради;
- барча таълим олувчилар иштирок этадилар;
- ҳар бир таълим олувчи ўзининг баҳоланиши масъулиятини хис этади;
- ўз фикрини эркин ифода этиш учун имконият яратилади.

“Давра сухбати” методининг камчиликлари:

- қўп вақт талаб этилади;
- таълим берувчининг ўзи ҳам ривожланган фикрлаш қобилиятига эга бўлиши талаб этилади;
- таълим олувчиларнинг билим даражасига мос ва қизиқарли бўлган мавзу танлаш талаб этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азизхужаев. Н.Н Ўқитувчи тайёрлашнинг янги педагогик технологияси. Т.2000

2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997



YOSHLAR – BUGUNGI VA ERTANGI KUNNING HAL QILUVCHI KUCHIDIR

Ro‘zimurodov G‘anisher,
Navoiy viloyat Xatirchi tumani 4-umumta’lim maktab
Ingliz tili fani o‘qituvchisi
Raxmonov Feruz,
Navoiy viloyat Xatirchi tumani 4-umumta’lim maktab
Tarbiya fani o‘qituvchisi

Ma’lumki, yoshlarni o‘qitish, ularga ta’lim-tarbiya berish, kelajak uchun munosib kadrlar qilib tarbiyalash hamma vaqt ham har bir davlatning eng bиринчи navbatdagi ishlaridan биринчи bo‘lib kelgan. Xuddi shuningdek, bizning mamlakatimizda ham bunday ishlar davlatimiz rahbarlarining doimiy ravishda diqqat markazida turibdi, desak – ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbusi va rahbarligida qabul qilingan hamda izchil ravishda amalga oshirilayotgan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi respublikamizda rivojlanish taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab berdi. Bu jarayonning amaliy natijalari bugungi kunda hayotimizning barcha sohalarida, eng muhimmi xalqimizning ong-u tafakkuri, intilish va harakatlarida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi – Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvoryo‘nalishlaridan биринчи bo‘lgan ta’lim tizimini takomillashtirish masalasiga ham alohida e’tibor qaratilgan.¹

Davlatimiz rahbari har bir viloyatga tashrifi doirasida o‘tkazilgan yig‘ilishlarda, turli uchrashuvlarda so‘zlagan ma’ruzalar va suhbatlarida barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga amal qilib yashash masalalariga kun tartibidagi dolzarb masala sifatida qarash zarurligini ta’kidlab kelmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Agar farzandlarimizga to‘g‘ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada ularning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo‘lib turmasak, ularni ilmu hunarga o‘rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo‘yishimiz hech gap emas”.²

Mamlakatimizda ma’lumki, “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlarda ham mamlakatimizda jahon andozalari talablariga javob bera oladigan yuksak malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash vazifalari qo‘yilgan. Jumladan kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi – ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Ta’lim-tarbiya sohasidagi islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan hozirgi davrda kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablaridan kelib chiqqan holda ta’lim samaradorligini oshirish borasida mavjud bo‘lgan xulosalar va tavsiyalarni amalda qo‘llashga ehtiyoj tug‘ilmoqda. Xususan uch bosqichda amalga oshirilayotgan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlardan yana biri bozor iqtisodiyotiga o‘tish davriga moslasha oladigan, raqobatdosh, faol shaxslarni, ya’ni mutaxassislarni shakllantirishdan iboratdir. Quyida biz “Ustoz-shogird” an‘analarini riojlantirish bo‘yicha mamlakatimiz yoshlarga berilayotgan ta’lim-tarbiya haqidagi **“bir soatlik tarbiyaviy dars ishlanmasi”ni** beramiz.

Maqsad: a) o‘quvchilarga mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan e’tibor haqida ma’lumot berish, davlat va jamiyat taraqqiyotida ularning o‘z o‘rnini borligini ukdirish; b) o‘quvchilarga axloqiy tarbiya berish, jamoat oldida o‘zini to‘g‘ri tuta olishga o‘rgatish; c) o‘quvchilarning mustaqil fikrlesh qobiliyatini rivojlantirish, ularni kelgusida mustaqil va ijodiy ishlay oladigan intizomli va ongli mutaxassislar bo‘lishga undash.

Dars turi: bahs-munozara.

Dars jahozi: vatman qog‘oz, flomaster, qalam. **Darsning borishi: I. Tashkiliy qism.**

1. Davomatni aniqlash.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. Toshkent shahri, 2017-yil 7-fevral PF - 4947.

² Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. //”Xalq so‘zi” gaz., 2017-yil, 16-iyun.



2. Sinf o‘quvchilarini 4 guruhga ajratish va guruhlarni nomlash. Masalan, 1-guruh: “Iste’dod”; 2guruh: “Iqtidor”; 3-guruh: “Kamolot”; 4-guruh: “Tafakkur”.

2. Yangi mavzuning bayoni.

Dars quyidagi reja asosida tashkil qilinadi:

1. Mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan e’tibor haqida.

2. Yoshlar tomonidan sodir etilayotgan ayrim nomaqbul holatlar, harakatlar haqida. 3. Inson uchun eng katta gunoh nima deb o‘ylaysiz?

4. Insonning burch va qarzlari nimalardan iborat? *O‘qituvchi dars rejasini oldindan kartonga yozib ilib qo‘yadi.*

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar! Hammamizga ma’lumki, mamlakati-mizda yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash ishlariga katta e’tibor berib kelinmoqda. Masalan, Prezidentimiz tomonidan 2008-yil – “Yoshlar yili”, 2010 yil – “Bakamol avlod” yili deb nomlangan edi. 2016-yil esa “Sog‘lom ona va sog‘lom bola yili” deb e’lon qilindi. Buning zamirida juda katta ma’no bor. Chunki mamlakatimiz aholisining 64 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil qiladi. Xo‘sh mamlakatimizda yoshlarga qanday e’tibor berilmoqda?

Guruhan bo‘yicha o‘z fikrlarini bildirishadi:

1-o‘quvchi. Prezidentimiz va Vazirlar Mahkamasi tomonidan bir qator farmon hamda qarorlar chiqarilmoqda. Ularda yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga, o‘z qobiliyat hamda iste’dodlarini to‘la namoyon qilishlariga e’tibor berilmoqda.

2-o‘quvchi. Bunda yoshlarning chet ellarda o‘qishlari uchun turli grantlarajratilayotganligi, yosh iste’dodlarni “Nihol” va “Zulfiya” mukofotlari bilan taqdirlanayotganini misol qilishimiz mumkin. Shuningdek, boshqa ko‘rik-tanlovlar va bir qator sport musobaqalarini o‘tkazib kelinayotganligi ham biz yoshlarni quvontirmoqda va o‘z iste’dodlarimizni yanada to‘laroq namoyon etishga imkon bermoqda.

3-o‘quvchi. Oliy o‘quv yurti talabalari uchun Prezident nomidagi va boshqa nomdagagi davlat stipendiyalari joriy etilgan.

4-o‘quvchi. Prezidentimiz: “Biz iste’dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarimizga bilim va kasb cho‘qqilarini zabit etish uchun qanot berishimiz kerak”, – deganlarida qanchalar haq edilar. Chunki, bunda kelgusida mamlakatimizning taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlashdek oljanob niyat ko‘zda tutilgan.

5-o‘quvchi. Yoshlarning har tomonlama bilimli bo‘lishlari uchun akademik litsey hamda kasbhunar kollejlari barpo etilmoqda.

6-o‘quvchi. Shunday ekan, biz yoshlar vaqtini behuda o‘tkazmay, ilm sirlarini chuqurroq egallashimiz, yurtboshimiz va xalqimiz kutayotganiday, yurtimizni yanada gullab-yashnashi uchun munosib hissa qo‘sha oladigan kishilar bo‘lib yetishishimiz zarur.

(O‘quvchilar shu tariqa o‘z fikrlarini bayon qiladilar).

O‘qituvchi: Ha, aziz o‘quvchilar, haqiqatdan ham mamlakatimizda yoshlarning har tomonlama bilimli bo‘lishlariga katta e’tibor berilmoqda. Chunki kelgusida mamlakatimizning yanada taraqqiy etishi, yuqori rivojlangan davlatlarning safiga qo‘shilishi sizdek bilimli, ongli, intizomli, o‘z xalqiga va vataniqa sodiq bo‘lgan yoshlarga bog‘liq ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Hozirgi paytda mamlakati-mizda faoliyat ko‘rsatayotgan umumiyligi o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey, va kasbhunar kollejlari hamda oliy ta’lim muassasalarining asosiy vazifasi ham shu masalaga qaratilgandir. Lekin, afsuski, mana shunday paytda ayrim yoshlar o‘rtasida, ularning xatti-harakatlarida bir qator nomaqbul holatlar ham kuzatilmoqda.

Har bitta guruhga bittadan vatman va flomaster beriladi. Guruhan o‘zaro kelishgan holda yoshlar tomonidan sodir etilayotgan nomaqbul holatlarni yozadilar. Masalan, bunday nomaqbul holatlar va harakatlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

1. O‘qishga, bilim olishga astoydil kirishmaslik, dangasalik. 2. Jamoat joylarida o‘zlarini yaxshi tuta olmasliklari.

3. Bir-birlari bilan olishishlari, shovqin solishlari.

4. Jamoat mulkiga ziyon yetkazish, sindirish, buzish va h.k.

5. Toza joylarni ifoslantirishlari.

6. Taklif etilmagan joylarga borishlari.

7. Ota-onha va yaqinlariga bemehrliklari.

8. Foydali ish bilan shug‘ullanmay, bekor yurishlari.

9. O‘z joniga va o‘zgalar joniga qasd qilish va h.



10. O‘g‘irlilik, yolg‘on gapirish va h.

(*Guruhlardan bittadan o‘quvchi chiqib taqdimot o‘tkazadi. Ular yoshlar o‘rtasida sodir etilayotgan yuqoridagi kabi ayrim nomaqbul holatlari va harakatlarni izohlab beradi.*)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, mana shunday nomaqbul, zararli holatlarni, harakatlarni sodir etmaslik uchun biz savob va gunoh, halol va harom, yaxshilik va yomonlik kabi axloqiy tushunchalar ma’nosini yaxshi aniqlab olishimiz kerak. Xo‘s, sizning fikringizcha, inson uchun eng katta gunoh nima?

1-guruh: O‘z joniga yoki boshqalar joniga qasd qilish.

2-guruh: O‘g‘irlilik.

3-guruh: Yolg‘on gapirish.

4-guruh: Boshqalar diliga ozor berish.

(*Guruhlari keltirilgan har bitta gunohni sharhlab beradilar.*)

O‘qituvchi: Haqiqatdan ham biz ba’zida savob nima-yu, gunoh nima ekanligini farqlamay qolamiz yoki “Mening gunohim yo‘q, bitta gunoh qilsam nima bo‘ladi”, – degan xulosaga kelamiz. Lekin bu katta xato hisoblanadi, chunki birinchi gunoh boshqa gunohlarni boshlab keladi. Aksincha, inson “Mening gunohlarim o‘zi ko‘p-ku, endi gunoh qilib uni yana bittaga orttiramanmi?” deb o‘ylasa, gunoh qilishdan tiyiladi. Shu narsani unutmanglarki, bizning o‘zimizga yarasha burch, vazifa va qarzlarimiz ham bor. *Quyidagi savol doskaga yozib qo‘yiladi:*

“Bizning kimlar oldida qanday qarzlarimiz bor?”

1-guruh: Inson – Olloh oldida qarzdordir. Bu qarz unga toat-ibodat qilish bilan uziladi. Shuningdek, inson faqat yaxshilik yo‘lidan yuradi.

2-guruh: Inson – Vatan oldida qarzdordir. Bu qarz Vatanni asrash, uni himoya qilish, tabiatni ifloslantirmaslik, moddiy va ma’naviy ne’matlarga zarar yetkazmaslik kabi ezgu amallarni bajarish orqali uziladi.

3-guruh: Inson – ota-onasi oldida qarzdordir. Bu qarz ularning xizmatini qilish, ularga mehr ko‘rsatish bilan uziladi.

4-guruh: Inson – ustoz oldidaqarzdordir. Bu qarz ustozni o‘rgatgan ilmlarga amal qilish va uni boshqalarga o‘rgatish bilan uziladi.

(*Har bitta guruh a’zolari o‘z fikrlarini izohlashda she’riy parchalardan, hadis va maqollardan ham foydalnishlari mumkin.*)

O‘qituvchi: O‘quvchilar! Bugun biz sizlar bilan Respublikamiz yoshlari, ularning tarbiyasi uchun muhim bo‘lgan masalalar haqida bahs yuritdik. Binobarin xalqimizda “Bola aziz, odobi undan aziz”, “Odobli bola – elga manzur”, “Bir bolaga yetti mahalla ota-onasi” kabi maqollar bejiz aytilmagan. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, sizlar kelgusida tor ixtisoslik ichida o‘ralib qolmasliklarining, maqsadni kengroq olishingiz, o‘zingizni hayotning muhim jabhalariga tayyorlab borishingiz lozim. Bir so‘z bilan aytganda, kelgusida sizlar umumiy o‘rta, o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida va oliy ta’lim muassasalarida o‘qishni faqat hujjat (diplom) olish, mutaxassislikni qo‘lga kiritish vositasi deb qaramasliklarining, balki tom ma’nodagi bilimlilik shaxsni barkamollik, yuksaklik, ijodkor-lik sari yetaklovchi yorqin yo‘l ekanini tushunishlarining va chuqur his qilishlarining o‘ta muhimdir. Chunki, yurtboshimiz ta’kidlab aytganidek: “O‘zbekistonning kelajagi – yoshlar qo‘lidadir”. Binobarin, davlatimiz-ning ham, jamiyatimizning ham bugungi va ertangi kundagi rivojlanishi, taraqqiy etishi sizlarning mustaqil va ijodiy ishlay olishlarining hamda yuksak axloqiy meyorlarga amal qilishining bog‘liqidir. *Darsda faol qatnashgan o‘quvchilar baholanadi. O‘quvchilarning his-tuyg‘ulari aniqlanadi.*

Buning uchun quyidagi savollardan foydalaniлади: 1. Darsda o‘zingizni qanday his qildingiz?

2. Dars sizga yoqdimi?
3. Darsdan o‘zingizga qanday xulosalar chiqardingiz?
4. Darsda yana qanday ma’lumotlardan foydalanish mumkin edi?

Ha, yoshlarni o‘qitish va tarbiyalash, biror kasb-hunarga o‘rgatish – davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim ish hisoblanadi. Shuning uchun bu ishga jamiyatning har bir yetuk a’zosi mas’uldir va qo‘lidan kelganicha, imkoniyati boricha hissa qo‘shishi zarur.

Yuqorida bayon etilgan “Ustoz-shogird” an’analarini riojlantirish bo‘yicha yoshlarga berilayotgan ta’lim-tarbiya haqidagi bir soatlik tarbiyaviy dars ishlanmasidan ayon bo‘ladiki, o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash – mashaqqatli ish hisoblanadi. Bunda o‘qituvchining eng mashaqqatli ishlaridan biri shuki, u har bir o‘quvchining shaxsiy (individul) xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarda barcha o‘quvchilarning faolligiga erishishdan iborat. Bu o‘rinda



o‘quvchining faolligi o‘z-o‘zidan oshmasligini, balki bu ongli munosabat natijasi ekanligini yoddan chiqarmaslik zarur. Modomiki, faollik onglilik natijasida vujudga kelar ekan, u “Ustoz-shogird” tizmidagi ta’lim-tarbiya ishining mazmuni, tashkil etish shakli, amalga oshirish metodlari va vositalarini o‘zaro muvofiqlashtirishni taqozo etadi. Bu o‘z navbatida ta’limda “Ustoz-shogird” tizmining sifat va samaradorliigini oshirishning kafolatini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz balan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. //”Xalq so‘zi” gaz., 2017-yil, 16-iyun.
3. Mirziyoyev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. //”Xalq so‘zi” gaz., 2017-yil, 16-iyun.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi qonunlari. //T.: Sharq, 1997.
5. Babanskiy Yu.K. Hozirgi zamon umumiy ta’lim maktabida o‘qitish metodlari. T.: O‘qituvchi, 1990. – 232 b.
6. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: O‘qituvchi, 2004. – 236 b.



BOSHLANGICH SINF TARBIYA DARSLARIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI
NAMUNALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALI YO‘LLARI

Qobulova Nasiba Ro‘zmat qizi

Xorazm viloyati Bog`ot tumani
21-maktab boshlang`ich ta’lim o`qituvchisi

Saparova Aziza Yusupboyevna

Xorazm viloyati Bog`ot tumani
21-maktab boshlang`ich ta’lim o`qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalq og`zaki ijodining ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o’mni, xalq og`zaki ijodi na’munalarining tarbiyaviy ahamiyati, mazmun-mohiyati, hamda xalq og`zaki ijodidan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari to’g’risida so’z yuritiladi.

Kalit so’zlar: barkamol inson, ota-on, oila, pedagog, maktab, odob-axloq, tarbiya, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar, jamiyat, millat, xalq, xalq og`zaki ijodi na’munalari.

Boshlang`ich ta’limda darsning noan’anaviy tarzda tashkil qilinishi o`qituvchi va o`quvchining samimiyn munosabati, kichik guruh a’zolarining faolligi, jamoa bo`lib ishlashga o`rgatish, bolada guruh ishtirokchisi sifatida tashabbuskorlik, aniq maqsadga intilish, ijodkorlik, o’z fikrini bayon qilish madaniyati, buniyodkorlik sifatlarini shakllantiradi. Bu jarayon, albatta, o`qituvchidan darsni rejalashtirish va loyihalashtirish mahoratini, barcha o`quvchilarning bir xil ishlashlariga erishish, kreativlik, kommunikativlik, tashkilotchilik, perseptivlik qobiliyatlarini rivojlantirishni talab etadi.

Boshlang`ich sinf tarbiya darsalarida xalq og`zaki ijodidan bolalarga topishmoq aytish, uning javobini topish va xulosalar chiqarish, o`quvchilarini faqatgina o’sha aytilayotgan topishmoqning javobini topish uchun harakat qilishidagina emas, balki bolalar o’rtasida bir-biriga mehr, do’stlik, o’rtoqlik, hamjihat bo`lib harakat qilish kerakligi haqida fikrlar bildirilgan. Tarbiya darsalarida xalq og`zaki ijodi namunalari vositasida tarbiyalashga yo’naltirilgan pedagogik jarayonlarni takomillashtirishda boshlang`ich sinf pedagog-tarbiyachilari tomonidan bolalarni tarbiyasida amalga oshiriladigan ishlarning mazmun-mohiyati va yo’nalishiga ko’ra rejalashtirish va tashkil qilish funksiyalari quyidagi jarayonlarda amalga oshiriladi:

- maqsadi, vazifasi va shakliga ko’ra xalq og`zaki ijodi turlaridan foydalanish uchun mashg’ulot va uchrashuv, suhbat jarayonlarini rejalashtirish va loyihalashtirish;

- modellashtirish, ya’ni tashkil qilinadigan pedagogik jarayonlarda xalq og`zaki ijodidan foydalanishda o`quvchilar uchun zaruriy shartsharoitlarni yaratish va ularning imkoniyatlarini inobatga olgan holda faolligini ta’minlash bo‘yicha vazifalarni oldindan belgilash;

- yaratilgan shart-sharoitlar va mavjud vaziyatlarga ko’ra tarbiya darslarini tashkil etilishini nazorat qilish, ibrat, namuna ko’rsatish, tahlil qilish va ob’ektiv baholash asosida rag’batlantirish.

Boshlang`ich sinf tarbiya darsalarida xalq og`zaki ijodi namunalardan foydalanish jarayonining ishlab chiqilgan pedagogik-tashkiliy tuzilmasi (modeli)ni amaliyotda to’liq joriy etish orqali boshlang`ich sinflarda tashkil qilingan tarbiyaviy tadbir, mashg’ulotlar, oilaviy marosimlar natijasida pedagogik samaradorlikka erishiladi. Ushbu modelning amaliyotga tatbiq etilishi boshlang`ich sinf tarbiya darslarini xalq og`zaki ijodidan foydalanish tizimini takomillashtirishdagi ustuvor masalalarni ijobiy hal etishga olib keldi:

- xalq og`zaki ijodidan foydalanib tarbiya darslarini takomillashtirishda falsafiy, psixologik, pedagogik, ijtimoiy yondashuvning mazmun mohiyatini anglashga erishiladi;

- boshlang`ich sinf tarbiya darslarni takomillashtirishda xalq og`zaki ijodi namunalariga tayanish zarurligi asoslandi;

- boshlang`ich sinf Tarbiya darslarni takomillashtirishda xalq og`zaki ijodidan foydalanishda —Sinkveynl, —Art-tehnologiya, —Event texnologiyalarini qo’llash orqali yuqori samardorlikka erishiladi.

Yuqorida fikrlardan kelib chiqib quyida topshiriqdan na’muna keltiramiz:

Topshiriqqa misol: O`qituvchining guruhga beradigan topshirig’i o`quvchi shaxsini rivojlanishi va shakllanishiga ta’sir etuvchi xalq og`zaki ijodining asosiy omillarni hayotiy misollar bilan sharhlab berish kerak.

Ajratilgan 10-15 daqiqa vaqt ichida guruh mumkin qadar ko‘proq sonda javob variantlari berishi



kerak. Bir varaq qog’ozga yozilgan topshiriq bir o‘quvchidan ikkinchisiga uzatiladi. O‘quvchi javobni yozib, qog’ozni keyingi o‘quvchiga uzatadi, ruchkasini esa, o’ziga ro’baro’ qilib, stolga qo’yib qo’yadi. Javobni bilmaydigan o‘quvchi qog’ozni keyingi o‘quvchiga uzatadi-yu, lekin ruchkasini qo’lida olib qoladi. Bu metodikaning yana bir sharti: bitta variantni ikki qayta berish mumkin emas, boshqacha aytganda, qaytariqlar bo’lishiga bu o’rinda yo’l qo’yilmaydi.

Topshiriq bajarildi. Javob variantlari yozilgan qog’oz o’qituvchida. U o’sha variantlarni sanab o’tadi. Variantlar sanab o’tilar ekan, ularning biri muhokama qilib boriladi: Insondagi tug’ma qobiliyatni qanday izohlaysiz? Bolani o’rab turgan ijtimoiy muhit deganda nimani tushunasiz? Va hokazo. «Ruchka stol o’rtasida» metodi bir qancha afzalliklarga ega. Jumladan, o’qituvchi mashg’ulotga kim tayyor, kim tayyor emasligini ko’rib turadi:

Mashg’ulotga tayyorlanmagan o‘quvchi og’zaki muhokama paytida ko’rib chiqilayotgan mavzu yuzasidan anchagina foydali bilimlar olishi mumkin;

– bu guruhda olib boriladigan ish bo’lib, o‘quvchilar intizomini mustahkamlaydi va ularni jipslashtiradi, chunki o’z variant ustida juda uzoq o’ylab o’tiradigan talaba butun guruhga ajratilgan vaqtini sarflaydi.

Shuningdek, o‘quvchi mashg’ulotga tayyor bo’lmasa, bunda ham u guruhga pand beradi, chunki guruh uning uchun ishlashi kerak bo’ladi;

– o‘quvchilar o’z javoblarini ikki marta: yozma ish paytida va og’zaki muhokama vaqtida tahlil qilib borishadi.

Shunday qilib, tarbiya darslarida qo’llaniladigan mazkur interfaol usullar o‘quvchilarning mustaqilligi, ishchanligi, uyushqoqligi, xushmuomalaligi, ijodiy fazilatlarini kamol toptirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Madayev O., Sobitova T. “Xalq og’zaki poetic ijodi”, Sharq, 2010.
2. Zamonov Z. va boshqalar. ”Tarbiya” o’qituvchi uchun metodik qo’llanma, Zamin nashr, 2020



ДАРС ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ МЕТОДЛАРНИНГ КЎЛЛАНИЛИШИ

Дадабоева Шахноза, Дадабоева Кумуш

Хоразм вилояти Кўшкўпир тумани 5-сон ИДУМ

нинг математика фани ўқитувчилари

Тел + 99-899-360-98-01, 90-738-56-28

kumushbibidadabayeva@gmail.com

izzatbek23@gmail.com

Аннотация: Таълим олувчиларни фаоллаштирувчи ва мустақил фикрлашга ундовчи, таълим жараёнининг марказида таълим олувчи бўлган хакида сўз юритилади

Калит сўзлар: Ролли ўйин, ишбоп ўйин, муаммони ечиш, ҳар хил шарт-шароитлар.

Дарс жараёни оқилона ташкил қилиниши, таълим берувчи томонидан таълим олувчиларнинг қизиқишини орттириб, уларнинг таълим жараёнida фаоллиги муттасил рағбатлантирилиб турилиши, ўқув материалини кичик-кичик бўлакларга бўлиб, уларнинг мазмунини очишда ақлий хужум, кичик гурухларда ишлаш, баҳс-мунозара, муаммоли вазият, йўналтирувчи матн, лойиҳа, ролли ўйинлар каби методларни қўллаш ва таълим олувчиларни амалий машқларни мустақил бажаришга ундаш талаб этилади.

“Ролли ўйин” методи - таълим олувчилар томонидан ҳаётий вазиятнинг ҳар хил шарт-шароитларини саҳналаштириш орқали кўрсатиб берувчи методдир.

Ролли ўйинларнинг ишбоп ўйинлардан фарқли томони баҳолашнинг олиб борилмаслигидадир. Шу билан бирга “Ролли ўйин” методида таълим олувчилар таълим берувчи томонидан ишлаб чиқилган сценарийдаги ролларни ижро этиш билан кифояланишса, “Ишбоп ўйин” методида роль ижро этувчилар маълум вазиятда қандай вазифаларни бажариш лозимлигини мустақил равишда ўзлари ҳал этадилар.

Ролли ўйинда ҳам ишбоп ўйин каби муаммони ечиш бўйича иштирокчиларнинг биргалиқда фаол иш олиб боришлари йўлга қўйилган. Ролли ўйинлар таълим олувчиларда шахслараро муомала малакасини шакллантиради.

“Ролли ўйин” методида таълим берувчи таълим олувчилар ҳақида олдиндан маълумотга эга бўлиши лозим. Чунки ролларни ўйнашда ҳар бир таълим олувчининг индивидуал характеристи, хулқ-автори мухим аҳамият касб этади. Танланган мавзулар таълим олувчиларнинг ўзлаштириш даражасига мос келиши керак. Ролли ўйинлар ўқув жараёнida таълим олувчиларда мотивацияни шакллантиришга ёрдам беради. Қуйида “Ролли ўйин” методининг тузилмаси келтирилган.



“Ролли ўйин” методининг тузилмаси

“Ролли ўйин” методининг босқичлари қуидагилардан иборат:



1. Таълим берувчи мавзу бўйича ўйиннинг мақсад ва натижаларини белгилайди ҳамда ролли ўйин сценарийсини ишлаб чиқади.
2. Ўйиннинг мақсад ва вазифалари тушунтирилади.
3. Ўйиннинг мақсадидан келиб чиқиб, ролларни тақсимлайди.
4. Таълим оловчилар ўз ролларини ижро этадилар. Бошқа таълим оловчилар уларни кузатиб турадилар.
5. Ўйин якунида таълим оловчилардан улар ижро этган ролни яна қандай ижро этиш мумкинлигини изоҳлашга имконият берилади. Кузатувчи бўлган таълим оловчилар ўз якуний мулоҳазаларини билдирадилар ва ўйинга хулоса қилинади.

Ушбу методни қўллаш учун сценарий тълим берувчи томонидан ишлаб чиқилади. Баъзи ҳолларда таълим оловчиларни ҳам сценарий ишлаб чиқишга жалб этиш мумкин. Бу таълим оловчиларнинг мотивациясини ва ижодий изланувчанлигини оширишга ёрдам беради. Сценарий маҳсус фан бўйича ўтилаётган мавзуга мос равища, хаётда юз берадиган баъзи бир ҳолатларни ёритиши керак. Таълим оловчилар ушбу ролли ўйин кўринишидан сўнг ўз фикр-мулоҳазаларини билдириб, керакли хулоса чиқаришлари лозим.

“Ролли ўйин” методининг афзаллик томонлари:

- ўқув жараёнида таълим оловчиларда мотивация (қизиқиши)ни шакллантиришга ёрдам беради;
- таълим оловчиларда шахслараро мумомала малакасини шакллантиради;
- назарий билимларни амалиётда қўллай олишни ўргатади;
- таълим оловчиларда берилган вазиятни таҳлил қилиш малакаси шаклланади.

“Ролли ўйин” методининг камчилик томонлари:

- кўп вақт талаб этилади;
- таълим берувчидан катта тайёргарликни талаб этади;
- таълим оловчиларнинг ўйинга тайёргарлиги турлича бўлиши мумкин;
- барча таълим оловчиларга роллар тақсимланмай қолиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азизхўжаев. Н.Н Ўқитувчи тайёрлашнинг янги педагогик технологияси. Т.2000
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997



БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ КАСБИЙ МАҲОРАТИНИ ШАКЛЛАНИШИДА НУТҚНИНГ АҲАМИЯТИ

Отажанова Ширин, Рахимова Замира

Хоразм вилоят Кўшкўпир тумани 5-сон ИДУМ

нинг бошлангич таълим фани ўқитувчилари

masharipovamadina61@gmail.com

Тел + 99-899-942-30-07, 99-526-81-77

Аннотация: Ушбу мақолада нутқ техникасига доир кўпгина машқлар тизими ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу тизимни ўзлаштирган ҳар бир маҳоратли ўқитувчи ўз нутқи орқали ўқувчиларга билим бериб, ўзи истаган натижага эриша олиши хакида гап юритилади.

Калит сўзлар: Таълим тарбия, муаммоли вазият, юксак маҳорат, дарс жараени.

Бошлангич таълим - таълим-тарбия ўчоғининг ilk даври ҳисобланиб, айнан шу даврда боланинг барча имкониятлари ишга солинган ҳолда, қобилияtlар рўёбга чиқарилади. Бошлангич синф ўқитувчисининг сўзлаётган нутқида ўқувчиларнинг педагогик – психологик ва физиологик хусусиятлари ҳамда интеллектуал имкониятларининг инобатга олиниши жуда муҳимдир. 1-синфдан бошлаб таълим-тарбия жараёнида ўқитувчи нутқи шундай юксак маҳорат билан баён этилиши лозимки, натижада у ўқувчилар фикрининг фаоллашишига, қизиқишининг ортиши ва диққатининг кучайишига, берилган саволларга тўғри ва аниқ жавоблар беришига ундасин. Ўқитувчи ўз нутқидаги барча имкониятларни ишга солиб, ўқувчиларнинг ҳам нутқини ривожлантириши, ҳаттоқи нутқида айrim нуқсони бор болалар ҳақида ҳам шошилинч холосага келмасдан, бундай ўқувчилар билан индивидуал тарзда ишлаш натижасида ундағи камчиликларни бартараф этиши лозим. Нутқ техникаси ўқитувчи нутқининг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланади. Бугунги кунда нутқ техникасига доир кўпгина машқлар тизими ишлаб чиқилган бўлиб, ушбу тизимни ўзлаштирган ҳар бир маҳоратли ўқитувчи ўз нутқи орқали ўқувчиларга билим бериб, ўзи истаган натижага эриша олади. Бунинг учун эса ўқитувчидан юксак эътибор ва ўз устида тинимсиз ишлаш талаб қилинади. Ўқитувчи ўқув материалини тушунтириш жараёнида баъзан узоқ гапиришига тўғри келади. Бундай вақтда юзинг қизариб кетиши, нафас қисилиши ва қон томирларида бир қанча ўзгаришлар бўлиши кузатилади. Демак, нафас олиш техникаси ўқитувчи нутқининг муҳим жиҳатларидан бири ҳисобланадио

Ўқитувчи нутқининг муҳим жиҳатларидан яна бири-овознинг ўзига хос бўлишидадир. Бизга маълумки, инсоннинг овози йиллар ўтиши билан ўзгариб бориши, баъзан эса овоз бузилиш ҳолатлари ҳам юзага келиши мумкин. Бунинг ҳам ўзига хос сабаблари мавжуд. Масалан, овоз зўриқиши овознинг бузилишига олиб келади. Тажрибада бундай ҳолат кўпгина соҳаларда, айниқса ўқитувчиларда 50 фойзни ташкил этиши кузатилган. Тадқиқотларда кузатилишича, паст овозда тушунтириш, баланд овозда тушунтиришдан кўра самаралироқ ўзлаштирилар экан. Ҳар доим баланд овозда сўзлаш салбий натижаларга олиб келишини алломаларимизнинг қарашларида ҳам кўришимиз мумкин. Масалан, Абу Али ибн Сино ўзининг “Тиб қонунлари” асарида: “Овозни эҳтиёт қилмаслик – овозни йўқотишга, овозни йўқотиш эса – нафас олиш органларининг ишдан чиқишига олиб келади. Бунинг учун аввало ўқишини паст овоз билан бошлаб, бир оздан сўнг аста-секин кучайтириш, аммо кучли овоз билан ўқишини ҳам узоқ муддат давом эттирмаслик лозим”, - деб ёзади.

Ўқитувчи нутқининг асосий хусусиятларидан яна бири – нутқнинг мимик ва пантомимик ҳаракатлари билан мос келишидир. Мимика – ўз фикрининг хиссиёти ва руҳий ҳолатини ифодалаш деганидир. Баъзида ўқитувчининг юз ифодаси ва имо-ишораси у айтмоқчи бўлган сўздан ҳам кучли таъсир қиласди. Ўқувчилар ўқитувчиларининг айтмоқчи бўлган сўзларини юз ифодаларидан билиб оладилар. Шунинг учун ўқитувчи юз ифодаларини фақатгина таълим-тарбия мақсадида қўллаб, ўз шахсий кечинмаларини яшира олиши лозим. Мимика асосан қош, кўз ва лаб орқали ифодаланади. Ана шу деталлар орқали ўқитувчи ҳайратланиш, хотиржамлик, лоқайдлик, қувончлилик, сўзамоллик, қўрқув ва бошқа психологик ҳолатларни ифодалайди. Энг асосийси, ҳар қандай ҳолатда ҳам ўқитувчининг назари ўқувчиларда бўлиши лозим.

Пантомимика деб – гавда, қўл ва оёқ, имо-ишора каби ҳаракатларга айтилади. Бунда



биринчи навбатда, ўқитувчи дарс пайтида гавдани тутиш эстетикасини билиши ва салбий одатлардан холи бўлиши лозим, яъни: орқага ёки олдинга чайқалиш, бир оёқдан иккинчисига оғирликни ташлаш, қўлда дарсга алоқасиз буюмларни ўйнатиш, бош қашлаш, томоқ қириш, қулоқ ёки тиш ковлаш мумкин эмас.

Хулоса қилиб айтганда, бошлангич синф ўқитувчининг касбий маҳоратни эгаллашида нутқнинг аҳамияти бекиёс экан. Ўқитувчининг нутқи, унинг талаффузи, дикцияси, пантомимик ва мимик ҳаракатлари билан уйғунлашса ҳамда чуқур касбий билимлар заҳирасига эга бўлсагина бундай ўқитувчи моҳир ўқитувчи бўла олади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Азизхужаев. Н.Н Ўқитувчи тайёрлашнинг янги педагогик технологияси. Т.2000
2. Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги қонуни. 1997



**INFORMATIKA VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARI DARSLARIDA
O'QUVCHILARNING BILIM VA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH
USLUBIYOTI**

Sharipova Madina Ismailovna

Xorazm viloyati, Bog'ot tumani
38-maktabning informatika fani o'qituvchisi,
93-755-73-00

Raximova Hilola Olimboyevna

Xorazm viloyati, Bog'ot tumani
38-maktabning informatika fani o'qituvchisi,
97-361-33-20

Annotatsiya: Bu maqolada informatika fanining bugun jamiyatdagi o'rni va uni muhim fanlardan biri ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: informatika, o'qituvchi, ta'lif, AKT, maktab, usul, o'quvchi, muloqot, aqli, yondashuv.

Ma'lumki, "Informatika va axborot texnologiyalari" fani o'z xususiyatiga ko'ra fanlararo xarakterga ega bo'lgan kompleksli ilmiy yo'nalish hisoblanib, boshqa ilmiy yo'nalishlarni rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun u fan-texnika va ta'lif tizimlarida integrativ funksiyani bajaruvchi fan sifatida tan olinadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan yillaridan buyon mamlakatimizda axborotlashtirish va ta'lifda axborot – kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash muammolariga xukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Keyingi vaqtarda pedagogik texnologiya masalasi mutaxassislar tomonidan alohida tadqiqot ob'yekti sifatida o'rganila boshlandi. Bunda pedagogik texnologiya ta'lif, o'qitish jarayoni maqsadiga va shaxs barkamolligiga erishtirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat samardorligini oshirishning tizimlashtirilgan, loyixalashtirilgan vosita va usullari sifatida talqin qilinadi. Fanlarni o'qitish o'qituvchidan mantiqiy usullar asosida pedagogic texnologiyalardan foydalanishni talab etadi. Zamonaviy pedagogik texnolgiyalar va interfaol usullar asosida o'qituvchining yangi bilimlarning talabalar tomonidan muayyan o'quv topshiriq, masalalarni yechishi bo'yicha muammoiy vaziyatlarni tashkil qilishi va shu yo'nalishda o'quv jarayonini boshqarishi tamoyili yotadi.

Zamonaviy pedagogik texnolgiyalardan foydalanish uchun bir qator interaktiv usullardan foydalanish mumkin. Bu usullar qo'yilgan muammoning yechimini topishga qaratilgan bo'lib, bunda mantiqiy usullar, xususan, tushunchani ta'riflash va bo'lish, umumlashtirish va chegaralash, savollar tuzish, baxs va boshqalar nazariymetodologik mavqeini egallaydi. Informatika va axborot texnologiyalari fani didaktikasi va o'qitish metodikasida asosiy o'rnlardan yana birini o'qitish usullari egallaydi. o'quvchilarning o'zaro muloqotlari jarayonida, boshqalarning qobiliyatlarini tushinib yetish; - boshqalar bilan o'zaro muloqotda bo'lish va ularning yordamiga muhtojlik zarurating shakllanishi; - o'quvchilarda musobaqa, raqobatchilik kayfiyatlarini rivojlantirish. Shuning uchun interfaol usullardan foydalanib o'qitish guruuhlarida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ikkita asosiy funksiyalar amalga oshirilishi lozim: - o'qitishning pragmatik jihatni qo'yilgan o'quv masalasini yechishlikning shartligi; tarbiyaviy masalalarni yechish "Informatika va axborot texnologiyalari" fanini o'qitishda nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari o'tkaziladi. Nazariy mashg'ulotlar ma'ruza, hikoya, tushuntirish, yo'riqnomalar berish, namoyish, suhbat usullarida olib borilishi mumkin. Bu dasturni o'quvchilarga berganingizda ularda yangi g'oyalar paydo bo'ladi. Hozirgi kunda o'quvchilar ongi biznikidan teranroq. Boshqa dasturlarda ham darslar davomida ulardan yangicha g'oyalar chiqishini ko'p bora kuzatamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. O'zbekiston Respublikasi ta'lif sohasini axborotlashtirish kontseptsiyasi. Loyiha. O'zbekiston «O'qituvchi» 2004. 9 aprel.
2. A.Axmedov.N.Toyloqov. "Informatika", T.,2001 y.
3. A.Aripov, A.Xaydarov."Informatika asoslari". 2002 y.
4. A.Abduqodirov, A.Xayitov. "Axborot texnologiyasi". 2002 y.



ПЕДАГИК АТАМАЛАРНИНГ АМАЛИЁТДА ҚЎЛЛАНИЛИШИННИНГ НАЗАРИЙ
МЕТОДОЛОГИК ТАҲЛИЛИ

Одилова Малоҳат Расулжон қизи
Наманган давлат университети таянч докторанти

Эрамиздан аввалги мингинчи йилларнинг ўрталарида энг қадимги аждодларимиздан Авесто асари ёзма маърифий ёдгорлик бўлиб қолган. Зардуштийлик динининг муқаддас китоби Авесто асари мундарижасидан авлоддан авлодга оғзаки ва ёзма равишда ўтиб келган жуда кўплаб афсона ҳамда ривоятлар ўрин олмагандан эди, биз бугун улар ҳақида ҳеч қандай маълумотга эга бўлмас эдик. Зардуштнома достонидазардушт ибн Баҳром ибн Пажду (Достондан парча) Мен паҳлавий деб аталган ёзувлар битилган Шоҳона китоблардан бирини кўрдим. У асрар келингандир барча оқиллар ва устозлар устози мобедлар мобедида. Унда олам ҳодисалари, аждодлар ва шоҳлар ишлари ҳақда битилган. Унда оламга саодатли Зардушт келтирган Авеста ва Зенданинг ҳикоятлари битилган.

Шу ўринда педагогик атаманинг “паҳлавий ёзувлари” тушунчасини изоҳлаб ўтишимиз жоиз, тарихий манбаларда “**паҳлавий ёзувлари**” бу – маҳсус алифбо эканлиги, оромий ёзувидан келиб чиққан энг қадимги ёзувлиги ва паҳлавий ёзувининг икки тури, биринчиси – Паҳлавий ёзуви, иккинчиси – Аршакий ёзувлари мавжуд эканлиги тўғрисида қисқача маълумотлар учрайди. Шунингдек, Паҳлавий саман исми сансクリгча «ғамхўрлик кўрсатувчи» маъносини ҳам билдиришини ва "Авесто оромий ва паҳлавий ёзувлари асосида яратилган маҳсус алифбода дастлаб тўққиз хўқиз терисига ёзилган" [1] мазмунидаги маълумотларни учратиш мумкин. Авесто асари эрамиздан аввалги VI асрнинг охири ва IV асрнинг бошларида яратилган бўлиб, у узоқ даврлар маҳсули саналади, даврлар ўтиши билан қайта-қайта ишланиб келинган. Асрнинг тўлиқ китоб ҳолида шаклланиши эрамиздан аввалги биринчи асирга тўғри келиши барча манбаларда алоҳида қайд этилади. Ғарб, рус ва ўзбек олимлари мазкур асар мазмунини ҳар томонлама таҳлил этишга ҳаракат қилишган.

Авесто асарида инсон шахсининг камолотга эришишига оид маърифий фикрлар маълум бир тизимда ифода этилган. Мазкур асар ғоялари орқали қадимги даврларда мамлакатимиз худудида яшаган халқларнинг табиий, илмий, маърифий ҳамда ижтимоий қарашлари борасида, тўғрироғи, педагогик атамаларнинг тарихий ривожланишига оид муҳим маълумотларга эга бўламиз. Авесто диний характерга эга бўлиш билан бирга ўзида фалсафий, сиёсий, филологик, таълимий ва тарбиявий масалаларни қамраб олган асардир. Авестонинг китоб ҳолидаги матни эрамиздан олдин ўн икки минг ошланган мол терисига олтин ҳарфлар билан битилган. Бу нусха Искандар Македонский истилосига қадар Истаҳр шаҳрида сақланган. Искандар Истаҳрни босиб олгач, Авесто китобида баён этилган тиббиёт, нужум, илми ҳикмат соҳаларига оид ғояларни юонон тилига таржима қилдиради ва қолган фикрлар битилган сахифалар ёқиб юборилади.

Маълумки, ибтидоий кишилар меҳнат фаолияти жараёнида ёш авлодга ҳам меҳнат қилиш, амалий фаолиятни йўлга қўйиш юзасидан педагогик билим, қўникма ва малакаларни ҳосил қилдиришган. Уруғчилик жамоаси босқичида болалар меҳнатининг кўлами кенгайиб, касб-хунар фаолиятининг турлари қўпайган. Тажрибали кишилар болаларни тарбиялаш билан бирга уларга ёзишни ўргата бошлаган. Мазкур даврда ҳарбий тарбиянинг бошланғич кўринишлари юзага келади. Болаларга ҳарбий саводхонликни, унинг сирларини ўргатиш мураккаб жараён бўлиб, ушбу тарбияни ташкил этиш учун маҳсус билим ҳамда тайёргарлик талаб этилган. Шу сабаб маҳсус ҳарбий билим ҳамда тайёргарликка эга бўлган кишилар дарс машғулотларига жалб этилган. Жамиятнинг ижтимоий жиҳатдан тараққий этиши болаларга далаларни ўлчаш, сув тошқинларининг олдини олиш, кишиларни турли касалликлардан даволашга оид билимларни беришга бўлган эҳтиёжни юзага келтиреди. Мактаблардаги асосий эътибор болаларга оғзаки билимлар бериш ва ёзув қўникмаларини шакллантиришга қаратилган. Дастрлаб сураткашлик ривожланиб, пиктографик хат пайдо бўлган. **Пиктографик** бу – педагогик атамалардан бўлиб, “pictus” [2: 687] лотин тилида – бўёқда чизилган, тасвирланган, “grapho” юончада – ёзаман деган маънони билдиради. Умумий мазмуни нарса-буюм, воқеа-ҳодиса, иш-ҳаракатларни шартли белги-расмларда акс эттиришдан иборат ибтидоий ёзув тури.

Пиктографик хатдан кейин қўшни мамлакатлардан кириб келган ҳарфлар ёрдамида ёзиш



усули пайдо бўлади. *Ҳарф* хам педагогик атама бўлиб, араб тилида “товушнинг ёзувдаги шакли; ундош товуш; сўз” [2:595] маъносини билдириб, товушнинг ёзма нутқ учун қабул қилинган шакли, белгисидир. Ҳарфлар ёрдамида ёзиш усули тез тарқала бошлайди. Эрамиздан олдинги минг йиллик ўрталарида оромий, Александр Македонский истилосидан сўнг эса юонон, шунингдек, форсий миҳхат ёзувлари ҳам маълум вақтларда қўлланилиб келган. Педагогик атама сифатидан *Форсий миҳхат ёзувлари* қадимда Олд Осиёда қўлланган ва форсларга алоқадор бўлган мих ёки поначаларга ўхшаш чизиқча (белги)ларни лой тахтачаларга ўйиб туширишдан иборат идеографик ёзув тури. Бу даврда Миҳхатлар ҳарф, товуш, бўғин ёзувларига анча яқинлашиб, шундай ёзувларнинг келиб чиқишига асос бўлган. Милоддан аввалги 1-минг йиллик охирларида Миҳхатлар ўринини оромий ёзуви эгаллаган.

Оромий ёзуви – гарбий сом ёзувларидан бири, оромийлар милоддан аввалги 1-минг йилликнинг бошларида финикий ёзуви асосида шакллантирган консонант ёзув (милоддан олдинги III-I асрларда).

Финикий ёзуви – соф консонант ёзув бўлган. Ҳарфлар жуда содда, эслаб қолиш ва ёзиш учун куляй шаклга эга бўлган. Улар муайян қатъий тартибдаги кетма-кетликда жойлашган, яъни алфавитни ташкил қилган. Финикий ёзуви ўнгдан чапга караб горизонтал ҳолатда ёзилган. Дастребки пайтларда сўзлар бир-биридан ажратилмасдан ёзилган. Финикий алфавитининг пайдо бўлиши инсоният учун ёзувни такомиллаштириш борасида қўйилган буюк қадам бўлган.

Консонант ёзув – лотинчада “consonans” - ундош товушли ёзув туридир. Бунда сўзнинг фақат ундош товушларигина ифодаланади. Унли товушлар эса ўқиш жараённида матн мазмунига қараб тиклаб талаффуз этилади (уйгар, араб ёзувлари каби). Оромийлар финикий ёзувининг алифбо таркибини ўзгартирган ҳолда (оромий алифбоси ҳам фақат ундошларни ифодаловчи 22 ҳарфдан иборат бўлган), унга айрим ўзгаришлар киритилган: ҳарфларни ташкил этувчи унсурлар сонини камайтириш ёки унсурлар шаклини ўзгартириш орқали жуда кўп ҳарфларнинг шаклларини соддалаштирганлар ва ёзувни тез ёзишга мослаштирганлар. (1-иловада келтириб ўтилган.) Оромий ёзуви асосида вужудга келган суғдий ёзув (эрамизнинг I-VI асрларida) маданияти қадимги туркий, уйгар (уйгар алифбоси VI-VII асрлардан XII асргача), мўғул ва манжур ёзувларининг шаклланишида замин вазифасини бажаришган.

Эрамиздан олдинги биринчи минг йиллик ўрталарига келиб, оромий ёзуви негизида Авесто, Хоразм (хоразм ёзуви II-III асрларда), Сўғд, Кушон, Рун (Урхун-енисей (энасой) ёзуви V-VIII асрларда), уйғур ва бошқа ёзувлар пайдо бўлади ва таълим-тарбиянинг, яъни педагогик атамаларнинг ривожланишида муҳим аҳамият касб этади. Ана шу даврга келиб, Хитойда қоғознинг ихтиро этилиши, Ҳиндистонда хисоблаш, ўнлик сонлар тизимининг пайдо бўлиши, Месопотамияда ер куррасининг 154 градусларга, суткани соатларга, минут ва секундларга бўлишнинг ўйлаб топилиши, Марказий Осиёда Ўрта денгиз билан Ҳиндистонни ўзаро боғловчи карвон йўлининг вужудга келиши, кейинчалик Хитойдан Марказий Осиё орқали Ўрта денгизга Буюк ипак йўлининг очилиши каби воқеялар мазкур ҳудудларда яшовчи халқлар маданиятининг ривожланиши ва ёзувнинг тарқалишига сабаб бўлади. Демак, эрамизнинг бошларида ҳозирги Марказий Осиё ҳудудида педагогик атамаларнинг шакилланиш тарихи бошланган ва амалиётда қўлланилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бойназаров Ф. Қадимги дунё тарихи: Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Т.: А.Қодирий номидаги халқмероси нашр, 2004. 464 б.
2. Узбек тилининг изоҳли луғати. Учинчи жилд. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси". – Т.: Давлат илмий нашриёти, 2007. 687 б.



ТАРИХИЙ ЁНДАШУВЛАР АСОСИДА ПЕДАГОГИК АТАМАЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШ ТАРИХИ

Одилова Малоҳат Расулжон қизи
Наманган давлат университети таянч докторант

Инсонлар бевосита ва билвосита туғилиши билан педагогик атамалар билан танишишни бошлаган. Она боласига алла айтганда, хушхабарни етказганда, ўз даврининг улуғ инсонлари ҳаётини ибрат қилиб кўрсатгандаги тавсифлари ёки кўшнисининг яхши хуљли боласини мақтаганда ва ҳоказо. Шунингдек, болани уйда ёки мактабда китоблар ва улардаги иқтибослар асосида саводхонликка ўргатиш мумкин. Терминлар мазмунини тушунтириш ва уларни қундалик нутққа киритиш, саводхонликни, ёзиши, ўқишни ўргатиш жараёни тўпламлар, дарслик, кўлланма ва бошқалар орқали амалга оширилади. Талабаларнинг педагогик атамаларни ўрганиш жараёни узлуксиздир. Дарҳақиқат, ёш ўқувчи томонидан педагогик атамалар ва уларнинг мазмунини ўрганишни мактаблардаги дарс жараёнларида, мустақил ёки катталар билан бўладиган тарбиявий мазмундаги мулоқотларда, уйда – уй вазифаларини бажариш давомида амалга оширилади.

Педагогик атама ва терминларнинг пайдо бўлиши ҳамда ривожланиши тил тараққиёти билан узвий боғлиқ, шунинг учун тил қанчалик бой бўлса, сўз ва атамаларнинг мазмуни, моҳияти шунчалик катта бўлади.

Педагогик атама ва тушунчалар мазмуни очиб берувчи манбалар мажмуаси анча кенг бўлгани учун уларни шартли равишда уч турга бўлиш мумкин:

Биринчи турга ҳеч қандай ўзгартириш ва таҳрирсиз фойдаланса бўладиган китоблар. Уларга кўп асрлар давомида ўз асллиги бўйича сақланиб келган педагогик атамалардир. Улар: Авесто, Куръони Карим таълимотлари, қадимги Юнонистон ва Шарқ уйғонишини давридаги манбалардан иборат бўлиб, моҳиятида педагогик атама ҳамда унга оид тушунчалар кўлланилган. Таъкидлаш жоизки, бу турдаги китоблар имкон қадар ҳар бир оиласда бўлиб, келажак авлодларга мерос сифатида ўтиб келган. Бинобарин, педагогик тушунчалар узоқ ўтмишдан бўён авлодлар тарбияси учун аждодлар мулкига айланиб бўлган.

Иккинчи турга тарбияловчи, маънавий-ахлоқий ўқиш учун хизмат қилувчи китоблар киради. Жумладан, эртаклар, достонлар, ҳикоялар, масаллар, мақол ва маталлар тўпламлари ва бошқалар. Табиийки, бу китобларни ўқиш учун саводли бўлиши керак, бунга илк таълим дарсликларининг ҳам кенг рўйхати хизмат қиласи.

Учинчи турга илмий ва ўқув адабиётлар киради. Жумладан, алифболар, асарлар, саводхонликни ривожлантирувчи ўқув қўлланмалар, ўқув псалтерлари, қўшиқ тўпламлари, хронографлар, тиббиётга оид дарсликлар ва шу каби манбалар маълум бир педагогик тушунча ҳамда ҳодисаларнинг аниқ мазмуни белгиланга педагогик атамалар тизимини ўз ичига олади.

Тадқиқот таҳлилларига асосланиб таъкидлаш жоизки, педагогик атамалар умумтуркий терминларга ясовчи қўшимчалар қўшиш орқали ясалади: -чи аффикси: ўқитувчи, ўқувчи; -к (-ок) аффикси: ўқимоқ, ёзмоқ; -в (-ов) аффикси: икков, ялқов; -м (-им) аффикси: ўқигандим, ёзгандим; -ма аффикси: кўргазма, тарқатма. Бошқа тилдан ўзлашган педагогик атамалар ўзбек тилидаги ясовчи қўшимчанинг қўшилишидан ҳосил бўлган терминларнинг қўйидаги қолиплари мавжуд: 1. Юнона термин + ўзбекча аффикс: идеаллик, педагоглик; 2. Форс-тожикча термин + ўзбекча аффикс: гурухим, даргоҳим, дастурим, зийраклик, режасизлик.

Форс-тожик элементларининг педагогик атамаларга оид ўзбекча терминларни ҳосил қилиши: 1. туркий терминга қўшилади: бесўроқ, бебош; 2. Арабча терминга қўшилади: бебаҳо, бетарбия, ноқобил.

Педагогика фанини ўқитишида ўз ва ўзлашма сўзлар қўшилиши орқали ясалувчи гибрид лексемалар ҳам учрайди. Улар: 1. Туркий термин + арабча термин: тилхат; 2. Арабча термин + туркий термин: дунёқарааш, тартиббузар; 3. Туркий термин + форс-тожикча термин: сўровнома; 4. Русча термин + арабча термин: фотонусха, фотосурат, фотохужжат; 5. Русча термин + форс-тожикча термин: кружокхона, ботаникахона.

Арабча ўзлашмалар. Ўзбек тили лексикасида арабча терминларнинг мавжудлиги Марказий Осиё худудининг араблар томонидан босиб олиниши ҳамда бунинг тарихий-ижтимоий оқибатлари билан боғлиқдир. Тадқиқотда педагогик атамалар синхрон аспектда текширила-



ётгани боис унда факат бугунги қунда истеъмолда бўлган арабча ўзлашмалар ҳақида фикр юритдик. Хусусан: қаламдон, баён, давомат, дарс.

Форс-тожикча ўзлашмалар. Нутқда форс-тожикча ўзлашмалар миқдори арабча ўзлашмаларга нисбатан кам бўлиб, уларнинг баъзилари архаиклашган (масалан: жавонмардлик, нодуруст). Педагогика атамларда фаол қўлланадиган форс-тожикча ўзлашмалар: баҳо, гурух, беш.

Рус тили ва у орқали Европа тилларидан кирган ўзлашмалар. Рус тили ва у орқали Европа тилларидан сўз ўзлаштириш форс-тожик, араб тилларига нисбатан анча кейин юз берган. Бу жараён, асосан, XIX асрнинг иккинчи ярмидан, яъни Марказий Осиёнинг Чор Россияси томонидан истило этилишидан бошланди. Демак, педагог нутқининг лексикаси ҳам XIX асрнинг иккинчи ярмидан бошлаб рус тили ва у орқали Европа тилларидан сўз ўзлаштириш хисобига бойиб борган.

Таъкидлаш зарурки, тарихий ёндашувлар асосида педагогик атамалар умумтуркий терминларга ясовчи қўшимчалар қўшиш орқали ясалиши: бошқа тилдан ўзлашган педагогик атамалар ўзбек тилидаги ясовчи қўшимчанинг қўшилишидан ҳосил бўлган терминларнинг қолиплари; форс-тожик элементларининг педагогик атамаларга оид ўзбекча терминларни ҳосил қилиши; педагогика фанини ўқитишида ўз ва ўзлашма сўзлар қўшилиши орқали ясалувчи гибрид лексемаларнинг учраши; арабча ўзлашмаларнинг мавжуд.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Педагогик атамалар луғати. Тузувчи: Р.Сафарова ва б. –Тошкент, 2016. -328 б.
2. Оруджалиева Асия Саттар қызы. Лингвистические особенности педагогических терминов в Азербайджанском языке: автореферат дис. ... кандидата филологических наук: 10.02.02 / Азерб. пед. ин-т.-, 1990.- 19 с.



KIMYO FANINI O'QITISHNING INNOVATSION USULLARI.

Tosheva Dilchiroy Bo‘ronovna

G‘ijduvon tuman 45-IDUMI kimyo fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: D.I.Mendeleyevning elementlar davriy sistemasi va davriy qonuni mavzusini innovatsion usullar orqali o‘qitishda erishilgan yutuqlar samarasi va uni amaliyotda qo’llash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: innovatsion texnologiyalari, faylasuflar toshi, hayot eleksiri, avtomobil metalli, Bengal olovı.

O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida sinfning barcha o‘quvchilari bilan ish olib borganda o‘rtacha bilimga ega bo‘lgan o‘quvchiga qarab yo‘l tutadi. O‘qitishning bunday tizimida ba’zi o‘quvchilar bilimining ortishi sekinlashadi va boshqa o‘quvchilar uchun yengib bo‘lmaydigan darajada qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun o‘qituvchi oldida har bir o‘quvchining imkoniyatini bilish vazifasi turadi. O‘qituvchi dars o‘tish davomida har bir o‘quvchining moyilligi, qobiliyati, qiziqishi, xotirasi va fikrlashidagi xususiyatlarini bilib oladi. Bu turli o‘quvchilarga individual yondashish uchun harakat qilish va butun sinf jamoasini tarbiyalash, differensial o‘qitish metodini tashkil etish imkonini beradi.

Kimyo fani moddalar, ularning xossalari va ular tarkibi o‘zgarishidan yangi hosil bo‘ladigan moddalar va ularning xossalarni o‘rganuvchi fandir. Kimyo fani tabiiy fanlar qatoriga kiradi. Kimyoni o‘rganar ekanmiz, tabiiy va sun’iy moddalarni va kundalik hayotimizda ishlatajigan barcha premetlarni tarkibi kimyoviy moddalar ya’ni elementlardan tashkil topganiga guvoh bo‘lamiz. O’simlik, hayvon va insoniyatning barcha hatti-harakati asosida kimyoviy elementlar yotadi. Shuning uchun mакtab kimyo kursida davriy sistemasidagi barcha elementlarning xossalari bilan tanishib chiqish lozim. Buning uchun o‘qituvchi har darsni davriy sistema bilan bog’liqlikda olib borishi zarur. Masalan: o‘quvchilarga elementlarni hayot bilan bog’liqlik tomonlari aytadigan bo‘lsak, o‘quvchi buni darrov xotirasida saqlab qoladi va uning fanga bo‘lgan qiziqish yanada ortadi. Misol tariqasida bir nechta usullarni aytish mumkin.



Har darsda kimyoviy elementlarni hayot bilan bog’lab qiziqarli ma’lumot sifatda aytib borilsa, o‘quvchilarda qiziqish yanada ortadi. Misol tariqasida quyidagilarni ko’rsatib o‘tish mumkin: Har birimiz har kuni ishlatajigan lampochkani oladigan bo‘lsak, uning tarkibi 8 ta metaldan Sn, Pb, Sb, Zn, Cu, Fe, W, Ni dan iborat ekanligini ko’ramiz. Lampochka ichida argon gazi bilan to’ldirilgan bo‘ladi, shuning uchun u yorug’lik tarqatadi. Inson organizmida hammasi bo’lib 47 ta kimyoviy element bor. Insonni ko’rish o’tkirligini ta’minlaydigan element - selen. “Avtomobillar podshosi” hisoblanadigan metal, agar u bo’lmasa avtombillar bo’lmasdi va avtomobilarning og’irligi 2 marta ko’p bo‘ladi bu metal-vanadiy. Sb₂S₃-surma (III)-sulfidi qora rangli kukun bo’lib, u ko’zga surtilganda uni ravshanlashtiradi, ko’z yosh oqishini oldini oladi. Metall holidagi surmadan miloddan avval 3000 yilda Vavilonda idishlar yasalgani ma’lum. XV asrda Bavariya monarxlari



”faylasuflar toshi” va “hayot eleksiri” ni qidirish jarayonida yangi metallni aniqlab, uni cho’chqalar ishtaha bilan yeb, tez semirishlarini kuzatishgan. Bavariya qiroli va zodagonlari semirish maqsadida surmani o’z ta’omlariga qo’shishni buyurishgan. Natijada ulardan 40 nafari dahshatli azobdan jon berishgan. Shuning uchun hamma zo’r metallniyam “antimoniy”, ya’ni “monarxlarga qarshi” deb ham atashadi. Stronsiy va bariy tuzlarini KClO_3 va ko’mir bilan aralashmalaridan Bengal alanga tayyorlanadi. Oltin zargarlik metali va xazinasidir. Zargarlik buyumlari uchun sof oltin emas, balki uning qotishmalari qo’llaniladi (ko’pincha mis va kumush qotishmasi). Toza oltin juda yumshoq, tirnoq botirilganda iz qoladi, juda kam yeyiladi. Mamlakatimiz sanoatida ishlab chiqariladigan oltin buyumlariga qo’yiladigan proba (tamg’a) oltinning shu qotishmadagi mingdan bir og’rlik qismiga to’g’ri keladigan miqdorini ifodalaydi. Masalan 583 – proba degani qotishmadagi oltinning miqdori 58,3 %ni tashkil etadi deganidir. O’simliklar bargi yashil bo’lishiga sabab xlorofill tarkibida Mg elementi bo’lganligi uchun. Uzoq vaqtlardan beri stronsiy birikmalaridan qizil rangli signal chiroqlarini tayyorlashda qo’llaniladi. Televizor ekranida rux metalining sulfidi bo’ladi – ZnS shuning uchun u har xil rangda tovlanadi. ZnS ning ikkinchi nomi rux aldamasi u turli rangda tovlanganligi uchun shunday atalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.S.Hasanov, A.S.Ataxanov, D.M.Normatova ”Kimyoviy elementlarning xossalari.” Izohli lug,,at. Toshkent «Fan» nashriyoti 2010.
2. I.R.Asqarov, N.X.To,,xtaboyev, K.G.,opirov Kimyo 9 sinf darslik. Toshkent- 2005. 26 Mart 2020 yil "O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim" konferensiyasi



**YOSH AVLODNING AXLOQIY TARBIYASIDA BUYUK MUTAFAKKIRLARNING
MA”NAVİY MEROSINING AHAMIYATI**

Tursunova Gulhayo Ro‘ziqul qizi,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon:+998 93 314 13 20

Annotatsiya: Maqolada axloqiy tarbiyaning mazmun-mohiyati, buyuk mutafakkirlarning axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axloqiy fazilatlarni shakllantirish haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Intizom, qoidalar, buyuk mutafakkirlar, Beruniy, xislat, Ibn Sino, yaxshilik, Forobiy, axloq falsafasi, fanlar, materiallar, xalq ommasi.

Axloqiy tarbiya jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo‘lgan ma’lum xatti-harakat qoidalari yig‘indisidir. Axloq-odob tarbiyasi milliy-ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning vazifalaridan biri - ongli intizomli bo‘lishidir.

Abdulla Avloniy “Intizom deb qiladurg‘on ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilar. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar ...”, deb ta’kidlagan edi.

Insonning axloqiy fazilatlari oilada tug‘iladi va shakllanadi. Axloqiy tarbiya, avvalo, bola tug‘ilib, asta-sekin atrofdagilar bilan muloqotga kirishishining ilk onlaridan boshlanadi. Ota-onan tomonidan insonning jamiyatda amal qilish zarur bo‘lgan qoidalar bola ongiga go‘dakligidan singdirib boriladi. Maktabgacha va maktab ta’limida esa bolada axloqiy tarbiya bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalar hosil qilinadi.

Yoshlarimizni axloqli va odobli qilib tarbiyalashda, ularning ongida umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishda buyuk mutafakkirlarimiz ma’naviy merosi muhim ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir Abu Rayxon Beruniy o‘zining “O’tmish avlodlaridan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Kitob as-saydon”, “Al-qonuni al-Mas’udiy”, “Geodeziya” va boshqa asarlarida inson kamolotida axloqiy tarbiyaning o‘mi muhim ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, axloqiylik insonning eng asosiy sifati bo‘lishi kerak. Bu xislat birdaniga tarkib topmaydi. U kishilaming o‘zaro muloqoti, ijtimoiy muhit jamiyat taraqqiyoti jarayonida tarkib topadi yoki yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi kurash natijasida namoyon bo‘ladi.

Buyuk olim Abu Ali Ibn Sino insonning kamolga yetishida uning axloqiy kamoloti muhim ahamiyatga ega ekanligini shunday ta’kidlaydi. Olim axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik kabi ikki tushuncha bilan ta’riflaydi: “Dunyoda mavjud bo‘lgan jami narsalar tabiatiga ko‘ra kamolot sari intilishning o‘zi esa mohiyat e’tibori bilan yaxshilikdir”.

Buyuk alloma Abu Nasr Forobiy o‘zining “Fozil shahar aholisining fikrlari”, “Baxt-saodatga erishuv haqida” va boshqa asarlarida axloq falsafasi, jumladan, axloqiy tarbiyaning muhim muammolarini hal qilishga harakat qiladi. Mutafak- kirning axloq va uning asosida yosh avlodga tarbiya berish g‘oyalari hozirgi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas, aksincha, axloqiy tarbiyaning yangi usul va qoidalarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Maktab ta’limida buyuk mutafakkirlarimiz g‘oyalari dasturilamal bo‘ib xizmat qiladi. Ma’lumi, 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich ta’lim darsliklari yangilangan milliy dastur asosida nashr etila boshladi. Milliy o‘quv dasturlar asosida o‘quvchilarini hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash imkoniy yaratildi. Milliy o‘quv dasturi asosida fanlardagi mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiruvchi hamda soddadan murakkabga tomon yo‘naltirilgan tarzda, milliy ma’naviyatimiz, qadriyatlarimizni o‘zida mujassamlashtirgan holda kiritildi Ona tili va o‘qish savodxonligi, tarbiya, tabiatshunoslik, texnologiya, musiqa madaniyati, tasviriy san’at darsliklarida milliy-ma’naviy, umuminsoniy qadriyatlarimizni o‘quvchilar ongiga singdirishga oid materiallar berilgan. Ayniqsa, “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarida berilgan badiiy matnlar, ommabop matnlar, audiomatnlar, rasmlar, mashqlar axloqiy tarbiyaga qaratilganligi bilan muhim ahamiyatga ega. Jumladan, 1-sinfda “Hoshimjonning oilasi” hikoyasi, “Mehribon kelinoyi” she’ri, ‘Mehmon bo‘lish odobi’ matn, “G‘alati ziyofat” rasmlar asosida ertak va h.k. 2-sinfda “Vatan-parvarlik nima?” rasm asosida suhbat, “Yaxshilik ortida yaxshilik keladi” audiomatn, “Yaxshilik



va yomonlik”, “Zumrad va Qimmat” ertagi, “Navbatda turish odobi”, “Shippak” matni, “Mahalla-ota-on” she’ri va h.k. 3-sinfda “Sen mening qahramonimsan” hikoyasi, “Dangasaning ta’tili” she’ri, “Vatanni tanish” hikoya, “Aka-ukalar haqida” ertak, Dangasa” ertagi, “Yaxshi do’stlar bor ekan” she’ri kabilar berilgan.

Boshlang‘ich sinflarning “Tarbiya” fanining o‘quv dasturi va darsliklarida vatanparvarlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, bag‘rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi ko‘nikmalarni shakllantirishga alohida urg‘u berilgan. Xususan, bunda milliy an’analar, ulug‘ allomalarining hayot va yo’llari, asarlari, zamondosh qahramonlarning faoliyati ibrat sifatida keng foydalanilgan. Mavzularni o‘qitishda bugun jahon miqyosida ommalashgan ta’lim berishning ilg‘or texnologiya va uslublari qo’llanilmoqda.

Mamlakatimizda o‘quvchilarni axloqiy tarbiyasi sadoqatga asoslangan eng insonparvar, adolatli va olıyanob axloqning ijobjiy tomonlarida namoyon bo‘ladi. Bizning axloqimiz umuminsoniy, ma’naviy boyliklarni ham, kishilarning axloqiy me’yorlari ozodlik va ijtimoiy tenglik, baxt-saodat va tinchlik uchun ko‘p asrlik kurash jarayonida xalq ommasi yaratgan munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uuzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Toshkent. 2019-yil 31-dekabr.
2. Xo‘jamurodov I. Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash.-T.2010-y.
3. 1-2-sinf. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi. 2021-yil.



HUMANISTIC PARADIGM OF EDUCATION AND UPBRINGING: POLISH EXPERIENCE OF IMPLEMENTATION

Turumbetova Zamira Yusupbayevna

Assistant teacher, Pedagogy and Psychology department
Karakalpak state university named after Berdakh

Annotation: The article deals with the importance of the basic principles for building modern education systems, as well as the principle of humanization, cooperation and democracy, that were noted as fundamental and relevant for the reformed Polish education system.

Key Words: education, system, humanistic, paradigm globalization, profession.

In the controversy surrounding the issue of restructuring education in Poland on the basis of a humanistic educational paradigm, the prominent Polish educator R. Wieckowski singled out two opposing concepts of education: the concept of “processing” the student and the concept of development. The first concept, characteristic of the pre-reform Polish school, assumed the formation, modeling, "processing" of the child in accordance with recognized values, schemes, ideals, proposed by external factors. The second, based on humanistic principles, proceeds from the fact that each child is a kind of autonomous system that “processes” the information that comes from outside that is significant to him and causes his activity. The teacher's task is to organize such an information environment that supports and stimulates the development of students' cognitive interests, provides an active approach to education, and stimulates their cognitive activity [1]. A profound change in the educational paradigm took place in the country, which for a long time strengthened the model of social life that existed in the country, hindered any progressive civilizational changes and adapted the younger generation to socio-political reality. In 1993, in published document “Good and modern school - continuation of changes in the education system” sets out the main principles of the educational policy of the state, defines the main directions and tasks for the development of education, the purpose of which is to continue the changes necessary for the construction of a good and modern school. In accordance with the requirements of humanistic pedagogy, the main task of the education system is to create favorable conditions for the harmonious development of each person in the cultural, spiritual and material spheres. The government document noted that the state undertakes to ensure the availability of secondary and higher education for that part of young people who have the appropriate abilities and desire to continue their education at the highest levels of the school system. The development of the concept of modernization of the Polish school based on humanistic principles was significantly influenced by two documents: “White Book of Education and Improvement. Teaching and learning towards a learning society”, prepared in 1995. by the European Commission [2] and Report of the Commission J. Delors [3] "Education: a hidden treasure", published in Paris in 1996.

According to the report by J. Delors, along with the most relevant and significant problems that have arisen in the period of globalization and the formation of information societies, formulates the basic principles for building modern education systems, including the principle of humanization, cooperation and democracy, which were noted by Polish educational policymakers as fundamental and relevant for the reformed Polish education system. The nomination by the Delors Commission of three main parameters (aesthetic and cultural; technological and socio-economic) of constructing the goals of education and upbringing and the selection of the content of education was perceived by Polish specialists as a “challenge” to teachers from the rapidly developing world.

The reorientation to humanistic education, which some teachers call an alternative pedagogical direction in relation to the traditional, primarily technocratic, also took place under the influence of Polish teachers' awareness of the resulting spiritual emptiness, the lack of necessary competencies, and the desire to protest against the unshakable principles that prevailed until recently. According to the prominent Polish educator Z. Kwiecinski, humanistic pedagogy became a kind of response to public demands at that historical moment when “the system of recognized values collapsed, the ideological evidence of development plans collapsed and public support for the still recognized political structure was lost. » [5, p.49]. Modern scientists and educators are unanimous in that a person of the era of transformation should be an active person and open to civilizational changes, have a sense of dignity and self-subjectivity, a humanistic motivation for choosing life



plans, able to reject life models based on the category “to have”, be able to empathy, dialogue and discussion, to show independence of thinking, to have a formed system of values.

Fundamentally new tasks are also faced by the humanistic school - the center for the development of personality and individuality, the place for the creative development of people of the “epoch of enlightenment for all”. The New Humanist School Focuses on Supporting Individual Development students, the development of their own "I", the formation of personal, knowledge and social competencies. Scientists warn against understanding individualization as the isolation of the individual from social life. Individualization they see it as helping her to find her identity within the framework of her connection with the group, a sense of responsibility for the integrity of this group. On practice there is a gradual departure from the dehumanization of education. The selective school is being replaced by a school that supports the development of the child. Supporters of the humanistic approach break with the traditional model of education based on the “sum of subjects” in favor of a school that considers the child as a whole and supports the multi-vector development of his activity [6].

In the humanistic school, axiological approaches to education and upbringing are being strengthened, which are manifested in the presence of a spirit of trust, dialogue, brotherhood, common experiences and relationship with society.

Thus, humanistic education is aimed at the formation of a person in all its dimensions: spiritual, intellectual, moral, communal, national and European.

At present, the explosion of research interest in the problem of values and goals of education, their in-depth and holistic study should be especially noted.

Firstly, the problems of spirituality, morality, the value of the individual, his freedom and responsibility have been significant. Historical experience shows that the problem of values has always been actualized, acquiring broad social and moral significance in complex critical eras, when cultural traditions were devalued, the former ideological and ethical foundations of society were discriminated against. Scientists have also established the historicity of universal human axiological landmarks belonging to a particular era, proved their ability to acquire a new meaning at a new stage of historical development, the ability not to lose touch with the values of the previous period and to come into contact with the values of the next period. E. Fromm believed that beliefs and values are not given to the individual in a finished form, they are not passively accepted from society. They are the result of efforts and intellectual achievements in the process of endless experimentation of life. That is why it is necessary to cultivate such values, in the presence of which a person could abandon the social mask and expose his true needs, values that will contribute to his development [7].

Modern reports on education prepared by the Council of Europe and the European Union include the following among the main goals of education and upbringing:

- preparation for public life - "for democracy" and "through democracy";
- preparation for the future, knowledge of the world, civilizational challenges and global problems, formation of readiness for their solution;
- preparation for tolerance and perception of the diversity of views on the world;
- preparation for the formation of one's own subjectivity and identity;
- preparation for the “socialization of civil life”, “in self-knowledge” and “management of oneself”;
- preparation for the formation of their own educational and life plans and programs, as well as for the management of their own development;
- support for each person in the formation of their own holistic view of the world around them.

Thus, for the purpose of education, the humanistic positions of society in relation to the individual and their future are accumulated. They give grounds to comprehend a person as a unique phenomenon, to recognize the priority of his subjectivity, the development of which is the goal of life. These formulations of the goals of education give a person a reason to rethink the degree of his own influence on his life, his inherent right and responsibility for the disclosure of his abilities and creative potential, to understand the relationship between the inner freedom of choice of the individual in the direction of self-realization and self-development and the purposeful influence of society on it.



REFERENCES

1. Wieckowski R. Early school pedagogy. Warsaw, 1997.
2. White Paper on education and improvement. Teaching and learning on the way to a learning society. Warsaw, 1997.
3. Education: a hidden treasure / Report of the International Commission on Education for the 21st Century. UNE-SCO.- 1997.
5. Kwiecinski Z. Pedagogika polska wobec wyzwan wspolczesnosci / Europa: Przewodnik encyklopedyczny po wspolczesnej Europie. Poznan, 2005.
6. Sliwerski B. Poza granice wychowania. Lodz, 1992.
7. Fromm E. To have or to be: Per. from English. M., 2009.



“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI OBRAZLAR VA HIKOYATLARNING
BADIY XUSUSIYATLARI

Xudoyqulova Nilufar Ummatovna,

Navoiy viloyat Navbahor tuman

3-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

“Hayrat ul-abrор”даги хикоятларда турли мавзулар қаламга олинганидек, улардаги образлар ham xilma-xildir.

Dostondagi yigirma bitta hikoyatda o'nlab so'fiy, shayxlar, hukmdorlar, an'anaviy obrazlar va turli toifa kishilarini timsollari uchraydi. Ularning asosini diniy tasavvufiy faoliyat bilan bog'liq shaxsler, shuningdek, shohlar, amir va hukmdorlar obrazlari tashkil etadi. Professor N.Mallayev Navoiyning turli asarlarida uchraydigan hikoyatlardagi obrazlar haqida quyidagilarni yozadi: “Navoiy hikoyatlarining qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan bog'lanadi, ularning orasida “sof” to'qima obrazlar ham anchagina. Qadimgi shohlar, yunon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotami Toyi, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bistomiy va boshqalar Navoiy hikoyalarining qahramoni. Ammo, hikoyalardagi qahramonlar aynan tarixiy shaxslarning obrazi bo'lmay, balki ayrim jihatlarini saqlab qolishiga qaramay, badiiy fantaziya, ijobjiy to'qima bilan yo'g'rilib, allaqachonlar an'anaviy adabiy obrazlarga aylanib ketgan edi: Anushervon, Jamshid, Iskandar va boshqalar – adolat, shoh-shavkat; Arastu, Aflatun, Luqmon, Faxriddin Roziy va boshqalar – aql va donolik; Hotam Toyi – saxovat ramzi va hokazo; Majnun, Shayx San'o, Vomiq va Uzro, Xusrav va Shirin – an'anaviy oshiq-ma'shuqlar. Bu an'anaviy obrazlar bilan birga biz Navoiyning ayrim hikoyalarida uning zamondoshlarini ham ko'ramiz. Masalan, “Hayrat ul-abrор”даги “Shoh G'oziy” hikoyasida Husayn Boyqaro (ideallashtirilgan shoh obrazi sifatida); shu dostondagi “Ikki vafoli yor” hikoyasida Amir Temur obrazlari berilgan”¹

Birinchi hikoyatda Boyazid nomi tilga olinadi. Asarda u iymonli, insofli, shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar Boyazidning otasi Surushon islomni qabul qilgan, biroz vaqt mansabdor ham bo'lgan deyishadi. Boyazid Bistomiyning o'qish yillari haqidagi fikrlar har xil: ba'zilar u biron bir maktab yoki ustoz qo'lida tahsil ko'rmagan, barcha ilmlar unga Olloh tomonidan in'om etilgan deyishsa, bir guruh sharqshunoslar “Boyazid uch yuz donishmanddan dars olgan” deyishadi.

Ikkinci hikoyatda Ibrohim Adham va Robiya Adviya nomi uchraydi. Ular ham o'zini islom yo'liga bag'ishlagan mashhur so'fiylardan.. Ibrohim Adham zodagon oilada dunyoga keladi. Yoshligida yaxshi bilim oladi, ilohiyotga qiziqib haq yo'liga kiradi. Biroz vaqt shahr hokimi vazifasida ishlaydi. U haqda ko'plab rivoyat va afsonalar yaratilgan.²

Robia Adviya (Adaviya) ham mashur so'fiy ayollardan. U taxminan 713-718-yillar oralig'ida Basrada donishmand Ismoil Adaviy Kaysi oilasida dunyoga kelgan. Qiz oilada to'rtinch farzand bo'lGANI uchun unga “Robia” deb nom qo'yishgan.

To'rtinch maqolatga ilova qilingan hikoyatda Abdulloh Ansoriy nomi uchraydi. Bu ham mashhur so'fiylardan. O'z davri va undan keyingi asrlarda ham Sharqda ulkan shoir va shayx sifatida shuhrat sohibi bo'lgan Abdulloh Muhammad Ansoriy 1006-yilda Hirotning Ko'handich mahallasida alloma Abuayub Ansoriy xonardonida tavallud topgan.

O'n birinchi maqolatga misol sifatida keltirilgan hikoyatda Imom Faxr Roziy nomi keltirilgan. “Faxriddin Roziy (to'liq ismi Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad bin Umar ibn al-Husay) mashhur kalom olimi va diniy falsafa namoyondasi.

O'n sakkizinch maqolatda ilova qilingan hikoyatda Suhrovard va Yoqut obrazlari bor. Yoqut – arablar orasida shuhrat topgan kotib. Bag'dodda Abbosiya xalifa Musta'sim davrida yashagan. “Qur'oni ko'chirishda yagona hisoblangan. Shayx Suhrovard esa mashhur so'fiylardan. Yirik va mashhur tariqat arbobi, o'z davrining yagonasi, nurlar matla'i, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimon, zohir va botin ilmlarida barcha ulug' shayxlarning ustozi, oriflar yo'lboshchisidir.

Dostonda Ayyub obrazi ham bor. U Qur'onda nomi zikr etilgan yigirma besh payg'ambardan biri. Ayyub nomi va qissasi Tavrot, Injil hamda boshqa qadimiy kitoblarda ham keltirilgan. Ayyub har qanday musibatlarga, qiyinchiliklarga sabr-toqat qiluvchi, bardosh beruvchi inson timsoli

1 Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. 185-186-betlar.

2 Hamidjon Homidiy. Tasavvuf allomalari. Toshkent, 2004. 20-22-betlar.



sifatida tanilgan.

Hikoyatlarda hukmdorlar obrazi ham uchraydi. Ularning ayrimlari tarixiy shaxslar bo’lsa, ba’zilari afsonaviy shaxslar hisoblanadi. Uchinchi maqolatga “Shoh G’oziy” haqidagi hikoyat keltirilgan. Shoh G’oziy – bu Husayn Boyqaroning ideallashtirilgan obrazidir. Navoiy “Xamsa” dostonlarining ayrim boblarida Husayn Boyqaroni madh etadi. “Majolis un-nafois”ning sakkizinchi majlisini ham unga bag’ishlaydi. “Shoh G’oziy” hikoyatida esa uni adolatli hukmdor sifatida ko’rsatadi.

“Hayrat ul-abror”da “No’shirvon hayosi” bilan bog’liq hikoyat mavjud. Unda No’shirvon (Anushirvon) haqida gap boradi. “Sharq xalqlari kitobiya adabiyoti va folklorida juda keng tarqalgan an’anaviy obrazlardan biri No’shirvon (Anushervon)dir. Navoiy No’shirvon nomini odilllik ramzi sifatida bot-bot zikr etish va tavsiflash bilan birga, uning to’g’risida bir necha hikoyat ham keltiradi. Bu hikoyatlar “Hayrat ul-abror” va “Tarixi muluki Ajam”dan o’rin olgan”.¹

Dostondagi “Ikki vafoliq yor” hikoyatida Amir Temur nomi keltirilgan. Amir Temurning kimligini yaxshi bilamiz. “Amir Temur tarixiy manbalarda Temur, Temurbek, Amir Temur va Sohibqiron nomlari bilan bir qatorda Amir Temur Ko’ragon, Sohibi jahon (olam egasi) hamda Sohibi adl (Adolat o’rnatuvchi) kabi qator ulug’ va qutlug’ nomlar bilan ham tilga olinadi.

O’n birinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Sulton Muhammad Xorazmshoh obrazi uchraydi. U Imom Faxr Roziyga qarshi tarzda keltirilgan. Ilm bilan shohlik qiyoslanib, ilmning abadiyligi ta’kidlanadi.

Dostondagi yana bir hikoyatda Iskandar nomi uchraydi. U ham shuhrat qozongan Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi ideallashtirilgan nomi. Iskandar, Iskandar Zulqarnayn – Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Iskandat Qur’onning surasida eslangan Zulqarnayndir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. Navoiy “Tarixi muluki Ajam”da Iskandar haqida afsona, rivoyat va tarixiy asarlardan kelib chiqib fikr yuritadi.

O’n to’qqizinchi maqolatdan so’ng keltirilgan hikoyatda Bahrom obrazi uchraydi. Bu obraz Navoiyning ko’pgina asarlarida, ayniqsa, “Xamsa”ning to’rtinchisi dostoni – “Sab’ai sayyor”da keng tasvirlangan. “Bahrom Go’r yoki Varaxran V (shohlik yillari 421-438) – Eronda hukmronlik qilgan sosoniylardan Yazdigardning o’g’li. Yaman shohi No’mon va uning o’g’li Munzir tarbiyasida o’sgan. Nizomiyning “Haft paykar”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht” va Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” dostonlarida Bahrom Go’r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni paytda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan. Ma’lumotlarga ko’ra, Bahrom Go’r 63 yil (ba’zi manbalarda 70 yil) umr ko’rgan”.²

Umuman, hikoyatlardagi obrazlar ham rang-barang bo’lib ular tarixiy, afsonaviy, an’anaviy mashhur shaxslar nomi bilan bog’liq.

1 Mallayev N . Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti 195-bet.

2 O’zME. 1 tom. Toshkent, 2000. 669-670-betlar.



**QOZOQ TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA YANGI PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

Yerbeketova Madina Maralovna

Navoiy viloyati Tomdi tumani

1-IDUM qozoq tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada qozoq tili va adabiyot darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif islohotlari, samaradorlik, maqol va matallar, so'z boyligi..


O'zbekiston taraqqiyoti uning jahon hamjamiyatida mustahkam mavqega ega bo'lishi, iqtisodiyot, fan va texnikaning rivojlanishi, milliy ta'lif-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga bog'liq. Shuning uchun ham "Ta'lif to'g'risida"gi Qonun xalq tizimi oldiga zamonaviy, milliy ta'lif-tarbiya tizimini yaratish uchun asosiy vazifalarni hal etish, avvalo, o'qituvchining zimmasiga tushadi.

Ta'lif islohotlarining hozirgi bosqichida vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilishida ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish, ommalashtirish va amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyatga ega. Tabiiyki o'z ishining ustasi, bilimdoni bo'lgan yuqori samarali pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llayotgan, individual o'z ish uslubiga ega, mas'uliyatli mutaxassislar olib borayotgan ishlar ta'lif samaradorligini boyitish, rivojlantirish va yangiliklar bilan ravnaq topishida muhim rol o'ynaydi.

Quyida qozoq tili va adabiyot darslarida qo'llanadigan usullarni taqdim etishni joiz topdim.

Кім қанша тіл біледі?

Абай нақыл сөздерінің сонын жалғастыру және асты сзыылған сөздерді үш тілде айту.



“Катені түзеу” ойыны

Сөз тіркесі	Қатесі	Дұрысы
Ізгілік кілті	Шылау арқылы	Жалғау арқ.
Көпір арқылы өту	Интонация арқылы	Шылау арқылы
Абай – ақын	Орын тәртібі	Интонация арқ.
Бақытты балалық	Жалғау арқылы	Орын тәртібі арқылы
Адамзатты сую	Жалғау арқ.	Жалғау арқ.
Білу үшін оқу	Жалғау арқ.	Шылау арқылы
Фажайып әлем	Интонация арқ.	Орын тәртібі
Еңбектің сыйы	Шылау арқылы	Жалғау арқ.

Шартты сөздердің байланысу тәсілдерін дұрыс орналастыру.



Pedagogik tajriba amaliy faoliyat jarayonida paydo bo‘ladi. Uning mazmuni pedagogik bilim, malaka va ko‘nikma, shaxsnинг shakllanishi bilan belgilanadi. Ilg‘or pedagogik tajribalarni aniqlashda ma’lum mezonlarga asoslanish kerak. Bunda eng muhim mezon- o‘qituvchi o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llaydigan ta’lim-tarbiyaning ilg‘or shakl va usullaridir. Bu uni oddiy o‘qituvchidan ajratadigan muhim belgi hisoblanadi.

«Kim topqir» usuli. Bu metodni qozoq tili va adabiyot darslarida xohlagan mavzuni o‘rganishda qo‘llash mumkin. O‘quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko‘rmasin. O‘qituvchi yoki a‘lochi o‘quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O‘quvchi besh daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O‘quvchilar yozishni bir vaqtida tugatishi shart. Masalan, Abayning qara so‘zlaridan eng ko‘p yozgan va uni izohlab bergen o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

O‘qituvchi faoliyatidagi rahbarlik va nazorat qozoq tili va adabiyot darslarida o‘quv jarayonini samarali boshqarishda alohida jarayon bo‘lib, har bir mashg‘ulotning maqsadi madaniyatni tarbiyalash, grammatik mavzularni muvofiqlashtiriladi. O‘quvchi faoliyatini tekshirish va baholashga qarab, o‘qituvchi muktab qozoq tili va adabiyotining maqsadi vazifasini qanchalik tasavvur etishni ham bilsa bo‘ladi.



Grammatika o‘qituvchi va o‘quvchilarni o‘rtasidagi hurmatni yanada oshiradi va o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyani o‘zlashtirishiga yordam beradi. Bunda ham qator usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Qozoq tili darslarida mashqlar ishlash, tahlillash ustida ishslashda usullaridan foydalanilsa, mashqlar ishlash, tahlillash jarayonida o‘quvchilarning o‘zi yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj sezadi, unga ma’lum o‘quv faoliyati usullaridan foydalanib muammoli vaziyatlarni hal etishga kirishadi. Agar o‘quvchilar nazariy bilimlarni to’liq o‘zlashtirgan bo’lsa, ushbu muammoni yechishda qiyinchilik sezmaydi, muammoli vaziyatni tezda hal etishga kirishadi.

“Begona so‘z” usuli. Bunda o‘tilgan mavzuga oid so‘zlar va mavzuga oid bo‘lмаган so‘zlar ham bor. O‘quvchilar faqat o‘tilgan mavzuga oid so‘zlarni topadilar va ular ishtirokida gap tuzadilar. Mavzuga oid bo‘lмаган rasm yoki so‘zlarni ajratib qo‘yadilar.

Xullas, interfaol usullardan foydalanish darsni jonli tashkil etishnni ta’minlaydi. Shu bilan bir qatorda, avvalgi bilimlar va yangi axborotlar o‘rtasida bog‘lanish hosil qilib, berilgan materialni to‘la tushunishga zamin yaratadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.“Umumta‘lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-sonlar, 2018-y
- 2.Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimedya .uz.



КҮП ОВОЗЛИ ҚЎШИҚ МАЛАКАЛАРИНИ ЎСТИРИШ АСОСЛАРИ

Ибрагимова Шахноза Баходировна

ГулДУ “Мусиқий таълим” кафедраси 2-босқич талабаси

Телефон: +998972191771

Илмий раҳбар: Ибрагимова Нилуфар Адхамовна.

Аннотация: Мусиқа инсон ҳаётида алоҳида ўрин тутади. Мусиқа санъати – нафосат тарбиясининг муҳим омили бўлиб, ёш авлодни камолотга етиши учун таъсир этувчи жараён. Бу жараён мактабдан бошлаб шаклланади ва ёш авлоднинг ички дунёсини бойитиб, бутун ҳаёти мобайнида унга хамроҳ бўлиб боради.

Калит сўзлар: товуш, регистр, мусиқа саводи, партия, икки овозли қўшиқ.

Мусиқий нафосат тарбиясининг ўзаги бошланғич синфлардан бошланади. Мусиқий нафосат тарбиясининг асоси – мусиқа маданияти дарслари ҳисобланади. Бошланғич синфларда мусиқа маданияти дарсларини унумли ўтиш ва болаларнинг мустахкам билим олишлари учун, бўлажак мусиқа ўқитувчиси мусиқа маданияти дарсларида бериладиган барча ўқув материалларини пухта ўзлаштириб бориши лозим.

Мусиқа саводини ўргатиши болаларнинг мусиқа товушларининг эшитиш сезгиларини ўсишига асосланиши керак. Ўқувчи бирор бир товушни овоз билан эсга туширишдан олдин унинг қандай янграшини аниқ-равшан тасаввур қилиши ва эшитиб билиши, яъни кўраяпман, эшитаяпман, куйлаляпман деб кўзга кўринадиган нарсадан эштиладиган нарсага қараб бориши лозим. Кўпчилик бўлиб қўшиқ айтишда ҳам мусиқа саводини ўрганиш жараёнида ҳам эшитиш қобилияти, метр-ритм сезгиси тараққий этади. Мусиқа саводини ўрганиш 1-синфда бошланади. Кўпгина болалар мактабгача тарбия даврида боғчага қатнаб, боғчадаги мусиқа машғулотларида бир қанча мусиқавий малакалар ҳосил қилган бўладилар, кўпгина қўшиқлар ва ўйинларни ўрганиб олган ҳамда ритм ва рақс харакатлари билан танишган бўладилар. Уйда тарбияланган болалар ҳам муайян мусиқий тасаввурга эга бўладилар; радио ва телевидения орқали эшиттириладиган бир қанча мусиқа асарлари билан танишган бўладилар. Гарчи ана шу билимлар анча тасодифий ва системага солинмаган бўлсада, аммо ашула ўқитувчиси болаларда мусиқадан назарий тушунчалар ҳосил қилишда ўша билимларга маълум даражада суюниб иш қўриши мумкин. Болаларга товушларнинг баланд-пастлиги тушунчасини ўрганиш болалардаги мавжуд тасаввурларни аниqlашдан бошланади. Бунда регистр ҳақида тушунча бериб ўтилади. Регистрлар ҳақида тушунчани мустахкамлаш ва ўзлаштиришни текшириб кўриш учун куйидаги ўйин машқни ўтказиш фойдалари бўлади. Ўқитувчи қўшиқни турли регистрда чалади. Болалар эса уларни кўл харакатлари билан кўрсатиб беришлари лозим. Агар қўшиқ юқори регистрда чалинаётган бўлса, улар қўлларини юқорига кўтаришади, пастки регистрда чалинаётганда пастга туширишади, ўрта регистрда – қўлларни олдинга узатишади. Бу ўйинни тикка туриб бажариш яхшироқ бўлади. Болаларнинг мусиқа саводи соҳасидаги билимларидан қўшиқ куйини бевосита нота ёзувисиз ўрганишда ҳам фойдаланиш мумкин. Куйни ўргатишнинг дастлабки босқичларидаёқ, таркибларни урғусиз бўғинлари билан охири бўлинниб қолмаслиги учун таркибдаги мантиқий урғуларга эътибор бериш зарур. Айрим таркибларни ўрганишда энг бошиданоқ сўзларнинг ундош ёки ундошлар группаси билан тугашига диққат қилинади. Мактабнинг 3-синфидан бошлаб дарсда бир овозлик қўшиқлардан ташқари. Икки овозлик қўшиқлар, кейинроқ уч овозлик қўшиқлар ўрганилади. Бундай қўшиқларни ўрганишда хар бир партия, бир овозли қўшиқ ўрганилганидек, синчиклаб ва худди ўша метод билан ўрганиб чиқилмоғи керак. Бу ерда ўқитувчи ўзини хамиша назорат қилиб бориши ва қандайдир бир хор партиясини ишига ортиқ даражада берилиб кетмаслиги лозим. Акс холда синфда тартибсизлик ва шовқин пайдо бўлади. Агар ўқитувчи қўшиқнинг бошини яккахон қўшиқчига топширишни мўлжаллаётган бўлса, барча боалар қўшиқни бошдан охир билишлари учун қўшиқнинг бошини бутун синф билан ўрганиш лозим.

Болаларнинг қўшиқ куйи ва матнини яхши эслаб қолишлиари учун 1-дарс етарли эмас. Шу сабабдан қўшиқ муайян вақт давомида кўп марта такрорланади ва аста-секин ўрганиб олинади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

- Шарафиева Н.С. “Хор синфи” Мусиқа нашриёти. Т., 2005
- Қодиров Р. Ф. Бошланғич мактабда кўп овозли куйлаш. Т., 1997



ДАРС БЕРИШ ТУРЛАРИ ВА ЖАРАЁНИНИ ФАОЛ ТАШКИЛ ЭТИШ

Қучқарова Нигора Фарҳод қизи

Хоразм вилояти Янгибозор тумани 1сон мактаб

1 тоифа математика фни ўқитувчиси

Яхшимуротова Адиба Илҳомовна

Математика фан ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада дарс бериш жараёни ва ўқитиш методикалари баён этилган.

Калит сўзлар: Шахс, педагогика лаборатория.

Дарс – таълимнинг асосий шакли экан, у илмий, тизимли, тушунарли, онгли ва фаол бўлиши, билимлар мустақам ўзлаштирилиши, ўқувчталабанинг шахсий хусусиятлари эътиборга олинган ҳолда ташкил этилиши дарс олдига қатор дидактик талабларни кўяди. Жумладан: Хар бир дарс аник максадни кўзлаган ҳолда пухта режалаштирилмоғи лозим. Бу жараёнда ўқитувчи дарснинг таълими ва тарбиявий максадини белгилайди. Дарс боскичларини, яъни қандай бошлаш, қандай тамомлаш кургазмали материаллардан фойдаланиш кабиларни олдиндан ҳал килиб олади. Хар бир дарс аник ғоявий, мафкуравий изланишга эга бўлиши лозим. Ўқитувчи эса улардан тарбиявий максадда фойдаланмоғи лозим. Хар бир дарс мактабнинг, ижтимоий мухитнинг имкониятини хисобга олган ҳолда амалиёт билан боғланмоғи, кўрсатмали воситалар билан жиҳозланмоғи лозим. Ҳар бир дарс характеристига мос усул, услугуб ва воситалардан самарали фойдаланилган ҳолда ташкил этилиши лозим.

Дарс учун ажратилган соат ва дақиқаларни тежаш ва унумли фойдаланиш даркор. Дарс жараёнда ўқитувчи ва ўқувчи ўзаро фаол муносабатда бўлиши лозим, ўқувчи талаба пассив тингловчига айланмалиги лозим. Машғулотлар бутун синф билан ва ҳар бир ўқувчи билан, уларнинг шахсий хусусиятлари эътиборга олинган ҳолда олиб борилиши керак.

Дарснинг мазмуни ва ҳарктерига қараб ҳалқимизнинг бой маънавий меросидан, маънавий қадриятларидан самарали фойдаланиши.

Ўтилаётган мавзунинг мазмунига боғлик ҳолда мустақил юртимиздаги узгаришлардан укувчи талабларни хабардор килиш. Таълим назарияси ва амалиётида дарс турлари ва уларнинг тузилишига ҳам алоҳида муаммо сифатида каралади ва урганилади. Дарс билим, кўнкимга ва малакалр билан ўқувчиларни куроллантиришда асосий роль уйнайди. Шу сабабли ўқув машғулотларига ажратилган вақтнинг асосий қисми дарс ўтиш учун сарфланади. Ўқитиш жараёнда кўргазмалилик методидан фойдаланишнинг муҳимлиги ўрганилаётган нарса ва ҳодисаларни ҳиссий идрок этишга, уларни кузатиб мушоҳада килишга талабани ундаш, мантиқий ва назарий элементларнинг бирлигига ишонч ҳосил қилиш ниҳоят, назарий билимларни амалиётда қўллай олишга ўргата билишдадир. Таълимда кўргазмалилик методи намойиш этиш, иллюстрация ва экскурсия тариқасида олиб борилиши мумкин. Таълимда намойиш этиш методидан фойдаланиш асосан материалларнинг характеристига мазмуни, шакли ҳам ҳажмига боғлиқдир. Намойишнинг ўзи ҳам турлича бўлиши мумкин: а) аслича кўрсатилиши мумкин бўлган буюм ва нарсалар, ўсимликлар ва уларнинг таркиби, коллекциялар, асбоб ва машиналар, моделлар ва ҳоказо. Экскурсия методи Экскурсия методи синф шароитида дарс жараёнда қўлланиладиган ўқитиш методидан тубдан фарқ қиласди. Бу метод билан ўрганилаётган нарса ва ҳодисаларни табиий шароитда (завод, фабрика, табиатни кузатишга) ёки маҳсус муассасаларга (музей, кўргазма ва ҳоказоларга) ташкилий равишда борилади.

Экскурсия вақтида кузатиш, зарур материалларини ёзиб олиш, расмга тушириш, ўлчаш, ҳисоблаш ишларини олиб бориш мумкин. График жадвал, карталар чизиш ҳам тегишли кўнкимга ва малакаларни ҳосил қилишга ва уларни мустаҳкамлашга ёрдам беради. Лаборатория ишлари методи. Лаборатория ишлари, практикумлар ўқитишнинг техник воситалари ва ўқув қуроллари типидаги бошқа асбоб-ускуналар билан машғулотлар тарзида ўтказилади. Лаборатория методининг бошқа ўқитиш методларидан фарқи, шундаки, бу метод билан иш қўрилганда ҳар қайси талаба ниманидир мустақил, шахсан тажриба қилиб кўради. Мустақил ишлар методи кейинги даврда талабаларнинг мустақил ишларини ташкил этишга катта эътибор берилмоқда. Чунки бу метод талабада ижодкорликни, мустакилликни



ривожлантиради. Ўқув дастурларида мустақил таълим учун соатлар ажратилмоқда. Талабаларни мустақил ишларини ташкил этишда маълум фаннинг хусусиятидан келиб чиқиб мустақил ишнинг мазмуни, шакли ва вазифалари танлаб олинади. Топширишган мустақил ишни бажариш учун педагог керакли адабиётлар ва йўл йўрикларни қўрсатиши, қисқача тушунтириш бериши лозим. Талаба бажариши керак бўлган мустақил иш кўп вақт эгалламаслиги ва шу билан бир қаторда талабага ривожлантирувчи сифатида таъсир қўрсатиши керак. Репродуктив методлар айниқса ўқув материалининг мазмуни асосан ахборот характерида бўлса, мураккаб ва бутунлай янги билимлар ўрганилиши лозим бўлган ҳолатда самарали натижа беради. Тафаккурнинг репродуктивлик характери педагог ёки бошқа манба орқали хабар қилинадиган ўқув ахборотларини активроқ қилишини ва эслаб қолинишини назарда тутади.

Фойдаланилган адабиётлар:

- 1.Авлиёқулов Н. “Замонавий ўқитиш технологиялари” Тошкент. 2001 й.
- 2.Азизхўжаева Н.Н. “Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат” Тошкент. 2003 й.
- 3.Исмаилова З.К. Педагогика. Дарслик. – Т.: Молия-иқтисод, 2008



**РАҲБАР ФАОЛИЯТИ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШНИНГ
ЭТНОСПИХОЛОГИК ВА ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИНИНГ
НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК ТАҲЛИЛИ**

Азамат Назаров,

Ўзбекистон халқаро ислом академияси,

“Дин психологияси ва педагогика” кафедраси катта ўқитувичиси,

психология фанлари бўйича фалса доктори (PhD)

Телефон: (97) 401-79-21

a.nazarov.80@mail.com

Аннотация: Мазкур мақолада бошқарув қарорларини ишлаб чиқишнинг ташкилий ва ижтимоий-психологик жиҳатлари аниқланган. Бошқарув қарори концепциясининг моҳияти, унинг асосий хусусиятлари ва амалга ошириш босқичлари очиб берилади. Бошқарув қарорларини ишлаб чиқиш жараёнида менежернинг шахсий фазилатлари ва ишбилармонлик ҳатти-ҳаракатлари хусусиятларининг аҳамияти асослари берилган. Менежментнинг ташкилий ва ижтимоий-психологик жиҳатлари менежернинг кадрларни бошқариш механизмлари, шахснинг хулқ-авторига таъсир этувчи воситаларнинг ишлаши, бўйсунувчиларнинг меҳнат фаолиятини тартибга солиш ва ташкил этиши тўғрисидаги билимларини ташкил этиши исботланган.

Калим сўзлар: шахс, персонал, менеджер, шахснинг идивидуал хусусиятлари, менежмент, қарор қабул қилиши, бошқарув қарорлари, онгли танлов, детерминизм, индетерминизм.

Бугунги кунда рўй бераётган ижтимоий ҳодисалар инсоният тафаккурида ўз аксини топади. Фан ҳам ижтимоий онг шакли сифатида ўз замонасига хос хусусиятларни акс эттиради. Шу маънода ҳозирги замон психология фани ривожида кескин бурилишлар содир бўлмоқда. Муайян давргача назарий масалаларга асосий эътиборни қаратиб келган психология бугунги кунда қатор амалий вазифаларни ҳал этиши сари қадам қўйди. Бундай вазифалар, охир оқибат инсоният манфаати одамларга қулайликлар яратиш йўлидаги хайрли ишларни амалга ошириш билан боғлиқ. Ўзбекистон Республикасининг бугунги тарихи демократик давлатни шакллантиришга асосланган. Мамлакат ижтимоий ҳаётининг барча соҳаларида демократик ислоҳотларни талаб этадиган жараёнда ҳалқнинг ана шу муҳим жараёнда фаол иштирок этиши муҳим аҳамиятга эга. Ўзбекистон мустақил давлат сифатида бозор иқтисодиётiga ўтиш жараёнида, иқтисодий муносабатлар, мулкчиликнинг янги шакли вужудга келган вақтда бошқарув тизимини ўз миллий тараққиётiga мос равища ўзгаририб келмоқда. “Бошқарув тизимининг самарадорлигини сифат жиҳатдан янги босқичга кўтариш, қарорларни тайёрлаш ва қабул қилиш сифатини сезиларли даражада ошириш, уларнинг ижроси устидан назоратнинг таъсирчан механизмини жорий этиши” бошқарув тизимини ислоҳ қилишининг асосий йўналиши деб тан олинди.

Замонавий бошқарувда қарорларини тўғри тайёрлаш ва қабул қилиш ижтимоий-сиёсий, ижтимоий-психологик ва иқтисодий ҳаётнинг барча соҳаларида бошқарув самарадорлигига эришиш икониятини яратади.

Бошқарув қарорлари қабул қилиш жараёни юқори малака ва амалий иш тажрибасини талаб қилувчи меҳнат фаолиятининг алоҳида туридир. Одатда, бошқарув қарорлари қабул қилиш бирон-бир мақсадга йўналтирилган бўлиб, маълум қоида, аниқ ҳаракатлар доирасида амалга оширилади.

Бошқарув қарорлари қабул қилиш жараёнининг такомиллаштириш истиқболлари бугунги куннинг долзарб масалаларидан бирига айланиб бормоқда. Давлат ва жамият бошқаруви демократик тамойиллар, ҳозирги замон бозор иқтисодиёти фонуниятлари асосида ривожлангани сари бошқарув қарорлари ушбу қонуниятларга мос тарзда ишлаб чиқишини тақозо этади, бу ўз ўрнида бошқарув самарадорлигига эришиш имкониятини яратади. Шунингдек, бошқарув қарорларининг ўзига хос жиҳатларини аниқлаш, уни такомиллаштириш ва бу соҳада замонавий раҳбар кадрлар тайёрлаш, уларда оқилона бошқарув қарори қабул қилишга доир кўникма ва малакани шакллантириш муҳим аҳамият касб этади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб, бошқарув қарорларини қабул қилишда қўйидаги ижтимоий-психологик жиҳатларни инобатга олиш мақсадга мувофиқдир деб ўйлаймиз:



1. Қарор қабул қилиш жараёнининг психологияк жиҳатини билиш мавжуд босқичларни янада самарали амалга ошириш имконини беради. Тўғри қарор қабул қилиш ва уни самарали жорий этиш учун раҳбар психологик жиҳатдан ҳам муайян мезонларга риоя қилиши керак.

2. Мамлакатимизнинг янгиланиш босқичида ислоҳотларни жадаллашти-ришга асос бўла оладиган бошқарув қарорлари қабул қилиш йўлидаги изланишлар, тадқикотлар, илмий текшириш ишларини (психологияк ва педагогик жиҳатдан ҳам илмий изланишларни) олиб боришни йўлга қўйиш лозим

3. Бошқарув қарорларини қабул қилиш жараёни назарий билимларни ижодий тасаввурга ва олдиндан кўра билиш қобилияти билан уйғунлаштириб, тадбикий технологияларни амалий кўникма ва малакалар билан мутаносибилигини таъминлашни йўлга қўйиш.

4. Қарор қабул қилиш жараёнида ўрганилаётган обьектларга нисбатан раҳбарлар креатив кўникмалар, яъни билимларни бевосита борлиқдан олиш, ностандарт вазиятларда муаммони ҳал этишнинг ҳаракат усуслари ва эвристик методларини танлай билиши қабул қилинаётган қарорнинг муваффакиятини таъминлашда иштирок этади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Nazarov A. S. RAHBAR FAOLIYATIDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH TAMOYILLARINI IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSUSIYATLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. Special Issue 2. – C. 342-348.
2. Назаров А. РАҲБАРНИНГ ШАХСИЙ КОМПЕТЕНТЛИ ОМИЛИНИНГ БОШҚАРУВ ҚАРОРЛАРИНИ ҚАБУЛ ҚИЛИШГА ТАЪСИРИНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ТАҲЛИЛИ.
3. Mengboevich U. B., Sottarovich N. A. SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE LEADER IN THE IMPLEMENTATION OF MANAGEMENT DECISIONS //Science Time. – 2021. – №. 10 (94). – C. 31-35.
4. Umarov B. M., Nazarov A. S. SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS AND MECHANISMS AFFECTING MANAGEMENT DECISION-MAKING IN THE ACTIVITIES OF THE HEAD //Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 29 (том 1)(октябрь, 2021). Дата выхода в свет: 31.10. 2021. – С. 91.
5. UMAROV B. M., NAZAROV A. S. PSYCHOLOGICAL MODELS OF BEHAVIOR OF MANAGERS IN THE PROCESS OF MAKING MANAGEMENT DECISIONS.
6. Nazarov A. S. DECISION MAKING AS A KEY PART OF MANAGEMENT ACTIVITY //Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 33 (том 1)(февраль, 2022). Дата выхода в свет: 28.02. 2022. – С. 77.
7. Nazarov A. S. PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MANAGEMENT DECISION-MAKING IN EMERGENCY SITUATIONS //Международный научно-практический электронный журнал «МОЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КАРЬЕРА». Выпуск № 34 (том 1)(март, 2022). Дата выхода в свет: 31.03. 2022. – С. 131.
8. Sottarovich N. A., Zilola K. PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR MAKING MANAGERIAL DECISIONS IN MANAGEMENT ACTIVITIES //Science Time. – 2022. – №. 2 (98). – С. 27-33.



ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Расулов Одил Абдиахадович

Насимова Нигира Тойировна

Учителя русского языка и литературы

24-й школы Нуратинского района

Навоийской области

Аннотация: В данной методической рекомендации речь идет о методах, используемых на занятиях по русскому языку.

Ключевые слова: урока интерактивными методами, метод вебинара, чтение.

В чем преимущества организации урока интерактивными методами:

- Содержание обучения ведет к хорошему обучению;
- Своевременно устанавливаются воспитательные отношения между учениками-преподавателями-студентами;
- Методы обучения принимают различные формы в процессе обучения. (индивидуальные, парные, групповые, большие группы).
- Учебный процесс становится высокомотивированным за счет удовлетворения образовательной потребности.
- Учебный материал хорошо запоминается благодаря взаимной подаче, получению и обработке информации.
- Учащиеся развиваются навыки общения, выражения мнений и обмена мнениями.
- Для ученика урок превращается в интересное «предметное» содержание, проявляется творческий подход к процессу обучения, положительное мнение.

На интерактивных уроках учащийся не только усваивает учебный контент, но и развивает свое критическое и логическое мышление. Конечно, организация интерактивных уроков имеет и свои недостатки.

1. Учебный процесс требует много времени.
2. В интерактивных классах невозможно контролировать всех учащихся.
3. При изучении очень сложных материалов учащиеся не могут полноценно и четко решить задачу, в таких условиях роль преподавателя снижается.
4. Из-за участия слабых учащихся в процессе обучения в группах бывают случаи, когда даже сильные учащиеся получают более низкие оценки или оценки.

Де-

Методика русского языка

Наука о содержании, методах и приемах обучения русскому языку, о путях и условиях усвоения учащимися знаний и навыков по русскому языку

Особая и самостоятельная наука, представляющая собой систему знаний об определенной стороне реальной действительности.



лается вывод о том, что в таких условиях у педагога должна быть высокоразвитая способность мыслить, наблюдать за проблемами, уметь вовремя решать задачи.

При организации занятия по интерактивным методам необходимо начинать с создания фундамента для развития личности учащегося.

То есть читатель:

- Самостоятельный чтение и обучение на основе чтения;
- Самосознание, самообразование;
- уверенно смотреть на свои силы и возможности;
- ответственно относиться к учебной работе;
- Уметь самостоятельно организовывать свою деятельность, радоваться каждой минуте;
- Уметь вызывать стремление к воспитательной работе;
- уметь проявлять активность в любой ситуации;

Поэтому создание технологии саморазвития школьника является одной из актуальных задач, ожидающих своего решения перед наукой педагогики и дидактики. Что такое индивидуализированное обучение педагогов в наше время и зачем необходимо интерактивное обучение? Когда этот метод вошел в учебный процесс? Какие типы существуют? Какова структура? Перед нами встают такие вопросы, как внедрить его в учебный процесс, чем он отличается от предыдущих методов.

Название традиционной школьной классно-урочной системы имеет свои традиции следующим образом:

- Дети примерно одного или близкого возраста образуют класс близких детей.
- Класс работает на основе единого плана, программы, расписания занятий.
- В основном тип обучения представляет собой одно занятие.

“МЕТОД ВЕБИНАРА” Метод вебинара – это вид интерактивного обучения, проводимого дистанционно с участниками в разных местах с использованием современных информационно-коммуникационных технологий (компьютер, монитор, мультимедиа и подобные средства). При вебинарном методе занятие проводится в прямом эфире в форме дистанционного семинара или конференции через Интернет с одновременным присутствием обучающихся с использованием множества интерактивных средств аудио-видео коммуникации, применяемых в системе дистанционного образования. Эти уроки могут быть записаны для дальнейшего использования. В этом методе уроки всего учебного или курсового процесса не связаны между собой в непротиворечивости единого учебного плана, они состоят из отдельных разовых уроков.

Использованная литература:

1. Собирова, М. Р. Использование интерактивных методов на уроках русского языка 2020 г
2. Интернет-сайты: -kitob.uz, -ziyor.net.uz.



**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNI AMALIY VA NAZARIY
BILIMLARINI OSHIRUVCHI USULLAR**

Abdiraukova Aru Maratovna
Keulimjayeva Aytoti Talgatovna
Burikulova Gulmira Amirxanovna
Navoiy viloyati Tomdi tumani 16-maktab
boslang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada boslang‘ich sinflarda o‘quvchilarni amaliy va nazariy bilimlarini oshiruvchi usullar haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Loyiha, mustaqil fikrplash, amaliy, haqiqat, yolg‘on, amaliy...

Barchamizga ma’lumki, ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An’anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta’lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasining ko‘tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi muttasil rag‘batlantirilib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishslash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

“Loyiha” metodi - bu ta’lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo‘yicha axborot yig‘ish, tadqiqot o‘tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta’lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarini baholash jarayonlarida ishtiroy etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir loyiha o‘quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta’lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning echimini topishdan iborat. Ta’lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo‘lishi va u ta’lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo‘llay olishni talab qiladigan topshiriq bo‘lishi kerak.

Loyiha o‘rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta’lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo‘lishi kerak.

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallarni asosida topshiriqqa oid ma’lumotlar yig‘adilar.

2. Ta’lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta’lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarini rejalashtirishlari lozim.

3. Ta’lim oluvchilar ish natijalarini o‘zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlardan birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta’lim oluvchi yoki kichik guruhlardan hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og‘zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko‘rinishidagi yozma hisobot.

“Loyiha” metodini qo‘llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta’lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta’milanishi lozim.

“To‘xtamlar asosida o‘qish” usuli.



Bu usulda biror hikoya boshlab beriladi va qolgani o‘quvchilardan so‘raladi. O‘quvchilar mustaqil fikrlashga o‘rgatiladi. Bu usul orqali o‘quvchilarda **gapirib berish ko‘nikmasi** shakllantiriladi. O‘quvchilarning fikri aynan hikoyaga to‘g‘ri kelmasa ham mazmuniga yaqini tanlanadi.

Qadim zamonda bir o‘g‘ri bo‘lib, u podshohning xazinasiga ustalik bilan o‘g‘rilikka tushadi. O‘g‘ri xazinadagi boyliklarni o‘g‘irlamoqchi bo‘ladi va uning ko‘zi qopga solingen oppoq narsaga tushadi. Qiziquvchan o‘g‘ri qopdagini oq narsani tatib ko‘radi va hech narsa o‘g‘irlamay chiqib ketadi...

Shu yerda to‘xtam qilinadi. O‘quvchilardan muallif nima demoqchi bo‘lganligi, sizning fikringizcha yozuvchi shu yerda nima demoqchi?, Hikoya qanday davom ettirilgan? kabi savollar so‘raladi. Ushbu hikoya 2-3 to‘xtamda o‘qiladi. O‘quvchilarga oldindan tayyorlab qo‘yilgan savollar beriladi.

HAQIQAT	YOLG’ON
<ul style="list-style-type: none"> -Cho`lda yoz 6 oy davom etadi. -Cho`lda bo`g`ma ilon, kapcha ilon, cho`l qora iloni, qalqontumshuq kabi ilonlar ko`p uchraydi. -Tuya suvsizlikka bir hafta chidaydi. -Cho`lni o`zlashtirish ekologik halokatlarga olib keladi. -Garmsel –issiq shamol degani. -O`lkamizdagi gilli cho`llarning katta qismi insonlar tomonidan o`zlashtirilgan. 	<ul style="list-style-type: none"> Cho`l zonasida yog`ingarchilik 2000 mm bo`ladi. -Cho`lda havo temperaturasi 100 darajagacha ko`tarilishi mumkin. -Cho`lda yantoq o`simligi ildizining uzunligi 2 metrni tashkil etadi. -Yer sayyorasining to`rtdan ikki qismini suv egallagan. -O`lkamiz cho`llarida kaltakesakning faqat cho`l agamasi va qizilqulqoq kaltakesagini uchratish mumkin. -Qishda cho`lda havo harorati 60 darajagacha sovuq bo`lib, qor yog`adi.

Har bir bolaning qobiliyati va iste’dodini o’z vaqtida payqash, tarbiyalash, ro’ybogga chiqarish nafaqat ota-onaning, balki butun jamiyatning burchi sanalar ekan bunda har bir bir pedagog mas’ul shaxs sifatida alohida o’rinda turadi. Buning uchun esa pedagog o’zi ustida faol, izlanuvchan, talabchan, ijodkor, muhimi bilimdon mutaxassis bo’lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G’oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. - T.: O’zMU, 2003. 156-b
2. Yusupova F. I. O‘quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta’limi" jurnali. 2005-y
3. Internet saytlari



TIL MILLATNING RAMZI

Abdirimova Oqiljon Ozodboyevna

Yangiariq tumani 15-sон мактаб о‘қитувчisi

Telefon: +998 (99) 508 02 48

abdirimova.oqiljon_15@inbox.uz

Jumaboyeva Shahsanam Narimanovna

Yangiariq tumani 15-sон мактаб о‘қитувчisi

Telefon: + 998 (97) 601 38 30

jumaboyeva.shahsanam_15@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola Davlat tilimiz bo‘lgan o‘zbek tilini rivojlantirish masalalari hamda, O‘zbekiston fuqarolari bo‘lgan boshqa millat vakillarining o‘zbek tilimizga bo‘lgan munosabati haqida.

Kalit so‘zlar: Til, milat, ramz, iftixor, kitobxon, moziy, mustaqillik, qadriyat.

Ona tilimizning O‘zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida mamlakatimizda asosiy ijtimoiy-iqtisodiy va rasmiy muloqot tiliga aylanib borayotganligi istiqlol bergen buyuk ne’matlardan biridir. Bugungi kunda respublikamizda fuqarolarning davlat tilidagi savodxonligiga, xususan, Respublikamizda yashovchi boshqa millat vakillarining o‘zbek tilida erkin og‘zaki va yozma muloqot yurita olishlariga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

Jamiyatda tilning amaliy ahamiyati nihoyatda katta, shu bois har bir mamlakatda tillarni o‘qitish, o‘rganish masalalariga jiddiy e’tibor qaratiladi. Til ta’limida tilni ona tili sifatida, ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida o‘qitilishi o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanadi. Bu o‘quv fanlarining nomlanishida ham aks etadi. Ma’lumki, har bir tilning davlat miqyosidagi maqomi uning mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘rni, jug‘rofisi-siyosiy holati kabi qator omillardan kelib chiqib belgilanadi. omillardan kelib chiqib belgilanadi. Jumladan, O‘zbekistonda umumiyo‘rta ta’lim 7 tilda olib borilishi, bular orasida qozoq, qirg‘iz, turkman, qoraqalpoq tillari bir oilaga mansub qardosh tillar ekanligi e’tiborga olinsa, ularga nisbatan “o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitish” atamasini qo‘llash, albatta, nojoiz bo‘ladi. Ayni paytda, ta’lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda turli millatlar vakillari, hatto o‘zbeklar ham ta’lim olayotgani va eng asosiysi, ushbu turli millat vakillarining O‘zbekistonda tug‘ilib, respublikamizda muqim yashayotganligi ham nazarda tutilsa, o‘zbek tilini ikkinchi til yoki xorijiy til sifatida emas, aynan davlat tili sifatida o‘qitish maqsadga muvofiqligi ham yaqqol ko‘rinadi. Respublikamizda istiqomat qilayotgan 30 milliondan ortiq aholi orasida 130dan ortiq millat vakillari borligi e’tiborga olinsa, bu davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim ijtimoiy-siyosiy masala ekanligi yaqqol ko‘rinadi.

Ma’lumki, davlat ta’lim standartlari har bir fan bo‘yicha o‘quvchilar va talabalarning tayyorgarligiga, saviyasiga qo‘yiladigan minimal daraja ko‘rsatkichlari bo‘lib, ta’lim mazmuni, shakkllari, usullari, baholash tartibini belgilab beradi va ta’lim mazmunining asosi hisoblanadi. Bunda o‘zbek tili ta’limi oldiga qo‘yiladigan asosiy talab, avvalo, o‘quvchini o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olish, o‘zgalar bilan turli nutqiy vaziyatlarda muloqot yurita olishga o‘rgatish, ya’ni kommunikativ savodxonlikni shakllantirishdan iborat. Hozirgi kunda standartlashtirishning ana shu umumiyo‘talab va mezonlaridan kelib chiqib, o‘zbek tilini o‘qitishda kommunikativ modelga asoslangan ta’lim mazmuni ishlab chiqilgan.

O‘zbek tilidagi faol nutqiy qurilmalarini o‘rgatish, grammatic bilimlar, so‘z va so‘z birikmalarining bog‘lanish qoidalarini esa nutqiy ehtiyoj, fikr ifodalash maqsadidan kelib chiqqan holda o‘rgatish talab qilinadi. Ko‘rinadiki, tilni ona tili sifatida o‘qitish bilan ikkinchi til sifatida o‘qitish o‘zaro qat’iy farqlanadi va alohida tamoyillarga tayanadi. Til o‘rganishda asosan nutq, muloqot yuritish, kommunikatsiya masalalariga yetakchi o‘rinda turgani uchun til ta’limi tamoyillarini belgilashda ko‘proq shu jihatga ustuvor ahamiyat beriladi.

Demak, Respublikamiz ta’lim bosqichlarida o‘zbek tilini o‘qitishni takomillashtirish, buning uchun esa, avvalo, o‘zbek tili ta’limi mazmunini til ta’limining xalqaro standartlariga muvofiqlashtirish zarur.

Ona tilimizning respublikamiz hududida millatlararo asosiy muloqot vositasiga aylanib borishi ko‘p jihatdan umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kollejlar hamda oliy ta’lim tizimida o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilining o‘qitilishi, ularda amal qilinayotgan o‘quv dasturlari va



darsliklar mazmuniga bog‘liq.

O‘zbekistonda yashovchi barcha millat vakillarining o‘qish va ishlash jarayonida mahalliy millat vakillari bilan teng munosabatda bo‘lishlari, barcha sohalarda erkin fikr almashishlari uchun o‘zbek tili ta’limi xalqaro standart talablariga javob berishi, o‘zbek tilining kommunikativ-nutqiyligini va lingvistik kompetensiyasi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini yetarli darajada egallashlari ko‘zda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

1. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. T., «O‘qituvchi», 2003.
2. Ishmuhamedov R. va b. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. T.: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iste’dod» jamg‘armasi, 2008.
3. Ikromova R. Grammatika, imlo va nutq o‘stirishdan tarqatma materiallar. T., «O‘qituvchi», 2003.



KIMYO VA BIOLOGIYA DARSLARIDA INTEGRATSIYA

Abdiyev Aslam Sharopboyevich

Navoiy viloyati Konimex tumani

16-umumi o'rta ta'lif maktabi

kimyo-biologiya fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada integratsiyalangan darslarning afzalliklari, kimyo va biologiya fanlarini integratsiyalash usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, kimyo, biologiya, integrative, dars, hodisa, vosita.

Umumiy o'rta ta'lif maktablarida fanlararo integratsiyaning o'rnatilishi bilimlarni to'liqroq o'zlashtirishga, ilmiy tushunchalar, qonuniyatlarni shakllantirishga, o'quv jarayonini takomillashtirishga, intellektual dunyoqarashni shakllantirishga, tabiat va jamiyat hodisalarining o'zaro bog'liqligini tushunishga imkon yaratadi. Bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilar ni pedagogik kuzatishlar quyidagi muammolarni ochib berildi:

- o'quvchilar bir fandan olgan bilimlari asosida butun tabiat hodisalarini to'liqligicha tasvirlay olmaydilar;
- o'quvchilar tabiat hodisalarining har tomonlama o'zaro bog'liqlik qirralarini ko'rmaydilar;
- o'quvchilar kimyoviy bilimlaridan biologiya fanini o'rganishda, jonli va jonsiz tabiatni tasvirlashda qanday foydalanishni bilmaydilar.

Kimyo va biologiyani o'qitishga integrativ yondashuv dunyo haqidagi yaxlit g'oyalarni tiklashga yordam beradi, turli mavzularda o'rganilgan har qanday muammolar, vaziyatlar, hodisalar haqidagi har tomonlama tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Dunyoni idrok etishning yaxlitligini to'ldiradi, o'quvchilarning estetik va axloqiy tarbiyasini yaxshilaydi. Integratsiya ta'lif jarayonini jonlantiradi, o'qish vaqtini tejaydi, charchoqni ketkazadi, fikrlashni kelajakka yo'naltiradi. Bunda tashqari, o'quvchilar bilimining ilmiy darajasini oshirish, mantiqiy fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan darslar yaxlit va bo'laklarga ajratilgan darslarga bo'linadi. Holistik darslar yanada qiziqarli, chunki har kuni darsda bir vaqtning o'zida ikkita yoki hatto uchta o'qituvchi bo'lmaydi, ular ko'proq muammolarni hal qilishga yordam beradi, o'qitishning turli shakllari va usullarini qo'llaydi. Bo'laklarga ajratilgan darslar kichik bir qator masalalarni ko'rib chiqishga imkon beradi.

Mavzulararo aloqalarni quyidagicha tasniflash mumkin: vaqt bo'yicha bo'laklangan (hamroh, oldingi, keyingi, istiqbolli, takrorlanuvchi, konsentrik); o'z tavsifnomasiga ko'ra ajratilgan (mantiqiy, falsafiy, gnoseologik, semiotik).

Integratsiya fanlarni yaqinlashtirishga, umumiy yondoshishga, fanlar mazmunini chuqurroq va kengroq darajada yondoshishga yordam beradi.

O'rta maktab kimyo kursida fanlarining integratsiyalashuvi kamroq darajada kuzatilgandek tuyilishi mumkin, ammo "Metallar" va "Metalmaslar" mavzularida kimyo va biologiya o'rtasidagi bog'liqliknı yaqqol sezish mumkin. Masalan "Galogenlar", "Azot va fosfor", "Mineral o'g'itlar", "Ublerod va kremniy oksidlari", "Metallar kimyoviy element sifatida", "Temir" mavzularini olib borishda buni aniq seziladi. "Dispess tizimlar. Eritmalar", "Suv va uning umumiy xossalari, ahamiyati", "O'z ichimizdag'i va atrofimizdag'i eritmalar" mavzularida kimyo va biologiyani integratsiyasida umumiy dars o'tish maqsadga muvofiqdir.

Kimyo o'qitish mazmunida fanlararo bog'lanishning bir qancha turlari mavjud: faktlarga asoslangan, konseptual, nazariy ma'lumotlar asosida. Maktab amaliyotida yuzaga keladigan muammolarni aniqlash, tafsiflash va bartaraf etish yo'llarini topish uchun o'quv maqsadlari uchun fanlararo aloqalarning didaktik modelini haqiqatga aylantirishning maqbul sharoitlari, bosqichlari va usullarini jadal izlash kerak. Maqsad o'quvchilar tomonida fanlarni integratsiyada o'zlashtirishga erishish.

O'quv jarayonida integrativ yondashuvni qo'llash natijasida o'quvchilarda asosiy kompetentsiyalar shakllanadi. Muammoli ta'lif texnologiyasidan foydalanish o'quvchilarning ta'lif va kognitiv kompetensiyalarini shakllantirishga yordam beradi. Bir vaqtning o'zida bir nechta o'quv fanlari bog'lamida qo'yilgan muammoni kompleks hal qilish va uni muvaffaqiyatli ro'yobga chqarish beباho-fikriy kompetensiyalarini shakllantiradi. Axborot kompetensiyalari bunday darslarda ax-



borotni o'qitish vositalari (kompyuterlar, proektor, multmediya vositalari) orqali shakllantiriladi, ularsiz bugungi sharoitda fanlararo integratsiya texnologiyasidan foydalangan holda dars o'tkazish amrimahol. O'qitishning kompyuter vositalari interfaol deb ataladi, chunki ularda “o'quvchi va o'qituvchining harakatlariga javob berish”, “muloqotga kirishish” kabi xususiyatlar mavjud bo'lib, bu texnologiyaning asosiy ijobjiy xususiyati hisoblanadi.

Integratsiyalashgan darslarda ijtimoiy va mehnat kompetentsiyasini shakllantirish osonroq, chunki asosiy maqsadlardan biri maktab o'quvchilarining ongiga o'rganilayotgan mavzularni atrofdagi voqelikdan ajratib bo'lmaydi. Mustaqil ravishda amaliy ishlarni bajarish, kimyo va biologiya fanlaridan laboratoriya tajribalarini bajarish jonli va jonsiz tabiatning har bir qadamini, har bir harakatini darslarda o'rganilgan qonuniyatlardan foydalanib tushuntirish mumkinligini va tushuntirish kerakligini ko'rsatadi.

Qanday bo'lmasin, biz har bir darsda u yoki bu darajada umumiyl madaniy, kommunikativ va shaxsiy o'z-o'zini rivojlantirish kompetentsiyalarini shakllantiramiz, chunki integratsiyalashgan ta'lif bilan o'quvchilar dunyoning ilmiy yaxlit tasvirini o'zlashtirish, madaniy va umumbashariy miqyosda kengayish tajribasiga ega bo'ladilar. O'quvchi o'z qiziqishlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda faoliyat usullarini o'zlashtirib oladi, bu uning uzluksiz o'zini-o'zi bilishida, zamonaviy shaxs uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda, aqliy savodxonligini, tafakkur va xulq-atvor madaniyatini shakllantirishda namoyon bo'ladi.

Integratsiyalashgan ta'lif usuli, quyidagi uch turdag'i kompetensiyalarini- kommunikativ, o'quv va kognitiv va axborot yanada muvaffaqiyatl shakllantiradi.

Fanlararo integratsiyani o'rnatish yo'lida ikki bosqich mavjud: boshlang'ich tayyorgarlik - o'quv mavzusini keng fanlararo asosda o'rganish boshlanishiga to'g'ri keladi; fanlararo asosda mavzuning ilg'or qoidalarini bevosita oshkor qilishni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lif sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-4805-son qarori.

2. Umumiy o'rta ta'lif maktablarining kimyo va biologiya fani darsliklari.
3. Internet malumotlari.



**BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARIGA BILIM BERISHDA PISA XALQARO
BAHOLASH DASTURIDAN FOYDALANISH USULLARI**

Abdurasulova Nargiza Uskanovna

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani
4-maktab boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi

ANNOTASIYA: O'zbekiston innovatsion taraqqiyot yo'lida rivojlanib borayotgan davrda kelajagimiz davomchilar bo'lgan o'quvchilarning ijodiy fikrlash g'oyasi, ijodkorligi har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Shu yoshlarga ta'lif-tarbiya berishda xalqaro baholash dasturidan foydalanish usullari haqida fikrlar keltirilgan

KALIT SO'ZLAR: Xalqaro baholash, PISA, o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, "bo'laklash" usuli, "muammo" usuli

O'zbekiston innovatsion taraqqiyot yo'lida rivojlanib borayotgan davrda kelajagimiz davomchilar bo'lgan o'quvchilarning ijodiy fikrlash g'oyasi, ijodkorligi har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. So'zimning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirishni o'rinni deb topdim. "... mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o'rin egallashi, avvalo, ilm -fan va ta'lif-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzbek bog'liq..." Shunday ekan, ta'lif sifati va samaradorligini oshirish yo'lida xorijiy ilm-fan tajribasini o'rganib, Respublikamiz o'quv maskanlarida PISA, TIMSS, PIRLS dasturlarini qo'llash muhimdir. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi 5712-sonli Farmonida 2030-yilga kelib, PISA xalqaro dasturchi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishga erishish hamda xalq ta'lif tizimida ta'lif tizimini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'naliishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lif sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyasi va malakalarining rivojlanishi ga alohida zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lif dasturlari va yangi davlat ta'lif standarti joriy etildiki, bu esa ta'lif oluvchining bilim darajasini baholashda xalqaro PISA dasturida ishtirok etish imkonini berdi. Qisqacha PISA xalqaro dasturi haqida to'xtalib o'tsak.

PISA – (inglizcha, Programme for International Student Assessment). O'quvchilarning ta'lifi yutuqlarini baholovchi dastur. Bu dastur dunyoning barcha davlatlaridagi o'quvchilarning savodxonligini baholash va ushbu bilimlarini amaliyatda qo'llashning bilish darajasini baholovchi testdir. PISA 3 yilda 1 marta o'tkaziladi. Bunda 15 yoshli o'smirlar qatnashadi. Bu dastur 1997-yilda ishlab chiqilgan, 2000-yilda birinchi marotaba qo'llanilgan. Unda 5 yo'naliish bo'yicha ish olib boriladi.

1. O'qish savodxonligi
2. Matematik savodxonlik
3. Tabiiy fanlar savodxonligi
4. Kompyuter savodxonligi
5. Moliyaviy savodxonlik

O'zbekistondagi mablag' o'quvchilari birinchi marotaba 2021-yil PISA dastur yo'naliishing 3 turi bo'yicha qatnashishlari ko'zda tutilgan.

1. O'qish savodxonligi
2. Matematik savodxonlik
3. Tabiiy ilmiy fanlar savodxonligi

O'qish savodxonligi o'quvchini o'qigan badiiy asaridan parcha, ro'znomalardagi maqolalar, turli qo'llanmalar tarkibidagi matnni tushunishi, mazmuni haqida fikr yurita olish, unga baho berish. O'qiganlari haqida o'z fikrini bera olishi asosiy maqsadidir. Matematik savodxonlik matematik bilimlardan turli xil hayotiy vaziyatlarda fikrlash, qaror qabul qilish, to'g'ri va to'liq asoslay olishni tekshiradi. Insonning matematikadan yaratuvchanlik, qiziquvchanlik, fikrlovchi, undan ehtiyojini qondira oladigan darajada foydalana olishni ta'minlash asosiy maqsadidir.



Tabiiy ilmiy fanlar savodxonligi kuzatuv, tajribalar asosida atrofimizdagi olamni tushunish, inson faoliyati natijasida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, unga ko‘ra qarorlar qabul qila olish asosiy maqsadidir. Bu o‘z-o‘zidan o‘quvchining darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o‘qituvchini esa har tamonlama ta’lim tarbiyaga e’tiborni kuchaytirish talab etiladi. PISA dasturida o‘quvchi asosiy tushunchalarni bilishi, bazaviy bilim, ko‘nikma, malakani egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishiga qaratilgan. Bu dastur sinovida 4 xil usuldan foydalilanildi.

1. Bir javobli testlar
2. Bir necha javobli testlar
3. Qisqa yoki batafsil javob yoziladigan savollar
4. Biror muammoning yechimi bo‘yicha o‘quvchi fikri. (Bunda o‘quvchining ijodiy fikrlashiga ham e’tiborni qaratiladi)

XXI asr – informatsion texnologiyalar asri. Shunday ekan, bu asr ta’lim beruvchi, oluvchilari oldingidan farq qiluvchi kompetensiyalar o‘ylashni talab qiladi. XXI asrda qidiruv tizimlari, mukkammal onlayn bazasi yaratildiki, undan maktab o‘quvchilarining haqiqiy hayotda kerak bo‘ladigan hodisalarни tahlil qilish, xulosa chiqarish, muloqatga kirishish ko‘nikmasini qay darajada egallayotganini ta’lim tizimidagi o‘zgarishlardan bilsak bo‘ladi. PISA dasturi barcha fan o‘qituvchisidan o‘z ishlariga yangicha yondashishni talab qiladi. Bu tizim endi mamlakatimizda boshlanayotganini nazarda tutsak,u bilan chuqurroq tanishish, uning talab va imkoniyatlari ni bilmog‘imiz darkor. Bu dasturga poydevorni boshlang‘ich ta’lim jarayonlarida qo‘llab, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarimizda bilim, ko‘nikma, malakani hosil qilish yaxshi natija beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun elektron o‘quv modullar, ko‘rgazmali qurollar, didaktik materiallarni ilmiy-ommabop, tushunarli, sodda, ravon, oson o‘zlashtira olish va qiziqarli tarzda tayyorlash, yaratish darkor. Boshlang‘ish sinf o‘qituvchisi ota-onalar bilan elektron hamkorlikning turli variantlarini ishlab chiqishi,uni ish jarayonida qo‘llay bilishi o‘ta muhimdir.

Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga yangiliklarni tez-tez joriy etish, bir xil dars o‘tishdan qochish, malakali o‘qituvchining ish tajribasini o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llay bilish o‘ta muhimdir. Bugungi kunda boshlang‘ich ta’limning asosiy maqsadi bolani o‘qishga bo‘lgan ijodiy munosabati, o‘qish savodxonligi, turli ma’lumotlar bilan ishlashi, matematik amallarni bilishi, ularni kundalik hayotda qo‘llay olishi, mantiqiy va erkin fikrlashi, o‘z-o‘zini boshqarishi, jamoada o‘zini tuta bilishi, yozma, og‘zaki muloqat madaniyat qoidalarini egallashi, chet tillarini puxta o‘rganishi ta’lim poydevorini mustahkamlashdagi omildir.

Ta’limiy faoliyatni tashkil etishda o‘quvchilarning kreativ fikrlashini shakllantirish usulini qo‘llash, undan unumli foydalanish ta’lim oluvchining bilim, malaka, ko‘nikma o‘zlashtirish jarayonini qulaylashtiradi. Bu tajribalarni karantin davrida qo‘llab onlayn tarzda o‘tdim. O‘quvchilarimning ota-onalari bilan farzandining onlayn darslarga qatnashishi, uy vazifalarini bajarishi haqidagi telefon orqali muloqat yaxshi natija berdi. Kulol loyga ishlov berganda uning ishi go‘zallashib,sayqal topib borganida uning yasagan mahsuloti ochiladi. Xuddi kuloldek boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ham o‘zining bor mahorati, qobiliyati, faniga qiziqishi, izlanuvchanligi,erk bilan hamnafas bo‘lib qadam tashlab ilg‘or tajribalarni qo‘llay olishi kerak.

Bu boroda mamlakatimizning ta’lim tizimida ishlashi,o‘qishi uchun o‘quvchi, o‘qituvchilarga keng imkoniyatlar yaratilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib, fanga oid mustaqil axborotni topishi, mavzuga oid ijobjiy, salbiy fikr bildira olishi,musiqa, animatsiya yaratish yordamida estetik, emotsiyonal muhit yarata olish imkonini beradi. Boshlang‘ich ta’lim jarayoniga yangiliklarni tez -tez joriy etish, bir xil dars o‘tishdan qochish, malakali o‘qituvchining ish tajribasini o‘z pedagogik faoliyatida qo‘llay bilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘quvchilarning ta’limiy yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur (PISA) Toshkent, 2019-yil.
2. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ish sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash. Toshkent, 2019-yil. “Sharq” nashryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri-yati.
3. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent, 2017-yil.
4. www.uzedu.uz internet ma’lumotlari.



ПРИМЕНЕНИЕ ДИДАКТИЧЕСКОГО МАТЕРИАЛА ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА

Ачилова Нигора Саъдуллаевна
учительница русского языка и литературы
средней общеобразовательной школы
N 6 города Ургенча Хорезмской области.

Аннотация: В статье раскрывается значение дидактического материала, воспитательная роль правильно подобранных текстов, оказывающих положительное воздействие на подрастающее поколение.

Ключевые слова: воздействие, содержание, переживания, мастерство, воспитание.

Применённый на уроках дидактический материал является не только средством для закрепления знаний, формированию навыков и умений, но и выполняет функцию незапланированного воспитательного воздействия.

Умение вести урок русского языка, выполняя оба плана - это, может быть, важнейшее из проявлений педагогического мастерства, самое высокое из определений педагога, которое имеет в конечном счёте развивающий, воспитательный эффект обучения. Именно к нему стремится каждый учитель, им измеряется удовлетворённость учителя уроком, своей работой.

Чтобы выработать такое умение, надо постоянно обновлять, совершенствовать, обогащать материал каждого урока, приближать его содержание к нравственному развитию класса, к слабостям и желаниям своих учащихся, их ещё неустойчивым идеалам и неоформившимся жизненным принципам. Нужно также поднимать всё лучшее в своих учениках на более высшую ступень. Причина воспитательного воздействия текстов в их подборе, в правильности использования места и времени, в умении передать их смысл без предварительных бесед, используя сам текст.

Обычные тексты не всегда выполняют эту работу. Для каждого урока необходимо выбрать дидактический материал и надо хорошо знать свой класс, учитывать их потенциал, чтобы выбор был правильным.

Школа воспитывает будущих защитников Родины смелых, отважных, готовых к подвигу, воспитывает любовь и уважение к героическому прошлому нашего народа и его светлому будущему. Поэтому одной из основных тем дидактического материала является героическая борьба отцов и дедов за свободу и независимость.

Для яркого рассказа о героическом подвиге недостаточно одного предложения. Нужны связные тексты. Такие, например: «Без права на ошибку», «Спасение детей», «Мечта», о геройстве простых людей, приютивших, воспитавших детей войны, например, семья Шомахмудовых. Вдохновляющим примером для подрастающего поколения являются подвиги юных героев в годы Великой Отечественной войны, подвиг многонационального народа в борьбе за мир, за свободу от фашистского рабства. Захватывающая романтика подвига не теряет своей силы и красоты, как бы далеко ни было прошлое.

В каждом городе, районе, селе есть памятные места, связанные с героями, отдавшими свои жизни за мирное небо над головой, за свободу.

Дело учителя - найти нужный материал и использовать его на уроке. Значение таких уроков повышается, если посетить места, связанные с жизнью участника событий, организовать экскурсии по следам памяти, встретиться с близкими и родными. Это способствует повышению духовности, воспитанию уважения к истории и формированию нравственных качеств, таких, как милосердие и сострадание. Недаром говорится: «Без прошлого нет настоящего». В нашей стране ведётся большая работа по воспитанию духовности, идеально-нравственных качеств, гармонично- развитого поколения. Герои остаются в памяти всех тех, кто живёт под мирным небом.

Используемая литература:

1. Пахнова Т.М. «Дидактический материал для подготовки к сочинениям», Москва, 1982.
2. Прудникова А.В. Воспитательная работа на уроках изучения лексики русского языка», Москва, «Просвещение», 1979.



FANLARARO INTEGRATSIYA VA UNING TA'LIM TIZIMIDAGI ROLI

Agzamova Nafisa Ibroximovna

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

3-sonli IDUM kimyo fani o'qituvchisi

Bobomurodova Dinara Vladimirovna

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

3-sonli IDUM fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lismida fanlararo integratsiya jarayonlari, uning ma'lum shartlar asosida tashkil qilinishi, integrativ ta'limning asosiy g'oyalari haqida malumot berilgan.

Kalit so'zlar: integratsiya, ta'lism, integrativ, fikr, muammo, tamoyil, texnologiya.

Ta'lismida fanlararo integratsiyani amalga oshirish hozirgi davrdagi dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Ta'linda integratsiyani amalga oshirish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda o'ziga xos rol o'ynaydi.

Fanlararo integratsiya haqida fikr almashishdan oldin integratsiya o'zi nima uni qanday qo'llash kerak yoki qo'llamasda ham bo'laveradimi singari savollarga javob topaylik. Integratsiya (lot. integration-tiklash, to'ldirish, integer-butun) - bu fanlarning differensial jarayon davomida yaqinlashuvi va bog'lanish hosil qilishi hisoblanadi.

Integratsiya jarayoni fanlar orasidagi aloqani yangi, yuqori sifatda bir-biriga bog'lash bosqichi bo'lib, o'zini yuqori ko'rinishda namoyon eta olish lozim bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, integratsiya jarayoni ildizlari uzoq o'tmishdagi xalq va ilmiy pedagogikaga asoslangan.

Fanlararo integratsiya zamonaviy ta'limning zaruriy sharti bo'lib qolyapti hozirgi zamonda. Chunki darsliklarning haddan tashqari kategoriyaliligi ba'zan bolaning bilimga bo'lgan qiziqishini so'ndirib qo'yamoqda va xuddi endi kashfiyotlar qilish mumkin emas degan taassurot qoldirmoqda. O'qitish tamoyillari va usullarining jadal rivojlanishi, dastur va darsliklarning yangilanishi, yangi usuldagagi ta'lismuassasalarning paydo bo'lishi zamonaviy mакtabni axborot mazmunining taraqqiyotidan ustun bo'lishidan qutqara olmadidi. Shuning uchun ham fanlararo integratsiya bugungi kunda ta'lismi rivojlantiruvchi eng muhim omillardan biriga aylanmoqda.

Integratsiya o'quvchilar bilimining parchalanishini va mozaikasini bartaraf etishga yordam beradi, ularning yaxlit bilimlarini, umuminsoniy qadriyatlar majmuini egallashiga yordam beradi. Mahalliy va xorijiy pedagogika fanida integratsiya muammolarini o'rganish bo'yicha ancha boy tajriba to'plangan bo'lib, turli davrlarda ta'lismida fanlararo integratsiyadan foydalanishni Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalozzi, J.J.Russo, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiylar ilgari surishgan.

XXI-asr texnika asri ekanligi uchun axborotlar hajmining tez o'sishi tabiiy hol hisoblanadi. Ana shu axborotlar hajmining tez o'sishi uni idrok etish va tushunish imkoniyati keskin kamayib ketmoqda. Bundan chiqish yo'li esa turli fanlarni sintez qilishda, yaxlit kurslarni ishlab chiqishda va barcha fanlarni o'zaro bog'lashda ko'rindi.

Bugungi kunda integrativ ta'limning asosiy g'oyalari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lismida shaxsiy yo'nalishi (Inson-asosiy qadriyat ta'lismida);
2. Umumlashtirilgan predmet tuzilmalari va faoliyat usullarini shakllantirish;
3. Ta'linda ma'no hosil qiluvchi motivlarning ustuvorligi;
4. O'qitishdagi izchillik (ilmiy nazariya doirasidagi aloqalarni anglash);
5. Muammoni o'rganish;
6. Faoliyatni aks ettirish;
7. Dialogik haqiqat (dialogik muloqot jarayonida tug'iladi).

Integrativ ta'limning maqsadi dunyoga yaxlit tasavvurni shakllantirishdir. Integral ta'lismida alohida texnologiyalarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Integratsiya;
2. Dizayn texnologiyalari;
3. Jahon axborot hamjamiyatida ta'lismida texnologiyalari;
4. Internetga asoslangan yirik tizimli o'quv kurslarini o'qitish;

Integratsiyalashgan darslarni rejalashtirishda quyidagilar hisobga olinadi: ob'yektlarning mazmunidan maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar olinadi; o'quv materiali mazmunida ko'plab havolalar o'rnatiladi; o'qitishning usul va vositalarini puxta tanlash hamda o'quvchilarni



ing darsdagi yuklamasini aniqlash talab etiladi.

Integratsiya jarayoni muayyan shartlarning bajarilishini talab qiladi: o’rganish ob’yektlari bir xil yoki yetarlicha yaqin bo’lishi kerak. Integratsiyalashgan sub’yektlar bir xil yoki o’xshash tadbiqot usullaridan foydalananiladi. Ular umumiy qonuniyatlar va nazariy tushunchalar asosida tashkil qilinadi. Endi integratsiyaning ijobiylari va salbiy tomonlarini ko’rib o’tamiz:

1. Didaktikaning eng muhim tamoyillaridan biri-tizimli o’qitish tamoyilini amalga oshirish imkonini beradi.

2. Fikrlashni rivojlantirish, mantiqiylikni, moslashuvchanlikni, tanqidiylikni rivojlantirish uchun maqbul sharoitlarni yaratadi.

3. Tizimli dunyoqarashni rivojlantirishga, o’quvchilarning shaxsiyatini uyg’unlashtirishga hissa qo’shamdi. Ko’p sub’yektivlik pasayadi, fanlararo aloqalar kengayadi va chuqurlashadi va ko’proq bilim olish imkoniyati yuzaga keladi.

4. Bu mакtab o’quvchilarini rag’batlantirish vositasi hisoblanib, faollashtirishga yordam beradi, kognitiv faoliyat talabalarni ijodkorlikka undaydi.

Salbiy tomonlari esa quyidagilardan iborat: darsning zichligi oshishi, tafsilotlarning to’liq bo’lmasligi, individual holatlarning yuzaga kelishi, darsga tayyorgarlik ko’rish uchun ko’p vaqt talab qilinishi.

Xulosa o’rnida shuni alohida ta’kidlashimiz kerakki, ta’limdagi integratsiya moda emas, balki inson faoliyatining istalgan sohasi uchun yuqori sifatli mutaxassislarni tayyorlash zarurati hisoblanadi. Zamonaviy ta’limda integratsiya texnologiyasi fanning alohida qismlarini yaxlit kompleksga birlashtirishni ta’minlaydi. Bundan tashqari bu nafaqat turli bilmalarning mexanik aloqasini, hat-toki ularga o’zaro bog’liq bo’lgan yondashuvni qo’llash va muayyan muammolarni hal qilishda inson tizimli ravishda harakat qilishi kerak bo’ladi.

Foydalanaligan adabiyotlar

1. A. Zunnunov, U.Maxkamov. Didaktika (Ta’lim nazariyasi). T., Sharq, 2006y.
2. N.Sayidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2003y.
- 3.O’Tolipov va boshqalar. “Kasbiy pedagogika” – T.: 2001y.
4. M.Tojiyev, B.Ziyomuhhammadov “Milliy pedagogik texnologiyani ta’lim –tarbiya jarayoniga tatbig’i va uni yoshlar intellekual salohiyatini yuksaltirishdagi o’rni” T.: 2010y.
5. cybrleninka.ru



ADVANTAGES OF BEING BILINGUAL AND LANGUAGE LEARNING PLANNING

Aliyeva Mukhlisakhan Talibovna,
Student of the faculty of foreign languages of TashkentSPU
Scientific adviser: Mirkasimova M.B.

The simplest way to think of the difference between strategic classroom behavior management and a tactical classroom behavior management approach is that strategic means what you do and tactical means how you do it. So once you've established your set of strategies for managing behavior in your classroom it's time to think about the most effective ways to put those strategies into action.

Professional teachers want to focus on one particular tactic that is used in many classrooms and often works well: tactical ignoring. Tactical ignoring is often mentioned in teacher guides as a way to help a class run smoothly. The trouble is that this tactic is often misunderstood and can be potentially damaging to classroom discipline if not used correctly¹.

The misunderstanding comes, from assuming that tactical ignoring means ignoring some poor behavior. Teachers cannot ignore poor behaviour and we must address it. However, tactical ignoring comes into play as a useful tool to ignore what is sometimes called secondary behaviour. Secondary behavior will often be the main focus of a lot of our tactical classroom behavior management. Let's say a student arrives late to your lesson.

We can react in several ways².

1. We could just not say anything. The student finds her way to the back of the class and shouts out: "I don't have pen and I don't know what work we're supposed to be doing."

2. You could give the student a very 'teacherly' dressing down : "Why are you late? The lesson started 10 minutes ago and you've missed everything I said to the rest of the class so now you won't know what to do. Don't think I'm going to waste my time going through everything again just for your benefit. You'll just have to figure everything out for yourself. And if you don't finish you'll have to

come back after class to complete your work. Now get on with your work. And you never have a pen - what's the point of coming to school without a pen?"

3. You could go down the tactical ignoring route – like this: "Hi,...name of student... nice to see you. I notice you're a bit late coming to the lesson. Have a seat, I'll come and help you in a couple of minutes when you're sorted. The work for this lesson is on this sheet and on the screen, and ... name of other student... has already started so you could talk to her to help you get started."

Student reacts: "Hey it's not my fault I was late... and anyway I don't have pen!" Teacher responds with: "If you need a pen there are some in the box on my desk."

A few minutes later, when the tardy student has settled you could check she understands the work you've set for the lesson.

It is clear there are different ways to learn and that many of teachers find it easier or more comfortable to absorb and process information if it is presented to us in a certain way. There are three basic types of sensory learning styles. The three most common are visual, auditory, and kinesthetic. To learn, we depend on our senses to process the information around us. Most people tend to use one of their senses more than the others. This has led some experts to believe that classroom activities should only be presented in the preferred 'learning style' of the students, in order to reduce barriers to learning and make it easier for students to succeed

Some people learn better from seeing things, and enjoy diagrams, writing

things down and reading. Other people have an instinctive ear and like learning from hearing and listening, while others prefer action such as making things with their hands, and walking about.

Most of us are a mixture. Clearly lessons which focus solely on the written

word with little visual support disadvantage some learners. We need to give a variety of tasks that help students learn in different ways. Accept that during an hour-long lesson the learners' interest will wane at some point if the activity in hand doesn't appeal to their way of working. It is

1 Implementation Guide for School Leaders Corwin Press, A Sage Publications Co., Thousand Oaks, CA.

2 Martin J. and Sugarman J. (1993). Models of Classroom Management, Second Edition. Bellingham, Washington: Temerion Books Inc.



impossible to please everybody all the time but we can try and stimulate as many as possible in the hour we have.

Many teachers find it difficult to judge how long activities will take and find themselves either running out of time or with fifteen more minutes to go and

nothing to do. This is true for all teachers, but it improves as you get to know your classes. However, plan ahead and start winding down well before the bell rings so you can give a summary of the lesson. After a discussion or simple oral task you may need to go over main problems on the board and must allow time for this essential feedback. In some schools pupils just pack up and rush off when the bell rings. Try to avoid this. Insist on a formal conclusion and goodbye. If you are required to give homework or to ask students to prepare a

task such as something for the role play in the next lesson, do not do it at the very end. Attention usually wanes by the end, so give forewarning and instructions earlier and then just a final reminder at the end.

The list of used literature:

1. Kohn A. (1994). Grading: The Issue is Not How but Why. Educational Leadership
2. Levin J. and J. Nolan, (2000). PrinciplesHeights, Massachusetts: Allyn and Bacon.
3. Lindsey, R., Roberts, L., and Campbell-Jones, F. (2005). The Culturally Proficient School.
4. Implementation Guide for School Leaders Corwin Press, A Sage Publications Co., Thousand Oaks, CA.
5. Martin J. and Sugarman J. (1993). Models of Classroom Management, Second Edition. Bellingham, Washington: Temeron Books Inc.
6. Marzano R, Marzano J, and Pickering, D. (2003).Classroom management that works. Researchbased strategies for every teacher, Association for Supervision and Curriculum Development



O`QITISHDA “BUMERANG” TEXNALOGIYASINING AXAMIYATI

Allamova Zulfiya Masharipovna

Madaminova Iroda Sadullayevna

Xonqa tumani 24-maktabning
boshlang`ich.sinf o`qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada mакtab boshlang`ich sinflar darslarida noan'anaviy metodlardan foydalanish va bir qancha interfaol metodlarining axamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, insert strategiyasi, “Bumerang” .

Ta'lim-tarbiya jarayonida darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni e'tiborga olingan holda darsda o'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashi, o'quv bahslar tashkil etish, aqliy hujum, didaktik o'yinlar, taqdimot, o'z-o'zini baholash, tashrif kabilardan foydalanish, masala va mashqlar yechishni yo'lga qo'yish o'qituvchining diqqat markazida bo'lmos'i lozim.

Pedagogik texnologiyalarning uchta darjasini mavjud:

1. Umumiy metodik daraja. Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) darajada pedagogik texnologiyaning umumiy qonuniyatları, konseptual asosları, o'qituvchi va o'quvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi.

2. Xususiy metodik darajada muayyan bir o'quv fani, kursni o'qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida ta'lif mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda foydalaniladigan o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta'lif-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismida mazkur qismning xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi. Pedagogik texnologiyalarning yuqorida qayd etilgan uchta darjasini bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi.

O'quv topshiriqlarini individual bajarish jarayonida o'quvchilarning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi va har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi.

Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtidan unumli foydalaniladi, samaradorlik ortadi. Modulli ta'lif texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasining metodlaridan foydalanib tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi. Fanlarni o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etish asosan darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham foydalaniladi. Masalan, o'quvchilarning uy vazifasini bajarishida ularga tafovutlab yondashish imkoniyatlari mavjud. O'quvchilarga muayyan mavzular bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazish, ma'ruza va referatlar va turli mavzularda o'tkaziladigan tanlovlardan uchun materiallarni tayyorlash shular jumlasidandir.

“Bumerang”. Mazkur texnologiya bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va xarakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan ta'lif oluvchi yoki ta'lif beruvchi rolida bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi. Asosiy tushunchalar quyidagilar: Ochiq savollar-bu savollar muomala, so'zlashuvni davom ettirishga imkon beradi. Ularga qisqa, bir xil javob berish mumkin emas. Yopiq savollar-bu savollar oldindan “ha” yoki “yo'q” tipidagi to'g'ri, ochiq javoblarni berishni ko'zda tutadi. Ko'ndalang so'roq-bir-biriga guruhlab beriluvchi qisqa savollar qatori bo'lib, bu o'ziga xos axborotlar izlash hamda dalillarni, opponentlar pozitsiyasini aniqlash va muayyan qarorlar qabul qilish uchun ajoyib imkoniyatdir. Ko'ndalang so'roq paytida munozaraga kirishish mumkin emas. Bu vaqtida faqat savollar beriladi, munozaraga kirishilmaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. R.Ishmuhammedov “O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati”, Toshkent, RBIMM-2008 yil.

2. Hasanboyev J., To'raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug'at. T.:Fan va texnologiya, 2009.-b.348.



ONA TILI FANINI O‘QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI.

Amrulloyeva Marjona Farxod qizi

G‘ijduvon tuman 45-IDUM

Ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ona tili fanini o‘qitishning muhim taraflari, ona tili fanining maqsad va vazifalari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: ona tili, tarbiya, ta’lim, maqsad, vazifa, nutq, fikr.

Har bir fan o‘z o‘rganish ob‘yekti, maqsad va vazifalariga ega bo‘lib, o‘ziga xos alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarga ona tili grammatikasi, leksika va fonetikasi haqida ma’lumot berish va bu jarayonda olingan bilimlarni amalda tadbiq etishni o‘rgatish ona tili o‘qitishning muhim vazifalaridandir. O‘quvchilar amalda xatosiz yoza olsalar, ifodalni o‘qiy olsalar, adabiy tilda so‘zlay olsalargina ularning ona tilida olgan bilimlari haqiqiy va mustahkam hisoblanadi.

O‘quvchilarga shuningdek, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘yish, o‘z fikrlarini aniq va tushunarli bayon etishni o‘rgatish ahamiyatlidir, aks holda o‘quvchilar savodsiz bo‘lib qoladi. O‘quvchilar ona tilini qunt bilan o‘rganish orqali fan asoslarini ongli o‘zlashtirib, fikr doirasini kengaytirib umumtaraqqiyot darajasini uzlusiz oshira boradilar. Ular qayerda ishlamasin, qayerda o‘qimasin, baribir o‘z ona tiliga murojaat qiladilar. Ona tili barcha bilimlarni o‘rganishda eng muhim vositadir, u insонning ijtimoiy hayotida uchraydigan barcha ishlar uchun zarurdir.

Ona tili boshqa fanlarni o‘qitish vositasi hamdir. Jamiyat tarixi, tarbiyaviy va boshqa gumanitar fanlar ham ona tili yordamida o‘rganiladi. Ona tili bolaning umumiyy taraqqiyotida ham, bilim va mehnatga havasini uyg‘otishda ham ahamiyatlidir.

Ona tili ta’limining maqsad va vazifalari, avvalo, tilning jamiyatda bajaradigan vazifasi, inson hayotida tutgan o‘rnini bilan belgilanadi. Maktabda ona tili ta’limiga qo‘yilgan muhim talablardan biri o‘quvchilarni fikr bayon qilish faoliyatiga tayyorlashdir.

Maktablarda ona tili o‘qitishning maqsadi quyidagilardan iborat:

1. Ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan muhim talab - o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish.

Tafakkurni o‘sirish ona tili mashg‘ulotlarida maxsus aqliy faoliyat usullari, til hodisalarini kuzatish, taqqoslash, guruhlash, ajratish, umumlashtirish, o‘xhash hodisalarini ichidan nutq sharoiti uchun eng qulayini to‘g‘ri tanlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

2. Til ta’limi oldidagi muhim va murakkab yana bir maqsad-o‘quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish. Albatta, til madaniyati juda katta va keng soha bo‘lib, u o‘quvchilarning kundalik oddiy salomidan tortib kimga, nimani, qayerda, qachon, qanday, so‘zlashishgacha bo‘lgan barcha nutqiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Ona tili mashg‘ulotlari fikrni bayon qilishda nutqning badiiy qimmatini oshiradigan vositalar: maqollardan, frazeologik birikmalardan, badiiy asarlardan olingan o‘tkir ko‘chirma va yorqin obrazlardan, o‘zbek xalqining qochiriq so‘zlaridan, o‘xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag‘a kabi badiiy tasvir vositalaridan, ritorik so‘roq gaplaridan foydalanishga o‘rgatmog‘i lozim. O‘quvchilar nutqining ifodaligi va ta’sirchanligiga erishish ham til ta’limi oldidagi muhim talablardan biridir.

3. Til ta’limi o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirish vositasi hamdir. Shaxsning bilim

olishi, rivojlanishi, tarbiyalanishi bir butun jarayon bo‘lib, biri ikkinchisidan ajratilmagan holda olib boriladi. Ona tilining barcha bo‘limlari bu muhim maqsadni amalga oshirishda katta imkoniyatlarga ega: masalan, o‘zbek tili fonetikasini o‘rgatishda tovush tizimining xususiyatlarini ko‘rsatish orqali o‘quvchilarning talaffuzi yaxshilanadi. So‘zdagi ma’lum bir tovushni o‘zgartirish orqali qofiyali so‘zlar hosil qilish, misralar oxiridagi tovushdoshlik, ohangdoshlik ustida ishslash orqali o‘quvchilardagi she’riyatga havas uyg‘onadi.

4.O‘quvchilar so‘zning o‘z ma’nosini va ko‘chma ma’nosini ustida ishlar ekanlar shu til bilan bajariladigan o‘quv topshiriqlari, foydalaniladigan rasmlar, diafilmlar, badiiy asarlarning namunalari muhim tarbiya vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Demak, ona tili ta’limining maqsadi - ona tili mashg‘ulotlari bolalarda ijodiy, mustaqil fikrlesh, ijodiy fikr maxsulini nutq sharoitiiga mos ravishda og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishdir.



Maktablarda ona tili o‘qitishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Ona tili predmetining hajmi, mundarijasi, maqsadi, o‘ziga xos xususiyatlari, kursning bo‘limlari, ular orasidagi sinflararo bog‘lanish, materiallarning sinflar bo‘yicha taqsimotini aniqlash.
2. O‘quvchi va o‘qituvchining vaqtini hamda kuchini tejash, shuningdek, darsning samaradorligini oshirish maqsadida o‘qitishning eng qulay, foydali metod va usullarini tavsiya etish.
3. O‘quvchilarning ona tili dasturida belgilangan bilimlar sistemasini bir tartibda o‘zlashtirib, shu asosida muayyan malaka va iqtidor hosil qila olishlari uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar bilan bog‘langan masalalarni hal etish.
4. Nimani o‘rgatish? Qancha o‘qitish? Nima uchun o‘qitish? Qanday usullar bilan o‘qitish? Nima uchun u yoki bu bo‘limni o‘rganishda muayyan bir metoddan foydalanish kerak? Kabi savollarga javob berish.
5. Ona tili talaffuzi, yozma nutqda tinish belgilarini ishlatalishning asosan qoidalari o‘rgatish; turli xildagi lug‘atlardan keng foydalana olishni ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ish qog‘ozlarini yuritish ko‘nikmalarini; badiiy, ilmiy, ijtimoiy asarlarni o‘rganib, ular haqidagi fikr-mulohazani, shaxsiy munosabatini og‘zaki bayon eta olish madaniyatini shakllantirish.
6. Maktabda o‘qitiladigan barcha fanlarni puxta o‘rganishga ko‘maklashish, ona tili orqali boshqa xalqlarning tillariga ham muhabbat uyg‘otish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. G‘ulomov. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari.
2. A. G‘ulomov, X. Ne’matov Ona tili ta’limi mazmuni.



**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHILARNING
HAMKORLIKDAGI FAOLIYATI DAVOMIDA QO‘LLANADIGAN METOD VA
O‘YINLAR**

**Ashilova Altinay Duysinovna
Jabbarov Sundet Berkinbayevich**
Navoiy viloyati Tomdi tumani
1-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada boshlang‘ich ta’limda o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati davomida qo‘llanadigan metod va o‘yinlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Videotopishmoq, so‘z jufti, davra suhbat, hamkorlikdagi ta’lim...

Ta’lim o‘qituvchi va o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo‘lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘rganish jarayonida o‘quvchilar o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya’ni o‘zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tathbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta’lim va tarbiya masalalari hal etiladi.


«Videotopishmoq» metodi. Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televiedeniye, radio, nusxa ko‘chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta’lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchilar oldida ta’lim jarayonida turli axborot vositalaridan o‘rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o‘quvchilar e’tiboriga o‘rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;
- o‘quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;
- jarayonlarning mohiyatini daftarlariiga qayd etishadi;
- o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O‘quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

“So‘z juftlarini davom ettir” o‘yini




“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadir. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa




ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Belgilari:

- 1-ta’lim oluvchilar
- 2-aylana stol

Mozayka usulida uycha yasash. Bolalar sizlar quruvchilarsiz. Amallar tartibini to‘g‘ri bajarib, shakllarni to‘g‘ri qo‘ysangiz uycha hosil bo‘ladi.



O‘zbek xalqida bir maqol bor

Ilon quvsqa, o‘rga
qoch,
.... Quvsqa g‘orga qoch

Ilon o‘rga, ya’ni tepalikka yaxshi
o‘rmalay olmas, shuning uchun
maqolning ikkinchi qatoridagi hayvon
uncha-munchaga quvlamaydi, ammo
bir quvish qilsa, jahl otiga minsat
undan qochish amri maholdi.

Savol: Ikkinchi qatoridagi hayvon nomi nima?

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O‘qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg‘or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta’lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi. Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon pedagog-mutaxassislari innovatsion usullardan



foydalana bilish va ularni amalga oshira olish malakasiga ega bo‘lsalargina ta’limni rivojlantirishga, uning samaradorligini oshirishga erisha oladilar.

Foydalananadigan adabiyotlar:

- 1.Zamonaviy dars. J.G’. Yo’ldoshev va boshqalar. Toshkent 2007-yil.
2. Internet saytlari: www.Ziyonet.uz,www.edu.uz



BIOLOGIYA DARS MASHG'ULOTLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Atadjanova Gulgora Egamberganovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
6-son maktabning biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning faolligini, hamda, bilim samaradorligini oshirishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so'zlar: biologiya, ko'rgazmali materiallar, laboratoriya, interfaol metodlar, noan'anaviy dars, biologik obyekt.

Yurtboshimiz SH.M.Mirziyoyevning tashabbuslari, hamda rahnamoligi ostida yosh avlod tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilib, farzandlarimizning har tomonlama barkamol ulg'ayishi uchun mamlakatimizning barcha hududlarida zamonaviy sharoitlar yaratilmoqdi. Yaratilgan sharoitlar tufayli iqtidorli yoshlarni san'at va sport sohasida jahon maydonlarida yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqdalar yurtimiz dovrug'ini dunyoga yoymoqdalar. Xususan, ta'lim tizimida ham katta o'zgarishlar ro'y bermoqda.

Biologiyani o'qitish davomida tanlangan o'qitish metodlari biologik bilimlarni va ko'nikmalarini egallashni ta'minlashi kerak. Biologiyaning ko'pgina mavzulari amaliy xarakterda bo'lib, ularni faoliyat orqali hal qilishni talab qiladi. O'quvchilar diqqatini nazariy bilimlarni o'rganishga va maqsadni arzirli natijalarni qo'lga kiritishga qaratish kerak, shuningdek, o'quvchilardan muhim nazariy bilimlarni egallash bilan bir qatorda o'z ustida mustaqil ishslashlari ham zarurligi talab etiladi.

Amaliy metodlarni qo'llashning ijobjiy natijalari shundaki, ular o'quvchilarni tanqidiy o'ylyashga, rejalashtirishga, savollarga javob topishga, bahslashishga va yechim topishga ruhlantiradi. Dalaga sayohat va dala ishlari kabi dala mashg'ulotlari o'quvchida amaliy va shaxsiy bilim ko'nikmalarini rivojlantiradi, fanga qiziqishini orttiradi. Dala mashg'ulotlari o'quvchining tabiatni va atrof-muhitni kuzatishiga sharoit yaratadi, shuningdek, sinf xonasida egallagan bilimlarini sinashga, bilimlarini tajribada qo'llashga imkon beradi, o'quvchi bilimi va xulq-atvorida ijobjiy natijalarini keltirib chiqaradi. Biologiyani o'qitishda foydalaniladigan faol metodlar guruhiga o'qitishning muammoli-izlanish metodlari, mantiqiy metodlar, mustaqil ishslash metodlari, o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirish va asoslash metodlari, nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari kiradi. Biologiyani o'qitishda reproduktiv metodlar bo'lgan og'zaki bayon, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan birgalikda muammoli izlanish va mantiqiy metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchi mazkur metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ular tarkibiga kiradigan metodik uslublarni to'g'ri anglashi va o'z o'mnida samarali foydalanish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim.

Dars jarayonida interfaol metodlar qo'llanilganda, o'quvchilar o'qituvchi va o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda bo'ladi. Natijada biologik obyekt, hodisa, jarayonlarni tushunish, tanish, izohlash kompetensiyasi, biologik obyekt, hodisa, jarayonlar ustida kuzatish va tajribalarni o'tkazish kompetensiyasi shakllanib boradi. Bu esa o'quvchilarda biologiya fanida mavjud didaktik va tarqatmali materiallar, labaratoriya jihozlari, kimyoiy reaktivalar bilan ishlay olish hamda havfsizlik qoidalariga rioya qilish, vaqtinchalik preparatlar tayyorlay olish ko'rsatma asosida biologik obyektlarda boradigan jarayonlar, tirik organizmlarning moslanishi va tarqalishini o'rganish uchun tajriba va kuzatishlarni aniq maqsad va reja asosida olib borish, ma'lumotlarni to'plash, natijalarni qayd etish, olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalash imkoniyatini beradi.

Shu sababli, biologiyani o'qitishda o'qitishning reproduktiv metodlari bo'lgan og'zaki bayon, ko'rgazmali va amaliy metodlar bilan birgalikda muammoli izlanish va mantiqiy metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun o'qituvchi mazkur metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ular tarkibiga kiradigan metodik uslublarni to'g'ri anglashi va o'z o'mnida samarali foydalanish ko'nikmalarini egallagan bo'lishi lozim.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini Rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha harakatlar strategiyasi” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral-dagi PF-4947-sonli Farmoni.

2. R. Ishmuhammedov, M. Yuldashev “Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar”. -Toshkent, 2017.



TA’LIM JARAYONIDA MEDIASAVODXONLIK

Atajonov Mansurbek Matchanovich

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktabning informatika fani o'qituvchisi
atajonovmansur@gmail ./99-509-60-14

Annamurotova Zeboxon Kuziboyevna

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
otajonovayodgora@gmail.com//91-919-84-00

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lilda mediasavodxonlik tushunchasi, mediasavodxonlik maqsadi v anima uchun kerakligi haqida so'z boradi. **Kalit so'zlar:** multimediali resurs, mediamatn, elektron darsliklar, mediata'lil

So'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi mediasavodxonlikka ega bo'lish zaruratini qo'ydi.

1. **Media savodxonlik** - odamlarga turli media shakllarini va xabarlarni tahsil qilish, baholash va yaratishga imkon beradigan ko'nikmalar to'plami hisoblanadi. Media savodxonlik iste'molchilarga axborot va ommaviy dasturlarda tashviqot, senzura yoki biron vaziyatni faqat bir tomondan ko'rsatish kabi holatlarga ommaviy axborot vositalarini nima majbur qilayotganligini tahlil qilish, shuningdek, ommaviy axborot vositalarining egasi, ularning moliyalashtirish modeli kabi tarkibiy elementlarni tushunish imkonini beradi. Boshqacha qilib aytganda, media savodxonlik - bu tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan xabarlar va belgilarga qo'llay olish qobiliyatidir. Ommaviy axborot vositalari yoshlari hayotidagi katta ta'sirga ega kuchdir. Musiqa, televizor, video o'yinlar, jurnallar va boshqa ommaviy axborot vositalari dunyoni qanday ko'rshimizga kuchli ta'sir ko'rsatadi, bu ta'sir ko'pincha bolalik davridan boshlanadi. Ommaviy axborot vositalarini iste'molchilar tanqidiy tahlil qila olishlari uchun ularda mediasavodxonlik ko'nikmalarini va odatlarini bolalikdan rivojlantirish kerak bo'ladi. Bu ko'nikmalarga ommaviy axborot vositalariga bazaviy darajada kirish, uni muayyan tushunchalar asosida tanqidiy tahlil qilish, shu tahlil asosida baholash va nihoyat, ommaviy axborot vositalarini o'zi ishlab chiqarish kiradi. Mediasavodxonligi ko'nikmalarini o'rganishning ushbu jarayoni *media ta'lil* deb ataladi. YUNESCO tashkiloti tomonidan XXI asrda media ta'limi targ'ib qilish madaniy-ma'rifiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishi sifatida e'tirof etildi hamda aynan shu yo'l bilan mediasavodxonlikni oshirish mumkinligi ta'kidlandi. O'zbekistonda 2021-2022-o'quv yildan boshlab 10-11-sinf o'quvchilarining „Tarbiya“ darsligiga „Media savodxonlik“ bo'limi kiritildi. Respublikaning O'ZJOKU, TDShU, O'zMU, O'zDJTU, QDU, SamDChTI kabi oliygochlarning journalistika fakultet va yo'nalishlarida mediasavodxonlik darslari o'tila boshlandi. So'nggi yillarda axborot oqimining bir necha barobar tezlashishi, ijobiy ma'lumotlar bilan bir qatorda salbiy xarakterdagi axborotning ko'payishi media savodxonlikka ega bo'lish zaruratini yanada oshirdi. An'anaviy tarzda media savodxonlik shaxsning adabiy asarlarni tahlil eta olish va sifatli matnlarni yaratishidan iborat bo'lgan. Bugun mediasavodxonlik - axborotning nega va nima uchun uzatilayotganligini bilish demakdir. Mediasavodxon inson o'ziga bu axborotni kim va nima maqsadda yaratgan? Ushbu xabar men uchun zarurmi? degan savohni bera olishi va to'g'ri xulosa chiqarishi, unga nisbatan tanqidiy yondoshishi lozim. Mazkur savollar nafaqat siz oilangiz davrasida televizor ko'rayotgan, mashinada radioeshitayotgan yoki internetdagi xabarlarni ko'rayotgan paytda berilishi, balki har qanday axborotni qabul qilayotgan va unga baho berayotganda ham kerakdir. Bugungi axboriy muhitni tushunishda mediasavodxonlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Medisavodxonlikning maqsadi- har bir medianing ustuvorliklari va kamchiliklik-larini tushungan holda ular tomonidan tarqatilayotgan axborotni saralay bilish va zarurini qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'lsa, asosiy vazifasi-insonlar tomonidan iste'mol qilinadigan har qanday axborotning manipulyativ kuchini anglagan holda undan chegaralanishdir. Shuningdek, odamlarga OAV hamda fuqarolik journalistika rolini tushunishga yordam berishdir. Xo'sh, mediasavodxonlik nima uchun kerak? Avvalo: **Namunaga qarab yozish.**



Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirish. Har bir harf namunasi doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan hoilda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida- alohida ko'rsatib berish lozim. O'quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shaklarini o'z daftariga to'g'ri aks ettirishdir.

O'qituvchi tomonidan har bir harf yoki harflarning bog'lanishi, og'zaki yoki doskada tushuntirish orqali, qo'lni qayerga qo'yish kerakligi, qayerda qo'l harakatining burlish va qayerda bu harakat uzelishi talab etilish, harflarning baland pastligi qay darajadagi kabilar ko'rsatmalar orqali tushuntiriladi.

Keyinchalik o'quvchilar ham u yoki bu harfning yozilishini o'qituvchi bayon etgan tarzda tushuntirib beradilar.

2. Namunaga qarab ko'chirib yozish.

Bu juda qadimiy bo'lib, hozirgi kunda ham u o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. O'quvchilar, asosan, harflarning shaklini "Husnixat" kitobdag'i yoki "Yozuv daftari" dagi namunaga qarab ko'chirib yozadilar. Namunaga qarab ko'chirib yozish, tayyor harfning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo'lib, ularning har biri ikkalasini qaysi vaqtida qo'llashni o'qituvchi yaxshi bilishi kerak.

Tayyor holdagi nuqtalar bilan ifodalangan harflar ustidan qo'lni yurgizib mashq qilish ixtiyorsiz jarayon bo'lib, o'quvchilar bu topshiriqni asosan bajaradilar.

O'quvchilarning daftarlarida o'qituvchi tomonidan yozib ko'rsatilgan har bir namuna chiroyli va aniq yozilishi lozim.

3. Nusxa ko'chrish.

Bu usulni harf shaklini to'g'ri tasavvur eta olmaydigan yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llash mumkin. Masalan bir o'quvchi B harfini yozishda xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, o'qituvchi ularni nuqtalar bilan ifodalab, daftarga qalamda yozib ko'rsatadi, o'quvchi esa uning ustidan siyoh yurgizib chiqadi. Bu usul o'quvchining shu harf tasavvurini kengroq shakllantiradi.

4. Tasavvur orqali yozish.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar bilan bir qatorda tasavvur qilish orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O'qituvchi doskada yozib ko'rsatga harf yoki bog'lanishlarni o'quvchilarga qanday qilib yozishgani, ruchkaning havoda haraakatini ko'rdsatib o'quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so'ng daftarga yozish ruxsat etiladi. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini o'stiradi, hamda jismoniy mashqlarni ham bajarish imkonini beradi.

Nusxa ko'chirish, tasavvur orqali yozish chiroyli yozishga o'rgatishda yordamchi usullaridir.

5. Harflarning shaklini tahlil qilish.

Harf va uning unsurlarini tahlil qilishni turlicha amalga oshirish mumkin.

Harflarni unsurlarga ajratib tahlil qilish, har bir harfning necha unsurdan tuzilganligini, har bir unsur qanday shaklga ega ekanligini, bu unsurlar boshqa harflar bilan bog'lanishda qanday ko'rinishga ega bo'lishini o'quvchilar tasavvur etadilar. Ammo soddalashitirilgan harflar alfaviti ko'p harflarni unsurlarga ajratmay, bir butun shaklda yozishni tavsiya etadi. Masalan, kichik b va f harflari unsurlarga ajratilmay, bir butun shaklda yoziladi.

Bu yerda faqat o'qituvchi harflarning nechta unsurdan tashkil topganligini eslatib o'tadi, xolos, yozishda esa bu harflar qo'l harakatini uzmasdan yozishni talab etadi.

6. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish.

Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yaqindan yordam beradi.

Chiroyli yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o'quvchiar uni to'liq o'zlashtirishlari va amalda qo'llashlari mumkin. Masalan, birinchi sinfdagi dastlab to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushslash, daftarni to'g'ri holatda qo'yish kabi talablar asosida: so'zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so'zlarda harf unsurlari va harflarning o'ralig'ini bir xil uzoqlikda chamlab yozish qoidalari kelib chiqadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G'ulomov M. "Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish" O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent "O'qituvchi" 1992 yil.

2. G'ulomov M. Tog'ri va chiroyli yozing". Mashq daftari. Toshkent "Turon- iqbol" nashriyoti. 2010 yil.



BOSHLANG’ICH SINF DARSLARIDA O’QISH TURLARI VA BUNDA
QO’LLANILADIGAN METODLAR

Babadjanova Dildora Shanazarovna

Sharifova Nafosat G’ayrat qizi

Xorazm viloyati Qo’shko’pir tumani

9-son IDUMning boshlang’ich sinf o’qituvchilari

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang’ich sinf o’qish darslarida o’qish turlari, o’qish darslarida foydalaniladigan metodlar va ularning ahamiyati haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: boshlang’ich sinf, o’qish, izohli o’qish, badiy o’qish, metod, reproduktiv, izlanish, ta’lim, dars.

O’quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg`ulotlarni dars jarayoniga singdirishi talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha, bolalar o’qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma’lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o’zlari mulohaza yuritib mustaqil bajargan ishlari vositasida o’zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o’quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko’rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko’plab o’quv materiallarini hayolidan o’tkazadi. O’xshash hodisalarini taqqoslaydi. O’zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O’qituvchilarning tayyor holda bergen ma’lumotida esa o’quvchi fikrlash faoliyati to`la ishga kirishmasdan to`g`ri javobni o’zlashtirib oladi. Darslarda qo’llaniladigan turli metodlar orqali o’quvchining mavzuni tushunishi va o’zlashtirishi oson bo’ladi.

Ilg’or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanish o’qituvchi va o’quvchi faoliyati doirasini aniq belgilab beradi. Inson hayatida muhim ahamiyatga ega bo’lgan o’qish faoliyati barcha predmet darslarida amalga oshiriladi. Lekin o’qishga o’rgatish yo’l yo’riqlarini, o’qish metodikasi ishlab chiqadi.

O’qish metodikasi kichik yoshdagagi o’quvchilarning umumiyligi rivojlanishi, psixologiya, xususiy metodika sohasidagi yutuqlar asosida takomillashtirilib boriladi. O’qish darslarining samaradorligi ko’p jihatdan ta’lim metodlarining to’g’ri tanlanishiga bog’liq. Binobarin, fanning o’zi kabi o’qitish metodlari ham doimiy rivojlanishda bo’ladi. Masalan, eski maktablarda o’qish quruq yod olish metodi asosida o’rgatilgan bo’lsa, hozir izohli o’qish asosida olib boriladi. Yod olish metodi da matndagi so’zlarga izoh berishga, ma’nosini tushuntirishga, o’qilganni qayta hikoyalashga, umuman olganda, o’qishning ongli bo’lishiga mutlaqo e’tibor berilmagan. Ularda ko’proq to ‘g’ri talaffuz, qiroat bilan o’qish, ifodali o’qish nazarda tutilgan. Biz quyida o’qish turlari bilan tanishib o’tamiz.

Izohli o’qish. Izohli o’qish asar mazmunini tushunishni, asardagi muhim fikrni, yozuvchi ilgari surayotgan g’oyani anglashni ta’minlaydi. Boshlang’ich sinf o’qish darslarida asosan she’rlar, masallar, ertaklar, hikoyalar, afsonalar, maqol va topishmoqlar, ilmiy-ommabop asarlar o’qib o’rganiladi. Tabiiyki, ularning har biri o’ziga xos shakl, uslub va maz unda yaratiladi. Shuning uchun ham har bir janrga mansub asarlarni o’ziga xos usulda o’qib o’rganish taqozo qilinadi.

Badiiy asarni izohli o’qishga yaqin bo’lgan metodlardan biri ijodiy o’qishdir. Ko’rinadiki, ijodiy o’qish izohli o’qishdan farqli o’laroq, to’g’ridan to’g’ri matn mohiyatini ochishga ijodiy yondashishni taqozo etadi. Masalan, 4-sinfda A.Oripovning „Dehqonbobo va o’n uch bolakay qissasi” asarini ijodiy o’qish metodi asosida o’rganish jarayonida matn mazmuni va shoir g’oyaviy niyatidan kelib chiqib Vatanimiz hududlaridagi aholining yashash tarzi bilan bog’liq milliy xususiyatlarni haqida ham atroflicha tushuncha beriladi. 2-sinfda “O’tinchi yigit”, 3-sinfda O’tkir Hoshimovning “Xazonchinak”, 4-sinfda S.Anorboyevning „Qo’rqaq” asarlarini ham ijodiy o’qish metodi asosida o’qitish ijobjiy samaralar beradi.

Ifodali o’qish. Boshlang’ich ta’lim tizimida mantiqiy o’qish (matnni to’g’ri, tushunib, tez (me’yorida) o’qish) va adabiy o’qish mukammal o’zlashtirilganidan so’ng ifodali o’qishga o’tiladi. U yod olingan asarlarni ifodali o’qishni ham o’z ichiga oladi. Ifodali o’qishning muvaffaqiyati o’quvchilarning asar mazmuni, g’oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida muayyan tushunchaga ega bo’lishi bilan bog’liq.

Badiiy o’qish. Badiiy o’qish ifodali o’qishning yuksak bosqichi hisoblanadi. Unda so’z san’ating barcha komponentlari ishtiroy etadi. U o’quvchidan asar ruhiga batamom kirishni, san’atko-



rona o‘qishni talab etadi. Badiiy o‘qishda asar qahramonlarining ruhiy holati, kechinmalari to‘la anglab yetilgandagina ta’sirchanlikka erishish mumkin. Badiiy o‘qishga tayyorgarlik ko‘rishda aktyorlarning audio-video tasmalarga yozilgan ijrolaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek yangi pedagogik texnologiyalar, turli qiziqarli metodlar dars jarayonini yanada qiziqarli qilishga yordam beradi. Boshlang’ich sinflarning o‘qish darslarida ushbu metodlarni qo’llash mumkin.

Izlanish metodi. Bu metod asardagi voqeа va tafsilotlar asosida o‘quvchilarga savol-topshiriqlar tuzishda, qahramonlarga baho berishda keng qo’llaniladigan usuldir.

O‘qish darslarida reproduktiv metod keng qo’llaniladi. Masalan, o‘qituvchi dastlabki darslarda o‘zi asar matnini qismlarga bo‘ladi, yozuvchi yoki shoirning aytmoxchi bo‘lgan muhim fikriga o‘quvchilar diqqatini jalb qiladi, uni aniqlab ko‘rsatadi, o‘quvchilar bilan birga tasvir vositalariga yuklatilgan ma’noni ochib, o‘quvchilarga ko‘maklashadi. Bularning bari o‘quvchilar uchun bir ko‘rsatma vazifasini o‘taydi. Shundan so‘ng o‘quvchilar o‘qituvchining ko‘rsatmalari yordamida yuqorida ko‘rsatib o’tilgan vazifalarni o‘zlari mustaqil ravishda bajaradilar.

Ushbu berilganlardan tashqari boshlang’ich sinf o‘qish darslarida yana boshqa ko‘plab usullar dan foydalanish mumkin. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, har bir darsda qanday metoddan foydal anish, darsda qanday usullarni qo’llash o‘qituvchi tomonidan oldindan belgilab olinishi va puxta ishlab chiqilishi kerak.

Xulosa qilib aytish mumkinki har bir dars jarayonida mavzu mazmuni va o‘qituvchining ma horati asosida berilgan ertak, sher, hikoya, matnlar hamda boshlang’ich sinf o‘qituvchilarining ta’limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishi, o‘quvchilarda o‘qish motivlarini o‘sirish, muammoli vaziyatlarni to’g’ri baholay olish va fikrlash ko‘nikmalarini oshirishga o’rgatadi. Shu sababdan har bir pedagog iloji boricha har bir darsida yangi metodlar orqali dars o‘tishini tavsiya qilgan bo‘lar edik.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karima Qosimova va boshq. “Ona tili o‘qitish metodikasi” T., 2009.
2. N.S.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Moliya, 2003.
3. Internet malumotlari.



**BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA ULUSHGA OID
MAVZULARNI O'TISHDA “TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODIDAN
FOYDALANISH**

**Badirdinova Maftuna Qurbon qizi
Axtamova Anora Baxtiyorovna
Navoiy viloyati Uchquduq tumani
10-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchilari**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf matematika darslarida interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati, ulush mavzusini o'tishda “Tushunchalar tahlili” metodini qo'llash usullari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: matematika, ulush, kasr, tushunchalar tahlili, metod, usul, bilim, mavzu, ta'lif, o'quvchi, maxraj, surat.

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'linda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zlarini qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishga o'rgatadi.

Boshlang'ich sinf matematika darslarida interfaol metodlarni qo'llash orqali dars samaradorligiga erishish muhim vazifalardan biridir. Shu bois quyida “Tushunchalar tahlili” metodidan ulushga oid mavzularni tushuntirishdagi imkoniyatlarini ko'rib o'tamiz.

“Tushunchalar tahlili” metodining mohiyati. Ushbu metod o'tilgan (chorak, yoki o'quv yili tugagan) o'quv fani yoki bo'lim barcha mavzularini o'quvchilar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo'yicha o'qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarni tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o'qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o'quvchilarni baholay olishga yo'naltirilgan.

Metodning maqsadi: O'quvchilarni darsda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o'z bilimlarni mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarining bilim darajalarini baholay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o'z bilimlarni bir tizimga solishga o'rgatish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- * O'quvchilarni guruhlarga (sharoitga qarab) ajratiladi;
- * O'quvchilarni dars o'tishga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtirish;
- * Tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi;
- * O'quvchilarga yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- * O'quvchilar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- * O'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har-bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkon bo'lsa) tanishtiriladi;
- * Har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarining farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarni yana bir bor mustahkamlaydilar.

Tushunchalar	Mazmuni
Ulush	Butunning bir qismi
Kasr	Sonning sur'at va mahrahini ifodalovchi son
Miqdor	Narsaning o'chami
Chorak	To'rtidan bir qism.....



O`qituvchi-pedagog boshlang`ich sinf matematika darslarida miqdorlarning ulushlari bilan tanishtirish mashg`ulotlarni o`tkazishga qizg`in tayyorgarlik ko`rishi va uni o`tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi degan xulosaga keldik:

- Kasr tushunchasi bilan tanishtirish;
- Butunning ulushi, butunning ulushini topish, ulushga ko`ra butunni topish;
- kasr tushunchasining ma`nosi, uning elementlarini bilish;
- maxraji 10 dan oshmagan kasrlarni taqqoslashning amaliy yo`nalishini belgilash;
- maxrajlari bir xil bo`lgan kasrlarni qo`sish va ayirishning ma`nosini bilish;

- sonning kasr qismi va kasrga ko`ra sonni topishga doir masalalar yechishga yo`naltirish;

Xulosa qilib aytsak nafaqat ulushlar bilan tanishtirish mashg`ulotlarida, balki boshqa mashg`ulotlarda mana shunday didaktik materiallardan va interfaol metodlardan foydalanib darslarning sifat samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumayev M.E Matematika o`qitish metodikasi. T.; “Turon iqbol” T-2016.
2. B.Abdullayeva va boshq. Matematika “3-sinf o`qituvchilar uchun ilg`or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini amaliyotga joriy etish bo`yicha metodik qo`llanma T-2016.
3. Boshlang`ich sinflarning matematika darsliklari.
4. Internet saytlari.



ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Beknazarova Muattarxon Nosirovna

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani

37-umumi o'rta ta'lif maktabi

ona tili va adabiyot fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumi o'rta ta'lif maktablarida ona tili darsarida zamonaviy texnologiyalardan: mutimediya vositalari AKT lardan foydalanishning afzalliklari haqida fikr yuritiladi

Kalitso'zlar: Axborot kommunikasion texnologiyalar, multimediali o'quv kurslari, multimediali o'quv darsliklari, AKT, Microsoft Power Point.

Ta'lif sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta'lif tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lif - tarbiya tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarining zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bu esa ta'lif jarayonida o'quvchilarga turli fanlardan bilim beruvchi pedagog kadrlarni axborot texnologiyalarining zamonaviy vositalalaridan foydalanishlari uchun, eng avvalo bu sohadagi bilim va malaka darajalarini oshirish, ta'lif tizimini texnik jihatdan ta'minlash, internetdan foydalanish imkoniyatlarini to'la yaratib berish orqaligina samarali natijaga erishish mumkin.

Ta'lif tizimi sifati va samaradorligini oshirishning asosiy usullaridan biri o'quv jarayonida zamonaviy axborot kommunikasion texnologiyalarni, shu jumladan multimediali o'quv kurslarini qo'llash, o'qituvchi va o'quvchining interfaol o'zaro aloqalarini ta'minlash, multimediali o'quv kurslari va darsliklarini ishlab chiqishda yuqori malakali kadrlarni jalg etishdan iborat bo'ladi.

Multimedia axborotlarni har xil ko'rinishlarda tasvirlash va dinamik obrazlarini yaratish, uni ko'rish va eshitish organlari orqali qabul qilish va tasavvur etish imkoniyatlarini yaratadi.

Kundan-kunga rivojlanib, taraqqiy etib kelayotgan vatanimiz yoshlari bugungi kunda jahondagi o'z tengdoshlari qatorida turushlari uchun zamon bilan hamnafas bo'lishlari, zamonaviy ilmlarni puxta bilishlari lozim deb o'ylaymiz. Buning uchun har bir o'qituvchi va o'quvchi zamon talabi bo'lган AKT oid bilimlarni puxta o'rgangan bo'lishlari kerak. Bunday bilim egasi bo'lган o'qituvchining dars samaradorligi yuqori bo'ladi. Mamlakatimizda ta'lif tizimida ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishda AKTdan samarali foydalanish dolzarb masaladir. Aynan axborot texnologiyalari ta'lifning universal vositasi hisoblanib, nafaqat o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkonini beradi, balki shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, bilishga qiziqishlarini qondiradi. Ma'lumki, ona tili va adabiyot fani ta'lif tizimining poydevori hisoblanib, o'quvchilarni boshqa fanlarni o'zlashtirishi unga bog'liq bo'ladi va bu ona tili o'qituvchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. AKTdan dars jarayonida foydalanish natijasida;

- o'quvchilarda fanni o'rganishga qiziqish ortadi;
- mashg'ulotlar o'quvchilar uchun zerikarli bo'lmaydi;
- kompyuter bilan ishlashga bo'lgan ishtiyoq oshadi;
- ta'lilda o'quvchining individuallik darajasini oshiradi;
- o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi;
- yaxlit axborot tizimini to'plash imkoniyatiga ega bo'ladi;
- materialllar mazmunining xilma-xilligini ta'minlaydi;
- ta'lilda ko'rgazmalilikni kuchaytiradi;
- texnika vositalari bilan ishlay olish malakalari shakllanadi;
- o'quvchilarda o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalari paydo bo'ladi;
- tabaqalashgan ta'lif tizimiga o'tish imkoniyati tug'iladi.

AKTdan foydalanilganda ta'lilda shaxsga-yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish oson bo'ladi, butun o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Dars jarayonida tayyor multimediali mahsulotlari va kompyuter ta'lifi dasturlaridan, o'quv va sinfdan tashqari ishlarda Internet tarmog'i vositalalaridan foydalanib, multimediali ta'lif dasturlari va taqdimotlar, loyihibar yaratiladi. Darslarda o'quv va o'yin dasturlaridan foydalanish katta samara beradi. Ona



tili uchun turli didaktik materiallar to‘plamidan foydalanib, ko‘rgazmali-mashq, nazorat-mashqlari va test sinovlari modullari kiritilgan aralash kompyuter dasturlarini tayyorlash mumkin. Unga fanga oid qoidalarni joriy o‘rganish va umumlashtirilgan takrorlash uchun variantlarda berilgan grammatika-orfografik mavzular bo‘yicha boy va turli-tuman materiallardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Bundan tashqari ona tili darslarida bugungi kunda zamonaviy rivojlanib kelayotgan PISA ta’lim metodi keng joriy etish ham dars sifatini oshirishda yaxshi samara beradi.

Darslarda elektron o‘quv qo‘llanmalari tayyorlab, foydalanish mumkin. Unda so‘zni tovushli-harfli tahlil qilish, so‘zning bo‘g‘inlari tuzilishi, ba’zi orfogrammalar o‘rganilishi turli qiziqarli ko‘rgazmali va ovozli material berish mumkin. Microsoft Power Point dasturlari yordamida yaratilgan taqdimotlar ta’lim jarayonida AKTdan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi.

Taqdimotda asosiysi — axborotliligi, ko‘rgazmaliligi, qiziquvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo‘yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar, animatsiya, qo‘srimcha axborotlardan foydalanish mumkin. Albatta, bunday usullarda dars o’tish yaxshi samara beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ubayxo’jayeva R. Ilg’or pedagogik texnologiyalarni qo’llash Boshlang’ich ta’lim , 2006, 3-son, 6-7-betlar.
2. Xoliqova M. Ta’lim texnologiyalaridan foydalanish Boshlang’ich ta’lim, 2009, 5-son, 20-21-betlar.
3. Ziyomuhamedov B., Tojiyev M. Pedagogik texnologiya – Zamonaviy o’zbek modeli. – Toshkent: “ Lider Press”, 2009.




**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA
BOSHQOTIRMALARDAN FOYDALANISH**

Berdiyeva Gulnora Toshmurotovna
Surxondaryo viloyati Denov tumani 5-maktab
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur uslubiy tavsiyada boshlang‘ich sinflarda zamonaviy texnologiya va boshqotirmalardan foydalanish xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: boshqotirma, zamonaviy texnologiya, yarimta qovun, sinchkov..



**Boshqotirmalarni yechish
orqali o‘quvchida o‘sadi:**

- 1.Ilmiy va mantiqiy fikrlash**
- 2.Izlanuvchanlik**
- 3.Qiziqish.**
- 4.Ongning rivojlanishi.**

Bugungi kunda O‘zbekistonning jahon miqyosida munosib o‘rin egallashi uchun ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy yo‘nalishlarda g’oyat muhim va murakkab ishlar amalga oshirilmoqda. Bugun biz tarixiy bir davrda -xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug’ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyatni qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Boshlang‘ich ta’lim ta’limda asosiy poydevor bo‘lib, bunda o‘quvchilarni mantiqiy fikrlashga undashda boshqotirmalarning ahamiyati katta.

Quyida boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan zamonaviy texnologiyalar va boshqotirmalarni taqdim etishni joiz topdim.

“INSERT” strategiyasi. Strategiya o‘zlashtirilishi ko‘zda tutilgan yangi mavzu bo‘yicha o‘quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyani qo‘llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- kichik guruuhlar shakllantirilib, ular nomlanadi;
- har bir guruuhlar o‘zlashtirilishi rejalashtirilayotgan mavzuga oid 2 ta fikr bildirish so‘raladi;
- o‘quvchilar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadildi;
- bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;
- so‘ngra o‘qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruuhlarga tarqatadi;
- guruuhlar matn bilan tanishib chiqib, matn va o‘zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvosif kelganligini aniqlaydilar (o‘xshashlik va farqlar maxsus belgilarni yordamida qayd etiladi);
 - guruh a’zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilarni soni umumlashtiriladi;
 - guruh a’zolari orasidan liderlar belgilanadi;
 - liderlar sinf jamoasini guruh natijalari bilan tanishtiradilar;
 - guruuhlarning yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.
- Strategiyani qo‘llashda o‘quvchilar quyidagi sxemalar bo‘yicha faoliyatini tashkil etadilar:
Guruuhlar tomonidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanadi:



Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma’nosi
Z	Matnda guruuhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topgan bo‘lsa
S	Matnda guruuhlar tomonidan bildirilgan fikrlar o‘z aksini topmagan bo‘lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug‘ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

1.Yarimta qovun qani?

Dehqon bozorga qovun olib keldi.Birinchi kelgan xaridorga hamma qovunlarning yarimini va yana yarimta, ikkinchi xaridorga qolgan qobunlarning yarimini va yana yarimta, uchinchi xaridorga qolgan qovunlarning yarimini va yana yarimta berdi.Shundan so’ng o’ziga hech vaqo qolmadi.

Savol: dehqon bozorga nechta qovun olib kelgan? **Javob:** 7 ta



2.Cho’ponning iltimosi

Cho’pon suruvni ko’zdan kechirgach, qassobdan 20 ta qo’yni 7 kunda toq sonda so’yb berishni iltimos qilibdi.U rozi bo’libdi.

Savol: ayting-chi, qassob bu ishni uddalaydimi?

Javob: bajara olmaydi, chunki 7 ta toq sonning yigindisi juft bo’lmaydi.

3. Fil. Bitta fil qulog’ining yuzasi 10000 kv.sm. 12 ta bir xil fil qulog’ining perimetri necha kv.sm?

Biz o’z taqdirimizni o’z qo’limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda mana shunday intilishlar bilan yashayotganimiz, ilm-fan, texnika sohasida erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgan-bunday imkoniyatlarni barchasini aynan mustaqillik bergenini hammamiz chuqur anglaymiz.

Foydalanimadigan adabiyotlar:

1.M.Mirzayev va boshqalar.Ona tili. Toshkent, 1978-yil.

2.“Boshlang’ich ta’limda zamonaliviy pedagogik texnologiyalar”.



**ONA TILI DARSLARIDA “QÒSHMA GAPLARNING TUZILISHIGA
KÒRA TURLARI” MAVZUSINI O’ITISHDA “QIZIL VA YASHIL RANGLI
KARTOCHKALAR BILAN ISHLASH” METODI**

Bobojonova Havogul Azamatovna

Yangiariq tumani 40-son umumiy òrta ta’lim mакtabining
ona tili va adabiyot fan öqituvchisi

Annatotsiya: Bu maqolada ona tili darslarida o`qituvchining samarali faoliyat ko`rsatishga undovchi darsning metodik ishlanmasini puxta ishlab chiqilgan bo`lib, ta`lim texnologiyasi o`quvchilar faoliyatiga nisbatan yo`naltirilgan.

Kalit so`z: ta`lim, interfaol, suhbat, ijtimoiy, pedagogik, texnologiya.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta`lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi me-todlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Shu o`rinda “Interaktiv” dars metodini “interfaol” deb chala tarjimasini aytish mazmunan xato ekan-ligiga e’tiboringizni qaratmoqchimiz. “Interaktiv” so`zi qo`shma so`z bo`lib, agar tarjima qilish zarur bo`lsa, unda har bir so`zni tarjima qilish kerak.

O`quvchi bilan ommaviy va guruh shaklida ishlashda ush-bu metodni qo`llash nihoyatda qulay. Metoddan mashg`ulotlar so`ngida mavzuni mustahkamlashga oid tezkor savol-javobni tashkil etishda foy-dalanish mumkin. Metod quyidagi harakatlarni tashkil etish asosida qo`llaniladi:

- o`qituvchi tomonidan o`rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmuyi tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi «yadro» tushunchaning bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);
- har bir guruhga maxsus kartochkalarning alohida majmuasi topshiriladi va kartochkalarni ularagi tushunchalarga asosan, mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yukланади;
- guruhrular tomonidan topshiriq bajarilib bo`lingach, kartochkalarning orqa tomoni o`giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to`g`ri bajarilganligi aniqlanadi.

Maktab, akademik litsey, oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlarida Ona tili darslarida “Qòshma gaplarning tuzilishiga kòra turlari” mavzusi bo`yicha tashkil etilgan mashg`ulot jarayonida “Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash” metodini qo`llashda o`quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin.

1. Qo`shma gap deb nimaga aytildi?
2. Qo`shma gap bilan soda gap bir-biridan qanday farq qiladi?
3. “Saodatxon eshikni ochib yubordi, uyga muzday kuz havosi kirdi” bu qaysi gap turiga kiradi?
4. Qo`shma gaplar nimasiga ko`ra 3 asosiy turga bo`linadi ?
5. Bog`lovchisiz qo`shma gap deb nimaga aytildi ?
6. Bog`langan qo`shma gap deb nimaga aytildi ?
7. Ergashgan qo`shma gap deb nimaga aytildi ?
8. Ergash gaplar (ergash gapli qo`shma gaplar) mazmun va vazifalariga ko`ra necha turga ajratiladi ?

Qo`shma gap va uning turlari, qo`shma gaplarning tabiatli masalalari rus va yevropa tilshunosliklari qatori o`zbek tilshunosligida ham keng, atroflicha o`rganilgan.

Interaktiv metod biror faoliyat yoki muammoni o`zaro muloqotda, o`zaro bahs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o`quvchini mustaqil fikrlashga o`rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. O`qitishning interaktiv usullarini tanlashda ta`lim maqsadi, ta`lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o`quv muassasasining o`quv-moddiy sharoiti, ta`limning davomiyligi, o`qituvchining pedagogik mahorati va boshqalar e’tiborga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S., G`ulomova X., Yo`ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o`qitish metodikasi. – Toshkent, “Nosir”, 2009.



KIMYO DARSIDA SUV VA UNING XUSUSIYATLARINI O'RGATISH METODLARI

Bobojonova Oltin Otoxonovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

19-sont IDUMning kimyo fani o'qituvchisi

Otajonova Muqaddas Satimovna

Xorazm viloyati Urganch shahar

18 - son mактабining kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktab o'quvchilari uchun kimyo fani darslari jarayonida suv va uning xususiyatlari hamda ahamiyatinini o'quvchilarga yetkazishda samarali va yangicha ta'lif metodlaridan foydalanish yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: bilim, malaka,kimyoviy birikmalar, tuzli eritmalar, Orol Dengizi, genofond, molekulyar massa.

Kimyo fanini o'rganishda uning asosiy bilimlarini egallash maqsadida o'qituvchi izlanadi. O'quvchilarni fanga qiziqtirish hamda maktab dasturida berilgan mavzularni ongli ravishda o'rgatish uchun har xil usullar qo'llanilmoqda (masalan: BBB,Aqliy hujum , Svetafor va boshqalar).

Ona zaminimizga inson faoliyatining ta'siri uning tanib bo'lmas darajada o'zgarib borishiga sabab bo'lmoqda. Insonning ho'jalik faoliyati tabiat uchun zararli bo'lib so'ngi yillar davomida ko'plab o'simlik va hayvon turlarining yo'qolib ketishiga sabab bo'ldi. Tuproqdagi tuzli eritmalar miqdorini oshirish ichimlik suvini kamayishi atmosferaga juda ham katta organik yoqilg'inining yondirilishi natijasida CO₂ ning chiqishi o'rmonlarning ayovsiz kesilishi ohir oqibat insoniyatning o'ziga va uning avlodiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jumladan Orol va Orolbo'yи muammosini yechishdagi uchta asosiy yo'nalishlar ya'ni, birinchidan, ichimlik suvini quvurlar orqali aholiga yetkazib berish bilan hududning sanitarn-epidemologik ahvolini yaxshilashga, shuningdek, yer osti chuchuk suvidan foydalanishga ham e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2004-yil 3-apreldagi 162- sonli «Orol bo'yи genofondini muhofaza qilish hayriya jamgarmasini tuzish haqida»gi qarori qabul qilindi. Unga ko'ra Orol bo'yи atrof-muhitini va aholi sog'ligini mustahkamlash va ekologik holatini yaxshilashga qaratilgan vazifalar belgilab berilgan.


Suv molekulasi 2 atom vodorod va 1 atom kislорoddan iborat bo'lib suv molekulasiда vodorod va kislород atomlari 1:8 nisbatiga birikkan uning formulasi H₂O bo'lib nisbiy molekulyar massasi

$$M_R(H_2O) = 1*2+16=18 \text{ m}^*a^*b \text{ ga teng.}$$


Toza holda rangsiz, xidsiz, ta'msiz suyuqlik bo'lib 100° C da qaynaydi 0° C da muzlaydi. Zichligi 1 ga teng. Suv katta issiqlik sig'imiga egaligidan sekin isib sekin soviydi. Suv ushbu xossasi tufayli iqlimi tartibga soluvchi modda hisoblanadi.

Suvni transport vositasiga o'xshatish mumkin chunki tuproqda erigan ionlarni va molekulalarni o'simlik tubidan yuqori va pastli to'qimalariga, hujayralarga g'amlaydigan a'zolariga olib chiqib, olib tushadi, ozuqa eritmasi ham deyish mumkin. Chunki fotosintez jarayonida paydo bo'lган mineral tuzlar, qandlarni eritadi. O'simlikda turli yo'llar bilan harakat qiladigan barcha moddalarni parchalaydi. Suv konditsionerlik vazifasini ham bajaradi.


Yer yuzining 71 % okean va dengiz suvlari bilan qoplangan bo'lsada lekin ichimlik suvlari 2% ni tashkil etadi. Xalqaro bolalar tashkiloti YUNISEF ning ma'lumotlaruga ko'ra xar yili jahonda 4,5 million bola suvsizlikdan nobud bo'ladi. Suv molekulalari qizdirishga juda chidamlik lekin 1000° C dan yuqori haroratda suv bug'lari vodorod va kislорodga parchalana boshlaydi.



faol metallar suv bilan ta'sirlashib uning tarkibidagi vodorodni ajratib chiqaradi.



reaksion qobiliyati ancha katta metal va metalmas oksidlari suv bilan ta'sirlashganda asos va kislоторlar hosil bo'ladi.



Suvning anomal fizik xossalari hayotiy jarayonlarni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi agar suyuqlikdan qattiq holatga utishda suvning zichligi ham boshqa moddalarniki kabi o'zgarganda qish kelishi bilan suv yuzasi 0° C da muzlab tagiga cho'kar va o'mini issiqroq qatlamga bo'shatib



berar edi va bu qatlam ham muzlar edi. Bunday jarayon natijasida hayotning ko'plab shakllari yuqolib ketar edi lekin +4 °C da eng yuqori zichligiga ega bo'lganligi uchun bunday hodisa ro'y bermaydi. Kam zichlikka ega bo'lgan muz suv yuzasida qoladi pastki qatlamni muzlashdan saqlab turadi va sovuqdan himoya qiladi.

Yer quyoshdan oladigan energiyaning 1/3 qismi dunyo okeani va boshqa suv havzalaridagi suvni bug'latishga sarflaydi. Yer sharidagi barcha suvlar chuchuk va sho'r suvga bo'linadi. Sanoat uchun ikkisi ham muhim ahamiyatga ega. Asosan chuchuk suv bilan ishslashga ixtisoslashgan ishlab chiqarishda sovitishda, erituvchi muhit, tozalov vositasi kabi vazifalarni bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, suv hayotimiz manbai, suvsiz hayotni tasavvur qilb bo'lmaydi daryo, ko'l va anhorlarimiz suvi tarkibida juda ko'p zararli moddalarni bo'lishi insonlar va kelgusi avlod uchun juda katta xavf tug'dirmoqdai. Bugungi kun dolzarb mavzularidan biri bo'lib, dunyo jamoatchiliginini tashvishga solib kelmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Xolmirzayeva Zohida. Metodik qo'llanma. Namangan nashri 2011.
2. Kritsman Stantso. "yosh ximik ensiklopediyasi". Toshkent nashri 2015. 291- 300-bet.
3. www.ziyo.net



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA ELEKTRON DARSLIK, AKT VA
MULTIMEDIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Djalg‘asova Zibagul Fazilovna

Navoiy viloyati Konimex tumani

23-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Dosanova Janayim Aymaxanovna

Qurbanbayev Turexan Saribayevich

Navoiy viloyati Tomdi tumani

11-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbutavsiyadaboshlang‘ichta’limda elektron darslik, AKT va multimediyalardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Slayd-dars, multimedija, AKT, innovatsion texnologiyalar, bilim.

Ma’lumki, bugungi kunda ta’lim yangi bosqichga ko’tarilmoqda, o‘quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o’sish jarayonida o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi.

Oshpazlar bir xil guruchdan oshpishirishadi, lekin ba’zi mahoratli oshpazlar taomni o’ta puxtalik bilan tayyorlab maqtovga sazovor bo’lishadi, nonvoylar ham bir xil undan non yopsalarda ularning ba’zilariniki shakli va mazasi jihatdan ajralib turadi. Bularning hammasi kasbiy mahorat evaziga erishiladi. O‘qituvchi ham o’z kasbiga puxta yondoshgan holda darslarni tashkil etsa bir umr hurmat-e’tiborda bo’ladi. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o’zgarishlar kiritishdir.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o‘qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqazo etiladi:

- AKT bo'yicha bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;
- YaPT (yangi pedagogik texnologiya) bo'yicha xorijiy tajribalardan boxabar bo'lish;


Ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;

O'z ustida tinmay ishlashi, har sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar. Bunda bizda interfaol usullar yordam beradi. Masalan, “**Tushunchalar tahlili**” metodi. Bu usul yordamida “Daraxtga yordam” o'yinini o'ynatamiz. 2 ta daraxtning biriga to'gri fikrlarni, ikkinchisiga noto'g'ri fikrlar yozilgan sariq rangli barglarni yopishtirib kuz faslini namoyon qilishadi. Bu usuldan boshqa darslarda foydalanish ham mumkin.

“**Ha yo'q**” o'yini esa o'quvchilarning to'g'ridan noto'gri fikrni ajratishga, tezkor fikrlashga, hozirjavoblikka, analiz-sintez qilishga, kerakli fikrni vaqtida aytishga o'rgatadi. O'quvchilar bunda asosiy maqsad eng kerakjli fikrni o'z o'rnida qo'llashga o'rganadilar. Aniq fikrlashga o'rganadi. Bundan ona tili darslarining o'tilgan mavzularni mustahkamlash qismlarida foydalanish, umumlashtirish darslarida foydalanish, yoki yangi mavzini mustahkamlashda foydalanish yaxshi samara beradi.

Internetlardan foydalangan holda, multimedya vositalaridan foydalanib, slaydlar yaratmog'imiz kerak. Slayd-dars – bu yoritilishi kerak bo'lgan mavzularni, o'quvchilar bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlarni xat taxtada yoki daftarda emas, kompyuter texnologiyasi orqali ko'rsatish va bajarishdir Slaydlaring o'zi turlicha ko'rinishda bo'lishi mumkin?

Masalan; Multimediyaga to'xtaladigan bo'lsak . Multimedya bu quyidagi ko'rinishda bo'ladi.





Xo'sh shunday ekan bir savol tug'lishi tabiiy AKTni qo'llashdan maqsad nima?

-AKT o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.


-AKT o'quvchilarni kelajakdagi faoliyatiga tayyorlashga ko'mak beradi.

- AKT o'rghanish va o'qitishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi.

-AKT o'z resurslaridan oqilona foydalanishga imkoniyat yaratadi.

- AKT turli yoshdagi o'quvchilarni, turli darajadagi o'qituvchilar bilan tezroq moslashishiga ko'makdir.

Elektron darslik nima? Bunda quydagilar kiradi.



Shunday qilib, bularning barchasi o'quvchilar bilimini oshirishda, mustahkamlashda, bilimi boyishida o'rni kattadir. AKT, elektron darslik, multimediyalar ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining asosiy faoliyat turi bo'lganligi uchun ham, bu darslarda qo'llanish o'quvchilarga o'zlashtirishga katta yordam beradi. O'qituvchining esa maqsadiga yetaklaydi. Ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. 1.X.Teshaboyev. "Interfaol usullari". T.2009-yil

2. Ma'rifat. "Dars muqaddas" tavsiyasi. 2011-yil, 9-noyabr



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MOSLIK TUSHUNCHASI, MOSLIK USTIDA
AMALLARNI O'RGATISH**

Boymatova Muqaddasxon Muhamadaliyevna

Namangan viloyati Norin tuman
19-maktab boshlang'ich ta'lim fani o'qituvchisi
931606285. muqadasboymatova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali o'qituvchilarni boshlang'ich sinflarda moslik tushunchasi va moslik ustida amallarni o'rgatish haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib u umumta'lim maktab o'qituvchilariga metodik qo'llanma sifatida foydalanish tavsiya tiladi.

Kalit so'zlar: Moslik, amallar, o'lhash, tekislik nuqtasi, X va Y, to'plamlar, xossalalar, juftliklar, munosabat, tekislik nuqtasi.

Bugungi kunda aniq fanlarga bo'lgan etibor qolgan fanlarga ko'ra etibor kuchaydi. Ayniqsa boshlang'ich sinflarda matematika fani agentlik maktablari, prizident maktablariga o'quvchilar tayyorlashda matematika fanining o'rni juda katta. To'plamdagagi munosabatlardan tashqari, ko'pincha ikki to'plam elementlari orasidagi, masalan, kesmalaming uzunliklarini o'lhash jarayonida X «kesmalar» va Y «haqiqiy sonlar» yoki A «tekislik nuqtasi» va B «haqiqiy sonlar jufti» orasidagi munosabatlami qarashga to'g'ri keladi. Bunday munosabatlardan *mosliklar* deb ataladi. O'z mohiyatiga ko'ra, ikki X va T to'plam elementlari orasidagi moslik to'plamdagagi munosabat kabi juftliklar to'plamini ifodalaydi hamda X va Y to'plamlar dekart ko'paytmasining qism to'plami bo'ladi. Chekli to'plamlar orasidagi moslik grafiklar yordamida ham ifodalanadi. Buning uchun R moslikda bo'lgan barcha sonlar jufti koordinata tekisligidagi nuqtalar bilan tasvirlanadi. Buning natijasida hosil bo'lgan figura R moslikning grafigi bo'ladi. Aksincha, koordinata tekisligi nuqtalarining ixtiyoriy qism to'plami biror moslikning grafigi hisoblanadi.

1 - misol. $X = \{3; 5; 7; 9\}$ va $Y = \{4; 6\}$ to'plam elementlari orasidagi «katta» mosligining grafigini chizing. Y e c h i s h. Buning uchun berilgan to'plam elementlari nuqtalar bilan belgilanadi va X to'plam elementlarini tasvirlovchi nuqtalardan Y to'plam elementlarini tasvirlovchi nuqtalarga strelkalar o'tkaziladi, bunda «katta» mosligi bajarilishi kerak. Masalan, strelka 5 nuqtadan 4 nuqtaga borishi kerak, chunki 5 soni 4 dan katta. 7 nuqta 4 va 6 nuqtalarga bomvchi strelkalari orasidagi «katta» mosligiga ega. Berilgan moslikda bo'lgan sonlar juftini yozamiz: $(5; 4), (7; 4), (7; 6), (9; 4), (9; 6)$. X to'plam elementlarini O X o'qda, Y to'plam elementlari orasidagi «katta» mosligining grafigi hosil qilinadi. Moslikni bunday tasvirlash ularni berilgan moslikda cheksiz ko'p sonlar jufli bo'lgan vaziyatda ko'rgazmali tasvirlash imkonini beradi.

2- misol. $3 = 3$ va $3 < 4$ ifodalarni tushuntiring. Y e c h i s h . $3 = 3$ yozuvini tushuntirish uchun 3 ta qizil va 3 ta yashil kvadrat olinadi va har bir qizil kvadratga yagona yashil kvadrat mos qo'yiladi (amalda kvadratlar yonma-yon, ustma-ust qo'yiladi, kesmalar bilan tutashtiriladi va hokazo), ya'ni bu kvadratlar to'plami ustidan o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatiladi. $3 < 4$ ekanini ko'rsatish uchun 3 ta elementli to'plam va 4 ta elementni o'z ichiga oluvchi to'plamning 3 ta elementli qism to'plami orasida o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatiladi. To'plamlar nazariyasi elementlarining tabiatini turli bo'lishidan qat'i nazar, xossalalarini va ular o'rtaqidagi bajariladigan amallarni o'rganadi. Agar ikki to'plam turli xarakterli xossalami ifodalovchi bir xil elementlardan iborat bo'lsa, ular teng hisoblanadi. Maqsadimiz, ikki to'plam orasida aniqlangan biror moslikni qarashdan iborat. 1-sinfda o'quvchilar orasidagi juftlik uchun quyidagi tasdiq o'rinni. Halima va Barno 1 A-sinfda o'qiydi, boshqa ikkinchi juftlik uchun a talaba b talabidan yaxshi o'qiydi, uchinchi juftlik uchun «Halima necha yoshda bo'lsa, Bamo ham shu yoshda». Har bir tasdiq a va b lar orasidagi moslik bilan berilgan (birga o'qishi, yaxshi o'qishi, yoshining tengligi). Bu misolda gap bitta to'plamning elementlari haqida boidi. Turli to'plam elementlari haqida ham gapirish mumkin. Masalan, «Halima 2-sinfda o'qiydi» tasdiq o'quvchilar to'plami va sinflar o'rtaqidagi moslik bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich ainflarda moslik ammallari o'quvchilarning agentlik maktablariga tayyorgarlik ko'rishda muhim ro'l tutadi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. “Matematika o'qitish metodikasi” S.Alixonov . Toshkent 2011
2. “Matematika analiz” 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent “O'qitvchi-1994”
3. www.ziyoz.com kutubxonasi



**ONA TILI DARSLARIDA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH.
DARSLARNI CHET TILI BILAN BOG’LAB TASHKIL ETISH USULLARI**

**Davlatova Sohiba Xotamovna,
Berdievna Durdonayevna**
Navoiy viloyati Navoiy shahar
5-IDUM boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinfda ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish, darslarni chet tili bilan bilan bog‘lab tashkil etish usullari haqidagi bilimlarni o‘rgatish usullari haqida fikrlar aks etgan.

Kalit so‘zlar: aqliy rivojlanish, imloviy savodxonlik, pedagogik innovatsiya, “Five why?” usuli

Hozirda ta’limning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishdan iborat. Ma’lumki, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarining umuminsoniy va axloqiy ko‘nikmalari, dastlabki savodxonlik malakalari shakllantiriladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida mantiqiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishini, dunyoqarashini, o‘z-o‘zini anglashini, jismoniy sog‘lom bo‘lishi, milliy urf-odatlarni o‘zida singdirishi, mamlakatimiz boyliklarini ko‘z qorachig‘iday asrashi va tabiatga ongli munosabatda bo‘lishi ham o‘rgatib boriladi.

Biz o‘quvchilarga mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malaka berish bilan bir qatorda kompetensiyalarni ular ongiga singdirib, kelajakda shu bilimdan hayotida qaysi sohada foydalana olishini, biror sohaga bo‘lgan qiziqishini aniqlab, uni yanada rivojlantirishimizni talab etadi. Ana shundagina bizning yurtimizda ham dasturchilar olim va muhandislar soni ko‘payadi. Shu o‘rinda davlatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tmoq lozim: “Dunyoda qobiliyatsiz bola bo‘lmaydi biz ana shu qobiliyatni ko‘ra olishimiz, tahlil qilib yuksaltirishimiz va shu qatorda o‘quvchilarining qobiliyatidan kelib chiqqan holda biror kasbga yoki hunarga yo‘naltira olish asosiy vazifamizdir”.

O‘quvchilarga ona tili va adabiyot fani bo‘yicha quyidagi kompetensiyalarni o‘rgatish zarur: imloviy savodxonlik; so‘zlearning ma’no nozikliklarini his qilish; ularni o‘z ornida qo’llay olish; fanga oid atamalar va yangi so‘zлarni o‘rganish; boy va shakllangan nutq tuza olish va uni og’zaki ifodalay olish.

“Xo‘s, biz qanday qilib o‘quvchilarga bunday bilimlarni tez va samarali yetkazishimiz mumkin? Ona tili murakkab fanligida kelib chiqib, biz ularni boshqa yollar orqali turli yangi pedagogik innovatsiyalardan foydalanib zeriktirmasdan o‘yinlar orqali darslar tashkil etishimiz kerak. Bunda o‘yin dars sistemasini qo‘llasak bo‘ladi. Lekin didaktik o‘yinlar va yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash joyi va vaqtini bilishimiz kerak. O‘qituvchi o‘quvchini faollashtiradigan, o‘zi va o‘rganuvchi uchun qulay bo‘lgan uslub, usul va yo‘llarni, o‘qitish shakllari va vositalarini izlashi hamda shu asosida o‘quvchilarini dars davomida mustaqil fikrlashga o‘rgatishi kerak. Zamonaviy o‘qituvchi o‘z ustida tinmay ishlashi fanini chuqur bilishi, biror chet tilida muloqat qila olishi va AKTdan foydalanishni bilishi talab etiladi. Quyidagi ilg‘or pedagogik texnologiyalar - didaktik o‘yinlar va boshqotirmalardan o‘quvchi yoshi va vaziyatini hisobga olib foydalanish mumkin.

“**Five why?**” usuli. Bu usulda o‘quvchilar bilan yakka tartibda ishlasa ham, guruhlarda ishlasa ham bo‘ladi. Ushbu usulning bajarilish tartibi quyidagicha: O‘qituvchi tomonidan bir fikr o‘rtaga tashlanadi. O‘quvchilar bu fikrga qo’shilsa 3-4 tagacha isbot aytishlari kerak. Masalan: Dehqon bo‘lsang, shudgor qil, olim bo‘lsang takror qil.

1. Chunki: dehqon yerni qancha ko‘p shudgor qilsa shuncha yer unumдорлиги oshadi, olim inson ham bilimlarini takrorlamasa esidan chiqishi mumkin.

2. Chunki: Bilim- takrorlash mevasidir.

3. Chunki: Sabzavot va ekinlar yaxshi shudgor qilingan joyda ko‘karadi va yaxshi hosil beradi. Ilmli inson esa takrorlash orqali yangi bilimlarni kashf etishi mumkin.....

Xuddi shu tartibda javoblarini davom ettirishlari mumkin. Ular nega savoliga javob berishga harakat qilib, o‘qituvchi tomonidan berilgan fikrga mantiqan yondashadilar. Fikrning birgina izohi bilan cheklana olmaydilar. Fikrlarini yanada rivojlantiradilar. Lekin borgan sari savollar qiyinlashib boradi va ba’zi o‘quvchilar 1-yoki 2-savoldayoq to’xtab qolishlari mumkin. Bunday



holatda eng k‘op why savoliga ham javob bera olgan guruh yoki o‘quvchi g‘olib sanaladi. Bu uslubning bugungi kundagi ahamiyati o‘quvchilarini mantiqiy fikrlashga o‘rgatadi, nutqini to‘g‘ri shakllantiradi, ifodalamoqchi bo‘lgan axborotning mazmuni, tinglovchi yoki o‘quvchining yoshi, ijtimoiy maqomi, nutqning yozma yoki og‘zaki ekanligi, nutqning vaziyatiga to‘la mos kelishi kerakligini o‘rgatadi. “*Bu so‘z bizniki*” usuli. Ushbu usuldan 4-sinflarda “So‘z turkumlari” mavzusini takrorlash mavzularida foydalanish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, chet tilidagi so‘zlar orqali so‘z turkumlarini topish - fanlararo integratsiya o‘quvchini darsga qiziqishini ortishiga sabab bo‘lish bilan birga chet tillarini o‘ganishga ham undaydi. Buning uchun kichik guruhlarga ishlanadi. O‘quvchilarini guruhlarga ajratib olamiz va doskada stikerlarga har xil tillarda so‘zlar yozib, shu so‘zlarni tanlab olishlari, keyin esa tanlagan so‘zlarini o‘z guruhlari uchun ajratilgan joyga ilishlari aytildi. Masalan: friendly , приветливая, xushmuomala – so‘zları SIFAT ustuniga; pencil, карандаш, qalam – so‘zları OT ustuniga ilinadi.

Bu usul orqali nafaqat so‘z turkumlari mavzusi mustahkamlanadi, balki undan kutilayotgan natija - tillarni o‘rganishga ishtiyoq ortadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, maktab o‘quvchilarini mantiqiy fikrlash va nutqiy savodxonligini oshirish murakkab jarayon bo‘lib, o‘qituvchining izlanishi, pedagogik mahorati, zamonaviy dars o’tish jarayonidan mohirona foydalanishi bunga imkon yaratishi mumkin. Kelajagimiz poydevori bo‘lmish yoshlarimizni ona Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashimiz uchun o‘quvchi kundlik mashg‘ulotlarda faol qatnashishi, o‘z fikr-mulohazalarini mustaqil tarzda bayon etishi zarurligini unutmasligimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ona tili fanini o‘qitishda innovatsion yondashuv ” J.Davronov T: 2021 yil
2. Darsliklar asosida metodik qo‘llanmalar
3. Ermatova “Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar” Toshkent -2019



O'QUVCHILARDA KASB TANLASH VA KASBGA YO'NALTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Karimova Nargiza Abdugafurovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti p.f.f.d., (PhD) dotsenti v.b

O'quvchilarda “Odam va uning salomatligi” fanining kasb tanlashga yo'naltirilgan metodikasi muhim hisoblanadi, ammo bu haqida gapirishdan oldin kasb tanlash, kasb tanlash mezonlari haqida ham ma'lumotga ega bo'lishimiz kerak. Ta'lim – tarbiyada axborot tizimlarining asosiy vazifalari – bu o'rganilayotgan ob'ektga tegishli barcha axborot resurslarini eng maqbul boshqarish usullari yordamida iste'molchiga kerakli bo'lgan axborotlarni ishlab chiqish va ulardan ta'lim ob'ektni boshqarishda foydalanish uchun axborotli va texnikaviy ta'minot muhitini yaratishdir. Kasbga yo'naltirish – mohiyat va samaradorlikni baholash ko'rsatkichlariga ko'ra ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyadir. Kasbga yo'naltirishni hal etish vazifalari bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy-fiziologik va psixologik-pedagogik mohiyatta ega muammodir.

Kasb tanlash - hayotdagi qiyin va mas'uliyatlari qadamdir. Kelajakdagagi kasbingizni tanlashni tasodifga qoldirmang. Kasb-hunarni o'z qobiliyatini, ichki e'tiqodini, real imkoniyatlarini inobatga oлган holda, barcha ijobjiy va salbiy tomonlarini o'rgangan holda, ataylab tanlash kerak. Ko'ngilsizliklarga olib kelmaslik uchun kasb uchta asosiy mezonga javob berishi kerak:

- kasb qiziqarli bo'lishi, sizning xohishingizga, maylingizga mos kelishi kerak;
- o'z imkoniyatlariningizga mos kelish (sog'lik darajasi, malaka va qibiliyatlar);
- mutaxassislik bo'yicha ishga joylashish istiqbolini ochish.

Shu maqsad bilan o'zingizni chuqurroq o'rganing: qiziqishlaringizni (sizni sevimli mashg'ulot sifatida nima qiziqtridi va nima kasbga aylanishi mumkin), moyilliklaringizni, xarakteringizning xususiyatlarini va jismoniy imkoniyatlarini tushuning.

- O'zingizning kuchli va zaif tomonlaringiz, asosiy va ikkinchi darajali fazilatlarining haqida o'ylang.

- Sizning qiziqishlaringiz va qibiliyatlariningizga mos keladigan kasblarni o'rganing. Ko'proq kitoblar, maqolalar, jurnallarni o'qing. Oldindan tanlangan kasbni yoki tegishli kasblar guruhini belgilang.

- Tanlangan kasblar vakillari bilan suhbatlashing, ushbu mutaxassislarining ish joyiga tashrif buyurishga harakat qiling, tabiatini va mehnat sharoitlari bilan tanishing. Qanday qilib, qayerda va qachon ushbu biznesda o'z kuchingizni sinab ko'rishingiz mumkinligini o'ylab ko'ring va harakat qiling!

- Siz tanlangan kasbingizni olishingiz mumkin bo'lgan ta'lim muassasalarini bilan tanishing
- Shaxsiy sifat va imkoniyatlariningizni tanlangan kasbingizning tabiatini bilan solishtiring.

- Qaror qabul qilganingizdan so'ng, qiyinchiliklar oldida orqaga qaytmang. Maqsadlariningizga erishishda qat'iyatli bo'ling va onglik printsipi asosida tanlangan kasbingiz haqida chuqur o'ylab ko'ring. Quyidagilarni aniq tushungan kishi to'g'ri kasb tanlashi mumkin: nimanini xohlaydi (maqsadlarini, hayotiy rejalarini, ideallarini, intilishlarini, qadriyat yo'nalishlarini amalga oshirish); u nima (uning shaxsiy va jismoniy xususiyatlarini bilish); nima qila oladi (mayli, qibiliyat, iste'dodni biladigan); mehnat va mehnat jamoasi undan nimanini talab qiladi.

Muvofiqlik printsipi: tanlangan kasb insonning qiziqishlari, moyilligi, qibiliyati, sog'lig'i holati va shu bilan birga jamiyatning kadrlarga bo'lgan ehtiyojlariga javob berishi (mos kelishi) kerak.

Faoliyat printsipi: siz o'zingiz faol ravishda kasbni izlashingiz kerak. Bunda quyidagilar muhim rol o'ynashga chaqiriladi: to'garaklar, bo'limlar va tanlovlardacha kuchni amaliy tekshirish; adabiyotlarni o'qish, ekskursiyalar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar, “Ochiq eshiklar kuni”da ta'lim muassasalariga tashrif buyurish, o'z-o'zidan psixolog yoki professional maslahatchiga murojaat qilish

Rivojlanish printsipi: har qanday kasb uchun zarur bo'lgan fazilatlarni o'zida rivojlantirish zarurligi haqidagi g'oyani aks ettiradi. Bular psixik jarayonlar (fikrlesh, xotira, diqqat) va quyidagi xarakter xususiyatlari: mehnatsevarlik, vijdonlilik, mehnatsevarlik, tashkilotchilik, mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, muvaffaqiyatsizliklarga chidash qobiliyati, chidamlilik, matonat haqida ham ma'lumotlarga ega bo'ling.

Kasb tanlashda xatolar va qiyinchiliklar quyidagilardan iborat:

- kasb tanlash qoidalarini bilmaslik;
- korxona uchun kasb tanlash;



- shaxsga bo’lgan munosabatni kasbning o’ziga o’tkazish;
- sub’ektni kasbga moslashtirish;
- yuqori malakali kasblarga bevosita yo’naltirish;
- kasb-hunar egallash yo‘lini aniqlay olmaslik.
- ularning jismoniy xususiyatlarini bilmaslik yoki kam baho berish;
- ularning psixologik xususiyatlarini bilmaslik yoki yetarlicha baho bermaslik;
- o‘z qobiliyatini kasb talablari bilan bog‘lay olmaslik; Kasblar olamidan bexabarlik
- kasbning faqat tashqi tomoniga ishtiyoq;
- kasb obro‘siga putur yetkazish;
- kasbning shaxsga qo‘yadigan talablarini bilmaslik;
- muayyan kasbning tabiatи va mehnat sharoitlari haqidagi eskirgan fikrlar.

Kasb-shaxsnинг bir xil mehnat faoliyati bilan shug’ullanuvchi ma’lum bir toifaga mansubligini ko’rsatuvchi ijtimoiy xususiyatdir. Mehnat faoliyati kasbiy hisoblanadi, agar kamida ikkita shart bajarilsa:

Birinchidan, kasb talab qilinadigan malaka darajasi, ya’ni mahorat, ko’nikma, bilim va ko’nikmalar mavjudligi bilan tavsiflanadi, bu deyarli har doim kasbiy ta’lim to’g’risidagi maxsus hujjatlar: diplomlar, sertifikatlar, attestatsiyalar, sertifikatlar bilan tasdiqlanadi.

Ikkinchidan, kasb mehnat bozorida sotilishi mumkin bo’lgan tovar turidir. Bundan tashqari, ish beruvchilar to’lashga tayyor bo’lgan talabga ega bo’lgan mahsulot. Ya’ni, kasb egasi uchun daromad manbai ham hisoblanadi. Kasb-hunarga yo’naltirishdan maqsad o’sib kelayotgan yosh avlodni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdir. Ularni kasb hunarga yo’naltirish orqali, bo’lajak kasbiy qarorlarni shakillantirish, kasbni erkin va mustaqil tanlashlari uchun kasb – hunarga yo’naltirish ishlariga mustahkam zamin yaratuvchi ilmiy-amaliy tizim sifatida qarash lozim. Bu tizim orqali har bir o’quvchi shaxsini kasbga yo’naltirishda individual xusuyatlarni ham xalq xo’jaligi manfaatlari nuqtai nazardan mehnat reurslarini to’laqonli ta’minalash zaruratin hisobga olish kerak. Lekin bugungi kunda umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilarni kasbga yo’naltirishning ilmiy amaliy tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan, ilmiy pedagogic asoslari talab darajasida yaratilmagan. Bundan tashqari hozirgi kun talablari asosidagi tezkor yangiliklar, zamonaviy texnologik o’quv qo’llanmalar, dars ishlanmalari, ko’rgazmali vositalarning kamligi, kasb tanlash mezon va me’yorining belgilanganligi, kasb tanlash bo’yicha tezkor aloqning o’rnatilmaganligi kabi muammolar dolzarb masalardan birdir. Kasb tanlash uchun o’quvchi o’z imkonoyatlarini baxolay olish ko’nikmasiga, ya’ni qiziqishi mos kasblar bo’yicha ma’lumotga ega bo’lishi, bu kasblarning imkoniyatlari, kelajagi haqida axbort va yangiliklardan habrdor bo’lishi zarur. Ushbu talablaardan kelib chiqqan holda, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2003 yil 29 oktabrda “Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb – hunar ta’limiga izgil o’tishni ta’minalashga doir qo’shimcha chora tadbirlari to’grisida” gi 473-sonli hamda Prezidentimiz I.A. Karimovning 2006 yil 27 iyuldagagi “Umum ta’lim maktablari bitiruvchilarini akademik litsey va kasb-hunar kollejlariда ta’lim olishlarini kengaytirish choralarini to’grisida” gi PQ-427-sonli qarorlari uzlucksiz ta’lim tizimida maktab bitiruvchilarining o’z kasbiy qiziqish va layoqatlari asosida ta’limning keyingi turi va bosqichlariga jalb qilinishi, o’zining tayyorlov yo’nalishlariga to’g’ri va samarali yo’naltirishning muhim masalasi sifatida qabul qilindi. Mazkur hujjatlar mazmunida qayd etilganidek “umumta’lim maktablarida o’quvchi yoshlarni kasb – hunarga yo’naltirish bu ularni qiziqishlari va moyilliklari, layoqatlari hamda qobilyatlariga mos holda kasb-hunar tanlashlariga ko’maklashish bilan bir qatorda o’smirlarni kasbiy o’zligini anglash va hayot yo’lini tanlashda maslaxat beruvchi omil” sifatida qaralishi nazarda tutilgan. Hukumat qaroralarining ijrosini ta’minalash yuzasidan o’quvchilarning kasbiy qiziqishi va layoqatini shakillantirishda, ularni ta’limning keying turiga to’gri jalb qilish uchun kasbga yo’naltirishda qo’llaniladigan o’quv-metodik qo’llanmalar, ilmiy – uslubiy tavsiyalar, me’yoriy hujjatlar, jamiyatda qadimdan mavjud bo’lgan hamda yangilanib, o’zgarib borayotgan kasblar haqidagi ma’lumotlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga zamon bilan hamnafas yetkazish samaradorligiga bog’liqdir. Shu bois ayni vaqtida O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining o’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirish tizimida tashkil etilgan huquqiy me’yoriy hujjatlar mazmunini yanada takomillashtirish vazifalarini hal etishi borasida bir qator ilmiy-amaliy yangiliklar amalga oshirilmoqda. Jumladan, umumta’lim maktablari o’quvchilarning qiziqishlari va maylliklari, tug’ma layoqatlari hamda qobilyatlarini aniqlash borasida “O’quvchilarni kasb-hunarga yo’naltirishda qo’llaniladigan psixologik-pedagogik tashxis metodikalari”ning yangi taxrirdagi majmuasi yaratildi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish va Vazrlar maxkamasining 2004 yil 9 iyuldagagi “2004-2009 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora



tadbirlari to'g'risida"gi 321-tonli qaroriga asosan o'quvchilarni kasb –hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlari samaradorligini oshirish, ularni psixalogik-pedagogik tashxis qilishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab-chiqarish, amalga tadbiq etish maqsadida xalq ta'limi vazirligining 2006 yil 17-martda "O'quvchilarni kasb- hunarga yo'naltirish va psixalogik –pedagogik Respublika tashxiz markazining tashkiliy va metodik asoslarini takomillashtirish to'g'risida"gi 60-tonli buyrug'i asosida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning zamon talablari darajasida, ilmiy-metodik kengashi, o'quv-me'yoriy xujjatlarning yangi tahriri ishlab chiqildai. Shuningdek, o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini samarali tashkil etishda, ushbu jarayonni ta'lim muassasalarida amalga oshiruvchi o'qituvchilar, pedagog hodimlar hamda aholi o'rtasida(mahalla, ota-onalar) profilaktika ishlarini olib borish maqsadida hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Bularning zamirida o'quvchi yoshlarni kasbiy qobilyati va layoqatini aniqlash asosida ularni kasbiy qarorlarini shakillantirishga qaratilgan yaxlit faoliyat jarayonida ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'g'ri yo'naltirish yotadi.¹ O'quvchilarni kasbiy qarorlarini shakillantirish-bu o'quvchi-yoshlarga o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni amalyotga malakali mutaxassislar ko'magida kasbga bo'lган layoqatiga ishonch hosil qilish, kasbiy vazifalarni qo'llay olish tajribasini hosil qilish, kasbiy madaniyat sifatlari (kasbiy idrok, kasbiy bilimdonlik, kasbiy tafakkur, kasbiy salohiyat va hakozalar)ni tarbiyalashga yo'naltirilgan izchil, tizimli, uzuksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etiladigan pedagogik faoliyat jarayonidir. Chunki, o'quvchilarni kasb hunarga to'g'ri yo'nalganligini tashkil etish murakkab, uzoq muddatli dialektik jarayon bo'lib, uning metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi ko'zlangan maqsadga erishish muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Mavjud obektiv va subektiv omillardan unumli fayadolana olish ham o'quvchilarga kasb-hunarni to'g'ri tanlashlariga hissa qo'shamdi. Bundan tashqari uzuksiz ta'lim tizimini joriy etilishiga yangi akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning ishga tushirilishi natijasida umumiyoq o'rta ta'lim maktabalarining 11-yillik ta'limga o'tishga bitiruvchilarni ta'limning keyingi turi va bosqichiga to'liq qamrab olish samaradorligini ta'minlash mazkur jarayonlarni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror topdirish ta'lim islohatlari doirasida dolzarb masala sifatida qo'yilmoqda. O'quvchi-yoshlar o'rtasida kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuv o'z mohiyatiga ko'ra tehnologik bo'lismi lozim. Chunki muayyan faoliyatga nisbatan texnologik yondashuv ushbu faoliyatning yaxlit jarayoni to'g'risida oldindan to'laqonli ma'lumotga ega bo'lismi imloniyatini beradi. Minglab kasblar olamidan o'quvchi tanlagan kasbiy qarori bo'yicha turli vaziyatlarni oqilona baholash asosida faoliyat mazmuniga ma'lum o'zgarishlar, yangiliklar kiritib, tarbiyalanuvchilarga mavjud bo'lган kasbiy sifatlari hisobga olish va ularni boyitish xususida qat'iy fikrga ega bo'lismi, kasb-hunarga yo'nalganligini samaradorligini muhim omillari bo'la oladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning faqarolarining aqliy jihatdan yetukligi va axloqiy salohiytining yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Asrlar davomida saqlanib kelinayotgan xalqning boy intellektual merosi hamda umuminsoniy qadriyatlarni asosida madaniyat, ma'rifat, fan-texnologiya va iqtisodiyotning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakillantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Shu jumladan ta'lim, ilm-fan sohasida ham bir qator o'zgarishlar kiritilmoqda. Bu o'zgartirishlar bevosita kelajak avlodning barkamol shaxs bo'lib yetishishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПҚ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакатлар стратегияси тўғрисида”

2. Sharipov Sh.Sh, Davlatov K, Nasriddinova G.S.Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari o'quv qo'llanma Toshkent-2007 120-b

3. Ergasheva G.S., Karimova N.A. Biologiya darslarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirib o'qitish metodikasi / o'quv qo'llanma/. – Toshkent: "Innovatsiya-Ziyo", 2021, 124 b.

4. Пряжникова Е.Ю. Профориентация / Е.Ю.Пряжникова, Н.С. Пряжников - М.: 2005. – 494с.

1 Vazirlar maxkamasining 2004 yil 9 iyuldagagi "2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlanterish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora tadbirleri to'g'risida"gi 321-tonli qarori.



BOSHLANG'ICH SINFDA DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI O'QUVCHILAR
TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH

Egamyarova Zumrad Matqurbanovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
6-son mактабning boshlang'ich ta'lif fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur ko'nikmalarni shakllantirish va ularda faol fikrlash imkoniyatlarini rivojlantirish, ta'lif sifatini oshirish yoritib berilgan.

O'zbekiston uchun bugungi kunda iqtidorli va iste'dodli yoshlarni maqsadli tayyorlab, jahon mehnat bozori talablariga javob beruvchi, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish eng muhim vazifalardan sanaladi. Chunki har bir davlatning taraqqiyotini uning ijtimoiy - iqtisodiy ravnaqi hamda kelajagini ta'minlovchi asosiy omil - uning intelektual potensialidir.

Ma'lumki, iqtidorli bolalar alohida xususiyatlari bilan tengdoshlaridan ajralib turadilar. Ularga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlar quyidagilardir:

- 1) Nodir qobiliyatlarini namoyon eta olish;
- 2) Yuksak natijalarni qo'lga kiritish imkoniyatlariga egalik;
- 3) Bir yoki bir necha yo'naliшlarda muayyan natijalarni qo'lga kiritganlik.

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularni faollashtirish muammosini hal etish o'qituvchilardan izlanuvchanlik va tashabbuskorlikni talab etadi.

So'nggi vaqtarda o'quvchilarni faollashtirishga yo'naltirishda o'yin darslari yuqori samara berishi kuzatilmoqda. Quyida birinchi sinf matematika darsining "7 soni" mavzusini o'tishda "7 sonining sir-sinoati" deb nomlanuvchi didaktik o'yinni e'tiboringizga havola etmoqchimiz.

O'yinning borishi quyidagicha:

Yettita karton bo'laklari tayyorlanib olinadi. Uning birinchisida "Haftaning 7 kuni", ikkinchisida "Kamalakning 7 rangi", uchinchisida "Buxoroning 7 piri", to'rtinchisida "7 xazina", beshinchisida "Dunyoning 7 mo'jizasi", oltinchisida "7 sayyora", yettinchisida "7 nota" deb yoziladi. Ular doskada osig'liq turgan holda har biriga alohida izoh berib chiqiladi.

Haftaning yetti kundan iborat ekanligi, yer yuzining yetti iqlimga bo'linishi bizga qadimdan ma'lum. Misr piramidalari ham yetti mo'jizaning biridir. Notamiz ham yettita. Shu yettita nota yordamida yuzaga keladigan kuy insonni larzaga solishi mumkin. Kamalak ranglari jilosi ham asosan ko'rindigan yetti xil rangdan iborat bo'ladi. «7 raqaming sir-sinoati» haqida o'qituvchi o'quvchilarga ana shunday ma'lumot beradi. O'qituvchining o'quvchilarga bergen bu ma'lumotlari ularning og'zaki nutqini boyitishga, ongini o'stirishga, yangiliklardan xabardor qilishga o'rgatadi.

O'quvchilar bilimini mustahkamlash va tekshirish maqsadida test topshiriqlari beriladi. Uni o'quvchiga qay tarzda taqdim etish har bir o'qituvchining izlanishi va iqtidoriga bog'liq. Quyida beriladigan testning javobini topish uchun o'quvchilarga geometrik shakllar tushurilgan kartonlar berib chiqiladi. U quyidagicha tayyorlanadi. Uchta aylana shakl qirqib olinadi va hammasining rangi bir xil rangga bo'yaladi. Birinchi aylana shaklga kichikroq bo'lakda boshqa xil rangdagi aylana qirqib olib yopishtiriladi, ikkinchi aylana shaklga boshqa rangdagi to'rtburchak shakli qirqib yopishtiriladi, uchinchi aylana shaklga boshqa rangdagi uchburchak shakl qirqib yopishtiriladi. Aylanalarning ustiga yopishtirilgan aylana, to'rtburchak va uchburchak shakllarining ranglari bir-biridan farq qiladi. Bu uch xil kartondan har bir o'quvchiga berib chiqiladi. «A» javob uchun aylana shakl, «B» javob uchun to'rtburchak shakl, «C» javob uchun uchburchak shakl ko'rsatiladi.

Bu test topshiriqlari javobini topishda o'quvchining o'zi mustaqil ravishda harakat qiladi. Geometrik shakllar haqidagi tasavvurlari yanada boyitiladi. Qisqa muddat davomida o'qituvchi barcha o'quvchilar bilimini baholashga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, farzandlarga ta'lif - tarbiya berishda kasbiy, shaxsiy sifatlarini yuksak mahorat bilan ishga solayotgan fidoyi, mehnatkash, ijodkor ustozlar darslarini mazmunan boy, yangicha fikrlashga o'rgatadigan o'yinli vositalar bilan tashkil etar ekan, endigina mакtab quchog'iga kelgan o'quvchi birinchi kundanoq bilim olishga mehr qo'yadi va iqtidorli o'quvchilar soni ko'payib boradi.

Adabiyotlar:

1. Syelyevko G.K. Sovryemyenniye obrazovatyelniye texnologii: Uchyebnoye posobiye. - M.: Narodnoye obrazovaniye, 1998.
2. Tolibov U., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbikiy asoslari. - Toshkent, 2006.



BOLA PSIXOLOGIYASINI O'RGANISH-PEDAGOGIK MAHORAT!

Elmurodova Adolat Asadovna

Buxoro viloyati Jondor tumani
29-umumi o'rta ta'lif maktabi o'qituvchisi

Telefon:+998(94)123-45-52
yulduzrazzoqova@267gmail.com

Annotatsiya: Pedagogik dars jarayonida bola psixoligiyasiga qarab ishslash dars samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Bu borada turli xil mashqlar, treninglardan foydalanish pedagog va bola o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: Pedagog, trening, integratsiya, bola, psixologiya, ta'lif-tarbiya, motiv, psixodiagnostik tadqiqotlar, mashq, qushcha, intellekt, autorelaksatsiya, dengiz, to'lqin, shodlik, jahil, qo'rquv, xotirjamlik, "Zehn matni".

Har bir bola bir dunyo sanaladi. Chunki, har bir insonning o'z meni, o'z tasavvurlari, o'z nuqtai-nazari, o'z mayllari, o'z xohish-istiklari bo'ladi. Bu xususiyatlar insonlarda o'xshash bo'lsada, lekin 100% hech qachon takrorlanmaydi. Shunday ekan, pedagog, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda har bir o'quvchining psixologiyasiga qarab, ularga ta'lif-tarbiya berish bu jarayonning samaradorligini oshishiga katta yordam beradi. Pedagog o'quvchilar bilan bevosita muloqot jarayonida, ular xulq-atvorining motivlarini, hissiy-shaxsiy xususiyatlarini tahlil qilish orqali ko'nigmalar shakllantiradi. Lekin pedagoglar bolalar psixologiyasi bo'yicha bilimlarni juda kam qo'llaydilar, asosan o'quvchilar o'zlashtirmaganlarida, taraqqiyotdan chetlashish yoxud bu-zilishlar sodir bo'lgandagina foydalanishga harakat qiladilar. Aslida o'qituvchi bolalar bilan ish-lashda doimiy ravishda ularning ichki dunyosini kuzatib, tahlil qilib, psixodiagnostik tadqiqotlar olib borishi shart. Shundagina ta'lif va tarbiyada yetarlicha maqsadga erishish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda turli xil mashqlar, usullar bilan bolalarning psixologiyasini o'rganib, tahlil qilib, shunga qarab yondashsa bo'ladi. Bundan tashqari, dars jarayonining samarali yakun topishi uchun har xil psixologik treninglar o'tkazish mumkin. Darslarda bunday usullarni qo'llash o'qituvchini o'quvchilarni ichki olamini yaxshiroq bilib olishga, ularni tushunishga va shunga qarab ularga qanday munosabatda bo'lishga yordam bersa, o'quvchilarni esa zerikishini pasayishiga, darsga bo'lgan qiziqishini oshishiga yordam beradi. Quyida shunday misollarni ko'rib chiqamiz. Shulardan pedagoglar ta'lif-tarbiya jarayonida foydalansa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

"Qushcha" ertagi

Ertakdan maqsad—bolaning ota-onalariga yoki ulardan birortasiga bog'liqligini aniqlash.

Daraxtdagi inida mittigina qushchalar shiringina uylab yotishardi. Shunda kuchli shamol turdi. Qushchalarning ini turgan daraxt shoxi esa shamol kuchiga chidolmasdan sinib tushdi. In esa yerga dumalab tushdi. Qushchalar chirqillab, atroflariga qarashsa, issiqqina inlarida emas, yerda yotishibdi. Dadasi uchib kelib bir shoxga qo'ndi. Onasi esa boshqa bir shoxga qo'nibdi. Qushcha esa hayron. U endi nima qiladi?

Javob variantlari:

- "U uchib borib boshqa shoxga qo'nadi";
- "Onasining oldiga uchib boradi, chunki u qo'rqib ketdiku";
- "Otasining oldiga uchib boradi, chunki u kuchli!";
- "U yerda qoladi, chunki u hali uchishni bilmaydi, otasini (onasini) chaqirsa, ular unga yordamga uchib kelishadi".

Qanday javobni patologik, jiddiy e'tibor loyiq deb hisoblasa bo'ladi?

- "Ucholmaydi, shuning uchun yerda qoladi";
- "Uchishga harakat qiladi, lekin hech narsa chiqmaydi";
- "Shamolda yiqilib tushib halok bo'ladi";
- "Ochlikdan halok bo'ladi (yoki yomg'irdan, sovuqdan...)"
- "Uni hech kim eslamaydi va uni biron hayvon yeb qo'yadi" va shu kabilar.

Ijobiy javoblar esa bolaning mustaqilligi va o'zi qarorlar qabul qila olishidan, o'z kuchiga ishonishidan darak beradi. Salbiy javoblar esa aksincha. Bunday bolalar boshqalarga, ayniqsa ota-onalariga bog'liq bo'ladi. Bunday bolalar mustaqil fikrlariga ega bo'lmaydilar. Bolani onasiga yuqori darajada bog'liqligi ozgina ranjisa ham g'amxo'rlik qiluvchi onalarning farzandlarida ku-



zatiladi. Bunga bola juda tez o'rganib qoladi va boshqa holatlarda ham g'amxo'rlik qilishni talab qilaveradi. Bu holat keyinchalik ham o'z ta'sirini ko'rsatadi, bola ulg'aygach ham onasidan yordam kutaveradigan bo'lib qoladi. Agar yaqinlari tomonidan bolaga ishonch bildirilsa va mustaqil bo'lishiga qo'yib berilsa, u bunga erishadi.

“Dengizda sayohat” psixologik mashqi

Mashq maqsadi-o'quvchilardagi “Jismoniy harakatlardagi” faol zo'riqish, jismoniy, intellektualdan keyin autorelaksatsiya o'tkazish, bu o'z navbatida shaxs o'zini erkin his qilishi, mustaqil fikrashi va ijobjiy tasavvurlarning shakllanishiga yordam beradi. Bu mashqni pedagog o'quvchi-larga beriladigan savollardan boshlaydi.

- Bolalar siz mo”jizaga ishonasizmi?
- Orzu qilishni yaxshi ko'rasizmi?
- Hozir men bilan birga dengiz bo'ylab ajoyib sayohatga borishni xohlaysizmi?

Bolalar mo'jizalar ro'y berishi uchun meni diqqat bilan tinglab, aytganlarimni bajarishingiz kerak. Ko'zlariningizni yumib, men aytgan sehrli so'zlarni takrorlang: “Atrofingda aylanib, dengizda bo'lib qolgin”. Ko'zlariningizni oching. Mana biz sizlar bilan dengizda bo'lib qoldik. Qarang, atrof qanday go'zal. Dengiz esa iliq, tinch va maftunkor. Dengizda to'lqinlar bo'lishini bilasiz. Ba'zan dengizga mehmonga shamol kelib, to'lqinlar bilan o'ynashni yaxshi ko'radi. Ular shunday o'ynaydilarki, turli xil sehrli shakllarni ko'rish mumkin. Siz ham ularni ko'rishni hohlaysizmi? Kelinglar, sizlar bilan hozir ulkan dengiz bo'lamiz. Aytgan so'zlarimni takrorlaysiz va “dengiz shakli joyingda qotgin” deganimda, shaklni men aytgan kayfiyatda ko'rsatasiz.

1-O'yin, “Dengizda to'lqinlar o'ynaydi bir, ...” dengiz shakli “Shodlik” joyingda qotgin.

2-O'yin, “Dengizda to'lqinlar o'ynaydi bir, ...” dengiz shakli “Jahl” joyingda qotgin.

3-O'yin, “Dengizda to'lqinlar o'ynaydi bir, ...” dengiz shakli “Qo'rquv” joyingda qotgin.

4-O'yin, “Dengizda to'lqinlar o'ynaydi bir, ...” dengiz shakli “Xotirjamlik” joyingda qotgin.

Juda yaxshi. Rahmat. To'lqinlar bolalar bilan o'ynashni ham xush ko'radilar. Ular tanangizni erkalab ta'sir qilishlari juda yoqimli.

“Zehn matni” usuli

Bu usul darslikda berilgan matn bilan o'quvchilar tanishib bo'lgach zehnini sinash uchun, yoki uyga vazifa sifatida berilgan matnni mustahkamlash uchun qo'llaniladi.

Buning uchun o'quvchilarga matn yozilgan qog'oz tarqatiladi. Matn ichidagi ayrim so'z va raqamlar o'zgartirib qo'yiladi. O'quvchilar esa ana shu xatolikni topib, matn tagida berilgan jadvalga joylaydilar.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, FTT davrida inson onggi atrof-muhitdan barcha axborotlarni juda katta tezlik bilan qabul qilmoqda. Shunday ekan, zamon bilan hamnafas bo'lish uchun bola psixologiyasini o'rganish, pedagogi va o'quvchilarni bir-birlarini tezroq anglab olishlariga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Z.Nishanova, Z.Qurbanova, S.Abdiyev “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya”, Toshkent - 2011
2. O.Yo'ldosheva “Insonni o'rganish ilmi”, “Yangi asr avlod”i - 2016
3. Internet saytlari.



**KIMYO DARSLARIDA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA
VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

Ergasheva Irodaxon Abdumalikovna

Farg‘ona viloyati O’zbekiston tumani
37-umumiy o‘rta ta’lim maktabi kimyo fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot-kommunikatsion texnologiya (AKT) vositalari yordamida mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: mashg‘ulot, AKT, vosita, tanlov, olimpiada, intellektuallik, qobiliyat, imkoniyat.

Mamlakatimizda va xorijda uzuluksiz ta’limning yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Bunda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, o‘qitishni tashkil qilishda innovatsion yondashishni rivojlantiruvchi va barcha ta’lim jarayonlarini modernizatsiya qilish kuchi sifatida qaralmoqda. Hozirgi kungacha elektron qo’llanmalardan foydalanish metodikalari bo‘yicha o‘zbek tilida bajarilgan ishlar yetarli emas. Ba’zi ishlab chiqilgan elektron versiyalarda ham animatsiyalar kam, ko’p mavzular matn shaklida berilgan. Mavzudagi ob’ektlar ko’p hollarda rasmlar holida keltirilgan. Kimyo fanini o‘qitishda o‘quvchilarda tasavvurni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimining barpo etilishi, o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy qilish bilan chambarchas bog’liq. Bu ayniqsa axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o‘qitishning yangi shakl va vositalariga taalluqlidir. Bular qatoriga elektron ta’lim beruvchi vositalarni faol qo’llashni taqozo etadigan elektron o‘qitishni kiritish mumkin. Shu bois bugun bo’lajak o‘qituvchilarga faqatgina tayyor elektron qo’llanmalardan foydalanishni o‘rgatish bilan cheklanmay, balki ularning yangi ko’rinishlarini yaratish usullari, yo’llari va vositalarini o‘rgatish ham muhim tadbirdan hisoblanadi.

Kimyoni o‘rganishda axborot-kommunikatsion vositalaridan foydalanish samaradorligini o‘rganishga bag’ishlangan ishlar juda kam. Bor manbalarda o‘quv tarbiyaviy jarayondagi imkoniyatlari yetarlichato’liq ochib berilmagan. Kimyo kursini, xususan, kimyoviy elementlarning “Davriy qonuni va davriy jadvali” bo’limni yangi metodlardan foydalanib, kompyuter texnologiyasi bilan birga o’tish dasturlari ishlab chiqarilmagan. Kimyo o‘quv predmetini elektron qo’llanmalardan foydalanib o‘qitish va umuman mavzu yuzasidan elektron qo’llanmalar bo‘yicha qator maqola va internet saytlari mavjud. Bu borada xorijda yaratilgan P.A. Freshneyning “Education Periodic Table” elektron qo’llanmasi kimyoviy elementlar davriy jadvali elektron ko’rinishda bo’lib, har bir kimyoviy elementning qachon va kim tomonidan kashf qilingani, ularning tabiatda ko’rinishi, ularning birikmalari, xossalari, dunyo xaritasida elementlarning joylashgan o’rni, element atomlarning fazoviy tuzilishining harakatli holati to’liq ma’lumot olish imkonini beradi.

Kimyo fani sohasida kompyuterdan foydalanish — mavzular bayoni tasvirlardagi animatsion harakatlar, tabiatdagi ko’z bilan ko’rish imkonini bo’limgan kimyoviy jarayonlarni o’ziga xos tarzda namoyish etish juda katta amaliy ahamiyatga ega ekanligi ko’plab tadqiqotchi olimlar tomonidan isbotlab berilgan. O‘quv mashg‘uloti davomidagi faol faoliyat asosan talaba va o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladi. Buning uchun ular orasidagi o’zaro bog’liqlik, ko’p hollarda dars jarayonida qo’llaniladigan metodik qo’llanmalar vositasida tashkil etiladi. Ayniqsa, kimyo faniga endigma qadam qo’yayotgan o‘quvchilarga didaktik o’yinlarni o’zida mujassam etgan noan’anaviy mashg‘ulotlar, texnik vositalar bilan tashkil etilgan dars jarayonining o’ziyoq “ajoyib” tuyuladi. Darslarda o‘quv texnik vositalardan foydalanish ayni paytda darslarni samarali, faol tarzda tashkil etishda, o‘quvchining diqqat e’tiborini jalb etish kabi kutilgan natijalarni bermoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ishslash orqali amalga oshiriladi: - tayyor raqamli ta’lim resurslaridan foydalangan holda multimedya darslarini o’tkazish (multimedia texnologiyalari axborotni taqdim etishning bir necha usullarini birlashtiradi: matn, harakatsiz tasvirlar, harakatlanuvchi tasvirlar va ovoz interaktiv mahsulotga. Media vositalari sezilarli idrok barcha yo’llarini faollashtirish orqali o‘quv materiallar boyitish imkonini beradi);

- “virtual laboratoriya” dan foydalanish (olingan natijalarni bat afsil tahlil qilish bilan bir nechta murakkab kimyoviy eksperimentlarni o’tkazish texnologiyasi); - elektron ta’lim testlarini qo’llash (o‘quv testlarining tuzilishi o‘quvchiga amalga oshirilgan o‘quv harakatlariga muqobil muqobil to’plamlarni izchil taqdim etishni nazarda tutadi, bu oxir-oqibatda hal qiluvchi ahamiyatga



ega bo'lgan ketmasetlikni yaratadi vazifalar, talaba o'zi uchun o'quv materialining muayyan darajasini shakllantiradi va ayni paytda uni o'qituvchiga namoyish etadi; -test tayyorlash dasturlari yordamida test nazorati, shuningdek kimyo fanidan talabalar uchun onlayn test sinovi; - o'z presentatsiyalaringizni, videofilmlarni yaratish

Shunday qilib, dastur axborot-kommunikatsiya texnologiyalari elementlari o'qituvchiga yordam berishda, yangi materiallar bilan boyitishda davom etmoqda ta'lim jarayoni boshqa texnologiyalar bilan birgalikda samarali va samarali. Bu tez orada uning mevasini beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari: Avtoref.dis. ... ped.fan.nomzodi. Toshkent. 2011. - 24b.

2. Umonqulov G'. "D.I.Mendeleyev kimyoviy elementlar davriy sistemasi" elektron qo'llanmasi.

3. Xolmatova L. Kimyo darslarini yangi pedagogik texnologiya asosida tashkil etish. Xalq ta'limi 2007. №5.- 81-83 b.

Zaylobov L.T, Rahmatullaev N.G, Toshpo'latov Y.T. Kimyoni o'qitishda axborot texnologiyasidan foydalanish. XVIII. ULUSAL KIMYA kongresi, Turkiya, Kars 2004, 741. - 1209 b.



**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING OG‘ZAKI VA YOZMA NUTQINI
O‘STIRISH USULLARI**

Ergashova Zilola.

Sirdaryo viloyati Sardoba tumani
4-umumiy órta ta’lim məktəbinin
Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

ANNOTASIYA: Bugungi kunda yosh avlodning barkamol, yetuk, salohiyatli insonlar bo‘lib kamolga yetishi uchun ona tilining barcha boyliklaridan, uning imkoniyatlaridan foydalanish zarurligi va Nutq haqida fikrlar keltirilgan

KALIT SO‘ZLAR: nutq, ovoz tembri, orforfafik o‘yinlar, morfologik o‘yinlar

Nutq – kishi faoliyatining turi, til vositalari (so‘z, so‘z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir . Nutq o‘zaro aloqa va xabar , o‘z fikrini his - hayajon bilan ifodalash va boshqalarga ta’sir etish vazifasini bajaradi.Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. O‘quvchi uchun esa nutq maktabd a muvaffaqiyatlari ta’lim olish qurolidir.Nutq fikrni bayon etish vositasi bo‘libgina qolmay , uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o‘stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash aso sidagina nutqni muvaffaqiyatlari o‘stirish mumkin . Shuning uchun o‘quvchilar nutqini o‘stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash , joylashtirish va mantiqiy operatsiyalarga katta ahamiyat beriladi.O‘quvchilar nutqini o‘ stirish boshqa o‘quv predmetlaridan o‘tkaziladi -gan mashg‘ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog‘lanadi. Ona tili darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni , o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari haqida to‘g‘ri bayon qilishni o‘rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari nutqi asosan ot, fe’l , sifat, son va bog‘lovchilardan iborat bo‘ladi. 6-7 yoshli bola o‘z jumlalarini murakkab grammatik tarkib asosida tuza oladi. Tajribadan ma’lumki , bola ma’nosiz so‘zlardan ko‘ra ma’nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega . Uning nutqi maktab ta’limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish , kishilarining fikrini uqib olish va to‘g‘ri idrok qilish darajasida , nutqning tuzilishi va grammatik qoidalariga mos , mantiqan izchil , ifodali , miqdor va ko‘lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo‘ladi. Boshlang‘ich ta’lim metodikasida yozma nutq og‘zaki nutqdan faqat uni amalgalashishga oshirish texnikasiga ko‘ra farqlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘rtasida o‘quvchini o‘qish va yozishga o‘rgatish uchun uning yozma nutqini shakllantirish yetarlidir, degan fikrlar mavjud.Og‘zaki nutqning o‘ziga xosligi nimada? Eng avvalo , og‘zaki nutq hamma vaqt so‘zlovchiga ma’lum ma’noda suhbатdosh bo‘lgan tinglovchilarga mo‘ljallanadi. Tinglovchilarning yuz-ko‘zida aks etgan hamdardlik , qiziqish yoki e’tiroz alomatlari orqali ularning so‘zlovchi nutqiga munosabatini bilish bu jonli aloqa so‘zlovchiga mazmunga o‘zgartirish kiritish , ovoz tembri va kuchini o‘ylab olish , bu o‘zgarishlar tinglovchilar munosabatiga qanday ta’sir etganini kuzatish imkonini beradi.Zamonaviy məktəbda o‘qituvchining jonli nutqiga texnik vositalar yordamga keladi. Ular nutq ifodaligini oshiradi, hissiy ta’sirini kuchaytiradi. O‘qituvchi nutqi bu holda go‘yo birlashtiruvchi bo‘lib qoladi: u kinokadr, musiqa, foto ishlanma bilan birga idrok etiladi. O‘qituvchi so‘zi alohida tasviriy- ifodaviy sifatlarini ham aks ettiradi. Toki og‘zaki nutq uni idrok etish jarayonida zudlik bilan tushunishni talab qilar ekan ,o‘ziga xos leksikgrammatik xususiyat ham kasb etadi. Og‘zaki nutq-yorqin, shaklan obrazli ,ichki emotsiyalardan nutq .Shu bois , u til vositalari va uslubiy xususiyatlar xilma-xilligi bilan farq qiladi. Yozma nutq manbai o‘quvchining sinf oldidagi jamoaviy tinglovchiga mo‘ljallangan og‘zaki javoblaridir. Biroq, boshlang‘ich sinflarda shevalarni keng qo‘llanishi natijasida talab darajasidagi ixtisoslashgan o‘quv og‘zaki nutq madaniyatiga erishish ancha mushkul. Yozma nutq og‘zaki nutqdan bir qadar shakllanganligi , so‘zlearning o‘ta sinchkovlik bilan tanlab olinishi, grammatik jihatdan aniq ,lekin murakkab shakllanganligi, og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan ohang , mimika va qo‘l harakatlarining bevosita qo‘llana olmasligi bilan farqlanadi. Shuni ta’kidlash kerakki, məktəbda o‘qitishning dastlabki yillarda o‘quvchilarning og‘zaki nutqi ularning yozma nutqiga nisbatan to‘laroq shakllangan bo‘lib , o‘qitish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. O‘qish va yozish o‘quvchilar uchun o‘rganishning maxsus shakli bo‘lib qoladi. Keyinchalik esa



,ular o‘quvchilar uchun bilimlarni o‘zlashtirishda bir xil ahamiyat kasb etadi. Darsda o‘qilgan asarni o‘quvchilar ongli tushunishi , asosiy mazmuni va g‘oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash , umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalaniladi. O‘qilgan asarni analiz qilishning har xil usullari mavjud . Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni aytib o‘qituvchi rahbarligida asar rejasini tuzadilar. Qatnashuvchi shaxslarni o‘quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin, ammo o‘qituvchi ularni asarda qatnashish tartibida aytishni so‘raydi . Natijada hikoyaning chizmasi tuziladi. O‘qituvchi bergan savollar yordamida asarning mazmuni aniqlanadi. Asar mazmuni bilan birinchi tanishish o‘quvchilardan ongli ishslashni, ya’ni voqealarni , qatnashuvchilar tarkibini tahlil qilishni talab etadi. O‘qish bilan bog‘liq holda bajariladigan bunday mantiqiy ishlar asta – sekin murakkablasha boradi.Ko‘rgazmali idrok katta imkoniyatlarga ega. Eslab qolishda ko‘rgazmalilikning o‘zi emas, balki ularning nutq va amaliy faoliyat bilan biriktirilishi yuqori samaradorlikka olib keladi. Ta’limning ko‘rgazmali metodlarini ikki guruhgaga : illyustratsiya metodlari va namoyish qilish metodlariga ajratish mumkin. Darslardagi ko‘rgazma vositalari, tarqatma materiallar o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini, nutqiy muomlasini oshiradi. Orfografik ko‘nikmalar o‘quvchilarda asta- sekin shakllanib boradi. O‘quvchilar qoidalarni turli xil mashg‘ulotlar: ko‘chirib yozish , mashq ishslash, grammatik va orfografigik tahlillar orqali o‘zlashtirib oladi. Ushbu qoidalarni o‘zlashtirishda bolalarning ixtiyoriy diqqatini bir nuqtaga to‘plash talab qilinadi. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘yinlarni yaxshi ko‘rish bilan birga o‘yin orqali ba’zi orfografik qoidalarni juda tez o‘zlashtirib, uni uzoq vaqt esda saqlab qoladi.

1.Orfografik o‘yinlar : “To‘g‘ri yozdim,yulduz oldim” o‘yini, “Kim ko‘p baliq tutadi ?” o‘yini, “Qatorlashgan tovushlarni top ” o‘yini, “Qaysi tovush yetishmaydi?” o‘yini....

2. Morfologik o‘yinlar : “Begona so‘zni top ” o‘yini , „So‘zni o‘rnini top” kabi o‘yinlardan foydalanish mumkin.

Bunday o‘yinlar o‘quvchilarning fonetika va orfografiyaga oid qoidalarni o‘zlashtirib olishlariga samarali yordam beradi.Pedagog har bir darsni yangi pedagogik texnologiyaning interfaol usullaridan, qiziqarli o‘yinlardan foydalanib amalga oshirsa , o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi yanada kuchayadi. Buning natijasida o‘qituvchi ham oldiga qo‘ygan maqsadga oson erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. K.Qosimova ,Safo Matchonov Ona tili o‘qitish metodikasi Toshkent 2007
2. G‘ulomov A, Qobilova B Nutq o‘stirish mashg‘ulotlari- T “O‘qituvchi” 1995
3. Xalq ta’limi jurnali 2020-yil
4. Boshlang‘ich ta’lim jurnali 2020- yil



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Yerekeyeva Jenisxan Kaskirbayevna
Yeskabulova Elvira Abdisalimovna
Navoiy viloyati Tomdi tumani
1-IDUM boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda interaktiv metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: darvoza, interaktiv metodlar, Ishbop o‘yin, mustaqil fikrlash, nutq..

Hozirgi vaqtida ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta’lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

Bu metodlarni interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham atashadi.

Interfaol metodlar deganda ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta’lim jarayonining markazida ta’lim oluvchi bo‘lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo‘llanilganda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta’lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta’lim oluvchi markazda bo‘lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- ta’lim samarasini yuqoriroq bo‘lgan o‘qish-o‘rganish;
- ta’lim oluvchining yuqori darajada rag‘batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e’tiborga olinishi;
- o‘qish shiddatini ta’lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta’lim oluvchining tashabbuskorligi va mas’uliyatining qo‘llab-quvvatlanishi va amalda bajarish orqali o‘rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Ishbop o‘yin” metodi - berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomonidan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomonidan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat‘iy belgilangan va o‘yin davomida o‘zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o‘z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhi harakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o‘zining vazifasi bo‘yicha qaror qabul qiladi, so‘ngra guruhi bilan maslahatlashadi. O‘yin yakunida har bir ishtirokchi va guruhi erishgan natijalariga qarab baholanadi. Quyida “Ishbop o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.

“Ishbop o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo‘riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta’lim oluvchilarni o‘yining maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta’lim oluvchilarga vazifalarini taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollari bo‘yicha tayyorgarlik ko‘radilar.
5. Ta’lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o‘yinni amalga oshiradilar. Ta’lim beruvchi o‘yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o‘z vazifasini to‘g‘ri bajarishi, berilgan vaziyatda o‘zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko‘rsata olishi kerak.

“Ishbop o‘yin” metodining afzalliklari:



- ta’lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini o‘z qarashlari va hulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
- ta’lim oluvchining boshlang‘ich bilimlari va tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta’lim oluvchilar o‘z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratiladi.



“Darvoza” usuli. Bu usulda 2 nafar o‘quvchi qo‘llarini birlashtirib, darvoza shaklida turadi. Ularning orasida o‘quvchilar uchun tayyorlangan meva va sabzavotlarga tegishli rasmi yoki o‘yinchoq bo‘ladi. (**Masalan: anor, uzum, olma, shaftoli, nok, baqlajon, sabzi**). O‘qituvchi tomonidan ishtirokchilariga tarqatmalar berildi. So‘zlarni bo‘g‘inlarga to‘g‘ri ajrata bilish, so‘rog‘ini to‘g‘ri qo‘yish, unga egalik qo‘srimchalarini qo‘yib aytish topshirig‘i beriladi. Ularga to‘g‘ri javob bergen o‘quvchi darvozadan o‘tib, xohlagan meva yoki sabzavotni oladi va u qanday maza –tamga ega ekanini ham aytib o‘tadi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. 1995-yil.
2. Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.2001-yil.



BOSHLANG‘ICH SINF DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV USULLARI

Eskabulova Guljajna Xamitovna
Kostanbayeva Mariya Aldabergenovna
Navoiy viloyati Tomdi tumani 12-maktab
boslang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada boslang‘ich sinf darslarida kompetensiyaviy yondashuv usullari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Fikrlar hujumi, kompetentsiya, Tilshunos, tarixchi, boslang‘ich...

Ma’lumki, ko‘p yillar davomida an’anaviy dars o‘tish ta’limning asosiy shakllaridan biri bo‘lib keldi. An’anaviy darsda o‘qituvchi faol, o‘quvchi esa passiv ishtirokchiga aylanadi. Bu esa o‘quvchining mustaqil fikrashi, izlanuvchanlik qobiliyati rivojlanishiga to‘sinqlik qiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda bunday darslar yaxshi samara bermaydi. Bugungi davr talabi dars jarayonini noan’anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o‘quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlashni taqozo etadi.

Kompetentsiya — mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarini kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati bo‘lib, bunda o‘quvchilar mavzuni ko‘rish, eshitish va gapirib berish orqali egallaydilar.

Kompetensiyaviy yondashuv esa, o‘quvchilarning egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini ijtimoiy hayotda uchraydigan turli vaziyatlarda qo‘llay olishga o‘rgatishdan iborat.

“Fikrlar hujumi” metodi - biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir echimga kelinadigan metoddir. “**Fikrlar hujumi**” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “**Fikrlar hujumi**” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilari bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri va ijobjiy qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o‘rgatadi.

“**Fikrlar hujumi**” metodidan foydalilanilda ta’lim oluvchilarning barchasini jaib etish imkoniyati bo‘ladi, shu jumladan ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta’lim oluvchilar o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli g‘oyalari shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Fikrlar hujumi” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta’lim oluvchilarning boslang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda – yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

“Fikrlar hujumi” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;

2. Ta’lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;

3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;

4. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;

- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;



- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.

“Tilshunos” metodi. O‘quvchilar fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, estetik diddlarni, ijodkorlik ishtiyoqlarini shakllantiradigan o‘qitish usuli. Xonadagi stullar orqama-orqa qo‘yiladi.O‘quvchilar ham bir-birlariga orqa o‘girgan holda surat chizadilar. Alovida ko‘rinishidagi bu usulda birinchi o‘quvchi manzarani bayon qiladi, o‘rtog‘i esa uni suratga tushiradi. Diktant davomida o‘quvchilar almashadilar va surat chizib bo‘lingach, u tasvirlanadi.

“Tarixchi” usuli. Bunda oldindan o‘quvchilarga buyuk siymolar A.Temur, Jalolliddin Manguberdi (boshqa shoirlar, allomalar ham berilishi mumkin) hayoti, ijodi va faoliyati borasida chuqrur izlanib, ularga tavsif berishlari lozim.



«Besh daqiqa» o‘yini. Bu o‘yinni boshlang‘ich sinflarda xohlagan mavzuni o‘rganishda qo‘llash mumkin. O‘quvchilarni stol atrofida shunday joylashtirish kerakki, bir-birining nima yozayotganligini ko‘rmasin. O‘yinni o‘qituvchi yoki a’lochi o‘quvchi boshqarib borishi mumkin. U vazifani tanlaydi. O‘quvchi besh daqiqa ichida topshirilgan topshiriqni bajaradi. O‘quvchilar yozishni bir vaqtida tugatishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejallashtirish. T., “Iqtisodiyot”, 2012-yil
2. Internet saytlari: -ziyoNet .uz, kitob.uz, multimedya .uz



TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI

Fayziyeva Xadicha Mardonovna

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

3- IDUM jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Berdanova Sojida Sunnatilloyevna

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

3- IDUM kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lif sifat va samaradorligini oshirish o'qituvchi mahoratlari, bilimi yetarli bo'lishi va uni qo'llay olishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, mahorat, pedagog, texnologiya, jarayon, ta'lif, metod.

O'qituvchi pedagogik mahoratini oshirish uchun o'z - ustida ishlashi, tinmay izlanish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ish olib borishi lozim.

Pedagogik texnologiyada o'qituvchining metodik mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv - tarbiyaviy jarayonni ilmiy asosda qurish o'qitishning axborot vositalaridan va didaktik materiallardan, ta'lifning faol metodlaridan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi, o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

O'qituvchining pedagogik mahoratini doimiy oshirib borish va uni rivojlantirishda maktabdagagi metod birlashmalar hamda kabinetlarning xizmati katta. Metod birlashmalarda o'qituvchilar fikr almashadilar: o'zaro kuzatilgan darslar muhokama qilinadi. Yosh va tajribasiz o'qituvchilarga maslahatlar uyushtiriladi, ilg'or tajribalarni keng ommalashtiradilar.

Pedagogik ijodkorlik manbai — bu pedagogik tajriba muammoli vaziyat larga juda boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijodiy yondashishni, o'quvchilarning ta'lif tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishini tushunamiz.

Ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish vaqtini va usullari, uslub va vositalaridir. Ular vositasida o'quv — tarbiyaviy ishlarda eng yuqori natijalarga erishiladi. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv tarbiya jarayoniga sifatli o'zgarishlar kiritadi. O'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish, yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi.

Fan — texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishi, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, tadqiqot ishlariiga o'rgata olishini talab qiladi. SHuning uchun o'qituvchi avvalo tadqiqotchilik malakalarini egallashi zarur. O'qituvchi ilmiy tadqiqot ishlari olib borishi davomida omillarni to'playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. U fan xulosalaridan o'zining amaliy faoliyatida foydalanish jarayonida hozirgi zamon o'qituvchisi uchun zarur bo'lgan juda muhim fazilatlarni egallaydi.

Pedagogik mahoratni ilmiy - asosda tashkil etish mazmuni ancha keng tushuncha bo'lib, unga avvalo, xodimlarning malakasi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularni to'g'ri tanlash va joy - joyiga qo'yish, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda qo'llanilayotgan usullar tizimini uzluksiz takomillashtirish va ta'lif - tarbiya jarayoniga texnika vositalarini joriy etish masalalari kiradi.

Ta'lif metodlaridan foydalanishning samaradorligi va muvaffaqiyati ular o'quvchilar mustaqilligi va ijodiy faolligini rivojlantirishga qanchalik yordam berishiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchilarga mustaqillik ko'rsatish uchun sharoit yaratsa, o'quvchilar bilimlarini bamisol o'zlari olayotgandek tuyulsa, mazkur metod samarali bo'ladi.

Ta'lif metodlarida o'qituvchining qiyofasi, uning dunyoqarashi, uning psixologik - pedagogik, metodik va maxsus ilmiy tayyorgarligi namoyon bo'ladi. Xuddi ana shu omillar ta'lif metodlarini samaradorligini belgilaydi. Muayyan metod yaxshi tayyorgarligi bo'lgan o'qituvchida o'z afzalliklarini namoyon qilsa, tayyorgarligi zaif bo'lgan o'qituvchida shu metodning o'zi salbiy jihatlarini namoyon qiladi. SHu sababli ta'lif metodlari samaradorligini oshirish uchun o'qituvchining tayyorgarlik darajasi prinsipial ahamiyatga ega.

O'qituvchi ijodiy pedagogik faoliyati va o'quvchilar ijodiy faoliyatining ta'lif metodida o'z ma'lumoti, madaniyati, kasbiy tayyorgarligi darajasini qanchalik aks ettirishiga bog'liq. Bunda



ijodiyot uchun qancha imkoniyatlar bor.

Bilim faoliyati xususiyatlarini, uning ziddiyatlarini o'qituvchining anglab olish izlanish xarakteridagi o'quv vaziyatini shakllantirishi va ularni hal etish jarayonini boshqarish imkonini beradi. Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribasi ta'lif metodlarini takomillashtirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday tajribani umumlashtirish va yoyish o'quv jarayoni sifatini oshirishning muhim shartidir. O'qituvchilar mehnat faoliyati jarayonida o'z ishlaringin chinakam ustalariga aylanadilar. Sog'lom fikr yurituvchi har bir kishi mahoratlari tarbiyachi bo'la oladi, mahoratga tajriba hamda fikr yuritish orqali erishiladi.

Pedagogik faoliyatning nazariy asosiy kasbga oid bilimlardir. U faqatgina o'z predmetini emas, balki pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarini o'zlashtirishi va ularni muntazam to'ldirib borishi lozim. Ilmiy psixologik — pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchiga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'quvchilarini o'rganish va ularning to'g'ri tavsifnomasini tuzishgina emas, balki o'quvchilar jamoasi bilan va uning hap bir a'zosining rivojlanishi istiqbollarini ham belgilash imkonini beradi. O'qituvchi tarbiyachining amaliy faoliyati bu ko'plab pedagogik vazifalarni beto'xtov hal qilishdir. O'zining kasbga doir bilimlar to'plamidan ijodiy foydalangan o'qituvchiga ularni muvaffaqiyatli hal etishi mumkin.

Pedagogik odobini egallash o'qituvchidan o'z ustida puxta, o'ylab ishlashni talab qiladi. O'qituvchi o'z hatti - harakatini doimo nazarat qilishi, qarashi, ishorasi bilan o'quvchilar hatti - harakatiga o'z munosabatini bildira bilish kerak. Ya'ni pedagoglik odobi o'qituvchida o'z tuyg'ularini ifoda qilishning sof tashqi malakalari mavjud bo'lishini ham nazarda tutadi. Malakalarning bunday majmui pedagoglik mahoratning tarkibiy qismi bo'lib, u pedagoglik texnikasi deb ataladi. O'qituvchining pedagoglik mahorati, uning intellekti va madaniyatiga jiddiy e'tibor beriladi va bu o'rinda o'qituvchi o'z pedagoglik mahoratini, kasbga doir vazifalarni hal qilish qanchalik qo'llidan kelishini doimo tekshirib borishi, bola ongi hamda qalbiga eng yaxshi yo'llarni axtarishi talab etiladi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Azizzo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.
2. Avliyoqulov N. X. Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent -2008-y



KIMYO VA ONA TILI FANLARIDA - “KONSEPTUAL JADVAL” METODI

G‘ayipova Nafisa Baxtiyorovna

kimyo fani o‘qituvchisi

Xudayberganova Durdonha Bekchanbayevna

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Xonqa tumani 24-son maktab

Annotatsiya: Bu maqolada innovatsion usullarni qo’llashda dars o’qitilganda sinfda qoloq, mavzuni o’zlashtirmaydigan o’quvchini ham o’ziga jalb qilishi va darsni juda qiziqarli o’tishiga qaratilgan ma’lumotlar qamrab olgan.

Kalit so’zi: o’yin, o’quvchi, massa, kimyo, ona tili, metod, interfaol.

Interfaol inglizcha interact so’zidan olingen bo’lib, inter- hamkorlikda act - harakat qilmoq ma’nosini bildiradi. Interfaollik deganda, o’quvchining o’quvchi bilan hamkorlikda yoki kompyuter bilan muloqoti o’zaro ta’sir ko’rsatish rejimida ishlashi tushuniladi. Interfaol o’qitish - bu, avvalo, dialog tarzda o’qitish, muloqot jarayonida barcha ishtirokchilar tomonidan hamkorlikda muammolarni hal etilishidir. Interfaol o’qitishning asosiy mohiyati - o’qitish jarayonida barcha o’quvchilar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqeа va hodisalarning rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlami anglaydi, uni hal etish yo’llarini izlab, eng maqbul variantni tavsiya etadi. O’quv materialini o’rganish, muammoni hal etish bo’yicha turli variantdagи yechimni tavsiya etishga asoslangan bilish jarayonida o’quvchilaming hamkorligi har bir o’quvchiga, guruh muvaffaqiyati uchun o’z ulushini qo’shishga, ular o’rtasida fikr, axborot va tajriba almashinuviga zamin tayyorlaydi.

Ushbu hamkorlik samimiyl, qulay ijtimoiy psixologik, o’zaro yordam muhitida sodir bo’lgan Jigi uchun, o’quvchilar nafaqat yangi bilimlami o’zlashtiradilar, balki o’zining bilish faoliyatlarini rivojlantiradi, uni yuqori darajaga ko’tarib, hamkorlikka kirishishga imkon beradi. O’qitish jarayonida va interfaol usullarni qo’llash o’quvchilaming o’zaro muloqotga kirishishini tashkil etish va boshqarishni taqozo etadi, bunda o’quvchilar hamkorlikda izlanib umumiyl, shu bilan bir qatorda, har bir o’quvchi uchun ahamiyatga molik bo’lgan muammoni hal etishga kirishib ular o’rtasida bir-birini tushunish, hamkorlikda ishslash va hamjihatlik vujudga keladi.

“Konseptual jadval” metodi o’quvchilarda o’rganilayotgan mavzu, masala yoki muammoni uning ikki yoki undan ortiq jihatlari bo’yicha taqqoslashga o’rgatadi. Metoddan foydalanish jarayonida o’quvchilarning mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyati rivojlanadi. Mashg’ulotlar chog’ida metoddan foydalanish quyidagi tartibda kechadi:

- 1) o’qituvchi yechimi topilishi lozim bo’lgan masalani aniqlaydi;
- 2) o’quvchilar masala hamda metoddan foydalanish qoidasi bilan tanishtiriladilar;
- 3) o’quvchilar kichik guruhlarga biriktiriladilar;
- 4) guruuhlar o’zlariga berilgan topshiriqni baradilar;
- 5) guruuhlar o’z yechimlarini jamoa hukmiga havola etadilar;
- 6) guruuhlarning yechimlari jamoada muhokama qilinadi.

Ona tili va kimyo darslarida ham yuqorida sanab o’tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo’q”, “Ta’rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o’yinlardan foydalanish mumkin. O’yin vaqtida o’quvchilar o’zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o’quvchida ishonch, qat’iyat paydo bo’ladi. Munozaraga kirishishni o’rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o’quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Babanskiy Y.K. Metodi obucheniya v sovremennoy obsheobrazovatelnoy shkole. – Moskva: Prosvesheniye, 1985.
2. Lerner I.Y. Didakticheskiye osnovi metodov obucheniy. – Moskva: Pedagogika, 1981.
3. Pedagogika // Ucheb. posobiye dlya studentov pedagogicheskix vuzov i pedagogicheskix kolledjey. Pod red. P.I.Pidkasistogo. – Moskva: Pedagogicheskoye obshchestvo Rossii, 200.
4. Rijkov V.N. Didaktika. – Moskva: Yuniti-dana, 2004.



BIRINCHI SINFDA UNLI TOVUSHLARNI O'RGATISH

Gulnoza G'iyosova Nuraliyevna

Namangan viloyati Norin tuman

19-maktab boshlang'ich ta'lif fani o'qituvchisi

930552722. gulnozagiyosova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda unli tovushlarni o'rgatish uchun yetarlicha ma'lumotlar berilgan bo'lib boshlang'ich sinf o'qituvchilariga metodik qo'llanma sifatida foydalanish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: tovush, old qator, orqa qator, unlilar, talaffuz qilish, so'z, cho'ziq, til harakatu, harakat, gorizontal, lablangan, lablanmagan.

Har bir til o'zining unli tovushlar tizimiga ega. Bu tizim vokalizm deb ataladi. O'zbek tilidagi unli tovushlar (*a, i, o, u, o', e*) uch tomondan tasnif qilinadi:

1. Tilning gorizontal (yotiqlig) harakatiga ko'ra.

Og'iz bo'shlig'ida eng faol organ tildir. U unli tovushlarni talaffuz qilishda oldinga (tish yoki milkka tomon) va orqaga qarab harakat qiladi. Tilning bu harakati gorizontal harakat hisoblanadi. Shuning uchun unlilar tilning gorizontal harakatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi:

1) old qator unlilar: *a, e, i;* 2) orqa qator unlilar: *o, o', u.* 22

2. Tilning vertikal (tik) harakatiga ko'ra. Unli tovushlar talaffuzida tilning tanglayga tomon ko'tarilishi va tushishi vertikal harakatdir. Bu harakat tufayli og'izning ochilish darajasi har xil bo'ladi. Chunonchi, *i, u* unli tovushlarini hosil qilishda til tanglayga yaqin turadi, shuning uchun ham og'izning ochilish darajasi tor bo'ladi; aksincha, *a, o* tovushlarini hosil qilishda til tanglaydan ancha uzoqlashadi (quyida turadi), shuning uchun til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq keng bo'ladi; *e, o'* tovushlarini hosil qilishda esa til bilan tanglay o'rtasidagi oraliq o'rtacha (tor ham emas, keng ham emas) bo'ladi. Ko'rindiki, tilning vertikal harakati og'izning ochilish darajasini (tor, keng, o'rtalik keng) belgilaydi. SHuning uchun unlilar tilning vertikal harakati (yoki og'izning ochilish darajasi)ga ko'ra uch guruhga bo'linadi: 1) yuqori tor unlilar: *i, u;*

2) o'rtalik keng unlilar: *e, o'*. 3) quyidagi keng unlilar: *a, o.*

3. Lablarning ishtirokiga ko'ra. Unlilar talaffuzida lablarning roli ham kattadir. Ayrim unlilar talaffuzida lablar albatta qimirlaydi, ya'ni ular doira shaklini oladi, ayrimlarida esa nisbatan kam qimirlaydi. Shunga ko'ra unlilar ikki guruhga bo'linadi:

1) lablangan unlilar: *u, o', o;*

2) lablanmagan unlilar: *i, e, a.* Unli tovushlartasnifini quyidagi jaldvalda aks ettiris mumkin: Tilning gorizontalharakatigako'ra Lablarning ishtirokigako'ra Oldqator Orqaqator Tilning verticalharakatiga ko'ra Lablarning Lablangan *u* Yuqori tor unlilar Lablarning *e* Lablangan *o* O'rtalik (keng) unlilar Lablarning *a* Lablangan *o* Quyi (keng) unlilar

Ayrim unli tovushlar tavsifi *I* unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*ipak*), so'z o'rtasida (*tilak*) va so'z oxirida (*tulki*) keladi.
- 2) so'z ichida ikki jarangsiz undosh orasida nihoyatda qisqa aytildi: *bilan, sira.*
- 3) *k, g, x* undoshlaridan keyin kelganda orqa qator unli kabi aytildi: *qir, G'irot, oxir.*
- 4) cho'ziq varianti bor: *muhim, musiqa.*

5) *e* tovushiga moyil varianti bor: *mix-mex.*

U unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida (*urmoq*), so'z o'rtasida (*tugun*) va so'z oxirida (*urg'u*) keladi.
- 2) til oldi varianti ham uchraydi: *kuch, gul;*
- 3) *qulf, g'ulg'ula, tuxum* so'zlarida esa til orqa varianti qo'llangan. 23
- 4) *i* tovushi kabi kuchsizlanishi, ya'ni qisqarishi ham mumkin: *tuxum, bulbul, tutun* kabi. *E* unlisi quyidagicha tavsiflanadi:

- 1) so'z boshida, so'zning birinchi bo'g'inida keladi: *eshik, elak, e'tibor, kel, bet* kabi.
 - 2) jonli nutqda sheva ta'sirida *i* tovushiga moyillashadi: *deydi – diydi.*
 - 3) o'g'uz shevalarida *a* tovushiga o'tish holati ham mavjud: *eshik – ashik, deb – dab, kel – gal* kabi. Lekin adabiy tilda *e* tarzida talaffuz etiladi.
- A* unlisi quyidagicha tavsiflanadi:



- 1) so‘z boshida (*ari*), o‘rtasida (*daftar*) va so‘z oxirida (*qora*) keladi.
- 2) *q*, *x*, *g'* tovushlaridan keyin kelganda til orqaroq - orqa qator unlisi kabi talaffuz qilinadi: *g'azab*, *xabar*. 3) ba’zi so‘zlarda sheva ta’sirida *o* tovush kabi aytildi: *baho* – *boho*, *shavla* – *shovla*. Adabiy tilda *a* tarzida talaffuz etiladi. *O* unlisi quyidagicha tavsiflanadi:
 - 1) so‘z boshida (*olim*), o‘rtasida (*toza*) va so‘z oxirida (*bobo*) keladi.
 - O* unlisi quyidagicha tavsiflanadi:
 - 1) sodda so‘zlarning asosan birinchi bo‘g‘inida uchraydi: *o‘g‘il*, *bo‘ri*, *to‘g‘ri*, *o‘rin*, *bo‘yin*.
 - 2) o‘zlashma so‘zlarning oxirgi bo‘g‘inida ham keladi: *ro‘baro‘*, *xushro‘y*, *gulro‘*, *kubok*, (*kubo‘k*).
 - 3) til oldi varianti ham bor: *o‘rik*, *ko‘l*, *cho‘l*.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ona tili. M. Hamroev, D. Muhammedova, D. SHodmonqulova, X. G‘ulomova, SH. Yo‘ldasheva, Toshkent -2008
2. Ona tili va adabiyoti (o‘quv qo’llanma) A.R.Rafiyev, N.G‘ulomov. Toshkent-2014.
3. www.ziyouz.com kutubxonasi



INGILIZ TILI FANINI O’QITISHDA “BILIMLAR UYI” ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHDA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Haitova Rayhon Shokir qizi.
Abdullayeva Mahliyo Botirboy qizi
Xonqa tumani 24-maktabning
ingliz tili fani o’qituvchilari

Annatotsiya: Ushbu maqolada maktabda o’quvchilarning ingiliz tili faniga bo’lgan qiziqishini oshirishda interfaol metodlardan foydalanishda o’qituvchilar uchun amaliy va metodik tavsiyalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so’z: pedagog, o’qish, bilim, malaka, ko’nikma, fikr, ta’lim, ijtimoiy.


Ta’limning barcha bosqichlariga oid umumiyligi pedagogik va didaktik talab o’quvchining dasturiy bilim, tasavvur va ko’nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o’quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg’ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o’quvchilarni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faoliyklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

Ta’limning bugungi vazifasi o’quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot – ta’lim muhitini sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko’rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o’rgatishdan iboratdir. Buning uchun uzlusiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

“Bilimlar uyi” Bu usuldan dars mavzusini mustahkamlashda va guruhsiga nomini tez va shovqinsiz tanlashda foydalilanadi. Ushbu usulni qo’llashda quyidagicha ko’rgazma tayyorlanadi. (1-rasm) A-4 formatli qog’oz olinib orqasiga qattiqroq qog’oz yopishtiriladi va qog’ozning ustki tomoniga chiroqli qilib uyni rasmi chiziladi va yuqorisiga “Bilimlar uyi” deb yozib qo’yiladi, qog’ozning orqa tomoniga yani qattiq tarafiga konvert yopishtiriladi. Konvert ichiga ingliz tili alifbosi bo’yicha harflar yozilgan kartochkalar solinadi (har bir harfdan beshtadan bo’lsin) va gul shaklida bitta qog’oz qirqilib, gul o’rtasiga mavzu nomi, yaproqchalariga shu mavzuga doir tayanch atama va iboralar yoziladi. Har bir guruh oldiga bittadan “Bilimlar uyi” ko’rgazmasidan beriladi. Keyin esa o’tilgan mavzularni mustahkamlash maqsadida o’quvchilarga quyidagi topshiriq beriladi.

1. O’quvchilar harflardan foydalanib guruh nomini tuzishlari kerak. Guruh nomlari geografik qitalar nomi bilan atalishi mumkin. (bu nomni boshqa guruhsalar ham ko’rishi uchun ko’rgazmaning ustki tomoniga eniga cho’ntakcha yasab, shu cho’ntak ichiga gurux nomi yozilgan harflarni solish kerak).

2. Konvert ichidan mavzu va iboralar yozilgan gul shaklidagi qog’ozni olib, unga qarab ma’lum vaqt ichida(5 minut) harfchalardan foydalanib partasi ustiga so’zlarni yasashlari kerak. Qaysi gurux shu vaqt ichida ko’proq ibora yozib ulgurganligiga qarab baholanadi.





Yangi pedagogik texnologiyalar bilan o’tkazilgan darslar o’quvchini mustaqil fikrlashga, nutqi rivojlanishiga, o’zaro bir-biri bilan muloqatga va xatto o’zi xulosa chiqarishga o’rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yo’ldashev J. G, Usmonov S .A. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyatga joriy kilish.” T., “Fan va texnologiya”. 2008 – 132 b.
2. Ochilova M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. Nasaf. 2000.
3. Chugunova A.A. «Нетрадиционные методы преподавания математики».



TABIY FANLARNI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISH

Ishpulatova Matluba Xoshimovna

Navoiy viloyati Uchquduq tumani
10- sonli mакtabning Geografiya fani o'qituvchisi

Ochilova Dilafruz

Navoiy viloyati Uchquduq tumani
10- sonli mакtabning Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tabiiy fanlarni bilishning zarurligi va ahamiyati, shuningdek ushbu fanlarni o'qitishda zamonaviy metodlardan foydalanish usullari va samarali metodlardan ayrimlari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: tabiiy fanlar, metod, tabiat, klaster, 6x6, aqliy hujum, guruh, fan.

Tabiiy fanlar - insonni, uning sog'lig'ini, shuningdek butun atrof-muhitni: tuproqni, atmosferani, umuman yerni, kosmosni, tabiatni, barcha tirik va jonsiz jismlarni tashkil etuvchi moddalar va ularning o'zgarishini o'rganadigan fanlardir. Tabiatda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlar, tirik organizmlarning rivojlanish bosqichlari, tabiat va jamiyat qonunlariga insoniyatning ko'rsatadigan ta'sirlari haqida ilmiy va amaliy bilimlar majmuasini yoritish tabiiy va iqtisodiy fanlar blok-modulining asosiy vazifasini belgilab beradi.

O'quvchining ichki motivatsiyasining qanchalik shakllanganligi tabiiy va iqtisodiy fanlarga qiziqishi, atrof-muhit muammolarini anglashi va uni hal qilishda muhim qarorlarni qabul qilishni bilishi hamda tabiiy va sotsial muhitga ta'sirini tahlil qilishda muhim o'rinnegallaydi. Fanlarning o'zaro integratsiyasi o'quvchilarda tabiatni butun bir borliq sifatida, olamning yagona manzarasini anglashlariga yo'naltirmog'i lozim. Shu bilan birga, o'quvchilar inson faoliyatining tabiatga salbiy va ijobjiy ta'siri, zamon va makon miqyosidagi global ekologik muammolarni va tabiat oldida javobgarlik hissini tushunishi, shuningdek, sog'lom turmush tarziga amal qilishlari hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ko'nikmalarini, tabiat va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan kompetent shaxsni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ilmiy-tabiiy dunyoqarashlarini shakllantirish va kengaytirish, mantiqiy fikrlashga o'rgatishda har bir dars mavzuyini bayon qilishga e'tibor beriladi. O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyatini jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lган ishonch ortadi. Buning natijasida har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi. Shu tarzda tashkil etilgan bilish faoliyatida vaqtadan unumli foydalilanadi. Pirovard natijada ta'lim samaradorligi ortadi.

Ta'limning zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanib o'tiladigan darslarda o'quvchilarning bilish faoliyati individual tarzda tashkil etiladi. Tabiiy fanlarni o'tishda samarali bo'lган ayrim metodlar bilan tanishamiz.

«Klaster» metodi. Ushbu metod o'quvchilarga muammolar (mavzular) xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. «Klaster» metodi turli xil g'oyalar o'rtaсидаги aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. Bu metod aniq obyektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli hisoblanadi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga os-hadi. «Klaster» metodidan o'quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlarda ushbu metod guruh a'zolari tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmuyi tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa guruhning har bir a'zosi tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni uyg'unlashtirish hamda ular o'rtaсидаги aloqalarni topa olish imkoniyatini yaratadi.

«6 x 6» metodi. «6 x 6» metodi yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan darsda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lган 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rtaғa tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach, o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhni tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur



yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. «6x6» metodining afzallik jihatlari quyidagilardan iborat:

- guruhlarning har bir a'zosini faol bo'lishiga undaydi;
- ular tomonidan shaxsiy qarashlarning ifoda etilishini ta'minlaydi;
- guruhning boshqa a'zolarining fikrlarini tinglay olish ko'nikmalarini hosil qiladi;
- ilgari surilayotgan bir hecha fikrni umumlashtira olish, shuningdek, o'z fikrini himoya qilishga o'rgatadi.

Eng muhimi, har bir o'quvchi qisqa vaqt (15-20 daqiqa) davomida ham munozara qatnashchisi, ham ma'ruzachi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Ushbu metod qo'llanilayotgan mashg'ulotlarda guruhlar tomonidan bir yoki bir necha mavzu (muammo) ni muhokama qilish imkoniyati mavjud. «6x6» metodidan ta'lim jarayonida foydalanish o'qituvchidan faollik, pedagogik mahorat, guruhlarni maqsadga muvofiq shakllantira olish layoqatiga ega bo'lishni talab etadi. Guruhlarning to'g'ri shakllantirilmasligi topshiriq yoki vazifalarning to'g'ri hal etilmasligiga sabab bo'lishi mumkin.

«Aqliy hujum» metodi muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod hisoblanadi. Bu metod o'quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan dars jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni to'pish imkoniyati tug'iladi. Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga rag'batlantirishdan iborat.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'quvchilarning tabiat to'g'risidagi ilmiy jihatdan boxabarligi ularning dunyoqarashlarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirishda tabiat qonunlarini asoslab berishda biologiya, geografiya, fizika, kimyo fanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularga ushbu qoida va tushunchalarni o'rgatish esa shu fan o'qituvchilarining vazifasidir.

Foydalanimgan adabiyotlar

1. N. Sayidaxmedov. Pedagogik amaliyatga yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. T.:RTM, 2000.
2. N.S.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T.: Moliya, 2003.



QOZOQ TILI DARSLARIDA GRAMMATIK MAVZULARNI O‘QITISH USLUBIYATI

**Ismaylova Kenjegul Ashirbekovna
Miraliyeva Aqyerke Aristanbekovna**

Navoiy viloyati Zarafshon shahar
4-maktab qozoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada qozoq tili darslarida grammatik mavzularni o‘qitish uslubiyati haqida so‘z boradi. Unda bir qancha interfaol usullar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: grammatika, nutq, og‘zaki va yozma, jadval, tarmoqlash, ko‘nikma.

Bugun biz tarixiy bir davrda -xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalombor o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fuqorolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz. Biz o‘z taqdirimizni o‘z qo‘limizga olib, azaliy qadriyatlarimizga suyanib taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda mana shunday intilishlar bilan yashayotganimiz, ilm-fan, texnika, san’at, adabiyot sohasida erishayotgan yutuqlarimizni xalqaro hamjamiyat tan olgan-bunday imkoniyatlarni barchasini aynan mustaqillik bergenini hammamiz chuqur anglaymiz. Shuni unutmagan holda har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash biz ustozlardan izlanishni talab etadi. O‘quvchilarni darsga qiziqtirish uchun bor kuch va imkoniyatlardan oqilona foydalansak, albatta o‘z maqsadimizga yetamiz. Qozoq tili darslarida o‘quvchilar faolligi va qiziqishlarini oshirish uchun taqdim etiladigan ilg‘or pedagogik texnologiyaning turli usullar asosida tashkil etilgan darslardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ushbu taqdim etilayotgan metodik tavsiyalar o‘qituvchilar uchun metodik yordam hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol darslarda ijodiy ravishda foydalanish mumkin bo‘lgan taqdimot materiallaridan iboratdir.

Quyida qozoq tili darslarida grammatik mavzularni o‘qitish bo‘yicha usullarni taqdim etmoqchimiz:

“Juft-juft muloqot” usuli. Bunda biror mavzu bo‘yicha yonma-yon o‘tirgan o‘quvchilarni o‘zaro muloqotga chorlash; o‘zaro fikr almashish va ularni ba’zilarini tinglash orqali bajariladi.

“Tarmoqlash” usuli. Bu usul orqali o‘quvchilarga mavzu so‘roqlari, yoki grammatik mavzularning turlari bilan keng holda tushuntiriladi.



«Xazinalar sandig‘i» usuli. Biz kelajak avlodga «Xazinalar sandig‘ini» qoldirmoqchimiz. Qani kim qanday xazina (bilim, maslahat va h.k.) qoldirmoqchi? Xazinalar sandig‘ini to‘ldira oldikmi? va h.k.

“Jadval” usuli. Bu usul orqali mavzu jadval ko‘rsatib beriladi.

Bunday o‘qitish o‘quvchilarda eslab qolish, fanga qiziqish va xotirani mustahkamlashni shakllantiradi.



Мысалдар	Қызыу	Менгеру	Матасу	Қабысу	Жанасу
Мен үйрәндім					
Әткірдің жузі, Кестенің бізі					
Ерте туып, кеш қалған					
Темір күрек					
Үйді көрдім					

Xullas, grammatika o‘qituvchi va o‘quvchilarni o‘rtasidagi hurmatni yanada oshiradi va o‘quvchilarining nutqiy va lingvistik kompetensiyani o‘zlashtirishiga yordam beradi.

“Катені түзеу” ойыны

Сөз тіркесі	Қатесі	Дұрысы
Ізгілік кілті	Шылау арқылы	Жалғау арқ.
Көпір арқылы өту	Интонация арқылы	Шылау арқылы
Абай – ақын	Орын тәртібі	Интонация арқ.
Бақытты балалық	Жалғау арқылы	Орын тәртібі арқылы
Адамзатты сую	Жалғау арқ.	Жалғау арқ.
Білу үшін оқу	Жалғау арқ.	Шылау арқылы
Ғажайып әлем	Интонация арқ.	Орын тәртібі
Еңбектің сыйы	Шылау арқылы	Жалғау арқ.

Шарты: сөздердің байланысу тәсілдерін дұрыс орналастыру.

“Bo’sh stul” usuli. (15 minut) Ishtirokchilar bir, ikkiga (juft) bo‘linadilar.”Bir” raqamli ishtirokchilar doiraga o‘tiradilar, “ikki” raqamli ishtirokchilar esa ularning stullari orqasiga turadilar. Bitta stul bo‘sh qolishi kerak. Bo‘sh stul orqasida turgan ishtirokchining vazifasi - ko‘z qarashi bilan o‘tirganlarni o‘z stuliga taklif qiladi. Buni sezgan stulda o‘tirgan ishtirokchi, bo‘sh stulga chopib o‘tirib olishi kerak. Uning orqasida turgan sheringining vazifasi - uni ushlab qolishga harakat qiladi.

Ustoz hamisha o‘z shogirdi bilan faxrlanishi uchun unga o‘zida bor bo‘lgan bilimni o‘rgatibgina qolmasdan, uni o‘zi ustida ishlashga unday bilishi, uning ochiq mashg‘ulotidan tashqari kundalik mashg‘ulotini ham kuzatib borishi lozim. Unga o‘z kundalik mashg‘ulotini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o‘tib berishi uchun uslubiy yordam berib, dars jarayonida yo‘l qo‘ygan xato va kamchilikni o‘z joyida aytib, kelgusida ushbu xatolarni yo‘l qo‘ymasligini oldini olishi lozim. Ana shundagina shogird ustozlik darajasiga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O‘qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo‘llanma. 1995-yil.
- .Ta’limda zamonaliv pedagogik texnologiyalar.2001-yil.
- www.eduportal.uz, www.ziyonet.uz, www.istedod.uz



O'QUVCHINING PSIXOLOGIK XOLATINI YAXSHILASH VA DARSGA NISBATAN MUNOSABATINI MUVOFIQLASHTIRISH.

Ismoilova Mohinur Madiyarovna

Jumaniyazova Barno Aminboyevna

Xiva tumanidagi 6-son umumiy o'rta ta'lim maktabi
amaliyotchi psixologlari.

Annotatsiya: O'quv jarayonini o'quvchi shaxsining yosh, psixologik va individual xolatlarini inobatga olgan holda tashkil etish, o'quvchining psixologik xolatini yaxshilash va darsga nisbatan munosabatini muvofiqlashtirish kabi ko'nigmalarini tashkil etishda psixologiyaning ahamiyati yuqori baholanadi. Usbu maqolada maktab o'quvchilarining individual-psixologik xususiyatlari haqida bayon etiladi.

Kalit so'zlar: o'quvchi, yozma, og'zaki, kitob, shaxs, nutq, talaffuz.

O'quvchilar tafakkurini rivojlantirmay, ulaming nutqini o'stirib bo'lmaydi. Og'zaki gapirish, bayon yoki insho yozishda o'quvchilarining reja tuzib olishlariga e'tibor berish kerak. Yozma va og'zaki nutqni o'stirish uchun kitob ustida muntazam ishlash, o'qigan matnlarning tezisi (asosiy mazmuni)ni, konspekti(qiqaacha matn bayoni)ni tuzish, ma'ruza, referatlar tayyorlash, adabiy kechalar, yozuvchilar bilan uchrashish muhim ahamiyatga ega. Nutq shartli reflekslar paydo bo'lishining umumiy qonunlari asosida o'sadi. Agar kishi biror bir tovushni noto'g'ri talaffuz qilishga o'rganib qolgan bo'lsa, unda bu kamchilikni tuzatish qiyin bo'ladi. Shuning uchun bolalarda yoshligidanoq ijobjiy nutq odatlarini tarbiyalashga ahamiyat berish zarur.

Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri — muloqotga bo'lgan ehtiyoj. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj qondirilmasa, ong ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doim o muloqotga bo'lgan ehtiyojim izni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir muloqotdan qoniqish, ba'zi hollarda esa qoniqmaslikni his qilamiz. Katta yoshdagi kishilar rasmiy va norasmiy munosabatlarga kirishadilar. Rasmiy munosabatlar ish, xizmat yuzasidan bo'ladi. Norasmiy muloqot esa ishdan boshqa paytlarda, uyda (oila), mahallada, ko'cha-ko'yillarda bo'ladi.

Kattalar muloqotida ko'pincha muloqot madaniyati amalga oshiriladi, ya'ni bir-birlarini hurmat qilish, ishonish, anglash kabilar. Ammo ba'zi paytlarda muloqot buzilishi ham mumkin. Chunki ular ham ayrim paytlarda bir-birlarini tushunmasdan xafa qilib qo'yishlari, ko'ngilga og'ir botadigan gaplar aytib yuborishlari, natijada nizolarni keltirib chiqarishlari mumkin. Agar muloqot madaniyati kishilarda yaxshi shakllangan bo'lsa, ular bir-birlarini tushunishlari oson kechadi. Muloqot madaniyati yoshlikdan oilada, ijtimoiy muhit ta'sirida, o'zo'zini anglash, tarbiyalash jarayonida shakllanishi mumkin. Biz kattalar yoshlarga nam una, ibrat bo'lishim iz bir-birim izga bo'lgan muloqotimizdan kelib chiqadi. «Oltin so'zlar» (azizim, aylanay, o'rgilay, juda ham ajoyibsiz, bugun boshqachasiz, ochilib ketibsiz, kiyimingiz juda yarashibdi kabi) dan kundalik hayotimizda ko'proq, ammo o'm i kelganda foydalanishimiz zarur. Kattalar muloqotiga yoshlarning taqlid qilishlari orqali ularda muomala san'ati, madaniyati shakllanib boradi. Ayniqsa, oilada biz bu holatlarga e'tibor berishimiz kerak. Chunki «qush uyasida ko'rganini qiladi», degan naql bejiz emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Har bir kishining shaxsi uning individualligini vujudga keltiradigan xislatlар va fazilatlarning faqat unga xos birikuvidan tarkib topgandir. Individuallik-kishining o'ziga xosligini, uning boshqa odamlardan farqini aks ettiruvchi psixologik fazilatlarning yig'indisidir. Bundan tashqari, har bir Shaxsda o'ziga xos tarzda dunyon, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yishni ta'minlaydi. Masalan, bosiqlik, mulohazalilik, o'zgalarning ichki dunyosini gaplari, xatti-harakatlariga qarab bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.G'oziev E.G., Utanov B. 'Xamkorlik psixologiyasi' Toshkent ToshDU 1992. 2.G'oziev E. Ruhieva X.O. 'Metodicheskie rekomendatsii po psixologii vo sshey shkolo' dlya slushiteley F.N.K.' Toshkent ToshDU 1990

3.Lyaudis. Detskaya psixologiya. M.: iz.vo Moskva 1990 g.

4.G'oziev E.G. 'Tafakkur psixologiyasi'. O'qituvchi nashriyoti. 1990 12. Krutetskiy V.A. 'Pedagogik-psixologiya asoslari' Toshkent-1976 yil.



O'QUVCHILARNI MASALALAR YECHISHGA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK TAYYORLASH

Ismoilova Oysuluv Hamid qizi
Inoyatova Qunduz Jo'raboy qizi
Navoiy viloyati Uchquduq tumani
7-MFCHO'IDUMning boshlang'ich
ta'lim fani o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika darslarida masalalar yechishning ahamiyati, boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematikadan masala yechishga pedagogik va psixologik tayyorlash jarayonlari haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: matematika, farq, masala yechish, bilim, tushuncha, aqliy rivojlanish, raqam, arifmetik amal, jarayon.

Bolalar mакtabga ilk qadam qo'ygan vaqtlaridanoq, turli masalalar bilan tanishishga muvaffaq bo'ladiлar. Maktab ta'limida masala bilan tanishtirish zamirida o'quvchini matematik bilimlar dunyosiga eng oson yo'l orqali olib kirish muammozi hal etiladi. Masalalarning berilishi boshlang'ich sinfning 1-sinfidanoq boshlanadi. Bunda avvalo, turli o'lcham va kattaliklarni o'zaro farqlashga doir masalalarga murojaat etilsa, so'ngra, bolalar raqamlarni o'rganishi bilan parallel ravishda uni yanada mustahkamlovchi masalalar bilan ham tanishadilar.

O'quvchilarga beriladigan ta'limda masalalar va ularning yechimlari vaqt bo'yicha ham, bolaning aqliy rivojlanishiga ta'siri bo'yicha ham muhim o'rinn egallaydi. Yechilayotgan masalaning roli o'qituvchining u yoki bu masalani yechish uchun qanday pedagogik maqsadni ko'zlaganiga bog'liq. Ko'pincha masalalar o'quvchilarga ularning bilimlarini to'ldirish, malakalarni egallash, ko'nikmalarni takomillashtirish va puxtalash uchun beriladi. O'quvchining masalani mustaqil yechishidan unda ko'nikma va malakalarning tarkib topishi uchungina emas, balki teskari aloqa o'rnatish (o'quvchi – o'qituvchi) uchun ham foydalaniladi. Bu esa o'qituvchiga o'rganilayotgan materialni o'quvchi qanday o'zlashtirishini kuzatish va uning muvaffaqiyatlarini tekshirish imkonini beradi.

Bilimlarni tekshirishda, masala, o'quvchi tafakkurining rivojlanishi haqida fikr yuritish, kerakli amallarni to'g'ri tanlash, hisoblash ko'nikmalari haqida fikr yuritish imkonini beradi.

Matematikani o'qitish umumiy sistemasida masalalar yechish samarali mashq turlaridan biridir. Masalalar yechish bolalarda avvalo mukammal matematik tushunchalarni shakllantirish ularning dasturda berilgan nazariy bilimlarni o'zlashtirishlarida favqulotda muhim ahamiyatga ega.

Masalalar yechish jarayonining o'zi ma'lum metodika bo'lib, o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u aqliy operatsiyalarni analiz va sintez, konkretlashtirish va abstraklashtirish, taqqoslashi, umumlashtirilishi talab etiladi. Masalan, o'quvchi istalgan masalani yechayotganida analiz qiladi, savolni masala shartida ajratadi, yechish rejasini tuzayotganida sintez qiladi, bunda konkretlashtirishdan (masala shartini hayolan chizadi) so'ngra abstraklashdan foydalanadi (konkret situatsiyadan kelib chiqib arifmetik amalni tanlaydi) biror bir turdag'i masalalarni ko'p marta yechish natijasida o'quvchi bu turdag'i masalalarda berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishlar haqidagi bilimni umumlashtiradi, buning natijasida bu turdag'i masalalarni yechish usuli umumlashtiriladi.

Bolalarni masala yechishga o'rgatish – bu berilgan va izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanishni aniqlashni va buning asosida arifmetik amallarni bajarishni o'rganish demakdir.

Masalalarni yechish uquvida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan markaziy qism berilgan sonlar va izlanayotgan son orasidagi bog'lanishni o'zlashtirishdir.

Bolalarning masalalar yecha olish uquvlari va bu bog'lanishlarni qanchalik yaxshi o'zlashtirganliklariga bog'liqdir. Shuni hisobga olgan holda boshlang'ich sinflarda yechilishi berilgan sonlari va noma'lumlar orasidagi bir xil bog'lanishlarga asoslangan konkret va mazmuni hamda soni berilganlari bilan esa farq qiluvchi masalalar guruhi bilan ish ko'rildi. Bunday masalalar guruhini bir turdag'i masalalar deb ataymiz.

Masalalar ustida ishslashda o'quvchilarni avval bir turdag'i masalalarni yechishga, so'ngra boshqa turdag'i masalalarni yechishga, majburlashga olib kelinishi kerak emas. Matematik masalalarni yechish jarayoni o'zining mohiyatibo'yicha mustaqil fikrlashni talab qiladi. Matematik



tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Har bir mustaqil yechilgan masala, tuzilgan masala va masalani yechish jarayonida uchragan qiyinchiliklarni mustaqil yengishida matonat shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi.

Ko'plab masalalarни yechishda amallar bu kattaliklar orasidagi mavjud bog'lanishlarga asoslanib tanlanadi. Amallarni tanlashda o'quvchilar bu bog'lanishlarni idrok qila olishlari va foydalana bilishlari uchun kattaliklar orasidagi bog'lanishlarni, masalalarni bu kattaliklarning konkret ma'nosi asosida yechish yo'li bilan olib berishi kerakligini bilishi lozim.

O'quvchilarni masala yechishga o'rgatish ancha mashaqqatlari jarayonlardan biri hisoblanadi. 1-2-sinf o'quvchilarining fikri-hayoli odatda faqat o'yin o'ynash bo'ladi. Shuni hisobga olib o'quvchilarga masalani ishslashda uni ilmiy emas hayotiy qilib tushuntirish lozim. Agar o'quvchilarni yoshliklaridan misol va masalalar yechishga qiziqtirib o'rgatmasa, matematika fani ular uchun eng mashaqqatlari fan bo'lib ko'rindi va ularning keyingi fikrlash jarayonlariga juda katta ta'sir o'tkazadi.

Bir qator masalalarni rasm va chizmalar bilan tasvirlash katta yordam beradi.

Shuni eslatib o'tamizki, masalalarga chizma yoki rasm yasash uchun biror umumiy ko'rsatma berib bo'lmaydi. Ko'pincha, bir masalaning o'ziga doir grafik tasvirlarni har xil usul bilan berish mumkin. Shu sababli o'qituvchining vazifasi bu ishga doim rahbarlik qilishdan, grafik model yasashning eng ratsional formalarini tanlashda o'quvchilarga yordam berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. E.E.Jumayev. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi.
2. M.Ahmedov, D.Mirzamuhamedova. Masalalar yechish metodikasi.
3. A.Asimov, Sh. Jo'rayev. Masala yechish usullari.
4. Internet malumotlari.



BIOLOGIYA VA FIZIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN
FOYDALANISH VA METODIK TAVSIYALAR BERISH

Ismoilova Shakarjon Xudoybergnovna
biologiya fani o'qituvchisi
Otaboyeva Go'zal Yunusjonovna
fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada o'quvchilarga biologiya va fizika fanidan ta'limga berishda kasbiy mahoratini, iste'dodi, tajribasi va madaniyati pedagogik texnologiyalarini qo'llashi, o'quvchilarni o'zaro faolikka olib kelishiga bog'liqligi hamda ichki siyosiy muhitda ham farovon va barqaror jamiyat qurish uchun kuchli va malakali, siyosiy va huquqiy bilimlarga ega kadrlar kerakligi haqidagi fikirlar keltirilgan.

Kalit so'z: interfaol, ta'limga berishda kasbiy, pedagog, texnologiya, o'quvchi, til.

Bobokalonlarimizning azaliy orzulari, milliy va umumbashariy qadriyatlari, ma'nnaviy yodgorliklar zamonaviy pedagogikaning maqsadi va vazifalarini shakllanishiga asos bo'lmoqda. Davlatimiz tomonidan qabul qilinadigan "Kadrlar tayyorlashh Milliy dasturi"da ushbu maqsad yoritib berilgan. Zero, zamonaviy pedagogikaning bosh maqsadi ham etuk, yuksak malakali, ma'nnaviyatli, ma'rifatli, mustaqil fikr yurita oluvchi, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashhdan iboratdir.

Bugungi kunda fan, texnika va innovatsion texnologiyalarni rivojlanishi natijasida o'quv tarbiya jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'limga berishga ko'tarishga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ta'limga berishda zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar egallanayotgan bilimlarni o'quvchilar tomonidan o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, ularni tahlil qilishlariga, bilimlarini baholashlariga, to'g'ri xulosalalar qilishni o'rgatishga qaratilgan. O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga, shuningdek, erkin fikrlab sinfdoshlari bilan o'zaro hamkorlikda ishslash va harakat qilishlariga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv tarbiya jarayonida o'quvchi markaziy ishtirokchiga aylanadi.

«Sindikat» metodi. Guruh uchta kichik guruhlarga bo'linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuktai nazardan hal etilish zarur. Masalan, uch noma'lumki, uchta tenglamalar sistemasini echish topshirig'i berilgan bo'lsin, u holda birinchi guruh masalani Gauss, ikkinchi guruh Kramer, uchunchi guruh Matritsa usulidan foydalanib echadi. So'ngra echimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

«Akvarium» metodi. Guruhdan uch talaba ajratib olinib ularga xona o'rtaсидаги stol atrofiga o'tirishlari va qo'yilgan muammoni o'n minut atrofida birgalikda muxokama qilishib, fikr bildirishlari so'raladi. Bu uch talaba akvariumdagagi baliqlarga qiyos.

Atrofda o'tirgan kuzatuvchilar o'rataсидаги talabalarning fikrlarini diqqat bilan tinglab, javoblarini to'g'ri va noto'g'riga ajratib yozib borishadi hamda muhokama paytida o'zlarining qarashlarini bayon etishadi. Etarli darajada fikr bildira olmagan o'rtaсидаги talabalar o'z o'rınlarini kuchli filer bildirgan kuzatuvchi talabalarga bo'shatib berishadi. Har bir muammo yuzasidan bildirilgan fikrlar talabalar ishtirokida o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun uzuksiz ta'limga berishda isloh qilinmoqda.

Ta'limga berishda tabaqaqalashtirilgan yondashuv, o'quvchilarni turli kasb-xunar kollejlari, akademik litseylarda taxsil olishlarini ta'minlash zamonaviy pedagogika fani oldiga yuksak vazifalarini qo'ymoqda.

Masalan, ushbu o'quv muassasalarini uchun davlat ta'limga berishda standartiga muvofiq keluvchi o'quv dasturlarini va darsliklar, o'quv qo'llanmalarini yaratishha bugungi kun talabalariga javob bermog'i lozim. Har biri turli variantlarda bo'lsagina, maqsadga to'g'ri xizmat qila oladi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. Sayidaxmedov. N. Yangi pedagogik texnologiyalar. T., "Moliya", 2003. 171 b.
2. Azizzxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T., 2003.
3. Choriev A. Yangi pedagogik texnologiyalar. Ma'ruzalar matni, Qarshi 2000.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BILIM VA KO‘NIKMALARINI BAHOLASH STRATEGIYALARI

Jubayeva Asem Kidirbayevna

Aliyeva Zarifa


Navoiy viloyati Zarafshon shahar
4-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada boshlang‘ich sinflarda bilim va ko‘nikmalarini baholash strategiyalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Kompetensiyaviy yondashuv, baholashning usullari, grafik test, baho, Konseptual xarita, muhokama, amaliyot, kuzatuv...

Bugungi kun ta’limida o‘quvchilarning nafaqat bilimlarini, balki ularning hayotiy ko‘nikmalarini (kompetensiyalarini) ham baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim berish va baholashning maqsadlari o‘zgargan bunday sharoitda o‘quvchilarni baholashda ham yangi maqsadlar belgilanishi muhim hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limda baholashning maqsadlari:



Baholashning usul va vositalari:

O‘quvchilar bilan birga men baholashning qanday usullaridan foydalanaman?

Baholashni kim amalga oshiradi: mening o‘quvchilarim, ularning sinfdoshlari yoki men o‘zim? Ma’lumotlar yig‘ish uchun baholashning qanday vositalaridan foydalanaman?

Baholashning usullari:

Baholash usullari	Vositalar
Grafik usul	<ul style="list-style-type: none"> • Konseptual xarita • Ketma-ketliklarni belgilash • Klassifikatsion sxemalar • Prioritetlarni aniqlash • Bilaman-Qiziqaman-Bajara olaman jadvali
Kuzatuvlar va amaliyotdan misollar	<ul style="list-style-type: none"> • Kundalik (kuzatuv daftari) • Baholash varaqlari • Muhokama uchun savollar • O‘quvchilarning kuzatuvlari • O‘qituvchining kuzatuvlari



Ovoz, video va foto kundaliklar va fayllar	<ul style="list-style-type: none"> • O‘z bilim darajalarini aniqlashtirish uchun yo‘naltiruvchi savollar
O‘quvchilar konferensiyasi	<ul style="list-style-type: none"> • Yo‘naltiruvchi savollar

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim muhitida eng avvalo biz an’anaviy noan’anaviy ta’lim muhitlari o‘rtasidagi farqlarni ajratib olishimiz kerak. Quyidagi misollarda ikkala ta’lim yondashuvlariga fanlar va mavzular asosida misollar keltiriladi.

Loyihalarga namunalar:

1. **“Yil fasllari” loyihasi.** Ushbu loyihada o‘quvchilar *Atrofimizdagи olam o‘quv yili mobaynida qanday o‘zgaradi?* savoliga javob izlash jarayonida botaniklar rolini bajarishadi. Ular o‘simgilik (daraxtlar) olamida yil mobaynida bo‘layotgan o‘zgarishlarni kuzatib boradilar va ma’lumotlar yig‘adilar. Natijada tabiatni kuzatish davrida ochgan yangiliklari bilan boshqa tengqurlari bilan o‘rtoqlashadilar. (fandan kelib chiqib, moslashtiriladi)

2. **“Kasrlar” loyihasi.** Ushbu loyihada o‘quvchilar kasrlarning hayotimizdagi ahamiyatini o‘rganadilar. Ushbu matematik tushuncha real hayotiy masalalarni echishda kasrlardan foydalanadigan insonlar nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda o‘rganiladi. Bunda, o‘quvchilar oshpazlar o‘zlarining kasbiy faoliyatlarida kasrlardan foydalanishadimi degan savolga javob topishadi. (fandan kelib chiqib, moslashtiriladi)

3. **“Fizika” loyihasi.** Ushbu loyihada o‘quvchilar fizikaga oid harakat qonunlarini tushunish va bilimlarini qo‘llashga yordam berish maqsadida yo‘ldagi risklarga (havf-xatarlarga) oid omillarni o‘rganadilar. O‘quvchilar o‘zlari istiqomat qiladigan hududdagi yo‘llarda mavjud risklarni (havf-xatarlarni) so‘rovnomalar orqali ham aniqlaydilar. O‘quvchilar mazkur muammolarni avtomobil yo‘llarida mavjud xavf-xatarlarni yo‘lsozlarga taqdim etish, ular esa o‘z navbatida yo‘llarni loyihalayotganlarida tegishli o‘zgartirishlar kiritishlari maqsadida o‘rganadilar. (fandan kelib chiqib, moslashtiriladi)

4. **“Kriminalistika” loyihasi.** Ushbu holatda o‘quvchilar matematik va sud-tibbiyot loyihasini yaratadilar. Ular o‘zlarining guruhlarida tadqiqotchilik metodlaridan foydalanib, sodir etilgan jinoyat bo‘yicha tegishli tekshirishlar, isbotlar va tahlillarni amalga oshiradilar hamda ular asosida jinoyatni ochish bo‘yicha tegishli hulosalarni yasaydilar. “Jinoyat” o‘zlarining sinflarida sodir bo‘ladi!(fandan kelib chiqib, moslashtiriladi)

Yuqorida ko‘rsatilgan loyihalar, shunchaki o‘qituvchining tushunishi va shunga o‘xshatib, fan yo‘nalishi bo‘yicha loyihalar asosida topshiriqlar berishlari uchun keltirildi.Loyha metodidan foydalanish, bugungi kun ta’limining ehtiyoji hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish. -Toshkent: «Ma’rifat-Madadkor», 2000. – 304b. 29-b.

2. **Internet saytlari:** www.lex.uz, www.gov.uz, www.ziyo.net, www.kitob.uz



ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA TA'LIM
SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Jumabayeva Shohista Raxmatullayevna

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi,

Polvonova Zubayda Ko'palboyevna,

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi

23-maktabning biologiya fani o'qituvchisi

jumabayevashohista@gmail.com/90-430-10-16

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lrim samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: texnologik treninglar, "Tarmoqlar" metodi, hamkorlikda o'qitish.

Bugungi kunda talim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limga o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchlik funksiyasini bajaradi. Ta'limga jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va ro'li benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchilarning bilimli va yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik usullar bo'lib, ta'limga mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning oziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lb, ularga quyidagilar kiradi:

-O'quvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish; -O'quvchilarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlash; -O'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirish.

-Pedagog va o'quvchilarning hamisha hamkorlikdagi faoliyatining tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiq odchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanilishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchilarning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'limga texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobjiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijobjiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhg'a, gurug esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatları uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha anashu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchilarning bilim



saviyasi,guruh xarakteri,sharoitga qarab ishlataladigan texnologiya tanlanadi.Shu bilan bir qatorda o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, TSO ni, eng asosiysi,o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina,kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil,erkin fikrlashga,izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish,ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish, tahlil qilish ilmiy adabiyotlardan unimli foydalanishga,eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lган qiziqishlarini kuchaytiradi.Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqoza etadi.Ular juda xilma-xildir. Biz ulardan bazilari haqida to'xtalib o'tamiz va ularni o'tkazish tartibi haqida qo'llanma beramiz.Zamonaviy metodlar yoki o'qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchi,talabalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk mutaxassis bo'lishlariga hamda mutaxassisga kerakli bo'lган kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Biz quyida o'qitish jarayonida qo'llash mumkin bo'lган bazi bir metodlarga tavsiynoma berib, ba'zilarini o'tkazish tartibi to'g'risida metodik tavsiyanoma berib o'tamiz: "Tarmoqlar" metodi o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, umumiyl fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan."3x4" metodi- o'quvchi,talabalarni erkin fikrashi, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil etib, xulosa chiqara olishi,ta'rif bera olishiga qaratilgan.Bunday metodlar asosida dars o'tish o'quvchilarning faolligi va ta'lim samaradorligini oshirish,o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirish,o'quvchilarda erkin va ijodiy fukrlash ko'nikmalarini shakllantirishda katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev J., "Ilg'or pedagogik texnologiya" – Toshkent,"Fan" nashriyoti.
2. Ziyonet.uz, eduportal.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSALARIDA DIDAKTIK
O'YINLAR ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Jumamuratova Farog‘at Baxramovna,
Yo’ldasheva Zaynab Erkinboyevna,
Masayidova Zulfiya Shamuradovna

Xorazm viloyati Urganch shahar
19-IDUM ning boshlang‘ich ta’lim fani o’qituvchilari

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda arifmetik amallarni o’rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish pedagogik asoslarini ishlab chiqish.

Kalit so’zlar: sanoq son, ko’rgazmali quroq, o’quvchi, matematika, didaktik, o’yin, ta’lim.

Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarga fan asoslarini, ayniqsa, matematika fanini o’rgatish o’ziga xos qiyin kechadi. Jumladan, birinchi sinfga qabul qilingan bolalarga matematika fanini o’rgatish o’qituvchida murakkabliklar keltirib chiqaradi. Bolalar bilimidagi va ularning fanni o’zlashtirishga bo’lgan qizikishlaridagi turli-tumanlik kichik yoshdagagi o’quvchilar bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarida bir qator qiyinchiliklar tug’diradi. Bu esa o’qituvchilardan o’z vazifasiga mas’uliyat bilan yondashishni talab qiladi.

Bu mas’uliyat quyidagilarda namoyon buladi har bir darsga dars mavzulari va o’quvchilar bilim darajalaridan kelib chiqib, ko’rgazmali qurollardan foydalanishda, dars davomida darsning asosiy maqsadlaridan kelib chiqib, didaktik uyinlardan foydalanishda didaktik o’yinlar, butun sinf ishtiroy etganda bolalar o’rtasida o’zaro hamkor bo’lib ishlash, o’z-o’zini boshqara bilish, diqqatni bir joyga yig’ish, saranjomsarishta bo’lish, tez tushunish va savollarga tez javob berish va boshqa tarbiyaviy xislatlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo’ladi. Bunday didaktik o’yinlar, o’quvchining o’qituvchiga nisbatan yotsirash xislatlarini kamaytiradi. Natijada o’qituvchi bolaga do’stga, u yoki bu masalani hal qilishda hamkorga aylanadi.

Matematika darsida foydalaniladigan har qanday didaktik o’yinlardan assosiy maqsad - ta’limiy maqsaddir. Ta’lim - o’quvchilarga dars jarayonida beriladigan bilim, ko’nikma va malakalarni ongli o’zlashtirish hamda mustahkamlashning rejali jarayonidir. Sinf o’quvchilarining bilish darajasi va qiziqliklari matematika darsining mazmuni va sutructurasidan kelib chig’ib, uning hajmiga katta ahamiyat bergen holda, undan darsning istalgan bosqichida foydalanish mumkin. Darsning boshida o’quvchilarni shu darsga qiziktirish uchun, darsning o’rtasida yangi mavzu materiallarining yaxshi o’zlashtirilishini ta’minlash uchun, darsning oxirida esa egallagan matematik bilim, ko’nikma va malakalarini yanada mustahkamlash va nazariy bilimlarni kundalik amaliy hayot bilan bog’lash maksadida kiritiladi.

Ilg’or boshlang‘ich sinf o’qituvchilarining ish tajribasi shu narsani ko’rsatmoqdaki, matematika dasturidagi barcha mavzularda didaktik o’yinlardan unumli foydalanish mumkin. Hatto, «O’nlik» mavzusidagi birinchi darslarda ham didaktik uyinlardan foydalanish imkoniyatlari katta.

Didaktik o’yinlar o’zining shakli jihatidan asosan bog’chada o’ynaladigan ijodiy o’yinlardan ham, o’qituvchi o’zi hikoya qilib berish yo’li bilan tushuntiradigan va o’quvchilarni birma-bir so’rab chiqish natijasida mustahkamlanadigan o’yinlardan ham har tamonlama farq qiladi.

Yangi boshlang‘ich matematika sinfdagi, avvaldagiga o’xshash, arifmetika assosiy o’rinni egallaydi. 1-4- sinflarning yangi dasturida material mazmuni nazariyaning amaliy masalalar (sanoq, o’lchashlar, hisoblashlar, masalalar echish) bilan bog’lanishi yanada mustahkamlangan: eng muhim tushunchalar (son, sanoq sistemasi, arifmetik amallar)ni shakllantirishning birmuncha mukammal sistemasi ko’zda tutilgan.

Didaktik o’yinlar o’qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Bolalar g’olib chiqish maqsadida jonusi dili bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqlarni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo’lgan qiziqish orta boradi. Didaktik o’yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Bantova M.A., Beltyukova G.B., Polevshikova A.M. Boshlang‘ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2001.

2. Levenberg L.Sh., Axmadjonov I.G., Nurmatov A.N. Boshlang‘ich sinflarda matematika o’qitish metodikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2002.



KIMYO DARSLARIDA O‘QUVCHI SHAXSIGA YO‘NALTIRILGAN PEDAGOGIK-INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI ISHLAB CHIQISH VA UNI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING SAMARASI

Jumanazarova Feruza Baxromovna

Xorazm viloyati, Shovot tumani

23-maktab kimyo fani o’qituvchisi

Telefon :+998919896337

Shahriyorshahrin oz@gmail.com

Samigullayeva Zarnigor Farid qizi

Xorazm viloyati, Shovot tumani

31-maktab kimyo fani o’qituvchisi

samigullayevazarnigor@gmail.com

Telefon :+998999672805

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo darslarida o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etishning samarasi borasida ma’lumotlar keltirib o’tiladi.

Kalit so‘zlar: mustaqil, ijodiy, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko’nikmalarini rivojlantirish, o’quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o’stirish.

Ta’lim jarayonida o’quvchi o’qituvchining bevosita rahbarligida, ta’lim mazmuni, metodlari, vositalari va shakllari yordamida organik olarnning qonuniyatları, hodisa va voqealarning mohiyati, o’ziga xos xususiyatlarini o’rganadi va bilim, ko’nikma hamda malakalarni egallaydi. Bundan ko’rinib turibdiki, o’quvchilar uchun o’quv jarayoni bilish jarayoni, uning faoliyati esa bilish faoliyatidir. O’qituvchi ta’limjarayonida o’quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etadi, boshqaradi, nazorat qiladi, baholaydi va o’qitishdan ko’zda tutilgan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish orqali shaxsning har tomonlarna rivojlanishiga zamin yaratadi. O’qituvchi uchun ta’lim jarayoni o’quvchilarning faoliyati bilan uzviy bog’langan va mazkur jarayonni tahlil qiladigan, umumlashtirib, tegishli hollarda o’zgartirishlar kiritadigan ish jarayoni, kasbiy pedagogik faoliyati sanaladi. Darsda o’quvchilarning bilish faoliyati va o’qituvchining pedagogik faoliyati bir-biriga uyg’un ravishda tashkil etilgandagina o’qitishdan ko’zda tutilgan maqsadlarga erishish mumkin. O’quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish dars strukturasining asosini tashkil etadi. Shu sababli bu masalani chuqurroq o’rganish maqsadga muvofiq. Kimyoni o’qitishda maqsadga muvofiq ta’sir ko’rsatish va qulay ijtimoiy-psixologik muhitni vujudga keltirishi o’qituvchi tomonidan qo’llanilgan pedagogik texnologiyalarga bog’liq bo’ladi. Didaktikada ishlab chiqilgan har qanday texnologiya o’quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, lekin quyidagi texnologiyalarda mazkur masala asosiy g’oyani egallaydi:

1. Didaktik o’yin texnologiyalari.
2. Muammoli ta’lim texnologiyalari.
3. Modulli ta’lim texnologiyalari.
4. Hamkorlikda o’qitish texnologiyasi.
5. Loyihalash texnologiyasi.

O’quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishga imkon beradigan texnologiyalarning o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lishi bilan birgalikda, ta’lim jarayonida ta’lim beruvchi, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi, ijodiy faoliyatga yo’llovchi, kommunikativ, mantiqiy fikrlash, aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, o’z faoliyatini tahlil qilish, kasbga yo’llash, mo’ljalni to’g’ri olishga o’rgatish, hamkorlikni vujudga keltirish kabi funksiyalarni bajaradi.

Kimyo o’quv fanini o’qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga zamin tayyorlaydi:

I. Axborot texnologiyalari kimyoni o’qitishda ko’zda tutiladigan ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan o’quv materialini yig’ish, saralash, unga didaktik ishlov berish, tarqatish va ta’lim jarayonida foydalanishga zamin yaratadi.

2. Har bir o’quvchida mavjud iqtidor, ehtiyoj, qiziqish va o’quv motivlariga mos holda tahsil



olish trayektoriyasi, tempini belgilash, zarur hollarda axborot dasturlaridan takroran foydalanish imkonini beradi.

3. Kimyo darslarining strukturasini tubdan o'zgartiradi, darsning borishi, xarakteri, o'quvchilarning bilish faoliyatini obyekt-subyekt munosabatidan, subyekt-subyekt munosabatiga, ya'ni o'quvchilar o'quv maqsadlariga erishish uchun pedagogik jarayonning faol ishtirokchisiga aylantiradi.

4. O'quvchilarda mustaqil, ijodiy, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin tayyorlaydi.

5. O'quv yurtida amalga oshirish imkonи bo'lмаган hollar (kerakli jihozlar bo'lмаган, o'tkaziladigan tajribalar o'quvchilar sog'ligi uchun zararli, uzoq davom etadigan, ishlab chiqarish korxonalarining texnologiyalarini o'rganish)da tajribalarni virtual namoyish qilish imkonini beradi.

6. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini faol lashtirish va o'quv motivlarini orttirishga zamin tayyorlaydi.

7. Ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlash maqsadida teskari aloqa, ya'ni qisqa muddat ichida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash imkoniyati vujudga keladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchilarning oldidagi muhim vazifalardan biri o'quvchilarning fan asoslarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish asnosida ularning barkamolligini ta'minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda axborot texnologiyalarining mahsullari muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalarini mahsullaridan foydalanilgan darslar axborotlarga boy, ko'rgazmali, interfaol bo'lib, vaqtдан unumli foydalanish, har bir o'quvchining o'z tempi bo'yicha bilim olish, o'qituvchi esa, o'quvchilar bilan tabaqa lashtirilgan va individuallashtirilgan ta'limni amalga oshirish imkoniyati vujudga keladi, shu bilan bir qatorda o'qitishda natijalarini nazorat qilish va baholash uchun zamin yaratadi.

Adabiyotlar:

1. J. O. Tolipova, A. T. G'ofurov. Kimyo o'qitish metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. - T.: Bilim. 2004.
2. N.N. Azizzxo'jayeva. Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. Oliy o'quv yurti o'qituvchilari va malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun metodik qo'llanma. T.: 2007.



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИГРОВЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА

Жуманиязова Мукаддас Тахировна
учительница русского языка и литературы
средней общеобразовательной школы
N 6 города Ургенча Хорезмской области.

Аннотация: В данной статье освещено использование игровых педагогических технологий в процессе обучения русского языка.

Ключевые слова: обучения, русский язык, игра.

Игра рассматривается как любое соревнование или состязание между играющими, действия которых ограничены определенными условиями (правилами) и направлены на достижение определенной цели (выигрыш, победа, приз).

В процессе игры: правила поведения и роли, приобретаются навыки совместной коллективной деятельности, отрабатываются индивидуальные характеристики учащихся, накапливаются культурные традиции, внесенные в игру участниками, учителями, привлеченными дополнительными средствами - наглядными пособиями, учебниками, компьютерными технологиями.

Игра служит подготовкой к серьезной дальнейшей деятельности; в игре человек, упражняясь, совершенствует свои способности. Источник игры усматривается в избытке сил: избыточные силы, не израсходованные в жизни, в труде, находят себе выход в игре. Теория игры как деятельности, порождаемой удовольствием. В игре видят реализацию вытесненных из жизни желаний, поскольку в игре часто разыгрывается и переживается то, что не удается реализовать в жизни.

Игровая форма занятий создается на уроках русского языка при помощи игровых приемов и ситуаций, выступающих как средство побуждения, стимулирования к учебной деятельности. Реализация игровых приемов и ситуаций происходит по следующим основным направлениям: дидактическая цель ставится перед учащимися в форме игровой задачи, учебная деятельность подчиняется правилам игры, учебный материал используется в качестве ее средства, в учебную деятельность вводится элемент соревнования, который переводит дидактическую задачу в игровую, успешное выполнение дидактического задания связывается с игровым результатом. Игра отличается тем, что человек, обучаясь в ходе игры, и не подозревает о том, что чему-то учится. Игровые мотивы:

1. Мотивы общения: учащиеся учатся общаться, учитьвать мнение товарищей, при решении коллективных задач используются разные возможности учащих, совместные эмоциональные переживания способствуют укреплению межличностных отношений.

2. Моральные мотивы: каждый ученик может проявить себя, свои знания, умения, свой характер, волевые качества, свое отношение к деятельности, к людям.

3.Познавательные мотивы: игра стимулирует учащегося к достижению цели (победе) и осознанию пути достижения цели (нужно знать больше других), результат зависит от самого игрока, уровня его подготовленности, способностей, выдержки, умений, характера, обезличенный процесс обучения в игре приобретает личностные значения, ситуация успеха создает благоприятный эмоциональный фон для развития познавательного интереса, состязательность притягательна для детей.

Удовольствие, полученное от игры, создает комфортное состояние на уроках и усиливает желание изучать предмет, в игре всегда есть некое таинство - неполученный ответ, что активизирует мыслительную деятельность ученика, толкает на поиск ответа, в процессе достижения общей цели активизируется мыслительная деятельность.

Использованная литература:

- 1.Кукушин В.С. Современные педагогические технологии. Начальная школа. – Р-н/Д.: «Феникс», 2004.
- 2.Педагогические технологии. Т.П. Сальникова. – М.: Сфера, 2005.



**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALARINI TENGlama ASOSIDA
ISHLASHNING OSON ULLARI**

Jumaniyozova Zumrad Arslonbekovna

Hazorasp tumani 12-sod mukammal maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 189 90 876

jumaniyozova.zumrad_12@inbox.uz

Turayeva Adolat Masharipovna

Hazorasp tumani 12-sod mukammal maktab o'qituvchisi

Telefon: +998 (99) 189 90 876

turayevaadolat_12@inbox.uz

Annotatsiya: Ushbu maqola tenglama asosida masalalarini yechishning oson usullari haqida.

Kalit so'zlar: Matematika, tenglama, dunyo, fan-texnika, masala, analiz, sintez, mantiqiy, yechim.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga chiqishi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi, yosh avlodlarning dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi.

Matematika eng qadimiy fanlardir biridir. Matematika fanini o'qitishning negizini asosan oddiy, qiziqrli, mantiqiy masalalar tashkil etadi. O'quvchilarda matematikaga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, tayanch kompetensiyalarga erishish uchun ta'lif jarayonida amaliy va nostandard xarakterdagi masalalardan foydalanmasdan turib erishib bo'lmaydi. Bunday masalalarini yechish o'quvchilarda analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduksiya va induksiya kabi mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini, intuisiya, egiluvchanlik va moslashuvchanlik kabi fazilatlarni rivojlantirib, o'quvchilarni olingan natijalar ustida tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Ko'pincha amaliy va nostandard xarakterdagi masalalarini yechimi darhol topilmasdan, bir necha bor urinishlar natijasidagina aniqlanishi sababli, bu maqsadga erishish uchun tirishqoq bo'lishni, ya'ni shaxsga irodalilik kabi juda ahamiyatlari sifatlarni tarkib topishiga imkon beradi. Va niyoyat, eng asosiysi: bunday masalalarini yechilishi o'quvchilarga natijaga erishilganlik bilan, va shuningdek yechim yo'lining go'zalligi va an'anaviy emasligi bilan bog'liq bo'lgan katta emosional zavq berishi katta ahamiyatga ega. Bunday masalalar barcha darajalarda kiritilishi lozim.

Masalalarni turli usullar va tenglama yordamida ham yechish mumkin. Misolar bilan birgalikda matnli masalalarni tenglamalar yordamida yechish fanda katta o'rinni egallaydi.

Tenglama asosida masalalarni yechishga doir misollarni keltirib o'tamiz:

1-masala. Ekskursiyaga 28 ta bola va bir qancha qiz jo'natildi. Ular 2 ta avtobusga 25 tadan joylashdi. Nechta qiz bor?

Oldin noma'lum qizlar sonini x bilan belgilaymiz. O'gil va qizlar sonini $(28 + x)$ deymiz.

Ikkita avtobusga ketganlar soni 25×2 deymiz.

Yuqoridagilarni tenglashtiramiz: $28+x = 25 \times 2$

Noma'lumlarni x bilan belgilaymiz;

O'gil va qizlar soni $(28 + x)$ bo'ladi;

Ularни ikkita avtobusga bo'lsak, $(28 + x):2$;

2 ta avtobusga 25 tadan ketsa, $(28+x):2 = 25$ tenglamani hosil qilamiz.

$$(28+x):2 = 25$$

$$28+x=25 \times 2$$

$$28+x=50$$

$$x=50-28$$

$$x=22$$

Tenglamalar tuzish yordamida sodda masalalar yechish ikkinchi sinfdan boshlanadi. Ular qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishdagi noma'lum komponentni topishga doir masalalar yechadilar.

2-masala. Vazada 11 ta olma bor edi. Tushlikda bir nechta olma olingandan keyin vazada 7 ta olma qoldi. Nechta olma olingan?

Bor edi 11 ta, uni $11-x=7$ ko'rinishdagi tenglamaga keltiramiz. Bu tenglama noma'lum ayriluvchini topish qoidasiga asosan yechiladi.



$$11-x=7 \quad x=11-7 \quad x=4$$

Eng qiyin vaziyat noma'lumni to'g'ri o'rinda ishlatib, tenglamani tuzishdir. Bu amal to'g'ri bajarilsa, albatta masala yechimi to'g'ri ishlanadi.

3-masala. Noma'lum son 42 sonidan 9 ga kichik, bu sonni toping?

$$42-x = 9$$

$$x + 9 = 42$$

$$x = 42 - 9$$

$$x = 33$$

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda murakkab masalalarni tenglama tuzish orqali o'rgatilsa, albatta ijobjiy natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Axmedov M., Abduraxmonova N. Jumayev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "Turon-iqbol" 2008 yil., 160 bet

2. Boshlang'ich sinflarda innovatsion metodlarning ahamiyati, Nilufar Mahamadjon, Qizi Qo'Chqorova,



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TA’LIM SIFATINI BELGILOVCHI OMILLAR

Junisova Aygul Aydarbekovna

Navoiy viloyati Tomdi tumani 6-maktab

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Kushekova Aqmaral Shamshetovna


Navoiy viloyati Tomdi tumani 15-maktab

boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu uslubiy tavsiyada boshlang‘ich ta’limda ta’lim sifatini oshiruvchi omillar xususida tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: xotira mashqi, yozma savodxonlik, nutq, tajriba, mahorat ...

Ta’lim sifatini belgilovchi omillardan biri bu o‘qituchining o’z fani bo’yicha kompetentsiyaga ega bo’lishidir. U pedagogik moslashuv tizimi asosida namoyon bo’ladi. Ko‘zatishlar asosida shu narsa ayon bo’lganki, ko‘pchilik mashhur odamlarda o‘ta qiziquvchanlik, ko‘p savol berish xususiyatlari bo’lgan. Ijodkor o‘quvchilar boshqa o‘quvchilar orasida a’lo darajadagi xotira, tinib-tinchimaslik, yakka holda ishlashni xush ko‘rish, o‘zini nazorat qila olish xususiyatlari bilan ajralib turganlar. O‘quvchilar amaliy faoliyatda olgan bilimlarini qo’llay olishi, tayanch bilimlarini tushingan holda idrok etganlari bilan bog’liq .



Xususan, o‘quvchi egallagan bilimlarni qo’llash, uning to’g’ri yo’l tutib , muayyan va’ziyatda tayanch bilimlari qanday tushinchalardan foydalanish va ularni qo’llashning mohiyatiga yetishi ayni paytda tushunchalar mohiyatini rivojlantiradi. Natijada bilimlar amalyotda qo’llaniladi hamda bu bilimlar o‘quvchi ongida rivojlanadi. Har bir ijodkor o‘qituvchi bu jarayonlarni dadaktik jihatdan to’g’ri, unumli uyuşтириш orqali ta’limning sifatini ta’minlaydi. O‘qituvchi va o‘quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan bo‘lib, bunda ishlatiladigan texnologiya o‘quvchilarning bilim saviyasi, guruh tabiatи va sharoitga qarab tanlanadi.

“Eslab qoling” usuli. Bu usul xotira mashqi hisoblanadi. Bu usul orqali o‘quvchilarda **tinglab tushunish, so’zlab berish ko‘nikmasi** shakllanriladi.


Bunda o‘quvchilar bilan matnlar ustida ish olib boriladi. Dastlab, matn o‘qituvchi tomonidan audeo, video shaklda, yoki og‘zaki o‘qib eshittiriladi. Keyingi bosqichda o‘quvchilar tomonidan ketma-ketlikda o‘qiladi. So‘ng kitoblar yopilib, matnning so‘zlarini so‘raladi. To’g’ri matn so‘zlarini eslab qolish qiyin.

O‘quvchilar matnning so‘zlarini aynan yodda saqlashi shart. Bu usul o‘quvchilarni e’tiborli bo‘lishga undaydi. Bunda o‘quvchilar matn tahlilini o‘rganadi. Matnni aynan davom ettirolmagan



о‘quvchiga salbiy fikr bildirilmaydi.


Bu usul o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va xotirasini o‘stiradi.



“Imkoniyat” usulida chorak yakunida o‘zlashtirishi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarga o‘rganilgan mavzular bo‘yicha javobi tanlanadigan va javobi yoziladigan testlar tuzib kelish topshiriladi. Bu vazifani a’lo darajada bajargan o‘quvchilar yakuniy nazorat ishlarini topshirishdan ozod qilinadi. Test tuzgan o‘quvchilarda test yechgan o‘quvchiga nisbatan quyidagi ko‘nikmalar shakllanadi:

- o‘z fikrini yozma tarzda izchil, aniq, tushunarli bayon qila olish;
- mavzudan kelib chiqib savollarga javob berish va o‘zi ham savollarni mantiqan to‘g’ri qo‘ya olish;
- axborotlarni izlab topish, saralash, tanlash va tahlil qila olish;
- bilimini mustaqil ravishda oshirib borish va uni amaliyotda qo‘llay olish kabilar.

Bu usulda o‘quvchilarga “chunki” so‘zigacha bo‘lgan jumla o‘qituvchi tomonidan yozdiriladi. Bunda o‘quvchilarning **yozma savodxonligi** oshiriladi, husnixatiga e’tibor qaratiladi.



“Kichik muhokamachi” usuli. Ushbu topshiriq jarayonida o‘quvchilarning o’tilgan darslar davomida erishgan yutuqlari va kamchiliklarini shaxsiy kuzatishlari asosida aytishlari, muhokama qilishlari lozim. Ushbu topshiriq turli fanlarda turlicha kechadi.

Xullas, har bir ustoz o‘quvchilarimizni yuksak ma’naviyatlari, chuqur bilimli, keng mushohadali, ijodkor va eng asosiysi, savodxon qilib tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Turdiev N.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyalari, 2015-y,
2. <http://www.uzedu.uz> - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi portal.



ТА’ЛИМДА INNOVATSION TEXNOLOGIYALARНИ QO’LLASH VA ULARGA BUGUNGI KUN TALABI

Jusipova Gulzat Yedilovna

Navoiy viloyati Tomdi tumani

1-IDUM qozoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi

Xaydarova Gulhayo Nurmon qizi

Navoiy viloyati Tomdi tumani

1-IDUM matematika fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ta’lim uzoq davom etadigan jarayon bo’lib, uning sifati darsda qo’llanilgan metodlarga bog’liq. Mazkur maqlolada ta’limda innovatsion texnologiyalarни qo’llash va ularga bugungi kun talabi yoritilgan.

Kalit so’zlar: Intefaoi metodlar, innovatsion texnologiya, afzallik, qulaylik...

Innovatsion texnologiya – ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo’llash orqali bilim egallashni takomillashtirish usullari. Uning asosiy maqsadi ta’lim jarayonida o‘qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgartirishlar kiritish bo’lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg’ulotga aylanadi. Ma’lumki, hozirgi kunda interfaol metodlarning yuzdan ortiq turi mavjud bo’lib, ularning aksariyati tajriba-sinovdan o’tib, yaxshi natija bergen. Keng qo’llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqdimot”, “Blits-so’rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda samarali natijalarga erishish mumkin. O’zbek tili darslarida ham yuqorida sanab o’tilgan interfaol metodlardan tashqari “Ha... yo‘q”, “Ta’rif egasini top”, “Men kimman?”, “Domino” kabi didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. O‘yin vaqtida o‘quvchilar o‘zini erkin tutadi, bilimini namoyon etgisi keladi. Natijada o‘quvchida ishonch, qat’iyat paydo bo’ladi. Munozaraga kirishishni o‘rganadi. Fikrini asoslashga odatlanadi. Bunda o‘quvchilarning yoshi, bilim darajasi inobatga olinishi lozim. Ta’lim uzoq davom etadigan jarayon bo’lib, uning sifati darsda qo’llanilgan metodlarga bog’liq. Darsning mazmunli o’tishi, unda qanday metodlardan foydalanilgani va natijaga erishilgani o‘qituvchining mahorati, bilim darajasini belgilaydi. Darsda metodlar to’g’ri tanlansa, maqsadga tez va oson erishiladi. Interfaol metodlarni tanlash har bir darsning didaktik maqsadidan kelib chiqqan holda amalgalash oshiriladi.

Quyida bir qanchasini taqdim etamiz:

“Har sohadan bir shingil” usuli. Bunda o‘quvchilarga fanlarning har sohasidan qiziqarli mantiqiy savollar beriladi/

1.Aql gimnastikasi (**shaxmat**)

2.Tirik jonzot bo`magan yagona burj vakili .(**tarozi**)


3.Bu sport turi tarjima qilinganda “uchayotgan to’p “ (yoki uchuvchi to’p) ma’nosini beradi .Bu qaysi sport turi ? (**Volleyball**)

“Qiziqarli krossvord” usuli. Bunda aynan bir xil harf bilan boshlanuvchi so’zlardan krossvord tuzilib, o‘quvchilarning mantiqiy tafakkuri kengaytiriladi.

1.O’zbekiston-mustaqlil

2. Mirzo Ulug’bek qayerda yulduzlar ilmini

QIZIQARLI KROSSVORD





Innovatsion usul turlari

1. Modelashtirish(Trenarovka-mashq qilish); O'qitishing bu usuli o'z ichiga real hayotni qayta tiklash uchunishlab chiqilgan moslama, asbob yoki vaziyatni o'z ichiga oladi.

Qo'llanilishi; -Turli vaziyatlarda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni qo'llashda

-Ilgari o'rnatilgan prinsiplari real hayotiy vaziyatlarda qo'llashda;

Afzalligi: -O'quvchilar faolligi va jalb qilinishini mustahkamlaydi;

-eslab qolishni kuchaytiradi.

2.Namoyish qilish.

Demonstransiya –«ko'rsataman, isbotlayman»degan ma'noni anglatadi.

Bu o'qitish usulida o'qituvchi topshiriqni bajarib, o'quvchilarga bu topshiqni qanday bajarish kerakligini ko'rsatadi. Bu o'qitish usulidan so'ng, o'quvchilarga topshiriqni bajarib ko'rish imkonini berish kerak.

Qo'llanilishi:-topshiriqni qanday bajarishni ko'rsatish uchun;

-muommolarni hal qilish va analitik mohirlikka o'rgatishda;

Afzalligi:-o'quvchi o'z ko'zi bilan ko'radi va o'qitishning faol shakli ekanligi.

-tushinish va eslab qolishga yordam beradi va qiziqishni oshiradi;

Rolli o'yinlar: O'qitishning bu usulida o'quvchilar «real hayot» holatlarini qayta jonlantiradilar.

Qo'llanilishi:-Yangi turdag'i faoliyatni sinash imkonini ko'rsatishda;

o'quvchilarni nazariyasini amaliyotda qo'llab ko'rishga o'rgatishda;

Afzalligi:-«real hayot»ning qayta tiklanishi;

-o'quvchilarning mavzuga chuqurroq jalb qilinishi;

-o'quvchilarning muommoga boshqacha yondashuvini ko'rish imkonini berishi;

“Har sohadan bir shingil” usuli. Bunda o'quvchilarga fanlarning har sohasidan qiziqarli mantiqiy savollar beriladi/

1.Aql gimnastikasi (**shaxmat**)

2.Tirik jonzot bo'magan yagona burj vakili .(**tarozi**)

Darslarda innovatsion usullar muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay, balki, o'quvchilar bilimi mustahkamlashga, mavzuni oson o'zlashtirishga yordam beradi. Har bir fan o'qituvchisi o'quvchini bilim olishga qiziqtira olishi, undagi yashirinib yotgan motivatsiyalarini ro'yobga chiqarishi, buning uchun ko'ngliga yo'l topish lozim. Avval qiziqtirish, so'ngra o'rgatish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari.

2.“Umumta'lim fanlari metodikasi” jurnali, 1-, 2-, 3-, 4-sonlar, 2018-y



ALISHER NAVOIY IJODINI O'RGANISHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Kalandarova Mohira Amanbayevna

Xorazm viloyati Urganch shahar

19-sonli IDUMning Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodini o'rganishning tarbiyaviy ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: maktab, Alisher Navoiyning, badiiy asar, tarbiya.

Yosh avlodga zamonaviy ta'lif berish bilan birga ularni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlarni qadrlash ruhida tarbiyalash, ongi va qalbini mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularda g'oyaviy immunitetni shakllantirish masalalari davlatimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Ta'limda milliy g'oyani bolalar qalbi va ongiga singdirish vositalari juda ko'p, albatta. Ulardan eng asosiysi badiiy adabiyot hisoblanadi, badiiy adabiyot orqali bolalar qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, vatanga sadoqat, ezhulik, fidoiylik, mardlik kabi tuyg'ular singdirilib, ular ushbu ma'naviy-axloqiy muhitda tarbiyalanadi. Odob deya atalmish yuksak axloqiy fazilatni boshlang'ich sinf o'quvchilariga Navoiyning bobomizning betakror ibratli so'zlari orqali yetkazish o'yaymanki, ancha samarali bo'ladi, ya'ni Navoiy fikricha odob insonlargagina xos bo'lgan yuksak axloqiy fazilatlardan sanaladi. Ana shu yuksak fazilatdan bebahra bo'lgan kishi hech qachon jamiyatda e'tibor qozona olmaydi, do'st orttira olmaydi, taqdirning o'zi bu kabi insonlarni odamlar orasidagi o'mini belgilab berdi.

Mutafakkirning odob haqidagi quyidagi betakror fikrlari tafsinga loyiqdir: Qahqahdan kabk navo kelturib,

Boshig'a ul kulgu balo keltirib.

G'uncha kulib bo'ldi ochilmoq anga,

Yetti ochilmoqda sochilmoq anga.

Barqni kulgu yiqibon tog' aro,

Balki qilib yer quyi tirnog' aro.

Shuningdek, Alisher Navoiyning dostonlari tarkibidagi qator ibratli hikoyalari: «Donolar donosi», «Sher bilan Durroj», «Ikki vafoli yor», «Bir kabutar», «Hotam toyi» kabi hikoyalari, «Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz», «Oz-oz o'rganib dono bo'lur», «Bilmaganin so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim» kabi hikmatli so'zlari bolalarga turmushda, jamiyatda, o'z jamoasida yurish-turishning to'g'ri qoidalarini egallashida, ularda ijobjiy fazilatlarning shakllanishida katta yordam beradi. Bolalar buyuk mutafakkirlarimiz haqida faqat ilk ma'lumotga ega bo'lib qolmasdan, balki ularning boy ma'naviy merosi haqida ham tasavvurga ega bo'ladilar. Mashg'ulotlar jarayonida ulug' bobokalonimizning hayotiy sodda so'zlar bilan aytilan ibratli fikrlaridan bolalar yurtimiz buyuk allomalar yurti ekanligini his eta borib ularda bundan faxrlanish, g'ururlanish tuyg'ulari shakllana boshlaydi. Badiiy asar bolalarning axloqi, bilimi, dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar she'r, ertak, hikoyalarni qiziqib tinglaydilar, ijobjiy qahramonlar obraziga taqlid qiladilar, ularning xatti-harakatini, so'zlarini eslab qoladilar. O'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarish bilan birga bolalar o'zlariga berilgan rollar, asar qahramonlarining obrazlari, she'rlar orqali, o'rtoqlarining quvonchiga, qayg'usiga sherik bo'lish, o'stirgan guli qurib qolsa qayg'urish, birovlarning narsasini so'roqsiz olmaslik, o'rtog'iga ko'maklashish, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish kerakligini tushunib, «uvol», «gunoh», «savob», «haq», «nohaq» kabi so'zlearning ma'nosini uqib boradilar. Bolada yoshlik chog'idanoq atrofdan go'zallik axtarish, zavqlanish, go'zallikni his qilishning ilk tuyg'ulari uyg'ona boshlaydi. Ana shu ilk tuyg'u bolada atrofdagilarga nisbatan insoniylikni tarbiyalash uchun asos bo'la oladi. Eng muhimi, bolaning atrofdagi voqeja va hodisalarga nisbatan beparvo bo'lmaslidir. Bu beparvolik oilaga, qolaversa, jamiyatga juda qimmatga tushadi. Zero, bugungi yoshlarni ajdoddarga munisib bo'lishlari, sharqning yuksak tarbiya mifiktabini mukammal egallab, uni avlodlarga yetishlari jamiyatimiz oldida turgan zaruriy shartlardandir.

Adabiyotlar:

1. Hamroyev M.A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. -T.: 2013.

2. Qodirova F. Pedagogik kadrlarga ilg'or pedagogik texnologiyalar haqida. Til va adabiyot jurnali. 2001.



KIMYO DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Kamiljanova Shamsiqamar Davronbek qizi

Xiva shahar 16-sон мактаб о'қитувчisi

Telefon: +998 (91) 434 43 30

kamiljanovashamsiqamar_16@inbox.uz

Matniyazova Marxobo Amanboyevna

Xiva shahar 16-sон мактаб о'қитувчisi

Telefon: +998 (99) 969 78 57

marxobo.amanboyevna_x16@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada kimyo darslarining samaradorligini oshirishida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etilishi xususida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zлari: Tabiiy fanlar, innovatsion texnologiyalar, elektron ta'lim.

Bugungi kunda dars jarayoni samaradorligini oshirish hozirgi zamon pedagogikasining dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Texnika, texnologiya va ishlab chiqarishning jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi uzlucksiz ta'limi tizimi oldiga bir qator ilmiy va ilmiy-uslubiy yondashuvlar, ta'lim sifatini zamon talablari darajasiga ko'tarishning noan'anaviy usullarni keng qo'llagan holda keskin ko'tarish vazifalarini qo'yemoqda. Shu boisdan, o'quvchilarda texnika va texnologiyalarning yangi yutuqlarini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilish uchun o'qitish usullarini tubdan yangi pog'onaga ko'tarish zarurati davr talabi bo'lib qolmoqda. Bu muhim vazifalarni hal etishda kundalik turmushga jadal sur'atlar bilan kirib kelayotgan pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron ta'limga resurslaridan keng foydalanish muhim rol o'ynashi muqarrardir.

Ta'litmizining turli-tuman usullari shakllanib borayotgan paytda o'qituvchi o'qitish jarayoniga innovatsion texnologiyalarini va ularning elementlarini qo'llagan holda darslar saviyasini oshirish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Innovatsion texnologiyalar (kompyuterli o'qitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va telekommunikatsiyalar) o'quv jarayonini ratsional loyihalash orqali ta'limga maqsad va vazifalariga erishish samaradorligini oshirishga ko'maklashadi.

Innovatsion texnologiyalarini o'quv jarayoniga, ayniqsa, kimyo fanlarini o'qitishda qo'llanilishi o'zining yuqori samarasini bermoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, oxirgi paytlarda o'quvchilarning fanlarni, ayniqsa, tabiiy fanlarni o'zlashtirish darajasi pasayib borayotganligi kuzatilmoqda. Buning sabablari: dasturiy o'quv materiallarining murakkablashib borayotganligi, dars soatlarning qisqarishi tufayli materiallarni o'zlashtirish uchun vaqt yetishmasligi, o'quv jarayonida qo'llaniladigan zamonaviy jihozlarning yetarli emasligidir.

Ta'litmizining rivojlantirish yo'lida pedagog xodimlar tomonidan ta'limga yangi uslubiyotlari, vositalarini tadbiq etish borasida keng izlanishlar olib borishmoqda, bu o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishda pedagogik va axborot texnologiyalarini tobora keng joriy etish, bunda kompyuter texnikalariga alohida e'tibor qaratish dolzarb bo'lib bormoqda.

Bu maqsadlarga erishish uchun tabiiy fanlar, ayniqsa, kimyo fanlarini o'qitishda quyidagilarni hal etish muhimdir:

- kimyo fanlarini o'qitish uslubiyotida kompyuterlashtirilgan o'qitishning asosiy prinsiplari va usullarini nazarda tutish;
- ta'litmizining axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga moslashtirish;
- ta'litmiz oluvchilarda axborot-kommunikatsiya iboralarini shakllanishini ta'minlab borish;
- ta'litmiz jarayonida sog'lom muhitli o'qitishni joriy etilishini ta'minlash.

Kimyo fanlarini o'qitishda kimyoviy eksperiment muhim o'rinni egallaydi. O'qitish metodikasida kimyoviy eksperiment o'zining bir qator jihatlari bilan boshqa tabiiy fanlarni o'qitish metodikalaridan tubdan farq qiladi. Shu sababli, ko'pchilik kimyo o'qituvchilari kimyoviy eksperimentga spetsifik usul va o'qitish vositasi sifatida qarab, kimyoviy fanlarni o'qitish jarayonida bu usulga katta e'tibor qaratmoqdalar.

Ta'litmizida axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etib borilishi, bunda qo'llaniladigan har bir uslubiyot talabalar faolligini tub ma'noda oshirishi, ularning kimyo asoslarini puxta o'zlashtirishinigina ta'minlab qolmay, balki ularda kuzata bilish, eshita bilish, asosan, fikrlay bilish malakasining shakllanib borishi, bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlanishi



uchun mustaqil poydevor xizmatini o‘tashini ta’minlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati.

1. Sayidahmedov N.pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.–T.: 2003
2. Shoymardonov R.A., Ergashov M.Y. Organik kimyo. – T.: 2013



O’ZBEKISTONDA BIOTEXNOLOGIYALAR VA GEN MUHANDISLIGI

Kamalova Gulgora Jumabayevna

Qoraqalpog’iston respublikasi Amudaryo tumani
47-umumiyy o’rtta ta’lim maktabi biologiya fani o’qituvchisi
amanboeverkin@gmail.com Tel: +998 99 038 43 30

Annotatsiya. Biologiya darslarida o’quvchilarning bilim olishi, tabiatga nisbatan qiziqish uyg’otish, O’zbekistonda biotexnologiya yutuqlari haqida ma’lumotlarga ega bo’lishlari va mavzuga nisbatan tushunchalarni o’quvchilar ongiga singdirish

Kalitso’zlar: Biotexnologiya, vector, rekombinatsiya, zamburug’, bakteriya o’simliklar, plasmid, bakteriofag, klon, insulin, DNK polimeraza teskari transkriptaza, revertaza, endonukleazalar yoki restriktaza, DNK ligaza

Gen muhandisligi va biotexnologiya ahamiyati haqida nimalarni bilasiz?

Tabiiy sharoitda bakteriyalarda sodir bo’ladigan rekombinatsiya jarayonlari hamda viruslarning hujayra irsiy materialini o’zgartirish mexanizmlari ustida olib borilgan izlanishlar tufayli molekulyar biologiyada katta amaliy ahamiyat va istiqbolga ega yo’nalishlaridan biri hisoblanadigan gen injenerligi yoki genetic injenerlik deb atalgan yangi yo’nalish vujudga keldi. Tabiatda ham shu kabi rekombinatsiya jarayonlari kuzatiladi. Viruslar, bakteriyalar o’zidagi genetik moddani boshqa organizmlarga o’tkazish xususiyatiga ega.

Gen muhandisligining maqsadi genlarning strukturasini aniq maqsadga muvofiq ravishda o’zgartirish, ularning faoliyatini idora etishdir. Natijada har qanday tirik organism xususiyatlarini imkoniyat darajasida maqsadga yanada ko’proq muvofiqlashtirish yo’li bilan sanoat miqyosida oqsil moddalari ishlab chiqarish, o’simlik va hayvon turlarini inson ehtiyojiga mos ravishda o’zgartirish, irsiy va yuqumli kasalliklarni aniq va tez tashxis qilish hamda sabablarini aniqlash usullari yaratildi. Gen muhandisligining tadqiqot obyektlari viruslar, bakteriyalar, zamburug’lar, hayvon va o’simliklarning hujayralaridir. Tadqiqot obyektlariga ko’ra genetik injeneriya: gen muhandisligi, xromosoma muhandisligi, hujayra muhandisligi kabi yo’nalishlarni o’z ichiga oladi.

Vektorlar. Vektor (genetika va molekulyar biologiyada) - genetik materialni hujayraga kiritish uchun foydalaniladigan DNK molekulasi.

Hozirgi kunda har qanday genning nusxasini olish mushkul ish emas. Ko’p sonli aynan bir xil DNK nusxalarini olish usuli genlarni klonlash deb ataladi. Buning uchun klonlashtiruvchi vektorlar, ya’ni nusxa olinishi kerak bo’lgan DNK bo’lagini ko’chirib o’tkazuvchi vositalar zarur. Mazkur vositalar sifatida genetik injeneriyada plazmidlar hamda bakteriofaglardan foydalaniladi.

Plazmidlar- bakteriyalarda aniqlangan kichik halqasimon DNK molekulasiidir. Ular asosiy (xromosoma) DNK dan alohida bo’lib, undan mustaqil ravishda replikatsiyalanadi. Bakteriofag (fag) lar o’z DNK sini bakteriya hujayrasiga kirlita oladigan viruslardir. Klonlanishi zarur bo’lgan gen plazmidaga yoki fag DNK siga maxsus fermentlar vositasida biriktiriladi.

Plazmidlar bakteriyalarning tashqi muhitga moslashish, masalan, antibiotiklarga qarshilik ko’rsatish xususiyatini oshiradigan bir nechta genlardan tashkil topgan DNK qo’sh zanjirli halqasidan iborat molekula. Ayrim plazmidlar bakteriya asosiy “xromosoma”si (nukleoid) nukleotidlari izchilligini kesib, unga birikadi, ya’ni rekombinatsiya bo’ladi. Plazmid genlari nukleoid tarkibida ham o’z faoliyatini bajaradi. Bakteriya bo’linganda rekombinatsiyalanuvchi plazmid genlari asosiy “xromosoma” genlari bilan birikkan holda nasldan naslga beriladi. Ayrim plazmidlar asosiy “xromosoma”dan avtonom holda replikatsiyalanadi. Bu plazmidlarning bir hujayradan ikkinchi hujayraga o’tishi kon’yugatsiya va transformatsiya jarayonlarida amalga oshadi. Plazmidlardan genetik injeneriyada vektor sifatida foydalaniladi.

Plazmidlarga nisbatan faglarning vektor sifatida afzalligi ko’proq DNK bo’laklarini klonlash imkoniyati mavjudligidadir. Aksariyat holatlarda buning uchun λ (lyambda) fagdan foydalaniladi. Fag DNK sining bir qismi klonlash zarur bo’lgan DNK fragmenti bilan almashtiriladi. Fag bakteriya hujayrasiga kirkach, uning genomiga birikadi.

Fermentlar. Gen muhandisligi fermentlari DNK molekulalari bilan turli xil tajribalarni o’tkazishga yordam berib, ularni tegishli joyidan qirqish, DNK bo’laklarini ulash, tabiatda mavjud bo’lmagan nukleotidlardan ketma-ketligini sintez qilishda qo’llaniladi. Gen muhandisligida foydalaniladigan fermentlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: DNKnini



bo‘laklarga bo‘luvchi; RNK matritsa asosida DNK bo‘laklarini sintezlovchi; DNK bo‘laklarini ulovchi; DNK bo‘laklari uchlari struktrurasini o‘zgartirish imkonini beruvchi fermentlar. Gen muhandisligi keng qo‘llaniladigan fermentlardan biri DNK polimeraza fermenti bo‘lib, bu ferment birinchi marta 1958-yilda Korenberg va uning hamkorlari tomonidan *Esherichia coli* (ichak tayoqchasi bakteriyasi)dan ajratib olingan DNK polimeraza komplementar nukleotidlarni biriktirish yo‘li bilan DNK zanjiri reduplikatsiya jarayonida ishtirok etadi.

Retroviruslar RNK matritsasi asosida komplementar DNK sintezlovchi fermentga ega. RNK matritsasi asosida DNK sintezi odatda amalga oshadigan DNK matritsa asosida RNK sintezi – traskripsiya teskari jarayondir. Shu tufayli bu ferment teskari transkriptaza yoki revertaza deb nomlanadi. Retroviruslar bu fermentdan RNK dan iborat o‘z genomini yangi hujayralarni zararlovchi DNK ga aylantirish uchun foydalanadi.

Demak, bizni qiziqtirgan gen qaysi hujayrada faol ekanligi ma’lim bo‘lsa, bu hujayralardan mRNKnijajratib olish mushkul emas. Bu vazifa bajarilgach, mRNA teskari transkriptaza yordamida zarur genning DNK-nusxasi sintezlanadi.

Genlarni ajratib olishga qaratilgan eng dastlabki tadqiqtolar 1960-70-yillarda restriksion (inglizcha restricting-chechklovchi) endonukleazalar yoki restriktaza larning ochilishi bilan bog‘liq. Bakteriyalarda aniqlangan mazkur fermentlar bakteriyaga kirgan virus DNKnini qirqib, viruslarning bakteriya hujayrasida ko‘payishini cheklaydi. Har bir bakteriya o‘ziga xos restriksion endonukleazalarini sintezlaydi. Restriktazalar endonukleazalarning DNKnij muayyan maxsus ketma-ketliklari restriksiya saytlari (nuqtalari)ni tanib kesadigan, fermentlar guruhi hisoblanadi. Yot DNKnij parchalaydigan har qanday restriktaza fermenti DNKnij o‘ziga xos 6 ta nukleotid ketma-ketligini tanib kesadi, natijada to‘mtoq yoki yopishqoq uchli D NK bo‘laklari hosil bo‘ladi. Chunki bir turdag‘i bakteriyalardan bir necha xil restriktazalar ajratib olingan bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga qo‘sh zanjir D NK molekulasi «yopishqoq» uchlari hosil qilib kesuvchi restriktazalar (EcoRI), «to‘mtoq» uchlari hosil qilib kesuvchi restriktazalar (HpaI) ham mayjud. Restriktazalar hosil qilgan «yopishqoq» uchlardan foydalanib, har xil D NK bo‘laklarini bir-biriga bog‘lash soddalashadi. Ana shu xususiyati tufayli bu xil restriktazalar gen muhandisligida keng qo‘llaniladi. Restriktaza fermentlarining ochilishi D NK molekulasi bo‘laklarga bo‘lib, elektroforez qurilmasida o‘ta aniqlik bilan bir-biridan ajratib olish imkonini berdi. Rekombinatsiya jarayoni DNKnij bo‘laklarga ajratish va ularni ularidan iborat ekanligini ko‘rsatdi. Qo‘shni nukleotidlar orasidagi fosfodiefir bog‘larini tiklash orqali D NK bo‘laklarini bog‘lash vazifasini bajaruvchi ferment D NK ligaza deb ataladi. Ligaza yordamida D NKning har qanday bo‘lagining «yopishqoq uchli» yoki «to‘mtoq uchli» qismlari biriktiriladi. Bu eng ko‘p qo‘llaniladigan fermentlardan biridir. Donor D NK sini ajratib olish restriktazadan foydalanilgan bo‘lsa, plazmid D NK ga ham huddi shu restriktaza bilan ishlov berish lozim.

D NK restriksion fragmentlari plazmid D NK bilan aralashtiriladi, natijada ular yopishqoq uchlari bilan bir-biriga birikadi. Birikish dastlab vodorod bog‘lari hisobiga amalga oshadi, so‘ng D NK-ligaza fermenti qo‘shilgach, fosfodiefi r bog‘lari hosil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishanqulov, M.Umaraliyeva, I.Abduraxmonova „Biologiya“ 10-sinf uchun darslik Toshkent – „Sharq“ -2017
2. 1.A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipovalar biologiyadan qo‘llanma-2020-yil
3. A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishanqulov, M.Umaraliyeva, I.Abduraxmonova „Biologiya“ 10-sinf uchun darslik Toshkent – 2022
4. Internet “Google” ma’lumotlari



**BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA “BILIMLAR XOVUZCHASI” INTERFAOL
METODIDAN FOYDALANISH.**

Karimova Maqsuda Bahodirovna
Ro'zmetova Guliston Baxtiyorovna
Xonqa tuman 24-son mактабнинг
биология фани о'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol uslublardan foydalanilanish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'z: xorda, baliq, tizim, bosqich, topshiriq, xovuz, bilim.

Bugungi kun pedagoglarining asosiy vazifasi talabada erkin fikrlash, mustaqil faoliyat, tashabbuskorlik, faollik, mustaqil o'qish va rivojlanish malakasini hosil qilishdir. Ma'lumki, materialni yaxshi o'zlashtirish uchun shunchaki tinglab, yozib o'tirish yetarli emas, balki ushbu material ustida faol ishlash, o'yash, muhokama qilish, takrorlash, yordamchi vazifalarni bajarish kerak. Interaktiv (ingl. "interaction", "inter" – o'zaro, "action" – harakat, faollik bo'lib, o'zaro faoliyat, o'zaro harakat) o'qitishda o'qituvchidan mashg'ulot davomida talaba va o'qituvchiorasidagi o'zaro ta'sir darajasining bir ko'rinishidan ikkinchisiga mavzu maqsadiga bog'liqholda ustamonalik bilan ravon o'tishi talab etiladi. Ta'lif oluvchi mashg'ulotda "passiv" tinglovchi sifatida emas, balki "aktiv" ishtirokchi sifatida qatnashadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi, jamoa bo'lib fikrashi va ishlashi orqali amalga oshiriladi.


Bu usuldan umumlashtiruvchi darslarda yoki o'tilgan 2-3 ta mavzuni mustahkamlash maqsadida qo'llash mumkin. Ushbu usulni qo'llash uchun quyidagi ko'rgazmadan foydalanamiz(1-rasm),yani katta plakatni teng bo'lib(eni 30 sm, bo'yi 50 sm) 5 ta cho'ntakcha joylab chiqamiz, chontaklar 1tasi o'rtada qolgan 4 tasi 4 tomoniga teng taqsimlanadi. O'rtadagi chontakni konvert shaklida yasab ichiga 20 ta kartochka joylashtiriladi. Agar ko'rgazmani "Xordalilar tipi" mavzusini mustahkamlashda qo'llasangiz, 4 ta cho'ntakcha ustiga-

1 tasiga Baliqlar,

2-ga Suvda ham quruqlikda yashovchilar,

3-ga Sudralib yuruvchilar,

4-ga Qushlar deb yoziladi va o'rtadagi konvertga shu mavzularga doir qoidalar aralash holda joylashtiriladi va ustiga "Bilimlar xovuzchasi" deb yoziladi.(Bu usulni guruuhlar ichida qo'llash yanada qiziqarli o'tadi.) Keyin guruhdagi o'quvchilarga konvertdagagi kartochkalarni olib har birini mavzusiga qarab joylashtirishlari kerakligi aytildi. Har bir cho'ntak ichida 5 tadan kartochka to'gri solinganligiga qarab baholanadi. Korgazmani bunday nomlanishiga sabab, o'rtadagi konvert ramziy ma'noda "xovuzcha" hisoblanib, o'quvchilar bu "xovuzdan baliqlarni turlariga qarab chelaklarga joylashtirishi kerak"-degan ma'noda tushuntiriladi. Bunda o'quvchilar darsga yanada qiziqish bilan qaraydilar. Bu usuldan bir bobni tugatganda, chorak oxirida, yil oxirida mavzularni takrorlash maqsadida foydalanish mumkin.



1-rasm. Bilimlar xovuzchasi.



Faoliyat yondashuvini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyati shundaki, umumiy ta'limga maqsadlari o'quvchilar o'r ganish natijasida hal qila olishlari kerak bo'lgan asosiy vazifalar tizimi shaklida taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A “O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida”: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T – “O'zbekiston.” 1997-326 b.
2. Yo'ldashev J. G, Usmonov S .A. “Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy kilish.” T., “Fan va texnologiya”. 2008 – 132 b.



**INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA NOAN'ANAVIY DARSLARDAN
FOYDALANISH**

Karimova Mavludaxon To'xtasinovna

Fargona viloyati O'zbekiston tumani

37-umumi o'rta ta'lif maktabi

informatika o'qituvchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada informatika fanini o'qitishda noan'anaviy darslardan foydalanish hususida yoritib berilgan va uning afzalliklari tahlil etib o'tilgan.

Kalit so'zlar: informatika, texnika fanlari, innovatsion texnologiya, texnik vositalar, ma'ruza usuli, an'anaviy darslar.

Ta'lif muassasalarining zamonaviy texnik vositalar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar va o'quv laboratoriya jihozlari bilan qaytadan ta'minlanishi o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirishga muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida pedagog-o'qituvchilar zimmasiga yana bir qo'shimcha ma'suliyat yuklaydi. Bugungi kun o'qituvchisi endi nafaqat o'z fanini mukammal bilishi, balki zamonaviy texnik vositalar bo'yicha ham zaruriy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarurdir. Shuningdek bugungi kun o'qituvchisi an'anaviy o'qitish usullarini yanada takomillashtirib, informatika fanini o'rgatishda yangi pedagogik innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga izchil qo'llashi va jadal rivojlanib, shakllanib borayotgan o'qitish usullaridan muntazam xabardor bo'lib turish muhimdir.

Aksariyat hollarda informatika fanini o'qitishda ma'ruza usuli qo'llaniladi. Bu usul ayrim o'quvchilarning darsda faolligini susaytiradi va tinglovchining diqqatini shu mavzuga va u bilan bog'lik bo'lgan texnik jarayonlarni tushunishga jalb qilish qiyin ekanligi ma'lum. Endilikda bazingning nazarmizda mavzuni bayon qilishda va yoritib berishda ko'proq axborotkommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o'qitish samaradorligini yanada yaxshilaydi va oshiradi. Shunday ekan informatika va texnika fanlarini o'qitishga e'tiborni jalb qiladigan ayrim xulosalar to'g'risida fikr yuritamiz. O'rganilayotgan mavzularga doir materiallarning elektron variantlarini internetga joylashtirish ham o'qitish sifat va samaradorligini oshirish omillaridan biridir.

O'quvchi mustaqil o'rganish jarayonida internetdan foydalanib berilgan topshiriqlarni bajarish uchun izlanish olib boradi, yoki ma'lum uzrli bir sabablarga ko'ra, darsga qatnasha olmagan o'quvchi elektron manbalardan kerakli ma'lumotlarni olish imkoniga ega bo'ladi. Bu o'quvchiga quaylik yaratish bilan birga undagi bo'shlinqni to'ldirish imkonini beradi. An'anaviy darsda aksariyat hollarda o'qituvchi gapiradi. Bu esa o'quvchilarning faolligini ma'lum darajada susaytiradi. Noan'anaviy dars esa asosan o'quvchini darsda mustaqil faol ishlashga, erkin fikrlashga va muloqotda bo'lishga imkon beradi. Texnik vositalar yordamida dars o'tish berilgan qisqa vaqtidan unumli foydalanishga sharoit yaratib beradi. An'anaviy o'qitishning usul va metodlari respublikamizda keng tarqalgan va ular o'zining ma'lum tarixiga ham egadirlar. Biroq ta'lif sohasidagi islohotlar ni amalga oshirishda an'anaviy ta'limning imkoniyatlari cheklanayotganligini, muhim ta'limiyl muammolar o'z yechimini topmayotganligi, qator ilg'or pedagogik tajribalar ommalashmayotganligini ko'rshimiz mumkin. Pedagogik texnologiyaning an'anaviy o'qitish metodikasidan farqlovchi belgilari ko'p. Pedagogik texnologiya an'anaviy metodikadan, avvalo, maqsadlarning qo'yilishi va unga erishishi bilan farqlanadi. Pedagogik texnologiyaning usul va metodlari ta'limning umumi maqsadlarini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish va natijalarini nazorat qilish, kuzatish hamda baholashga xizmat qiladi.

An'anaviy darslarda ko'rgazmali vosita sifatida plakatlardan foydalanib kelingan bo'lsa, hozirgi paytda kompyuter, slayd, multimedia vositalar kabi zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari keng tadbiq etilmoqda. Noan'anaviy darslarda an'anaviy darsdan farqli ravishda tasvir va tovush uyg'unligi o'quvchining faolligini va ularning o'tilayotgan mavzuga qiziqishini oshiradi hamda berilayotgan ma'lumotlarning uzoq muddatga xotiralarida saqlanib qolishiga xizmat qiladi.

Eng muhimi har bir o'quvchini mustaqil ishslashga va fikrlashga undaydi. Informatika va texnika fanlarni o'qitishda axborot - kommunikatsion vositalardan unumli foydalanish va uni dars jarayonida qo'llash uchun eng birinchi o'rinda pedagog-o'qituchilarning o'zlarini texnik vositalar bilan ishslash ko'nikmalariga ega bo'lishi zarur. Bir so'z bilan aytganda o'qituvchi muntazam



ilmiy, ilmiy – ijodiy izlanishda bo‘lishi kerak. Aks holda o‘qituvchining mehnat samarasi talabga javob bermay qoladi.

Xulosa o‘rnida shuni qayd qilish kerakki, darsda texnik vositalardan foydalanish o’quvchining o‘zlashtirish koeffitsentini bir necha barobar oshiradi. Ilmiy asoslarga ko‘ra inson taxminan 70 foiz ma’lumotlarni ko‘rish va kuzatish orqali oladi. Xususan, informatika va texnika fanlarini o‘rgatishda noa’nanaviy usullarni va axborot – kommunikatsion vositalarni keng joriy etish har bir o‘qituvchining kundalik uslubiga aylanishi zarur deb hisoblaymiz. Shundagina biz tayyorlab jamiyatga yetkazib berayotgan kadrlarimiz bugungi kun talabiga javob bera oladigan rakobatbardosh mutaxasislar bo‘lib shakllanadi deb o‘ylaymiz.

Adabiyotlar:

1. Topildiyev V.R. Ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning meyoriy-huquqiy asoslari. T.: 2015;
2. Podlasiy I.P. Pedagogika. Obshiyе osnovi. Protsess obucheniiY. M., 2005;
3. Podlasiy I.P. Pedagogika. Noviy kurs. Ucheb. dlya stud. vissh. ucheb. zavedeniy: v 2 knigax. M.,2002 y.



DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI DARSLARNI TASHKILLASHTIRISH

Karimova Nilufar Abdurashid qizi

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

3-sonli IDUM geografiya fani o'qituvchisi

Muxtorova Gulzoda Izzatilla qizi

Navoiy viloyati Uchquduq tumani

3-sonli IDUM fizika astronomiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim fanlari ta'limi jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish, darslarni didaktik o'yinlar orqali tashkillashtirish usullari keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'yin, didaktik o'yin, kompyuter, ta'lim, xotira, fikr, o'quvchi, dars.

Ilg'or texnologiyalarning keng o'zlashtirilishi, uzuksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, o'quvchilarning qobiliyatları va imkoniyatlariga muvofiq ravishda, ta'limga, tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari va zamonaviy o'quv - uslubiy majmualarning yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishda o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga asos bo'lmoqda.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy - jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ta'limda didaktik o'yinlar vositasida darslarni olib borish bolaning aqliy faoliyatga tezroq kirishishlari va adaptatsiya hosil qilishlariga ham ko'mak beradi. Yangi dars boshlanganda yoki o'tgan darsni mustahkamlash paytida didaktik o'yinlardan foydalanib, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalaniladi va alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda. Umumiyo'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ishlataladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar ta'lim- tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini borishi bilan alohida o'ringa ega.

Darslarni didaktik o'yinlar orqali quyidagicha tashkillashtirish mumkin:

Ishchanlik o'yin darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi.

Rolli o'yin darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rolni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustaxkamlash darsi.

Teatrlashtirilgan dars - dars mavzusini bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish darsi.

Kompyuter darsi - tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o'quv kursi va shu kabilalar) asosida o'tiladigan dars.

Kim oshdi savdosi darsi - o'quv fani ayrim bo'limi bo'yicha bilimlarni har bir o'quvchi qanchalik ko'p bilishini namoyish etish darsi.

Yarmarka darsi - dars mavzusini bo'laklar bo'yicha oldindan o'zlashtirish o'quvchilarning o'zaro muloqat asosida sinfga qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan dars.

Tayanch tushunchalar darsi - o'quvchilarning faoliyatidan tayanch tushunchalarni puxta o'zlashtirishlari bo'yicha turli o'yinlar shaklidagi mashqlar o'tkazish darsi.

O'yin darsi - dars mavzusiga mos o'yin orqali o'quvchilarning o'zlashtirishlarini tashkil etish darsi.

Sud darsi - o'quvchilar bilan dars mavzusiga mos "sud" jarayonini tashkil etish orqali yangi mavzuni tashkillashtirish darsi.

Konsert darsi - dars mavzusini sahnalashtirgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Tergovchi bilimdonlar olib boradigan darsi - dars mavzusini oldindan puxta o'rgangan o'quvchilar yordamida qiziqarli savol - javoblar, tahlillar asosida isbotlab, tushuntirish mashqlari



bo'lib, bunda o'quvchilar dars mavzusini o'zlashtirib eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadilar.

Integral (integratsiyalangan) dars - bir nechta(musiqa, tarix, adabiyot va h.k.) fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib, o'quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib ta'lim jarayonidagi faoliyklarini taminlaydi. Bunday darslar o'quvchilarga fanlararo bog'lilikni o'rgatish orqali ularda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantirishga hizmat qiladi.

Mo'jizalar maydoni darsi o'quvchilar bilan o'tkaziladigan qiziqarli o'yinlar bo'lib turli savol-larga belgilangan vaqt davomida to'g'ri javoblar topish va g'oliblarni rag'batlantirish orqali o'quvchilarda fikrlash, topqirlik va ziyraklik, bilimlarni kengaytirib borish sifatlarini shakllantiradi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olish va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab syujetli- rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yinli, konfrensiyalar o'yin mashqlariga ajratish mumkin. O'qituvchi - pedagog avval o'quvchilarni individual (yakka tartibdagi) so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatlari chiqandan so'ng esa ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim. Chunki o'quvchilar didaktik o'yinli mashg'ulotlarda faol ishtirok etishlari uchun zaruriy bilim, ko'nikma malakalarga ega bo'lishlari, bundan tashqari guruh jamoasi o'rtasida hamkorlik, o'zaro yordam vujudga kelishi lozim.

Xulosa qilib aytganda ta'lim tizimida didaktik o'yinlardan foydalanish o'qituvchilarning mu-loqot qilish ko'nikma va malakalarini, o'zaro yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'quvchilarning bilim saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Didaktik o'yin o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi, dunyoqarashni kengaytiradi, ijodiy fikrlashni, badiiy tasavvurni, xotirani, kuzatishni, sezgini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Atayevava boshqalar. Umumiy pedagogika. T., 2013 y
2. M.Olimova. Ta'lim jarayonidainnovatsion texnologiyalardan foydalanish-kunning dolzarb muammolaridir. Metodik qo'llanma.
3. A. Zunnunov, U.Maxkamov. Didaktika (Ta'lim nazariyasi). T., Sharq, 2006y.



**UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABALARIDA INFORMATIKA FANI MAZMUNI VA
O’QITISH**

Karimova Sevara Matkarim qizi

Xorazm viloyati Urganch shahar
19-sonli IDUMning Informatika va
axborot texnologiya fani o’qituvchisi
Saidova Dilnozaxon Baxtiyarovna

Urganch shahar 29-son umumiy õrta ta’lim
maktabining informatika va axborot
texnologiya fani o’qituvchisi

Kuljanova Farida Kamilovna

Xorazm viloyati Urganch shahar 26-sonli umumiy
o’rta ta’lim maktabning informatika va axborot
texnologiya fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola informatika fanini o’qitish uning hozirgi kundagi vazifalari
haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so’zlar: ta’lim, o’quvchi, informatik, kompyuter

Mamlakatimiz ta’lim tizimida o’quv jarayonini texnologiyalashtirish natijasida uzlusiz ta’lim
va davlat standartlarini kafolatli amalga oshirishga zamin yaratildi. Bu imkoniyatlarni hayotga
tadbiq etish ko’p qirrali muammo bo’lib, ta’lim tizimining har bir bosqichida, shu jumladan,
umumta’lim maktablarida fanlarning mazmunini talab darajaga yetkazish va o’ziga xos o’qitish
metodikasini yaratishni taqozo etadi.

Umumta’lim maktablarida Informatika fanining o’qitilishi o’quvchining ta’limiy, tarbiyaviy
va kasbiy tayyorgarligidagi ahamiyati yuqori bo’lib, keyingi kasbiy faoliyatlarida albatta
kompyuterlar yordamida amaliy ishlarni bajarishlariga to’g’ri keladi. Buning uchun o’quvchilarning
informatikadan olgan bilim va ko’nikmalari, kompyuterning amaliy dasturlaridan foydalanish
darajasi yuqori bo’lishi lozim.

Ta’lim tizimi butunlay yangi mazmun kasb etayotgan hozirgi davrda har bir fanning mazmunini
qayta tahlildan o’tkazish, ta’lim bosqichlari bo’yicha uning uzviyligi va uzlusizligini ta’minalash
asosida tubdan isloq qilish va hayot bilan bog’lash nuqtayi nazaridan yondashuv zarur bo’ladi.

Respublikamizda yosh avlodning o’z faoliyatini rejalashtirishi, qo’ylgan masalani echishga
zarur bo’lgan axborot topa olishi, o’rganilayotgan obyekt yoki jarayonni informatsion modelini
qura olishi va yangi texnologiyalardan unumli foydalana olishi kabi malakalarga ega bo’lishi
uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda.

Zamonaviy kompyuterlarni boshqara olish malakasiga ega bo’lish har bir yosh avlodga zarurdir.
Shuning uchun, umumiy o’rta ta’lim maktablarida Informatika fanining birinchi va muhim
vazifalaridan biri o’quvchilarda aniq bir fikrlash usulini shakllantirishdir.

O’qitish shakli va usuli yosh o’quvchilarning fikrlashini va ijodiy qobiliyatini rivojlantirishga
yo’naltirilgan bo’lishi lozim. Masalaning qiyin tomoni shundaki, bir tomonidan o’quvchining
fikrlashini va ijodiy qibiliyatini rivojlantirish bo’lsa, ikkinchi tomonidan ularga zamonaviy
kompyuterlar olami haqidagi bilimlarni qiziqarli va uyg’un ko’rinishda berishdir.

Informatika fanining yoshlik darajasidagi dolzarblik jihatlari quyidagilarda akslanadi:

- O’quvchilarda axborotlarni qayta ishlash jarayonida fikrlash tartibotlarini, jumladan, mantiqiy
va abstrakt fikrlashni shakllantirish.

- Kompyuterdan o’quv vositasi sifatida foydalanishni ta’minalash maqsadida, uning yordamida
axborot ustida amaliy ishlar olib borish, zamonaviy dasturiy ta’minot bilan tanishish.

- Yoshlarda hisoblash texnikasiga nisbatan uning samarali vosita sifatidagi jobiy munosabatlarni
shakllantiridi.

Kompyuter o’quvchilarning ijodiy va abstrakt fikrlash darajasi yaxshiroq tushunish, o’z
navbatida keng va chuqur rivojlantirish imkonini beradi. Ma’lumki, bunday fikrlash uyg’unligi
matematika va boshqa fanlarni o’zlashtirishga katta ta’sir ko’rsatadi.

Informatika fanining boshqa fanlarga o’xshamasligi o’quvchilarda yoqimli o’yin kabi tasavvur
qoldirishi bilan birga, o’z ijodiy qibiliyatlarini ochilishlariga turki bo’lib xizmat qiladi. O’quvchilar



kompyuterda ishlab izlanuvchi va tadqiqotchiga aylanishadi.

Bunda o’z tajribalariga tayangan holda ular xulosa chiqarish va umumlashtirishga o’rganadilar.

Informatikani o’qitish shakllar zamonaviy axborot texnologiyalarini o’quv jarayoniga qo’llashga qaratilgan bo’lib, asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- o’qitishni intensivlashtirish (jadallashtirish);
- o’qitishni ko’rgazmali tashkil qilish;
- o’quvchilarning bilim darajalariga qarab o’qitishni tashkil etish.

Mashq va masalalar tizimida informatika o’quv predmeti dasturida ko’rsatilgan ma’lum bilimlar tizimini chuqur tushunish va mustahkam o’zlashtirish hamda tegishli malakalarni hosil qilish uchun yetarli miqdorda bo’lishini ta’minlash lozim.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, informatika o’qitishni shakllantirish va o’quvchilarda fanga bo’lgan qiziqishlarini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni dars faoliyatiga tatbiq etish eng muhim masala bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Azizzxojaeva N.N. Pedagogik taxnologiya va pedagogik maxorat.-T 2003
- 2.Golish S.V. Ta’limning faol usullari:mazmuni,tanlash va amalga oshirish.Ekspress qo’llanma.-T 2001



RUS TILI FANINI O'QITISHDA INNOVATSION USULLARNI QO'LLASH

Madaminova Saida Rajabovna
Xonqa tuman 24- son maktabning
rus tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Bu maqolada rus tili innovatsion usullarni qo'llashda dars o'qitilganda sinfda qoloq, mavzuni o'zlashtirmaydigan o'quvchini ham o'ziga jalb qilishi va darsni juda qiziqarli o'tishiga qaratilgan ma'lumotlar qamrab olgan.

Kalit so'zi: o'yin, o'quvchi, mavzu,

Bugungi kunda rus tili fanini o'rganishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodni rus tili fanini chuqurroq o'rganish imkonini bermoqda. Rus tili fanini o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalarning ahamiyati bo'lajak rus tili o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish, pedagogik tafakkurini kengaytirish, ularda fanni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun zarur bo'lgan metodik bilim, ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Ta'lim-tarbiya faoliyatining mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o'tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashmoqda. Hozirda inson faoliyatdan ko'zda tutilgan maqsadlarni to'liq amalgaga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimga, ya'ni "texnologiya" ga aylanib bormoqda. Shu asosda ta'lim-tarbiya sohasida so'nggi davrda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Darslarni o'tishda bugungi kundagi o'quvchilarning qiziqishi, orzulari, imkoniyatlariga katta e'tibor berish lozim. Buning uchun birinchi navbatda o'qituvchining o'zi ham mohir ustoz bo'la olishi kerak. Shundagina o'quvchilarning qalbiga yo'l topa olsa bo'ladi.

"Tez javob" o'yini - o'qituvchi yoki boshlovchi qator oralab yurib, o'quvchilardan birini turg'izadi va qandaydir nomni aytadi. O'quvchi shu turga kiruvchi javob topib aytishi lozim. Javob uchgacha sanagunga qadar aytilishi kerak. Javob berolmagan o'quvchi o'yindan chiqadi. Masalan, o'qituvchi biror ot nomini aytsa, o'quvchilar ham otlarga misollar keltirishi kerak. Bunday o'yin davomida o'quvchilarda hozirjavoblik, mustaqil fikrlash malakalari rivojlanadi, ular atrof-muhitni sinchkovlik bilan kuzatishni o'rganadi, atrofdagi bo'layotgan voqealari – hodisalarga qiziqishi ortadi.

"Tushunchalar tahlili" metodi - bu metodning maqsadi o'quvchilarning darsda o'tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirib olganlik darajalarini aniqlashdan iborat bo'lib, u o'quvchilarga o'z bilimlarini erkin bayon eta olish, yakka va guruhda ishlay olish, sinfdoshlari fikrlariga hurmat bilan qarash, o'z bilimlarini bir tizimga solishga o'rgatadi.

"Rotatsiya" (aylanma) metodi - bu metod mashg'ulot mazmunini har bir kichik guruh alohida-alohida muhokama qilib chiqishi va yozganlarini butun guruhga tahlil qilib ko'rishi uchun qo'llaniladi. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi uchun qulay ijtimoiy-psixologik do'stona muhitni yaratishning pedagogik shart-sharoitlari vujudga kelgandan so'ng mazkur muhitni yanada mustahkamlash maqsadida fan asoslarini o'qitish pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Har qanday pedagogik texnologiyaning o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi shaxsiy tabiatdan kelib chiqqan holda, o'quvchini ovqitayotganligi va o'qituvchi kimni o'qitayotganligiga bog'liq.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchi innovatsion faoliyatga tayyor bo'lib, darsga eng so'ngi yangiliklarni olib kirib, o'quvchiga qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlashi mumkin. Bunday sharoitda o'qituvchi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha mushohada yuritishga, muammolarni o'z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Interfaol usullarda darsni tashkil etishda o'quvchi shaxsini rivojlantirishni o'ziga o'zi zamin yaratishdan boshlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Беспалько, В.П. Следственные педагогические технологии. - М: 1989. - 192 с.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. - T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.



NEMIS TILI FANINI O'QITISHDA OG'ZAKI VA YOZMA NUTQ BOYLIGIGA ERISHISH

Madaminova Mashhura Abdullayevna.

Xorazm viloyati Bog'ot tuman
26-sod maktab nemis tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada chet tilini o'rganishda og'zaki va yozma nutq boyligiga qanday erishish metodlari darsliklardan keltirilgan qisqa parchalar yordamida yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: til xususiyatlari, ijodiy matn, tasavvur, tahrir, ko'nikma, og'zaki bayon, qobiliyat, layoqat.

Chet tili darslarida o'quvchining nutq savodxonligi, so'z boyligi, chet tilida so'zlashish ko'nikmasini shakllantirish o'qituvchilar oldida turgan asosiy vazifa hisoblanadi. Bunda kichik badiiy matnlardan—ertak va kichik hikoyalardan, gazeta va jurnallarda berilgan kichik parchalardan foydalanib og'zaki va yozma nutqni o'stirish muhim omillardan sanaladi. Badiiy matnlar asosidagi mashqlar o'quvchilarning fikrlash layoqatini shakllantirishga yordam beradi. Nemis tili darslarida mashq materiali sifatida keltirilgan badiiy matnlarning til xususiyatlarini o'rganish shunchaki badiiy nutqning tuzilishi, matnda kelgan so'zlarning antonimlari va sinonimlari bilan tanishishgina iborat emas. O'quvchi badiiy matnlarda o'zi yaratadigan matn uchun andoza sifatida qarasagina, ularning o'rganishning amaliy ahamiyati namoyon bo'lib, ta'limiy samarasi ortadi. Shu bois ba'zan matnni tarjimasidan so'ng o'quvchilarga o'zлari yozadigan ijodiy matngda tanishgan matnda foydalanilgan so'zlarning sinonimlaridan foydalanish, oz bo'lsa-da o'z hissiyotlarini aks ettira bilishlari maqsadga muvofiq. Bunda og'zaki va yozma nutqni o'stirish , nutq madaniyatini rivojlantirishga doir quyidagi ish turlarini amalga oshirish mumkin:

- 1) Badiiy matn mazmunini qayta hikoya qilish;
- 2) Badiiy matn namunasidan foydalanib, biror mavzuda og'zaki hikoya qilish;
- 3) Badiiy matn asosida ijodiy matn yaratish;
- 4) Matnni tahrir qilish;
- 5) Matn mavzusini e'lon qilish va mavzuga oid material to'plab, matn yaratish;
- 6) Nutq o'stirishda qo'shiqlardan foydalanish;

Quyida ana shu ish turlarini tashkil etish bo'yicha qisqacha so'z yuritamiz.

1. Og'zaki nutqni o'stirishda badiiy matn mazmunini qayta hikoya qilish nutq o'stirishda muhim rol o'ynaydi. Buni amalga oshirishda darsliklarda berilgan, badiiy adabiyotlarda berilgan hajman kichik bo'lган matnlarni tanlangan ma'qul. Masalan, 5-sinf “Nemis tili” darsligidagi quyidagi matnni qayta hikoya qilishni topshirish mumkin:

1896 kamen die 295 besten Athleten aus 12 verschiedenen Landern zu den erste olimpieshen Spielen der neuzeit nach Athen. Damals gab es nur zehn sparten im program. Bie den darauffolgenden Sommerspielen anderte sich das Olympische Programm, und von diezen zehn blieben nur vier Disziplinen ubrig (Leichtathletik, Fechten, Turnen, und Schwimmen). Im Programm der Olympischen Spiele 2000 in Sydney gab es schon 32 Sportarten, darunter solche wie Wasserspringen, Schiesen, Synchronschwimmen, rhythmische Sportgymnastik und Gewichtheben. Bei der olympiade trafen sich 10.200 Sperler aus 199 Landern, darunter auch Sportler aus Usbekistan.

Qayta hikoya qilishning kommunikativ jihatni nutq orqali tinglovchilarda biror ta'sir o'tkazishdir. Shu bois o'quvchilarga matn mazmunini ta'sirchan qilib yetkazishga harakat qilish vazifasi topshiriladi.

2. Badiiy matn namunasidan foydalanib, biror mavzuda hikoya tuzish. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga avvalgi dasrlarda o'qilgan matnlardan andoza olish mumkinligini ta'kidlab, ularning tasavvurlarini ishga tushiradi. O'quvchilarning ko'z o'ngida gavdalangan odam, narsabuyum, o'rinn-joy, voqeа yoki hodisa og'zaki bayon uchun material to'plashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Og'zaki bayon ko'pi 10 gap hajmida bo'ladi. Bu tanlangan mavzuga ham bog'liq. Masalan, birinchi matn mavzusi o'quvchilar mustaqil ravishda tuzadigan ikkinchi gap mavzusiga yaqin bo'lishi mumkin: “Meine Familie”—“Mein Dorf”, “Unsere Schule”—“Unsere Klasse”. Bu topshiriqni bajarishda o'quvchi bevosita birinchi matnda qatnashgan so'zlardan foydalanishi mumkin.



3. O'qib berilgan matn asosida bayon yozish (tinglab yozish). Bu hikoya qilishning yozma shakli hisoblanadi. Bu jarayonda endi o'quvchining nafaqat nutqi, balki so'zlarning to'g'ri yozish ko'nikmasi ham shakllanadi.

4. Matnni tahrir qilish. Matn shakli kichik bo'ladi. Matnda qatnashgan ba'zi yangi so'zlar, talaffuzi va yozilishi qiyin bo'lgan so'zlar haqida to'xtalib o'tilgach, uning asosida matn tuziladi. Masalan, 7-sinf darsligida berilgan quyidagi matn asosida bayon yozish mumkin:

Das Geheimnis des Chon-Atlas

Der Chon-Atlas ist ein beliebter Seidenstoff in Uzbekistan. Die Legende berichtet Folgendes über die interessante Entstehung dieses Stoffes.

Ein Alter Weber aus Margilan verletzte sich an der Hand, als er sich im Gebirgsbach das Blut von der Hand abwaschen wollte, bot sich ihm ein faszinierendes Bild. Im smaragdgrünen Wasser spiegelte sich die leuchtende goldene Sonne, die grünen Bäume und der blaue Himmel. Dazu kam das rote Blut. Dieses Bild regte ihn dazu an, den wunderbaren Stoff zu weben den es nur hier und nirgendwo sonst in der Welt gibt. Heute kennt man über siebsig verschiedene Chon-Atlas-Muster. Matnna berilgan ba'zi so'zlarning sinonimlari bilan almashib, matn mazmunidagi o'zgarishlar tushuntiriladi.

O'quvchilarning yozgan ishlari tahlil qilinadi va baholanadi.

5. Mavzu e'lon qilinadi va mavzuga oid material to'planadi. Material to'plash uchun o'quvchilarning xayolotini ishga tushirish, boyitish, hissiyat bilan to'yintirish zarur.

Og'zaki bayonga baho berganda ham, matnni tekshirganda ham mazmuning to'liq ochilgani, so'zlardan unumli foydalanganligi, matnni ifodaliligi va boshqalar hisobga olinadi.

Tahrir uchun o'quvchilarning yozgan insholari, tuzgan matnlari olinadi. Insho, matn yoki bayon o'qib eshittiriladi va o'quvchilarning fikri tinglanadi. Tahrir ishlari sinda og'zaki, uyda yozma tarzda bajariladi.

Nutqiyo ko'nikma so'zlarni o'rganish, xatolar ustida ishslash, matnni tahrir qilish jarayonida shakllanadi. Ushbu ishlardan so'ng o'quvchilar uyda kichik matn yozib keladilar. Keying darsda uyda tuzilgan matn katta qiziqish bilan o'qiladi. O'quvchi qo'shimcha ravishda yozganlarini hikoya qilib berishi mumkin.

6. Nemis tili darslarida qo'shiqlardan foydalanish mashg'ulotni qiziqarli olib borilishi, shuningdek yaxshi samara berishiga omil bo'ladi. Qo'shiqnini tinglash jarayonida matnni to'ldirish, misra va qatorlarni tartibga keltirish, tinish belgilarini joyiga qo'yish kabi mashqlar o'tkazilsa, qo'shiq tinglab bo'lgach, qo'shiqqa sarlavha qo'yish, qo'shiq matni ustida mini dialog tuzish, qo'shiqchiga maktub yozish kabi mashqlarni o'tkazish mumkin.

Xullas, o'quvchilarda matn tuzish qobiliyatini shakllantirish yuzasidan amalgalashiriladigan ishlarni badiiy ijod sir-asrorlari bilan izchil tanishtirish, ijodiy matn yaratish layoqatini oshirish, nutq boyligini rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.Xodjayev, M.Qahhorova. "Chet tilini o'qitish metodikasi". Toshkent 2013 yil.
2. Djalolov Dj.Dj. Problemi soderjaniya obucheniya inostrannomu yaziku. Toshkent 1987 yil.
3. O'rta maktab 5, 7-sinf "Nemis tili" darsliklari.
4. Internet ma'lumotlari.
5. Sh.Abdullayev, FarDU nemistiliyo'nalishi magistranti, So'xtumani 1-son ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi o'qituvchisi.



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA INTERFAOL USULLARNI QO’LLASH ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Maxmudova Dilnoza Jumanaliyevna,
Ermatova Nigora Murotaliyevna,
Maxmudova Dilshoda Shuhratovna

Farg’ona viloyati Beshariq tumani
32- umumiy o’rta ta’lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o’qituvchilari

Annatasiya: O’qituvchi darsga tayyorgarlik ko’rish mobaynida o’quv vositalarini dars mavzusiga qarab tanlaydi va asosiy e’tiborni qo’llaniladigan metodlar va o’quv vositalariga qaratadi.

Kalit so’zlar: –“Klaster”, “Aqliy hujum”, ”Debat”, Muammoli vaziyat”

O’qituvchi har bir mavzuga mos yangi usullar va texnik vositalardan o’z o’rnida **va unumli foydalana olsa**, shundagina ko’zlagan maqsadga erisha oladi. Bu esa o’quvchilarni **mustaqil bilim olishga**, berilgan aniq mavzu bo’yicha atroficha fikrlashga va ijodiy faol bo’lishga yo’naltiradi. Hozirgi kunda keng qo’llaniladigan usullar –“Klaster”, ”Aqliy hujum”, ”Debat”, Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, o’qituvchilar darsda samarali natijalarga erishmoqda. Dars davomida mavzu yuzasidan kelib chiqqan muammolarni innovatsion texnologoyalarni qo’llash orqali oson yechimini topish mumkin.

O’qituvchi o’quvchilarning darsdagagi faoliyatini aniq bir maqsadga yo’naltirishi, har bir dars puxta rejalashtirilishi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi lozim. O’qituvchi doimiy ravishda o’quvchilarni o’rganilgan mavzu yuzasidan **fikr bildirishga undashi, taklif va mulohazalarni**, iste’dodini namoyish qilishga bo’lgan urinishlarini qo’llab quvvatlashi, buning uchun sharoit va imkoniyat yaratib berishi lozim.

Ona tili va adabiyot darslarida ham zamonaviy usullardan foydalanish o’quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. “Nihol o’stiramiz” usuli orqali yangi mavzuni mustahkamlash mumlin. Bunda dars boshida o’quvchilarini guruhlarga bo’lib olamiz. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida har bar guruhga 1 donadan oq qog’oz beriladi. O’quvchilar bu usul asosida yangi mavzu bo’yicha olgan bilimlarini mustahkamlashadi o’quvchilar oq qog’ozga nihol chizadi va niholni parvarishlab o’stiradi.

O’quvchilar yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlari bilan niholni parvarishlaydi. Har bir olgan ma’lumot bilan niholda bitta shox paydo bo’ladi. Shu tariqa nihol bir daraxtga aylanadi va o’qituvchiga o’quvchilar yangi mavzuni qay darajada o’zlashtirganini aniqlashga qulaylik yaratadi. Bunda o’quvchilarning tasviriy san’at faniga bo’lgan qiziqishi ortadi, daraxtni qay darajada tasvirlashi orqali ularning fikrlashini rivojlantirib boradi. Sho’ir yoki adibning hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlarni o’quvchilar qay darajada eslab qolganini, shu bilan bir qatorda uning yaratuvchanlik menatsevarlik qobiliyatları shakllanib boradi. O’quvchilarning tabiatga bo’lgan **mehr-muhabbati ortib boradi**.

Ona tili va adabiyot darslarida ham zamonaviy usullardan foydalanish o’quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda yaxshi samara beradi. “Nihol o’stiramiz” usuli orqali yangi mavzuni mustahkamlash mumlin. Bunda dars boshida o’quvchilarini guruhlarga bo’lib olamiz. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida har bar guruhga 1 donadan oq qog’oz beriladi. O’quvchilar bu usul asosida yangi mavzu bo’yicha olgan bilimlarini mustahkamlashadi o’quvchilar oq qog’ozga nihol chizadi va niholni parvarishlab o’stiradi.

O’quvchilar yangi mavzu yuzasidan olgan bilimlari bilan niholni parvarishlaydi. Har bir olgan ma’lumot bilan niholda bitta shox paydo bo’ladi. Shu tariqa nihol bir daraxtga aylanadi va o’qituvchiga o’quvchilar yangi mavzuni qay darajada o’zlashtirganini aniqlashga qulaylik yaratadi. Bunda o’quvchilarning tasviriy san’at faniga bo’lgan qiziqishi ortadi, daraxtni qay darajada tasvirlashi orqali ularning fikrlashini rivojlantirib boradi. Sho’ir yoki adibning hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlarni o’quvchilar qay darajada eslab qolganini, shu bilan bir qatorda uning yaratuvchanlik menatsevarlik qobiliyatları shakllanib boradi. O’quvchilarning tabiatga bo’lgan mehr-muhabbati ortib boradi

Adabiyotlar:

G’ulomov A., Ne’matov X. onatili ta’limi mazmuni. Toshkent, “O’qituvchi”, 1995 yil.

1. Roziqov O., Og’ayev S., Mahmudov M., Adizov B. Ta’lim texnologiyasi. Toshkent, “O’qituvchi”, 1999 yil.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000